

Lot. 74. 100 yil
T-11.

LX TO'RAQULOVA

**MAKTABGACHA TA'LIM
MUASSASALARIDA
MA'NAVY - MA'RIFIY ISHLAR**



TOSHKENT

Lot. 74. 100 yotib
T.M.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

I.X. TO'RAQULOVA

**MAKTABGACHA
TA'LIM MUASSASALARIDA
MA'NAViy-MA'RIFIY ISHLAR**

120 13/2

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI
AXBOROT RESURC MARKAZI
QABUL QILISH YIG'ISH VA
KATALOGLASH BO'LIMI

TOSHKENT – 2013

HO'K: 373.2 (075)

KBK 74.100

T-97

T-97 L.X.To'raqulova. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar. –T.: «Fan va texnologiya», 2013, 180 bet.

ISBN 978-9943-10-856-1

Ushbu o'quv qo'llanmada maktabgacha ta'lim muassasalaridagi bolalar ma'naviy – axloqiy tarbiyasining mazmun – mohiyati ochib berilgan va ularni tashkil etish ilmiy – uslubiy jihatdan asoslangan hamda tarbiyachi va murabbiylarning metodik tayyorgarliklarining ilmiy-metodik asoslari yoritilgan.

O'quv qo'llanma maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlari va ot-onalar uchun mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

J.Hasanboyev – pedagogika fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Jumanazarov U.A – Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax Davlat pedagogika instituti «Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va amaliyoti» kafedrası mudiri, professor;

Abdurasulov R.A – Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax Davlat pedagogika instituti «Maktabgacha ta'lim nazariyasi va amaliyoti» kafedrası mudiri;

Ochilova G – Jizzax shahri, «Orzu» nomli maktabgacha ta'lim muassasasi metodisti:

Mazkur o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lim Vazirligi Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax Davlat pedagogika instituti Ilmiy kengashi qarori bilan nashr etildi (№5 29-dekabr 2012-y).

ISBN 978-9943-10-856-1

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2013.

KIRISH

Hozirda ota – bobolarimiz orzu qilgan kun keldi va uning soyasida farzandlarimiz o‘sayapti. Ya’ni, bugungi mustaqillik farzandlariga Mustaqil Vatan bag‘rida tug‘ilib, unib – o‘sib, kamol topib bormoqlik amalga oshmoqda va farzandlarimizni chin ma’nodagi toza havodan nafas olish, musaffo osmon ostida yashash baxtiga muyassar bo‘lganligini komil ishonch bilan ayta olamiz. Shuning bilan birga Davlatimiz tomonidan barkamol shaxs tarbiyasi asosida barkamol avlodni shakllantirish kabi ustuvor vazifani uzluksiz ta’lim tizimi oldiga qo‘ymoqda. Buning amalga oshishida dastlab yoshlar ongiga ma’naviyatli odam, madaniyatli kishi, milliy – ma’naviy qadriyatlar va shu kabi tushunchalar hamda ularning mazmun – mohiyatlarini singdirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunga sabab ular orqali yoshlar ongida ozod va obod Vatan, mustaqil davlatning o‘ziga xos yo‘li, o‘z – o‘zini anglash, intellektual salohiyatli barkamol shaxslarni tarbiyalashga erishish mumkin.

Ma’lumki, milliy tarbiyada milliy qahramonlari, Davlat arboblari, donishmandlarning turmush tarzi, ilohiy va muqaddas kitoblardagi inson tarbiyasiga oid (bola tarbiyasiga oid rivoyatlar, hikoyatlar, hikmatlar va shu kabilar) didaktik materiallar qimmatli manba bo‘lib hisoblanadi. Donishmandlarning ibratli turmush tarzi, hayotiy pand nasihatlarini xalq pedagogikamizning asosini tashkil etadi. Ota – bobolarimizning har bir purmano fikri avloddan avlodga sayqallashib bizgacha yetib kelmoqda. Ular milliy tarbiyada muhim ma’naviy didaktik asos bo‘la oladi. Quyida shunday o‘gitlardan biri bo‘lmish imorat qurishdagi fikrni va uning uzluksiz ta’lim tizimiga qiyosini keltiramiz.

«Halqimizda devor qiyshiq bo‘lsa, u qulaydi», degan gap bor. Devorning qiyshiq bo‘lishi esa, uning dastlabki terilayotgan g‘ishtlarning qanday taxtlanishiga bog‘liq.

Maktabgacha ta’lim muassasi uzluksiz ta’lim tizimining birinchi turi, ya’ni dastlabki bosqichidir. Bugungi kunda Davlatimiz uzluksiz ta’lim tizimi oldiga ma’naviy yetuk va intellektual salohiyatli barkamol avlodni shakllantirishdek muhim vazifani qo‘ymoqda. Bu muhim vazifani bajarishning dastlabki bosqichi maktabgacha ta’lim muassasalari (MTM)da amalga oshiriladi va unda ijodkor, ijtimoiy faol,

ma'naviy jihatdan boy shaxsni shakllantirishga qaratiladi. Bunga davlatimiz tomonidan katta e'tibor berilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunni 10 va 11 moddolari ham aynan MTM siga bog'liq, ya'ni 10 – moddada ta'lim tulari sanab o'tilib, uning birinchi turi – «Maktabgacha ta'lim» ekanligi ta'kidlangan va 11 – moddasida esa «Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlanadigan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Bu ta'lim olti – yetti yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mulk shaklidan qat'iy nazar boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi», - deb alohida ta'kidlangan. Shuningdek, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ham maktabgacha ta'lim – uzluksiz ta'lim tizimning birinchi turi ekanligi qayd etilib, unda maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim – tarbiya jarayonini olib borishga qo'yilgan zamonaviy talablar aks ettirilgan. U talablarni amalga oshirish uchun maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni sog'lom, ma'naviy jihatdan yetuk va barkamol shaxs bo'lib shakllanishiga, o'qishga bo'lgan havaslarini o'yg'otishga, muntazam ravishda ta'lim olishlariga imkoniyat yaratish lozim bo'ladi va u maktabgacha ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi.

Mazkur o'quv qo'llanmada ham maktabgacha ta'lim muassasalaridagi bolalar ma'naviy tarbiyasida xalqimizning asriy an'ana va qadriyatleri, boy ma'naviy merosidan foydalanish masalalari qaraladi va shu asosda ularga ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan intellektual mulkini asrab avaylash, muqaddas burch ekanligi uqtiriladi.

Shuningdek, o'quv qo'llanmada bolalar ongu tafakkurini, dunyo-qarashini va eng asosiysi ularning mafkuraviy immunitetini shakllantirishga asos solinishiga ham katta e'tibor berilmoqda.

Ushbu o'quv qo'llanma «Oilada ma'naviy tarbiya asoslari» nomli o'quv qo'llanmaning bevosita davomi bo'lib, unda maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga ma'naviy tarbiya berishning pedagogik asoslari qaraladi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida pedagogik xodimlarining kasbiy tayyorgarligidan boshlab, «Ma'naviyat saboqlari» mashg'ulotlarini tashkil etishning ilmiy – metodik asoslarigacha to'liq tadqiq etildi.

Qo'llanmada «Ma'naviyat saboqlari» mashg'ulotlari bo'yicha ayrim mavzularning innovatsion ishlanmalari, mavzularning namunaviy ro'yxatlari va ma'naviy ishlar bo'yicha amalga oshiriladigan rejalar hamda mazkur yo'nalishdagi mashg'ulotlarni olib borishga oid didaktik materiallar ham berilgan. Bu qayd etilganlar maktabgacha ta'lim

muassasalarida tarbiyalanuvchining dunyoqarashini, ma'naviy qiyofasini va intellektual salohiyatini yuksaltirishga yordam beradi, degan umiddamiz.

Mazkur o'quv qo'llanma to'g'risidagi fikr - mulohazalarni muallif mamnuniyat bilan qabul qiladi.

Bizning manzil:

708000, Jizzax shahri,

Sharof Rashidov shoh ko'chasi,

Jizzax davlat pedagogika instituti.

Muallif

I BOB. MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA BOLALARGA MA'NAVIY TARBIYA BERISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

1.1. Maktabgacha ta'lim muassasalari va ularda bola tarbiyasining maqsad va vazifalari

«Rahbarlik – bu shaxsning o'ziga biriktirilgan muassasasini (jamoasini) maqsadli boshqarishga bo'lgan javobgarligidir, bu shaxsga berilgan mukofot emas, balki u mas'uliyatli vazifadir».

Xolbo'ta To'raqulov

O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunining 10-moddasida va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da maktabgacha ta'lim – uzluksiz ta'lim tizimining birinchi turi ekanligi qayd etilgan. Shuningdek, maktabgacha ta'lim to'g'risida «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning 11-moddasida ham «Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga

tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi.

Bu ta'lim olti – yetti yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mulk shaklidan qat'iy nazar boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi», deb ta'kidlansa, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da «maktabgacha ta'limning samarali psixologik usullarini izlash va joriy etish», degan talabni qo'yadi [5, 6].

Maktabgacha ta'lim bola 6 – 7 yoshga yetguncha oilada hamda davlat yoki nodavlat MTM ida amalga oshiriladi.

YuNESKO qarori bilan 1997 yilda «Maktabgacha ta'lim» uzluksiz ta'lim tizimining birinchi bosqichi sifatida kiritildi. Oldingi «Maktabgacha tarbiya» termini «Maktabgacha ta'lim» bilan almashtirildi.

Sir emaski, bugungi kunda uzluksiz ta'lim tizimiga mamlakatimizda katta e'tibor qaratilgan. Buni butun dunyo rivojlangan mamlakatlari tan olmoqda. Bunga sabab Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov O'zbekiston kelajagini qurishda asosiy ishtirokchi bo'ladigan bolalarni yuksak ma'naviyatli qilib tarbiyalashga katta e'tibor bermoqda. Jumladan, uning «Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch» nomli asarida

ham «Ko'p yillik ilmiy kuzatish va tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson o'z umri davomida oladigan barcha informasiyaning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrda olar ekan.

Bolaning ongi asosan 5 – 7 yoshda shakllanishini inobatga oladigan bo'lsak, aynan ana shu davrda uning qalbida oiladagi muhit ta'sirida ma'naviyatning ilk kurtaklari namoyon bo'la boshlaydi», deyilgan [2].

Ushbu fikrlar nafaqat oila va oila muhitiga taalluqli, balki MTM dagi ta'lim – tarbiya jarayonining barcha jabhalariga tegishli. Chunki, bolalarning intellektual salohiyatini shakllantirishning eng muhim – boshlang'ich bosqichi ham aynan 5 – 7 yoshdagi bolalarga to'g'ri keladi. Buning isbotini mazkur tadqiqot ishining 3 – bobidagi «Iste'dodli bola xonadoningizda» mavzusidagi oila darsi mashg'ulotlariga e'tibor berish orqali topasiz.

Maktabgacha ta'lim muassasasini tashkil etishdan **asosiy maqsad** bolalar ta'lim – tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq keladigan hamda har tomonlama yetuk va sog'lom bolalarni tarbiyalash uchun zaruriy tashkiliy, uslubiy, psixologik, pedagogik shart – sharoitlar yaratish va bolalarni maktabda muntazam ravishda ta'lim olishga tayyorlashda ota – onalarga yordam berish.

MTM ning **asosiy vazifalari** quyidagilar:

- bolalar sog'lig'ini mustahkamlash va ularning hayotini muhofaza qilish;

- bola shaxsiga munosabatni shakllantirish;

- bolaning ma'naviy, jismoniy va intellektual rivojlanishiga hissa qo'shish va ularning bilimga qiziqishini rivojlantirish hamda mehnat ko'nikmalari elementlarini shakllantirishga ko'maklashish;

- bolalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarini hurmat qilishga o'rgatish;

- bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash;

- O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan yoki tavsiya qilingan dasturlar asosidagi ta'lim mazmunini amalga oshiradi.

MTM quyidagi turlarga bo'linadi:

- umumiy tipdagi MTM (davlat va nodavlat MTM);

- ixtisoslashtirilgan MTM;

- sanatoriy tipidagi MTM.

Demak, maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining birinchi turi bo'libgina qolmay, balki u ijodkor, madaniyatli, ma'naviyatli, ijtimoiy

faol, fidoyi, ma'naviy jihatdan yetuk shaxsni shakllantirishning asosi hisoblanadi.

1.2. Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi pedagogik kasb xodimlarining shaxsiy xislatlari

«Tarbiyachi murabbiyi o'z vazifasining o'ta mas'uliyatli bo'lishini sezishi bilan birga, unga mos ilmi, bilimli bo'lishga erishish barobarida madaniyatli va ma'naviyatli bo'lishiga ham doimo harakatda bo'lishi kerak».

Xolbo'ta To'raqulov

MTM da bola odatda jamoada faoliyat yuritishga tayyorlanadi va ushbu jarayonda inoqlashuv davrini ham olg'a suradi. Ayniqsa, bolalar o'z murabbiylari va tarbiyachilarini diqqat bilan kuzatadi. O'z navbatida tarbiyachilar va murabbiylar ham bolalarni nima qila olishlarini, nimani bilishlarini, ijodiy bilimlari bormi

yoki yo'qmi, mehnatsevarmi yoki yo'qmi kabi nuqtai nazarlardan o'rganadilar. Bunday holatlarda murabbiy va tarbiyachilarning **asosiy vazifasi** – hamisha ijodiy, sinchkov va tashabbuskor bo'lishdan iborat bo'lib, ularning asosiy shiori tarbiyalash, o'qitish, o'rgatish va o'rganishdir.

Har bir o'tkazilayotgan mashg'ulotning maqsadi aniq bo'lishi kerak va uni bolalarga «..... ni amalga oshiramiz», deb aniq tushuntirish kerak. Belgilangan maqsadni amalga oshirishda tarbiyachi yoki murabbiy bolalar bilan birgalikda faol muloqotli faoliyat yuritish kerak. Ana shunday o'zaro faol jarayonlarning nechog'lik samarali bo'lishi murabbiy va tarbiyachilarning shaxsiy xislatlariga bog'liq bo'ladi.

Bu borada MTM da faoliyat yurituvchi pedagogik kasb xodimlariga zarur bo'lgan shaxsiy xislatlarni shartli ravishda quyidagi yo'nalishlarga bo'lish mumkin:

1. Bolalarni sevish va ularni tushuna olishga bog'liq xislatlar.
2. O'z – o'zini nazorat qilish, sabr – toqatli bo'lish, bolaning har qanday holatida unga mos bo'lgan muloyim muomalani qila bilishiga oid xislatlar.
3. Har bir yangi kelgan bolaga «Biz sizni kutgandik, kelishingizdan xursandman» va u kelib qo'shiladigan guruhni ko'rsatib «Mana shu sizning eng yaqin do'stlaringiz» kabi muloyim muomalalarni qalbdan ayta ola bilishiga oid xislatlar.

4. MTM si xodimlari va bolalarni (u qaysi guruhdan bo'lishidan qat'iy nazar) tushuna bilish qobiliyatiga mos xislatlar.

5. MTM xodimlari va bolalarga ta'sir o'tkaza olishga doir xislatlar.

6. MTMda ma'naviyat, ma'rifat, «Zakovat» mashg'ulotlarini samarali olib borishga oid xislatlar.

7. MTM dagi pedagogik kasbga ega xodimlarning ibrat – namuna bo'lishga oid xislatlari.

Shuningdek, MTMdagi tarbiyachi va murabbiylarining shaxsiy xislatlari bola tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning bolalar jamoasidagi vazifalari o'sha jamoadagi bolalar tarbiyasi orqali aniqlanadi. Shu sababli murabbiy va tarbiyachilarning ham shaxsiy xislatlari bola tarbiyasida o'ta muhimdir. Ularni biz quyidagicha ifodalashni lozim topdik:

- bolalar bilan ishlashda, ularning tarbiyasi va rivojlanishiga qiziqish, bolalarni tushunish qobiliyatiga ega bo'lish, ularga ishonch, ularning faollik, havaskorlik, ijodiy qirralarini ochish, shuningdek, tashkilotchilik faoliyatiga bo'lgan katta qiziqish va bu boradagi faolligi, jamoaviy ishlarni tashkil etishda bolalarga ta'sir qila olish, o'z bilim va mahoratini ularga bera olish va ulardagi tashabbuskorlik, javobgarlik hislarini shakllantira olish;

- bolalar jamoasida ishlashga bo'lgan moyillik (bolalarni sevish, ular jamoasini hurmat qilish), bolalar jamoasi shaxs shakllanishining asosi ekanligini anglash;

- bolalarni jamoaviy ijodiy faoliyat usullari bilan tarbiyalashga bo'lgan qiziqish;

- o'z – o'zini boshqara olish, sabr – toqat, tanqidiy va tahliliy fikrlarni to'g'ri qabul qila olish;

- o'z – o'ziga o'ta talabchanlik, o'z – o'zini tanqid qila olishlik, o'z – o'zini nazorat qila olishlik;

- kirishuvchanlik, samimiylik, barcha bilan muloqot qilishga qiziqish;

- bolalar bilan tezda kirishib ketish, ya'ni muloqotda erkinlikka erisha olishlik;

- sezgirlik, sinchikovlik asosida mehribonlik, hamkorlik qila olishlikka oid xislatlar;

- yangiliklarga nisbatan xayrixohlik, ularni tez va o'z vaqtda qabul qila olishlik;

• tarbiya jarayonida bir faoliyat turidan ikkinchisiga muammosiz va qulay (uncha sezdirilmagan holda) o'ta olishlik;

• bolalar dardini seza olishlik va ular bilan qayg'udosh bo'lishlik hamda vaqti kelganda (ular bir muvaffaqiyatga erishganda) birga quvona olishlik;

• o'tkir zehnilik, sezuvchanlik o'z e'tiborini va diqqatini tezlik bilan boshqa biror narsaga qarata olishlik;

• imo – ishoradan unumli foydalana olishlik;

• o'z hissiyotlarini boshqara olishlik;

• o'zini bosib olishlik, o'zini xotirjam ko'rsata olishlik;

• salbiy ruhiy ta'sirlarning (xoholab baqirib kulish, baqirib qo'pol ovoz bilan gapirmaslik, qo'pol muomala qilmaslik, birovni kamsitmaslik, birovni izza qilmaslik va h.k.) madaniy ko'rinishiga ega bo'lishlik;

• murabbiy va tarbiyachilar nutqining ravon hamda aniq bo'lishi (chiroyli gapira olish, o'z ovozi boshqara olish, yaxshi lug'at boyligiga ega bo'lish, nutqining obrazlilik va hayajonlilik) to'g'ridan – to'g'ri «qog'ozsiz» so'zga chiqa olishi va fikrini erkin namoyon qila olish va h.k.).

MTM pedagogik kasb xodimlarining yuqorida qayd etilgan xislatlari, xususiyatlari va fikrlashlari qamrovi bilan birga ularga nutqiy ko'rish va eshitish bo'yicha ham yaxshi xotira kerak. Bunga sabab ular kasbiy faoliyati davomida ma'ruzalar (suhat, savol – javob ko'rinishidagi qisqa ma'lumotlar berish) qiladi; bolalarga buyruqlar, takliflar, tavsiyalar beradi; bolalar va hamkasblarining to'liq ismi shariflarini aytib murojaat qilishlari kerak bo'ladi; bolalar va ota – onalarning yuz ko'rinishlari hamda ismlarini esda saqlab qolishlari hamda ularning tovushlarini tezlik bilan va mustahkam esda saqlab qolishlari kerak bo'ladi; shuningdek, she'r, qo'shiq, ertak, rivoyat va shu kabilarni yodlab va esda saqlash kerak bo'ladi.

Ushbu jarayonda faoliyat yurituvchi tarbiyachi va murabbiylarda yuqoridagi xislatlardan tashqari **psixofizologik** xususiyatlar ham kerak. Ular: jismoniy va ma'naviy jihatdan salomatlik; jismoniy jihatdan chidamlilik, irodalilik; yuqori darajadagi ishchanlik, mehnatsevarlik.

Murabbiylar va tarbiyachilar turli xil fikrlash (ijodiy, analitik, konstruktiv va h.k.) larga ham qodir bo'lishi kerak.

Ulardan **ijodiy fikrlashda** bolalarni tarbiyalash masalalarini mustaqil, qiziqarli, o'zaro faol qilib bajarishga bo'lgan faoliyatda e'tiborga olinadi va erishilgan natija muhokamasida u yaqqol seziladi.

Analitik fikrlashda tarbiyachilar va murabbiylarning faoliyat turlari natijalarini tahlil qilishi va nazorat qilishi orqali amalga oshiriladigan faoliyat tushuniladi (tarbiya jarayonini nazorat qilish va tahlil qilish);

Konstruktiv fikrlashda ularga ishini rejalashtirish va loyihalashtirish (tarbiyachi → tarbiya jarayoni (tarbiyalanuvchi) natija) va tashkil etishlar e'tiborga olinadi.

Demak, murabbiy va tarbiyachilar o'z kasbiy faoliyatida pedagogik mahoratning ahamiyati juda katta, chunki, uning yordamida guruh faoliyatini tushunish, bolalar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni optimal tashkil etishlar amalga oshiriladi.

1.3. Maktabgacha ta'lim muassasalari bilan ota-onalar hamkorligi

«Bu hayotni himoyalash kerak. Tinchligimizni himoya qilishimiz kerak. Kelajak avlodimizni himoyalashimiz kerak. O'limizning tinchligini himoyalashimiz kerak. Himoya degani – avvalo, oqoh bo'l degani».

Islom Karimov

Ma'lumki, MTM dagi bolalar, ota – onalar va pedagog xodimlar maktabgacha ta'lim jarayonining ishtirokchilaridir.

Ota – onalar o'z bolalari uchun o'qitish va tarbiyalashning shakllari, MTM turi va ta'lim berish tilini tanlash huquqiga ega va MTM dan o'z farzandining shaxsiga

nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishni talab qilish mumkin.

Demak, MTM dagi bola faoliyati bevosita ota – onalar qonun doirasidagi talab – istaklari asosida olib borilar ekan. Bu holatni quyidagicha ifodalash lozim (1 – jadvalga qarang).

1-jadval

MTM bilan ota-onalar hamkorligiga bog'liq jihatlar

No	MTM faoliyatiga oid jihatlar	Ota-onalar burchlari va vazifalariga oid jihatlar	Izohlar
1	2	3	4
1.	Maqsad: bolalarni o'qitish, tarbiyalash, qarab turish va parvarish qilish jarayonida paydo bo'ladigan tomonlarning	Maqsad: bolalarni ma'naviy barkamol qilib shakllantirishdagi asoslarni hosil qilishda MTMdan samarali	MTMning faoliyatiga qarab maqsadga o'zgartirish kiritilishi mumkin.

	huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini sezish-lari amalga oshiruvchi ta'lim – tarbiya jarayonini olib borish.	foydalanish va bola aqliy kamolotini ma'naviy kamolot bilan uyg'un holda rivojlantirishga erishish.	(ixtisoslashtirilgan yoki sanatoriy tipidagi MTM)
2.	MTM maktabgacha ta'lim ustaviga muvofiq bo'lgan zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydi.	Bolalarning MTM dagi hayot kechirishini tashkil etishda faol ishtirok etish.	Farzandlarda ongli hayot kechirish elementlari shakllanadi.
3.	Bolalar hayotini muhofaza qilish va sog'lig'ini mustahkamlashga doimo g'amxo'rlik qilish.	Bolalarning jismoniy va ruhiy sog'lig'i uchun g'amxo'rlik qilish.	Bolalarda ham jismonan, ham ma'nadan sog'lom bo'lishga ishtiyok oshadi.
4.	Bola shaxsini shakllantirish, bilimga qiziqishini rivojlantirish.	Bola shaxsini hurmat qilish va unga shaxsiy xususiyatlariga muvofiq rivojlanishi uchun erkinlik berish.	Bolada onglik va ijodkorlikka qiziqish oshadi.
5.	Bolaning intellektual, shaxsiy va jismoniy rivojlanishini ta'minlash.	Bolaning aql-zakovati bo'lishiga va jismoniy hamda ma'naviy jihatdan yetuk bo'lib tarbiyalanishiga asos yaratish.	Bunda MTM dagi va oiladagi ma'naviy sog'lom muhit e'tiborga olinadi.
6.	MTM da bolalarning sog'lig'ini nazorat qilib borishni ta'minlash.	Bola rivojlanishidagi nuqsonlarni zarur tarzda tuzatish.	Ixtisoslashtirilgan MTM da bunga boshqa talab qo'yiladi.
7.	Bolalarni milliy ma'naviyat va umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish.	Bolalarning oilaviy an'analar, marosimlar, urf-odatlar va milliy bayramlarni kutib olishga tayyorlash.	Bunda bolalarga ma'naviy immunologik tarbiya berish asos qilib olinadi.
8.	Bolalarni turli tahdidlarga qarshi kurashga olishga tayyorlash.	Bolalarni ma'naviy jihatdan tayyorlashda har xil illatlarga nafrat	Oila va bola ma'naviyatining sog'lom bo'lishiga

9.	Bolalarni odobli va tartibli kiyinishga o'rgatish.	ruhida tayyorlash. Bolalarga kiyinish odobi va ulardagi intizomlilikni shakllantirish haqida qayg'urish.	e'tibor beriladi. Bolalardagi tozalik, ozodalik, tartib – intizomlilik kabi insoniy sifatlar shakllanishiga asos yaratiladi.
10.	Bolalardagi salomlashish va ovqatlanishini odatdagi holga kiritish.	Salomlashish va ovqatlanish odoblari insoniy fazilatlar ekanligini bolalar ongiga singdirish.	Bolalardagi ma'naviy – axloqiy tarbiya rivojlanishi e'tiborga olinadi.
11.	Bolalarni hurmat qilish me'yorlariga e'tibor berish. Ular qalbidagi ezgulik urug'larni undirib, o'stirish. Ularga mehr va muhabbat hamda muruvvat ko'rsatishlarning mazmun – mohiyatini anglatish.	Bolalarda mehnat-sevarlik, ezgulik, mehr-shafqat fazilatlarini, o'zidan katta yoshdakilarga hurmat bilan munosabatda bo'lish tuyg'ularini shakllantirishga harakat qilish.	Bolalar ongida ezgulik insonlarni yaxshilikka yetaklashi haqidagi ma'lumotlar paydo bo'lishi e'tiborda bo'ladi.
12.	«Odam savdosi» yomon illat ekanligi haqida bolalar ongiga chuqur tushuncha shakllantirish. Unga muhtalo bo'lganlarning oqibati ayanchli bo'lishi haqida bolalarga tushuntirish.	Odam savdosiga tushib qolgan odamlarning oilalari ham mahalla oldida uyalib, oila tanazzuliga uchrashligini farzandlar ongiga singdirish.	Turli salbiy oqibatlar haqida bolalar ongida tasavvur paydo bo'ladi.
13.	MTM xodimlarining bolalar uchun ibrat – namuna bo'lishi.	Oilada ota-onaning bola tarbiyasida «Ijobiy o'mak» ko'rsatishi.	«Ibrat – namuna – hayot dorilfununi» turkumidagi ma'lumotlardan foydalanish kerak.
14.	Turli rag'batlantiruvchi omil va pedagogik usullardan foydalangan holda bolalar jamoasi ishtirokida ularning qatnasha olishlariga qiziqish va faolliklarini	Ota – onaning oilaviy sog'lom muhitni tashkil etishi uchun ibrat – namuna ko'rsatishi, oilada bola tarbiyasiga ruhiy ta'sir qiluvchi	Bola tarbiyasidagi rag'batlantirish va jazolash me'yorlariga amal qilish lozim bo'ladi.

	oshirish bo'yicha xohish uyg'otish va unga sharoit ta'minlash.	omillarni hisobga olinishi. oilada salomatlik tamoyillariga amal qilinishi. salbiy ta'sirlarni bartaraf qilishga bo'lgan harakatlari.	
15.	Ko'pchilik bolalarni ulami shaxsiy xususiyatlari va qiziqishlariga mos holda faoliyatga jalb qilish.	Oilada farzandlarning qiziqishlarini o'yinchoqlar yordamida aniqlash va aniqlangan qiziqishni yanada kuchaytirishga ahamiyat berish.	Qiziqishga oid faoliyatga moyillik kuchli bo'ladi.
<p>ESLATMA: Mazkur yo'nalishdagi tadbirlar va jihatlar qatorini yanada davom ettirish mumkin. Bu haqdagi fikrlar xilma – xil va rang – barang. Faqat maqsad aniq bo'lishi kerak.</p>			

Ko'rinib turibdiki, farzand nafaqat oila tarbiyasi orqali kamol topadi, balki unga Davlatimiz tomonidan berilgan imkoniyatlar asosida tashkil etilgan MTM orqali ham kamol topadi. Chunki, bo'lajak kattalar ana shu kichiklar negizida tayyor bo'ladi. Bundan tashqari xalqimiz bolaparvar va o'z zuriyodini jonidan ham aziz ko'ruvchi xalq. Ular farzandlarini oilasining quvonchi, ota – onasining mehr nuridan yaralgan, ya'ni Alloh ato etgan oliy ne'mat, jamiyatning hayotbaxsh hamda harakatlantiruvchi kuchi, deb biladilar. Shuningdek, farzand umr mevasi, oila faxri va quvonchi hamda davomchisi bo'lganligi uchun ham u oilaning kelajagi baxtidir.

Biz oilani davlat ichra kichik davlat deb ataymiz. Unda yangi inson, ya'ni davlatning yangi bir vakili dunyoga keladi. Kichik davlat – oila esa bu inson uchun dastlabki hayot dorilfununi bo'ladi. Shu sababli ota – onalar farzandning birinchi o'qituvchisi va tarbiyachisidir.

Farzandni barkamol va ma'naviy yetuk qilib o'stirish uchun, eng avvalo ota – onaning o'zi yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo'lishi kerak. Bunday muhim va istiqbolli muammolarni hal qilishda mamlakatimizda ota – onalarga yordam ko'rsatish maqsadida MTM tashkil etilgan. Bu borada MTM bilan ota – onalar hamkorligining ahamiyati katta.

Bunday hamkorlikni o'rganish maqsadida so'rovnoma o'tkazdik. So'rovnoma quyidagiga tarkibiy qismlarga bo'linib tayyorlandi:

I. Familiyangiz ismingiz. Bunda ota yoki onaning ismi sharifi yoziladi.

II. Oila va uning tarkibi. Bu tarkibiy qism 11 punkdan iborat savol bo'lib, unga oid javoblar ham tayyorlandi va to'g'ri javob deb bilgan javobingizni aylana ichiga oling, degan tavsiya berilgan.

III. Oilada bola tarbiyasiga oid shart – sharoitlar mavjudligi. Bu tarkibiy qismda 23 ta savol va turli javoblar, to'g'ri deb bilgan javobingizni aylana ichiga oling, degan tavsiya berilgan.

IV. Oilada bolaning barkamol bo'lishiga ma'naviy asos yaratilganligi. Bu tarkibiy qism ikkiga, ya'ni 4.1. – otalar uchun savollar va 4.2. – onalar uchun savollarga bo'lindi. Ularning birinchisida 10 ta, ikkinchisida 11 ta savol olindi va yuqoridagi kabi talab qo'yildi.

V. Oilada bola tarbiyasi uchun moddiy asoslarning mavjudligi. Bu tarkibiy qism bo'yicha 10 ta savol olindi va ularga yuqoridagi kabi takliflar berildi.

VI. Farzandni maktabga tayyorlashga oiladagi shart – sharoitlar mavjudligi. Bu tarkibiy qismda 10 ta savol bo'lib, unga mos turli javoblar berilgan va bu yerda ham to'g'ri javobni aylana ichiga olib belgilash taklif qilingan.

Bizni mamnun qilgan narsa shundan iborat bo'ldiki, ota – onalarimiz farzandlarimiz taqdiriga befarq emas. Eng asosiysi ularning 92 foizi farzandlarini ma'naviy yetuk, barkamol qilib tarbiyalashni xohlaydi, shuningdek, ular ichidan 98,2 foizi farzandlarini turli tahdidlar va salbiy ta'sirlardan asrashni istaydilar.

Ota – onalarga «Farzandlaringizni MTM negizida maktabga tayyorlashni istaysizmi?» – degan savol berilganda, ular deyarli 100 foiz «ha» degan javobni belgilashgan.

Demak, ota – onalarimizning tani – joni xuddi avlod – ajdodlarimizniki kabi ma'naviyat va ma'rifat bilan yo'g'rilgan. Shu sababli biz uzluksiz ta'lim tizimining eng dastlabki qismini oila ma'naviyati va ma'rifatini hisobga olishdan boshlagan ma'qul ekan degan fikrga keldik. Bu fikrimiz ODM da ham ko'p marotaba o'z tasdig'ini ham topdi.

«MTM tarbiyachisi ota – onalar bilan suhbat chog'ida dastur talablariga tayanadi, ota – onalarning pedagogik layoqati va oilaviy tarbiya xususiyatlarini hisobga olgan holda maktabgacha tarbiya haqidagi kitoblarda berilgan maslahatlar, tavsiyalardan ijodiy foydalanadi.

Suhbat bu ikki tomon – tarbiyachi bilan ota – onaning muloqotidir. U fikr almashishga, muhokama qilinayotgan masalalarda o‘zaro hamjihatlik o‘rnatilishiga yordam berishi kerak. Bunda muhimi, tarbiyachi tomonidan xayrixohlik, erkinlik muhitining yaratilishidir.

Ota – onalarning shakllanib, kamol topib borayotgan farzandga ko‘rsatadigan ta’siri juda katta. Ularning bolaga nisbatan beg‘araz muhabbati talabchanlik bilan qo‘shib olib boradigan g‘amxo‘rligida namoyon bo‘ladi. Muhabbat har qanday yaxshilik, mehribonlik va yorqinlikning ijodkoridir» [28. 296 – 279 b.].

Demak, farzand tarbiyasini ota – onalar o‘z shaxsiy ishi deb bilmasliklari kerak. Aslida bola tarbiyasi ota – onaning jamiyat oldidagi fuqarolik burchi va davlat oldidagi mas’uliyati hamda qarindosh – urug‘lar oldidagi javobgarligi. Shuning uchun ham ota – ona obro‘si farzand tarbiyasida ma’naviy ozuqa bo‘ladi. Bu ma’naviy ozuqa bola tarbiyasida «ufq» ni ko‘zlab ish tutishda mustahkam poydevor hisoblanadi. Bunday tarbiyalash jarayonida mehnat va ijtimoiy faoliyatni oilaviy vazifalar bilan qo‘shib olib boradigan farzandlari hayotiga qiziqadigan va ularga oqilona, odilona rahbarlik qiladigan ota – onalar ijobiy o‘rnak bo‘ladigan kishilardir, ya’ni obro‘li ota – onalardir. Bunday odamlar o‘z farzandlari tarbiyasiga oilada ham, MTM ham e’tibor beradigan aqlli odamlar, namunali oila a’zolari bo‘ladi.

MTM va oila uyg‘unligida bola tarbiyasi samarali kechadi, agarda, birinchidan, MTM lardagi ta’lim – tarbiya jarayonining optimal variantlari yaratilgan bo‘lsa, ikkinchidan, ota – onalar bolalar tarbiyasining quyidagi ma’naviy jihatlariga e’tibor berilsa:

- sog‘lom oilaviy muhit;
 - oila ma’naviyati;
 - oilada bolaga ma’naviy – immunologik tarbiya berish omillari;
 - oilada bola tarbiyasiga oid munosabatlar;
 - oilada bola tarbiyasiga oid salbiy holatlarga qarshi munosabatlar;
 - oilada bolani ma’naviy jihatdan tarbiyalashga bag‘ishlangan tadbirlar, marosimlar, urf – odatlar, milliy va oilaviy bayramlar, ODM.
- Bular to‘g‘risida mazkur tadqiqotimizning keyingi qismlarida batafsil ma’lumot beriladi.

Bu jihatlardan ota–onalar tashabbuslari bilan MTM da uyushtiriladigan «Ma’naviyat mashg‘ulotlari»da foydalangan holda olib borilsa erkin va ijodiy fikrlaydigan faol shaxsini shakllantirishga erishishiladi. Ishonchimiz komilki, ular ma’naviy yetuk, barkamol inson bo‘lib shakllanadilar.

1.4. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish

«Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi».

Islom Karimov

MTM da o'quv yili muayyan yilning 2-sentyabrdan boshlanib, keyingi yilning 1-iyuniga qadar davom etadi va keyingi o'quv yiligacha bo'lgan davr MTMdagi sog'lomlashtirish davri hisoblanadi.

MTMdagi olib boriladigan **ta'lim mazmuni** O'zbekiston Respublikasi

Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan va tavsiya etilgan dasturlar asosida belgilanadi.

Tashabbusli dasturlar (u mintaqa yoki MTM turidan kelib chiqqan holda bo'lishi mumkin) ularni tasdiqlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan belgilanadi va tasdiqlangandan keyin bunday dasturlardan foydalanish mumkin.

MTM ning ish rejimi uning nizomi va muassisning qarori bilan belgilanadi.

MTM siga kunduzgi, kechki va kechayu – kunduz faoliyat yuritishiga qonun doirasida ruxsat etiladi.

MTM da bolalarni o'qitish va tarbiyalash davlat tilida olib boriladi. Boshqa tillarda faoliyat yuritishga «Davlat tili» haqidagi O'zbekiston Respublikasi qonunida belgilangan ko'rsatmalar asosida ruxsat etiladi.

MTM da tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda quyidagilarga e'tibor beriladi:

- bolalarning imkoniyatlari;
- bolalarning qiziqishlari;
- bolalarning ehtiyojlari.

Ularni hisobga olgan holda ta'lim – tarbiya jarayonining har xil turlarini rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish masalasi ham qaraladi. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

•MTM – bu jamoaviy qarorlar qabul qilishni o'rganish maktabi bo'lib, unda quyidagilar alohida kasb etadi: tashabbuskorlikka oid harakatlar qilish; umumiy mehnat ko'nikmalarining elementlarini hosil qilish; sport ishlarini bajarishga odatlanish; ijodiy ishlarga o'zini jalb qila olish; rasm chizishga ehtiyoj sezish; raqsga tushishga moyillik

uyg'otish; texnik va konstruksion modellashtirish kabi jarayonlarni amalga oshirishda o'zini ko'rsata olish va shu kabilar;

- MTM da bola uchun faoliyat turi oiladagiga nisbatan ko'proq. Bu yerda to'garaklarning xohlaganida bola o'z qiziqishini namoyon qila oladi va unga qatnashishda ham mustaqillik bor;

- MTM da bola faoliyat turini erkin va mustaqil tanlash imkoniyati mumkin. Bola bunday o'zida xohlasa raqqos (raqqosa) yoki qo'shiqchi, xohlasa akrobat yoki shaxmatchi (shashka o'yini mohiri), xohlasa avimodelchi yoki konstruktor, xohlasa qo'g'irchoq o'ynovchi yoki yasovchi kabi kasb-hunar elementlarini shakllantirishga erishish mumkin;

- MTM dagi faoliyat jamoaviy tarzda olib boriladi. Shuning uchun ham unda ta'lim – tarbiya jarayoni samarali kechadi, ya'ni ular turli xil jarayonlar yoki hodisalar bo'yicha ma'lum (muayyan) bilimga ega bo'ladilar, yoki unday holatlar bo'yicha aniq mahorat yoki ko'nikmalarini yuksaltiradi va shu kabilar.

Demak, MTM bolalar uchun yangi jamoa bo'lib, unda bilimlar, ko'nikmalar, TMM ning ichki qonun-qoidalari va xullas tartib-intizomlilik hukm suradigan muhit, ya'ni bola shaxsi shakllanishining dastlabki bosqich.


Shu sababli bolalarning MTM dagi ta'lim – tarbiyaviy ishlarini tashkil etishning tashkiliy – pedagogik ishlar mukammal bo'lishi kerak. MTM sining tarbiyachi va murabbiylarida bunga mos bilim, ko'nikma va malakalar kerak bo'ladi.

Bizning kuzatishlarimiz bo'yicha MTM dagi ta'lim – tarbiya jarayonini quyidagi ko'rinishda ifodaladik.

Shakldagi maqsad – bu pedagogik maqsad bo'lib, unda bu mashg'ulot nima uchun tashkil qilinayotganligi va nima uchun o'tkazilayotganligi belgilanadi hamda bu orqali tarbiyachi yoki murabbiy va bola nimaga erishmoqchiligi aniqlanadi.

Vazifalar maqsadni amalga oshirishning algoritmik ketma – ketligidir.

Loyihalashtirish – tarbiyachi yoki murabbiylarning bolalar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotni o'tkazish va bunda qo'llaniladigan shakl, usul va uslublardan foydalanish amalga oshirish ketma – ketligining amaliy jihatini ta'minlaydi.



1 - shakl. MTM dagi ta'lim-tarbiya jarayonini olib borishning tamoyilli tizimi.

Pedagogik mahorat – bu tarbiyachi yoki murabbiyning pedagogik kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarining uyg'un holatdagi faoliyatidan iborat bo'lib, u maqsadni aniq qo'yish, vazifalarni puxta belgilab olish, ta'lim – tarbiyaviy jarayonni mukammal tashkil etish, bolalarni qiziqtirish va ulardagi mashg'ulotga mustaqil qatnashish hamda ijodiy ishlashga xohish uyg'otish, bolalarning imkoniyatlarini to'g'ri belgilay olish va ularning mashg'ulotga ehtiyojlarini to'g'ri belgilay bilish uchun har qanday tarbiya shakl, usul va uslublardan samarali foydalanishlari orqali baholanadi.

Ular asosida mashg'ulot jarayonini nazorat qilish boshlanadi va joriy hamda oraliq natijalari monitoringi olib boriladi.

Umumlashtirish qismida natijalar tahlili asosida xulosaviy fikr shakllantiriladi. Unda quyidagi savollarga javob izlanadi:

- nima yaxshi-yu, nima yomon?
- nima yoqdi-yu, nima yoqmadi?
- kim yoqdi-yu, kim yoqmadi (ertak yoki videofilm qahramonlari bo'yicha ham bo'lishi mumkin)?
- nimani olib qolish kerak-u, nimadan voz kechish kerak?
- kim faol-u, kim ajralib qoldi?
- bolalar nimani o'rgandi-yu, nimalarga befarq bo'lib qoldi?
- kimlar faol bo'ldi-yu, kimlar ahamiyatsiz bo'lib qoldi va h.k.

Demak, bola tarbiyasida MTM ning ahamiyati katta. Hattoki, onalari uy bekasi bo'lgan xonadon bolalari uchun ham ahamiyatlidir. Bu haqda quyidagi fikr ahamiyatlidir.

Taniqli pedagog Xoji Muin (1883 - 1942) bolalar bog'chasining bola tarbiyasidagi nechog'lik zarurligini uqtirib, bolalarning ko'pchilik ota – onalar kabi to'rt – besh yoshdanoq maktabga berish o'rniga bolalar bog'chasiga berish lozimligi haqida ko'plab qimmatli fikrlarni bildirgan. Jumladan, «... Bolani yosh chog'ida ko'ngli xohlamaydirg'on biron ishga majbur qilishsa, badani oriq bo'ladi. Dimog' va miyasiga halal keladir, qoni buziladir, a'zosi o'sishdan qoladir va boshqa kasalliklarga uchraydir...»

Bolalar bog'chasining **birinchi** foydasi bolalarni mazkur hollardan, ya'ni 4 – 5 yoshdanoq maktabxonalariga qatnash, yoshiga nomunosib o'quv – yozuv ishlari bilan mashg'ul bo'lishdan – ona – onani behuda tashvishlardan qutqarmoqdir. **ikkinchi** foydasi bolalarni yaxshi tarbiya qilib, lozim ishlarga o'yin yo'li bilan o'rgatib, maktabdan burun maktabga hozir qilmoqdir», deb yozgan edi Xoji Muin [28. 302 – b.].

Demak, MTM dagi bolalar faoliyatini **chinakam bolalik davri**, deb atash mumkin. Shuning uchun ham bolalik buyuklik va ezgulikka yo'g'rilgan bo'ladi. Bunga sabab bu davr bolalarning beg'am, betashvish, o'yin – to'polonlari g'uborsiz, yuragi toza, fikri – xayoli musaffo, muomala – munosabatlari samimiy bo'lgan davridir. Ularning shaxs yuksalishiga va taraqqiyotiga, uning kelgusida jamiyatni harakatlantiruvchi kuch bo'lib yetishishiga qo'yilayotgan tamal toshi bo'lishi mumkin.

Tadqiqotimizning ushbu qismida xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkin. Bolalar ta'lim – tarbiyasiga oilada ham, MTM da e'tiborni kuchli qaratish lozim bo'ladi. Bunga yetarlicha asos bor. Bu borada birgina dastlabki asoslarni e'tiborga oladigan bo'lsak, ular tinimsiz kattalarga taqlid qiladi, ular hattoki o'yinchoqlar tanlash va o'ynashda

ham faqat ulg'ayish ehtiyojlarini qondiradigan jarayonlar to'g'risida bosh qotiradi.

Demak, ota – onalar va MTM dagi tarbiyachi va murabbiylar farzandlarning qanday muhitda shakllanishiga va bunday jarayonlardagi bolaning istiqbolli ehtiyojlarini qondirishga burchlidurlar va bu sohada ularga ko'maklashishga insoniylik jihatdan mas'uldirlar.

1.5. Maktabgacha ta'lim muassasalarida qo'llaniladigan pedagogik ta'sir usullari

«Bolalar nimani istahisa, shuni qilish lozim, lekin ular tarbiyachi xohlagan narsani istashlari kerak.»


J.J.Russo

MTM dagi faoliyatga tarbiyachi va murabbiylar har doim bolalar tarbiyasi, xulq – atvori, tartib – intizomiga tuzatishlar kiritishi, ulardagi kerakli shaxsiy xislatlar va harakatlardagi qirralarni rivojlantirishi, kamchiliklarini bartaraf qilishi kerak bo'ladi. MTM da bunday ishlarni

amalga oshirish uchun eng qulay sharoit bor. Chunki, bunday joylarda tarbiyachi va murabbiylar pedagogik ta'sirning turli usullaridan foydalana oladilar. Ushbu jarayonda kerakli usulni tanlash uchun bolaning hissiy holati, harakatining xarakteri va sababini oldindan aniqlash kerak bo'ladi.

Pedagogik vaziyat tarbiyachi va murabbiyning ijodiy fikrlashi va sinchikovligi tufayli aniqlanadi. Buning ijodiy tomoni shundan iboratki, tarbiyachi va murabbiy o'ylagan usulni amalga oshirish uchun foydalanadigan sharoitlarni xayolan loyihalashtirib chiqishi kerak bo'ladi. Ushbu jarayonning kasbiy mahoratli tomoni shundan iboratki, unda tarbiyachi yoki murabbiyning o'z ishini yaxshi bilishi, o'z xulqini bolaga o'tkaza olishi, ularning hatti – harakatlariga mos munosabatni tashkil qila olishi muhimdir.

Umuman olganda **pedagogik ta'sir usuli** deganda aniq holatlarni (jarayonlarni) tashkil etib, unga mos kerakli qonun – qoidalar negizida bolalarni ijobiy hatti – harakatlarga undovchi, o'z kamchiliklarini vaqtida tuzatuvchi (uning ko'rsatgan kamchilikga ijobiy munosabatni hosil qiluvchi) yangi, istiqbolli fikrlar va hislar majmuasi tushuniladi va bundagi yangi fikrlar bola tarbiyasining yangi sabablarini hamda bolaning shaxsiy kamchiliklarini yengib o'tishga asos bo'ladigan hissiyotlar majmuidan iboratdir (1.5.1 - shakl).



2 - shakl. Pedagogik ta'sir usullarining umumiy ko'rinishi.

Murabbiy va tarbiyachilarning ijodiy – kasbiy faoliyati (pedagogik mahorati)da nafaqat tarbiyaviy ishlarning yaxshi samarali natijalariga erishiladi, balki murabbiy va tarbiyachilarning shaxsiy hislatlari ham yuksaladi. Pedagogik ta'sir usullarini qo'llash jarayonida tarbiyachi va murabbiylarning g'oyaviyligi yaqqol ko'zga tashlanadi, ularning xarakteridagi insoniylik va murabbiylik xislatlari namoyon bo'ladi, ular xarakterining **emotsional qirralari**: chidamlilik, o'z – o'zini boshqara olishlik, maqsadga intiluvchanlik, tezkorlik, tashabbuskorlik va tarbiyachi – murabbiylarning **irodaviy qirralari** topqirlik, ziyraklik, kuzatuvchanlik, shuningdek, xarakterning **intellektual qirralari** ham yaqqol ko'zga tashlanadi.

Qayd etilganlarni e'tiborga olib quyida bolalar tarbiyasiga bo'ladigan pedagogik ta'sir usullarining ba'zilarini nomlarini keltiramiz.

Dastlab bolalarni ilhomlantiruvchi ijobiy hislatlar negizida bolaning axloq – odobi tarbiyasi, tartib – intizomiga o'zgartirishlar kirituvchi tarbiyaviy ta'sirlar to'g'risidagi pedagogik ta'sirlar nomini keltiramiz. Ular quyidagilardan iborat:

1. **Ishontirish** – bu aniq axloqiy me'yorlar negizida qaysidir ishni mumkin yoki mumkin emasligini, to'g'riligi yoki noto'g'riligini, zarurligini isbot qilish va tushuntirish jarayonidir.

2. **Rag'bat** – bu bola xulqi, odobini to'g'rilashga yoki tuzatishga yordam beruvchi tarbiyaviy ta'sir usuli.

3. **Ijobiy baho berish** – bu bolaning to'g'ri ish qilayotganini tasdiqlovchi tarbiyaviy ta'sir usuli.

4. **Maqto'v** – bolaning hatti – harakatini, ishlarini rag'batlantiruvchi pedagogik ta'sir.

5. **Mukofot** – bu ancha sezilarli rag'bat bo'lib, u ajoyib yutuqlar, ijobiy hatti – harakatlarni belgilashda qo'llaniladigan tarbiyaviy ta'sir.

6. **Ishonch** – bu bolalar tomonidan yaxshi xulqi uchun o'rinni maqto'v sifatida qabul qilinadigan hissiyot.

7. **Aniq qiziqishlar, talablarni qondirish** – bunga kitoblarni esdalikka topshirish, tabiatni o'rganish, sayohatlar uyushtirish kabilar orqali erishiladi.

8. **Ijodiy munosabatni bildirish** – bu tabiyachi yoki murabbiylarning bolalarni yoqtirishlari. bolalarga bo'lgan mehribonliklari, samimiy tabassumlari, do'stona harakatlari, bolalar bilan hamkorlikdagi va birgalikdagi o'yinlar orqali amalga oshiriladi hamda bolalar tomonidan maqto'v sifatida qabul qilinadi.

9. **Mehribonlik, e'tibor va g'amxo'rlik** – tarbiyachi va murabbiylarning ayblanuvchiga nisbatan bo'lgan mehribonliklari, e'tibor va g'amxo'rliklarining hissiy natijasi.

10. **Iltimos** – bu insonparvarlik hislarini uyg'otuvchi usuldur.

11. **Qiziqarli faoliyatga tortish** – bolalarning qobiliyatini rivojlantiruvchi, boladagi yanada ko'proq iroda, bilim, javobgarlik – hissini yuksaltiruvchi tarbiyaviy ta'sir usulidir.

Salbiy holatlarga undovchi xarakterlarni yo'qotishga yordam beruvchi tarbiyaviy ta'sirlar nomlarini keltiramiz. Ular quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

1. **Engil koyish** – aybdor bola bilan bo'ladigan suhbat jarayoni bo'lib, unda suhbat jarayonida bolaning kamchiligi qayd etilib o'tiladida, suhbat maromida olib borilaveradi.

2. **Jazo berish** – bu bolalarda o'z qilgan ishiga o'kinish va boshqa bu ishini qaytarmaslik xohishini shakllantiruvchi tarbiyaviy ta'sir. Jazoning quyidagi turlari mavjud:

Jazo – mashq;

Jazo – chegaralash;

Jazo – tanbeh;

Jazo – shartlilik va h.k.

3. Ogohlantirish – bu bolada xavotir uyg‘otuvchi va uning negizida noxush oqibatlarni yo‘qotish xohishini uyg‘otuvchi tarbiyaviy ta’sirdir.

Demak, pedagogik ta’sir usullari – bu aniq pedagogik vaziyat (holat)ni tashkil qilish usuli bo‘lib, ular ma’lum qonun – qoidalar negizida bolalarda ijobiy ishlarga, o‘z kamchiliklarini yo‘qotishga undovchi yangi fikrlar va hissiyotlarni uyg‘otadi.

1.6. Maktabgacha ta’lim muassasasining pedagogik jamoasidagi uslubiyot ishlari

«Yaxshi va yomon xulqning hammasi sharoit, tarbiya, odatlanish natijasida vujudga keladi. Yaxshi xulqqa ham odat nisfayi erishiladi».

Abu Ali Ibn Sino

MTMning ta’lim – tarbiyaviy faoliyatida uslubiy ishlari bo‘g‘in bo‘lib, bu pedagogik jamoaning kasbiy faoliyatiga layoqati va shu asosdagi kasbiy mahoratining iste’moldagi ifodasidir.

Bunday jarayonda pedagogik jamoaning bola bilan, guruh bilan o‘zaro munosabatida to‘g‘ri yo‘lni tanlashi, tarbiyaviy ishlarda ta’sir usullarini to‘g‘ri qo‘llashi, tarbiyaviy ta’siming shakl va uslublarini hamda qonun – qoidalarini yaxshi o‘zlashtirgan bo‘lishi, shuningdek, ta’lim – tarbiyaning tamoyillarini yaxshi bilishlari muhim ahamiyat kasb etadi.


Bular «MTM to‘g‘risida»gi Nizomda ham qayd etilgan. Shuning bilan birga MTM si rahbariyati, pedagogik jamoasi va ularga mos uslubiy yordam ko‘rsatish va uslubiy o‘quv adabiyotlari tizimi tuzilgan. Ularda MTMda ta’lim – tarbiya jarayonini olib borishning uslubiyot ishlarining yo‘nalishlari, shakl, vosita va uslublari aks ettirilgan.

MTM dagi pedagogik jamoaga rahbarlik uslubiy o‘qishlar, pedagogik kengashlar orqali amalga oshiriladi. MTM dagi tarbiyaviy ishlarning asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha dastlab barcha tashkiliy masalalar hal qilinadi va uslubiy ishlar amalga oshirila boradi. Bunday tadbirlarning asosiy mazmun – mohiyatini bolalar ma’naviyatli bo‘lib katta bo‘lishi tashkil etish kerak, chunki bugungi yoshlarni ijtimoiy faollik va hushyorlikka da’vat etishga, o‘zligini, o‘z uyini himoyalashga oid ma’naviy va ma’rifiy ishlarni qilish ruhida tarbiyalash lozim.

Demak, MTM ning har bir xodimi O'zbekiston o'ziga xos mustaqil taraqqiyot yo'lini tanlab olganligini, xalqimiz ma'naviyatiga qo'yilgan talablarni anglaganligini va ularga mos yoshlar tarbiyasiga qo'yilgan davlat talablarini ongli ravishda tushunib yetmoqlari zarur ekan. Buning uchun ular muntazam ravishda quyidagi yo'nalishlar bo'yicha o'z ustilarida ishlab kelishlariga to'g'ri keladi:

- kasbiy mahoratni oshirish;
- metodik mahoratni oshirish;
- pedagogik va psixologik bilimlarni boyitish;
- ma'naviyat va ma'rifat masalalarini puxta o'zlashtirish va ularni tarbiya jarayoniga tadbiq etish.

Ana shunday jihatlarga alohida e'tibor bergan MTM da uslubiyot ishlarini samarali yo'lga qo'yish mumkin. Buni quyidagicha olib borish ma'qsadga mavofiq (1.6.1 - shakl).



3 - shakl. MTMda uslubiyot ishlarining joriy etilishi jarayoni.

Uslubiy ishlarni bu yo'sinda tashkil etish pedagogik jamoaga uslubiy rahbarlik qilishga qo'shimcha vaqt, quvvat, pedagogik mahorat talab etiladi. Bu esa MTM da bolalar tarbiyasi jarayonini optimal boshqarish va pedagogik jamoa a'zolarining pedagogik mahoratini oshishini muntazam ravishda kuzatish imkoniyatlarini ham beradi.

1.7. Maktabgacha ta'lim muassasalari bolalarida ma'naviy sifatlarni tarbiyalash

«Tarbiyali bola ulug'larni izzat va hurmat qilur. O'zi barobariga yaxshi munomala qilur. Va o'zidan kichiklariga shafqat va marhamat qilur. Har kimning qadrini bilur».

Munavvarqori
Abdurashidxonov

Ma'lumki, har qanday ota – ona o'z farzandlarini sevadi – bu isbot talab qilinmaydigan haqiqat. Demak, farzandlarimiz biz uchun aziz, ularning tarbiyasi esa undanda aziz. Shuning uchun ham ota – onalar farzand tarbiyalash uchun oldin o'z-o'zini tarbiyalab olishi zarur – bu farzand tarbiyasida ota-onaning «ibrat – namuna» bo'la olishi, demakdir. Bu

haqda quyidagi fikr bola tarbiyasining nechog'lik ahamiyatli ekanligini dalillaydi: **«Bola tarbiyasi uchun davlatni boshqarishdan ko'ra ham teranroq mushohada, undan ham chuqurroq donishmandlik kerak» (U.Chenning).**

Mamlakatimizda bu yo'nalishdagi ta'lim – tarbiya ishlariga e'tibor berish davlat siyosati darajasigacha ko'tarilgan. Bu haqda muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» (1997 yil 29 avgust) nomli ma'ruzasida uzluksiz ta'lim tizimining mazkur turiga alohida urg'u berib quyidagi fikrni aytgan edi: **«Norasida bolaning ongi nimani o'ziga singdira oladi, nima qabul qila olmaydi? Bolalarimizga qachondan boshlab, qanday usulda va uslubda milliy qadriyatlarimiz, urf – odatlarimizni anglatishimiz kerak?» [1].**

Demak, biz ota – onalarning va MTM murabbiylari hamda tarbiyachilarning tarbiyaviy hatti – harakatlari ham shunga yarasha insonparvar bo'lmog'i lozim. Buning asosini esa farzandlaringizda shakllantirilishi lozim bo'lgan ma'naviy sifatlarni tashkil etadi.

MTM da bolalardagi ma'naviy sifatlarni shakllantirishga keng imkoniyatlar mavjud. Ularni quyidagi ma'naviy sifatlarni qamrovida olib borgan ma'qul: atrofdegilarga hurmat bilan munosabatda bo'lish;

jonkuyarlik; kamtarlik; odob bilan gaplashish; mehmondo'st; kattalarga sizlab, ismi – sharifini to'liq aytib murojaat qilish; muloyimlik; xushmuomalalik; shirinso'zlik; odoblilik; ziyraklik; jonkuyarlik; dilkashlik; sabrlik; mas'uliyatlik; intizomlilik; tashabbuskorlik; xushxulqlik; mustaqillik; mehnatsevarlik; mehribonlik va shu kabilar.

Bu ma'naviy sifatlar bir qarashda bog'cha yoshidagi bolalarga ko'plik yoki og'irlik qiladiganga o'xshab ko'rinadi. Siz bundan cho'chimang! Bularning hammasi bolaning bog'cha ostonasiga kirib kelishi bilan boshlanadigan faoliyat turidir. Faqatgina bunga murabbiy va tarbiyachilar o'zlari ibrat – namuna ko'rsatib, e'tibor berib boradi. Bu borada ular oldida qator vazifalar bor. Biz ularni namuna (andoza) sifatida quyidagicha ifodalashni lozim topdik:

- tarbiyachilar bolalarga axloq – odobning muhim me'yorlari – salomlashish, yurish – turish, so'zlashish, ovqatlanish, tozalik, ozodalik kabi fazilatlarni izchillik bilan singdirib borishlari shart;

- bolani kundalik tartibga rioya qilishga o'rgatish;

- bolaning bog'chada ham jismonan, ham ma'nan o'sib rivojlanishiga sharoit yaratish va bunga doimo g'amxo'rlik qilish;

- bolani o'zaro hurmat ruhida tarbiyalashning samarali usul yoki uslublaridan foydalanish;

- bola shaxsini hurmat qilish, ularning ishlari, qiziqishlari, manfaatlari bilan hisoblashish;

- bolada ma'naviy sifatlarni tarkib toptirishga muntazam ravishda e'tiborda bo'lish;

- bolalarda turli xil illatlarning paydo bo'lib qolishidan juda ham ehtiyot bo'lish;

- bola ongiga umummanfaat bilan hisoblashish zarurligini singdirib borish;

- bolaning nutqiga va uning ravonligi hamda mazmundorligiga doimo e'tibor berish;

- bola tarbiyasiga oid didaktik vositalar va materiallarni yetarli qilib to'plab olish hamda ulardan samarali va ijodiy foydalanish;

- bolada burch va mas'uliyat hissini shakllantirish.

Bu qayd etilgan vazifalar qat'iy emas, balki Sizda bundan-da mukammalroq vazifalar tizimi bordir. Bizning umumiy maqsadimiz farzandlarimizni ma'naviy yetuk va barkamol qilib tarbiyalashdan iboratdir, chunki ular O'zbekiston kelajagining mustahkam poydevoridir. Shu o'rinda quyidagi fikr tadqiqotimizning ahamiyatini

tasdiqlaydi: «Tartib asosida ish qiladigan bola berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida puxta bajarishga, jamoat orasida ham o'zini tutishga va imkon qadar e'tibor qozonishga odatlanib boradi. Bundan tashqari, rejim bolani sog'lom, tetik, baquvvat bo'lib o'sishiga hamda aqliy jihatdan to'g'ri rivojlanishiga katta ta'sir etadi. Bola o'zi sevgan mashg'uloti bilan shug'ullanishga vaqt topa oladi. U hamisha ruhan tetik, ma'lum maqsadga intiluvchan, serzavq, o'z ishidan mamnun bo'ladi» [28, 24 - b].

Demak, biz yuqorida keltirib o'tgan bolaning ma'naviy sifatlari va ularning bola ongida tarkib toptirishdagi murabbiylar yoki tarbiyachilar vazifalari tizimi oila yoki MTM uchungina emas, balki jamiyat va uning ma'naviy rivoji uchun ham ma'naviy «ozuqa»dir. Bunga sabab, bolalarimiz turmushda yoki tevarak – atrofimizda uchraydigan turli xil salbiy yoki ijobiy holatlarni farqlay olishlari kerak, aks holda ular ongida turli xil illatlar ildizlari tomir otib ketishi mumkin. Bu jihatlar dastlab oiladan boshlanadi ya'ni oiladagi tartib – intizomlik, tozalik – ozodalik bola MTM borganda ham sezilib turadi. Shuning uchun ham oila va MTM hamkorligi o'ta muhimdir.

Demak, oilada va MTM da shakllangan bolalarning ma'naviy sifatlari ularni maktabga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

II BOB. MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA «MA'NAVIYAT SABOQLARI» MASHG'ULOTLARINI OLIB BORISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

2.1. Maktabgacha ta'lim muassasalarida «Ma'naviyat saboqlari» mashg'ulotlari

*«Ma'naviyat qashshoq
odamni xohlagan tomonga
boshqarsa bo'ladi, chunki
unga istalgan sarobni
ko'rsatib, uni obi hayot
deb ishonтира bo'ladi».*

(«Otlar so'zi»)

«Biz xalqimizning dunyoda hyech kimdan kam bo'lmashligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hyech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalada hushyorlik va

sezgirlikimizni, qat'iyat va mas'uliyatimizni yo'qotsak, bu o'ta muhim ishni o'z holiga, o'zi bo'larchilikka tashlab qo'yadigan bo'lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo'g'rilgan va ulardan oziqlangan ma'naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir – oqibatda o'zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo'lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin» [2. 4-b].

Ma'naviyat o'zi nima?

Ma'naviyat to'g'risida quyidagi fikrlarga e'tibor beraylik:

1. «**Ma'naviyat** – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon – e'tiqodini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir» [2. 19 - b].

2. «**Ma'naviyat** – (arabcha – ma'nolar majmui) kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmui.

Ma'naviyat – kishining ichki, ruhiy, axloqiy qiyofa tushunchasi bo'lib, ma'lum bir axloq me'yorlari, maromlari asosida yashash tarzi, umuman hayotidir» [27. 204 - b].

3. «Inson, ona qornidan boshlab, butun hayoti davomida orttirgan foydali bilimlarini amalda qo'llayverish natijasida unda hosil bo'lgan

ko'nikma va malaka, uning hayot tarziga aylanganlik darajasi ma'naviyat deyiladi».

Binobarin, ma'naviyatga quyidagi falsafiy ta'rifni bersa bo'ladi.

Ma'naviyat – bu kishining egallagan foydali bilimlari amaliy hayotida sinalaverib, ko'nikma va malaka darajalaridan o'tgan va ruhiga singib, hayot tarzida aks etadigan ijobiy ijtimoiy sifatlar majmuidir [11. 8 - b].

4. «**Ma'naviyat** – insonning zot belgisi, uning faoliyatining tarkibiy qismi, ongli, aql – zakovatining mahsuli» [9. 29-b.].

5. «**Ma'naviyat** – jamiyatning, millatning va yoki ayrim bir kishining ichki hayoti, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati, idrokini mujassamlashtiruvchi tushuncha» [12. 111 - b].

6. «**Ma'naviyat** – har bir insonning ichki ruhiyati, aql – zakovati, uni o'zini – o'zi anglash, yaxshiliklarga, ezgu niyatlarga to'la qalbi, oldinga qarab yangi marralar sari ongli ravishda faollik ko'rsata bilish va intilish salohiyatidir» [16. 8 - b].

7. «**Ma'naviyat** ko'p qirrali hodisa bo'lib, axloqiy (odob, burch, mas'uliyat tuyg'usi), ilmiy, ijodiy, amaliy malakalar (mehnat, ijodkorlik, iste'dod, qobiliyat), diniy, mafkuraviy qarashlarning yaxlit birligidir» [7. 22 - b].

8. «**Ma'naviyat** millatning asrlar davomida shakllangan, ildizlari uning tarixiy tajribalari va ijtimoiy – madaniy rivojlanishi bilan uzviy bog'liq bo'lgan ichki (aqliy) intellektual va salbiy hissiy dunyosidir» [29. 20 – 22 b.].

9. «**Ma'naviyat** – inson qalbida, ko'ngil ko'zgisida aks etgan haqiqat nuridir» [13. 14 - b.].

10. «**Ma'naviyat** gul ekishdan to shahar qurishgacha, vatan himoyasiga yarash, milliy oriyat, muhabbat, otalik, akalik, aka – ukalik, eru – ayollik, ilmiy, ro'zg'or tebratish siri, kuyni tinglay olish, tasviriy san'atni o'qish, fuqarolik mas'uliyati, tarix qoshidagi qarzdorlik, ota – buvandan qolayotgan aqidalarni farzandingga ham eson – omon yetkazishdir» [20].

11. «**Ma'naviyat** – insonning ongi, aqliy qobiliyatini, ruhiy kechinmalarini yaxshiliklarga, ezgu niyatlarga to'la qalbini ifodalovchi ko'p qirrali tushuncha» [17. 118 - b.].

12. «**Ma'naviyat** (arab. mano, ma'nolar majmuasi) – moddiy hayot bilan doimo yonma – yon yuradigan, inson, xalq va jamiyat hayotining ajralmas qismi bo'lgan ijtimoiy hodisa» [18. 333 - b].

13. Ma'naviy poklik – odamlarni halollikka, bag'rikenglikka, mehr – shafqatli bo'lishga chorlash va bu borada o'zi ibrat – namuna ko'rsatish [17. 118 –b.].

14. Ma'naviy e'tiqod – u ma'naviy idealdan iborat bo'lib, ehtiyoj ko'nikma va malakalarning shakllanishi asosida paydo bo'ladi [27. 287 – b.].

Keltirilgan ta'riflardan ko'rinib turibdiki, murakkab ijtimoiy hodisa bo'lgan ma'naviyatning ma'lum bir tarkibiy qismi yoki uning u yoki bu xususiyati yoki ahamiyatini ifodalaydi. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, ma'naviyatning mukammal ta'rifidan uzluksiz ta'lim tizimining har bir turiga tegishli xususiy holdagi ta'riflaridan ham foydalanish kerak bo'lar ekan. Bunga sabab uzluksiz ta'lim tizimi uchun har bir turda ta'lim – tarbiyaga qo'yilgan alohida talablar mavjud. Masalan oiladagi yoki MTM dagi ma'naviyatga berilgan talab oliy ta'limdagi talabga to'g'ri kelmaydi yoki aksincha. Demak, uzluksiz ta'lim tizimi uchun xususiy ta'riflardan umumiyroq bo'lgan ta'riflarga o'tib borish, ya'ni induksiya tadqiqot usuliga asoslangan holda ta'riflar iyerarxiyasini shakllantirib borgan ma'qul ekan.

Unuman olganda ma'naviy tarbiyada milliy madaniyatimiz, ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan boy ma'naviy merosimizni tarixiy ildizlariga e'tibor berishimiz va ularni yanada boyitib (bu sohadagi tadqiqot ishlarini yanada rivojlantirib) bugungi yoshlarimiz ongi va qalbiga chuqur singidirish masalasiga katta e'tibor qaratish lozim bo'ladi, chunki bu ma'naviy boylik asrlar davomida shakllangan. Bular avloddan – avlodga o'tishda ko'plab sinovlardan o'tgan va vaqti kelganda ulardan xalqlarimiz foydalangan, ya'ni ular xalqlarimizga madad bo'lgan.

Bu masala ham Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimovning e'tiboridan chetda qolgan emas va bu haqda Mustaqillik qo'liga kiritilgan paytdan boshlab unga e'tibor berib kelmoqda. Xususan, Prezidentimizning «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» risolasining «Mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy – axloqiy negizlari» deb nomlangan bobi bordi quyidagi asosiy negizlar qayd etilgan:

- «- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
- vatanparvarlik» [3. 74-b.].

Bu to'rtala negiz ham ma'naviy tarbiya jarayonida o'ta muhim bo'lib, ular ichida «Xalqimizning ma'naviy merosni mustahkamlash va rivojlantirish» nomli negizi ayni shu masala yechimini hal qilishda yetakchi o'rinda turadi va bunga jamiyatimiz taraqqiyotining hamma bo'g'inida e'tibor berishimiz kerak. Ayniqsa, oilada, MTM larida va boshlang'ich ta'limda mustahkam poydevor qo'yiladi, chunki bu davrdagi tarbiya bolalarda jo'shqinroq kechadi.

Bolalar ma'naviy dunyosining o'ziga xos xususiyatlaridan biri kattalarni obro'li siymolar deb bilishlaridir. Shuning uchun ham biz o'z farzandlarimizning baxtu saodati, iqboli va kamolini ko'rishni istaymiz. Buning uchun farzandlarimizga milliy urf – odatlarimiz, qadriyatlarimiz va an'alarimizni chuqur singdirish va shakllantirishimiz lozim. Bu oila ma'naviyatining asoslaridir.

Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek «**Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi**».

Bu ko'rsatmaviy fikr ayniqsa oila ma'naviyati bilan MTM da tashkillashtiriladigan «Ma'naviyat saboqlari»da muhimdir. Shuning bilan birga bunday ko'rsatmaviy fikrni og'ishmay amalga oshirishda ota – onalar va MTM da faoliyat ko'rsatayotgan murabbiy yoki tarbiyachidan quyidagi qonun – qoidalarga amal qilinishi talab etiladi:

- bolalarga nisbatan samimiy munosabatda bo'lish kerak va ularning har biriga xos individual xususiyatlarini bilib oling;
- hamma bolalarga bir xil munosabatda bo'ling;
- bolalarga ta'lim – tarbiya berishda sharqona usullardan foydalaning;
- bolalarga ta'lim – tarbiya berishda milliy qadriyatlarga va milliy urf – odatlarga suyaning;
- turli tadbirlar va bayramlarni MTM ning umumjamoasi bilan birgalikda o'zaro yordam asosida o'tkazing;
- bolalarning mustaqil fikr yuritishiga inkoniyat yarating, o'zlaring burch va vazifalarini bajarib borishiga o'rgating;
- MTM da bolalarning bir – birini kamsitishiga va xo'rlashiga yo'l qo'ymang, turli g'iybat va fisqu – fasod gaplar bo'lishining oldini oling;
- guruhda bolaning isyon ko'tarishiga yo'l qo'ymang. Unutmang bu nafaqat MTM ga, balki oilaga ham, jamiyatga ham xavflidir;
- bolaga qo'rqitish, zulm qilish orqali tarbiya bermang. Unutmang, siz bu orqali baxtsiz yoki yakka – yolg'iz kishilarning shakllanishiga

sabab bo'lasiz. Eng yomoni, ularning ushbu hatti – harakati jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi;

• **tarbiyachi yoki murabbiyning shaxsiy namunasi:** odob – axloqli bo'lish; mehnatsevarlik xislati shakllangan bo'lishi; ozodalik – intizomlilik shiori bo'lishi kerak;

• **tarbiyachi yoki murabbiyning yuqori muomala madaniyati:** shirinso'z, muloyim, xushfe'l bo'lishi kerak;

• **tarbiyachi va murabbiyning hamkorlikda faoliyat yuritishi:** hamkorlik, hamjihatlik bilan faoliyat yuritishni bilishi kerak.

Qayd qilingan qonun – qoidalarga amal qiladigan tarbiyachi yoki murabbiy MTM ning ma'naviy muhitini qaror toptira olishi mumkin, chunki bu qandaydir alohida, uzib olingan tarbiya vositasi esa, balki ota – onalar va murabbiy va tarbiyachilar olib boradigan har taraflama tarbiyaviy ishlarining bolaga ijobiy ta'sir ko'rsatishi natijasidir. Shuning uchun bunday tarbiyaviy ta'sirlar yil davomida olib borilishi kerak.

Quyida biz MTM da olib boriladigan «Ma'naviyat saboqlari» haqida to'xtalamiz.

2.2. Maktabgacha ta'lim muassasalarida olib boriladigan «Ma'naviyat saboqlari» mashg'ulotlarining namunaviy mavzulari

«...Hozirgi murakkab sharoitda xalqimiz, avvalo, o'sib – o'rib kelayotgan yosh avlodimiz ongi va qalbida mafkuraviy immunitet hosil qilish muhim ahamiyatga ega. Bu ishini bannisoli yosh nihalga mevali daraxt kurtagini poyvand qiladigan usta bog'bondek mehr bilan, oqilona yo'l bilan amalga oshirish lozim».

Islom Karlmov

Ma'lumki, MTM da 2 yoshdan 6-7 yoshgacha bo'lgan bolalar tarbiyalanib ta'lim oladi. O'quv yili, deb atalgan oraliq 35 haftani tashkil etadi.


Tadqiqotlarimizning ko'rsatishicha, MTMda «Ma'naviyat saboqlari» ni o'tkazishga imkoniyat bor ekan. Bunga sabab MTM dagi dastlabki davridayoq jamoaning va jamoadagi bolalarning inoqlashuv davri boshlanadi. Bu

davrda bolalar o'z murabbiy va tarbiyachilarini diqqat bilan o'rganadilar. Shuning bilan birga murabbiy va tarbiyachilarning MTM dagi **asosiy vazifasi** - hamisha ijobiy holatda bo'lish, o'qitish, o'rgatish va o'rganishdir. Demak, ular MTM dagi jo'shqin faoliyatning boshqaruvchisidir. Bu borada **mohir boshqaruvchi** bo'lish murabbiy va

tarbiyachilarning baxti hamdir. Bu jo'shqin faoliyat yana shunisi bilan ahamiyatli. MTM da bolalarning o'zaro va murabbiy hamda tarbiyachilari bilan bo'ladigan munosabatlari yanada chuqurroq va mazmundorroq bo'ladi. Bolalarda o'z-o'zini o'rganish va tarbiyalashga ishtiyoq kuchayadi. Murabbiy va tarbiyachilar bu davrda bolalar uchun yaqin maslahatchi, yo'l ko'rsatuvchi, yaqin kishiga, o'rtogga, do'stga aylanadi. Bu bolalarga jamoaning hayoti haqida gapirishga, takliflar va tavsiyalar berishga sharoit yaratsa, murabbiy va tarbiyachilarga esa har bir bola bilan suhbatlashishga, har bir bolaga e'tibor qaratishga imkoniyat beradi. Shu sababli ham MTM ning deyarli barcha guruhlari «Ma'naviyat saboqlari» mashg'ulotlarini o'tkazish mumkin. Kichik yoshdagi guruhlarga (2 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalar guruhi) bunday mashg'ulotlarni nima yaxshi-yu, nima yomon, nima mumkin-u, nima mumkin emas? kabi savollar orqali olib borish mumkin. 3 yoshdan 6-7 yoshgacha bo'lgan bolalar tarbiyalanadigan guruhlarda esa muayyan mavzu bo'yicha «Ma'naviyat saboqlari» mashg'ulotlarini olib borsa bo'ladi.

Quyida MTMda olib boriladigan «Ma'naviyat saboqlari» mashg'ulotlarining namunaviy mavzulari tizimini keltiramiz (Ularning barchasida mashg'ulotning umumiy maqsadi mashg'ulot bo'yicha belgilangan ta'limiy, tabiiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar uyg'unligida shakllantiriladi):

1. Uyat va uyatsizlik. Bu mavzuda mashg'ulot olib borishda dastlab biror kishini uyatli ish qilganini va bunday holatning uyatsizlik ekanligini bolalarning o'ziga ma'qullatib olish kerak.



Bu mavzu bo'yicha ish ko'rganda sharm-hayo tushunchasiga ham e'tibor qaratish kerak bo'ladi, chunki uyat va uyatsizlik tushunchasini bolalar ongiga singdirishda hayosizlik turmushda ko'pgina fojialarni keltirib chiqarishini unutmaslik kerak. Ana shu asosda «so'nggi pushaymon o'zingga dushman», degan hukmiy fikrning mohiyatini bolalarga mos va xos aniq dalillar asosida tushuntirish kerak. Bu bolalarning MITsida o'ta muhimdir. Ushbu mashg'ulotlarda quyidagidek qimmatli ma'lumotlardan foydalaning:

* * *

«Hayo birla adab yoshlik chiroyini orttirur».

Habibiy

* * *

«Hayo imondandur, hayo doimo yaxshilik keltiradi».

(«*Hadis*»)

* * *

«Hayo bilan kamsuxanlik imonning ikki bo'lagidur».

(«*Hadis*»)

* * *

«Odamiylik dini birla,
Toza imon O'zbekim ... «.

Erkin Vohidov

Bular o'zbek xalq mentalitetini ham belgilab beradigan mezonlardir.

Mashg'ulot oxirida quyidagicha xulosaga kela olsangiz mashg'ulotingiz samarali bo'lgan bo'ladi:

• **demak, uyat** – jamiyatning va insonning insoniyligini belgilovchi buyuk fazilat ekan;


• **uyatsizlik** – esa bironing haqiga jabr qilish, bironlarga nomardlik qilish va inson degan nomga dog' tushiruvchi yaramas ishlar qilishga odatlangan kishi turmush tarzi ekan.

2. Insof va insofliik.

Bu mavzu bo'yicha ish olib borishda odamlarda insofning borligi va shu tarzda turmush kechirayotgan odamlarni insofli kishi deb atash mumkinligi to'g'risida bolalarga ma'lumotlar berishni o'ylash kerak. Shuningdek, mashg'ulot paytida «Insof sari baraka», «Insof qiling-da birodar», «o'g'ri bo'l, g'ar bo'l, insof bilan bo'lginda» kabi xalqimizda shakllangan fikrlarning mazmun-mohiyatini yoritishga harakat qiling.

Bolalar ongiga insofli odam bo'lish insoniylik belgisi ekanligini va unga erishish uchun katta mehnat qilib o'tirish shart emasligini, faqatgina bunga ozgina qunt qilish kerakligini singdirish va amal qilgan odam doimo kam bo'lmasligini uqtirib borish kerak.

Bu mashg'ulotda quyidagi didaktik materiallardan foydalangan ma'qul:



«Dunyoda insofli
odamdan buyukroq
zot yo'q».

R. Rollau

* * *

«Mo'min kishi bironing haqiga xiyonat qilmaydi».

(«Hadis»)

* * *


«Insof eng yaxshi fazilatdir. Kimda insof bo'lsa, u mard kishidir».

(«O'talar so'zi»)

Mashg'ulotni olib borishda insofli odam o'zining g'ururini, oru-nomusini saqlay oladi va shu g'urur hamda nomus uchun doimo kurashib yashash kerak, degan xulosaga kelishga harakat qiling!

3. Oriyat va oriyatlilik.

Bu mashg'ulotda oriyat katego-riyasi va oriyatli odam haqida ma'lumot berilishi kerak. Oriyat tushunchasini oilaning yoki mahallaning or nomusi bilan bog'lab tushuntirgan ma'qul.



Bolalarga odamlar ichida moddiy manfaatdan ko'ra or-nomusni afzal ko'radigan odamlar borligini tushuntirib bunga pahlavonlardan, tashkilot rahbarlaridan, vatan qahramonlaridan misollar keltiring.

Bu mashg'ulotda quyidagi didaktik materiallardan foydalangan ma'qul:

* * *

Siz o'zbeksiz, o'ziga beksiz,
Arzigay etsangiz mingbor iftixor.
Shu ulug' shuhratga munosib bo'lib,
G'am-alam neligin ko'rmangiz zinhor.

Kalonxonov M., Kalonxonova M.

* * *


Bironing oldiga borgandan non deb.
Uyda jim o'tirgan yaxshidir jon deb.
Har kim tama' yo'lin tutsa agar pesh,
Oqibat bir kuni bo'lg'usi darvesh.

Nizomiy Ganjaviy

Mashg'ulotda inson or-nomusi, mahalla ori va vijdoni, degan axloqiy tushunchalarni bolalar ongiga singdirishga erishsangiz mashg'ulotingiz samarali bo'ladi, degan xulosaga kelishingiz mumkin.

4. Nomusingiz - oringiz va g'ururingizdir.

Bu mashg'ulotlarni bazi bir chaqiriqlarni aytish va ularning mazmunini bolalar ongiga singdirish orqali olib borgan ma'qul. Ya'ni:



- qani yigitlar g'ururingiz, nomusingizni saqlang, kam bo'lmanglar, bo'shshamanglar!;
- qizning nomusi oilaning nomusi, bungga oringiz qanday yo'l qo'yadi;
- falon oilaning nomusi hammamizning nomusimiz, sizlarda g'urur bormi o'zi va shu kabilar.
- Bu mashg'ulotga oid didaktik materiallar sirasiga quyidagi kiradi:

* * *

«Har bir azobga ham roziman tayyor
Nomusim aziyat chekmasin zinhor».

Pyer Kornel

* * *

«El mehrini qozon ey o'g'lim,
El duosi-oliy saodat.
O'z xalqiga qayishsa har kim,
Chekinadi ofat,qabohat».

Kalonxonov M., Kalonxonova M.

* * *

«To'g'rilik odamni balodan qutqaradi».

(«O'talar so'zi»)

* * *


«Egri daraxtning soyasi ham egri bo'ladi».

(«O'talar so'zi»)

Mashg'ulotingizning xulosa qismi nomusni saqlash muqaddas burch ekanligi va uni saqlash uchun inson oriyatli va g'ururli bo'lish kerakligini bolalar ongiga singdirishga erishishga harakat qiling!

5. Odob va odoblilik.

Bu mavzu bo'yicha ish olib borishda bog'chadagi bola odobi to'g'risida faoliyat yuritganingiz ma'qul.



Odobning inson uchun go'zallik bezagi ekanligi, shuning uchun odobli bolani ota-onasi ham, qarindosh-urug'lari ham, do'stlari ham yaxshi ko'rishligini ular ongiga singdirish kerak. Ularga mos quyidagidek didaktik materiallardan foydalangan ma'qul:

* * *

«Odob ahli bilan hamsuhbat bo'lish - gullar hidi ufarayotgan tong nasimidin ham shirin».

(«O'talar so'zi»)

* * *

«Odobli odam tabibga o'xshaydi, u bilan suhbatlashish ko'ngildagi g'amni quvadi».

(«O'talar so'zi»)

* * *

«Aql bilan odob jism bilan jon».

(«O'talar so'zi»)

* * *

«Axmoq g'azablansa, shayton unga akalik qiladi».

(«O'talar so'zi»)

* * *

«Sababsiz kulgu-beodoblik belgisi».

(«O'talar so'zi»)

Bolalarga odoblik bilan odobsizlikning farqini singdira oldingizmi, demakki siz bu mashg'ulotni uddaladingiz. Mashg'ulot xulosasi shuni ta'minlasi bo'ldi.

6. Tejamkorlik – muhtojlikka muhtalo bo'lmashlikning asosidir.

Bu mashg'ulotda avvalo mavzuning mazmunini bolalarning yoshiga mos tarzda shuntirish kerak. Ayniqsa tejamkorlik nima? va muhtojlik nima?, degan savollarga javob berishi kerak. Bunda oila iqtisodi, oila yehtiyoji, oilaviy orzu-havas, oila imkoniyati kabi tushunchalarga ham e'tibor berilsa yaxshi bo'ladi. Bu mavzuda quyidagi didaktik materiallardan foydalanishni tavsiya etamiz:

* * *

«Pul, halol, pok yo'l bilan qilingan mehnat evaziga topilmog'i lozim».

(«O'talar so'zi»)

* * *

«O'g'rilik, pora, aldanchilik, qalloblik bilan orttirilgan boylik haromdir».

(«O'talar so'zi»)

* * *

«Rejali ish buzilmas. Rejasiz ish-qolibsiz g'isht».

(«O'talar so'zi»)

* * *

«Nimani xor qilsang, shungga zor bo'lasan».

(«Xalq maqoli»)

* * *

«Pulni qanday topishni emas, uni qanday sarf qilishni biling».

(«O'talar so'zi»)

* * *

«Pulni ishlatsang ozayadi, aqlni ishlatsang sayqal topib ko'payadi».

(«O'talar so'zi»)

* * *

«Ko'p yeyish oz yeyishdan ham mahrum qiladi».

(«O'talar so'zi»)

* * *

«Muhtojlik hiylalar eshigini ochadi».

(«O'talar so'zi»)

* * *

«Och boydan to'q it yaxshi».

(«O'talar so'zi»)

* * *

«Har qanday narsada isrofgarchilik bo'lishi mumkin, ammo yaxshilik qilishda u bo'lmaydi».

(«O'talar so'zi»)

* * *

«Shamni kunduzi yondirgan odamning tuni qorong'u bo'ladi. Pulni behuda isrof qilgan odam og'ir kunda xor bo'ladi».

(«O'talar so'zi»)

* * *

«Mol-mulkini behuda isrof qilish aqlsizlik, boylikni o'ylamasdan sarflash tanazzul alomatidir».

Xolbo'ta To'raqulov

Tejamkorlikka oid pedagogik masala tuzib, uning yechimlarini tahlil qiling va bu mavzuga oid rivoyatlardan foydalaning. Masalan, uchta non haqidagi rivoyat va shu kabilar.

Xulosada bolalar ongida tejamkor bo'lmasa, isrofgarchilikka yo'l qo'ysak oxir oqibatda kambag'al, qashshoq va muhtojlikka duchor bo'lar ekanmiz, degan fikrni shakllantira olsangiz, demakki, maqsadga erishgansiz.

7. Insonparvarlik - ma'naviy boylik.

Bu mashg'ulotda insonni ulug'lashga katta e'tibor qaratish kerak. «Inson – tabiat gultoji» va «Inson-jamiyat yetakchisi» kabi fikrlarni bolalar ongiga tushunarli qilib yetkazing. Bunga sabab insonparvarlik o'zbek xalqining ajralmas fazilati va yana insonparvarlik o'zbek xalqining ajralmas xislati hamdir.

Bu mashg'ulotda quyidagi didaktik materiallardan foydalanilsa mashg'ulot samarali bo'ladi:

* * *

«Har kimki, xazrati insonni sajda sazovor demasa u mal'undir»

Mirzo Bedil

* * *

«Hayot eng yaxshi murabbiydir»

(«O'talar so'zi»)

* * *

«Otaga itoat-Allohga itoat qilishdir»

(«Hadis»)

* * *


«Insoniyliги bo'lmaganing muloyimligi ham bo'lmaydi»

(«O'talar so'zi»)


Mashg'ulot xulosasida bolalarning o'z guruhlaridagi do'stlarini va MTM dagi tarbiyalanuvchilarini, tarbiyachi va murabbiylarini, otanasini, aka-ukasi, opa-singillarini, qarindosh-urug'lari va xullas odamlarni hurmat qilishiga erishsangiz, bilingki, siz buni uddaladingiz.

8. Vatanparvarlik - o'z vatanin sevmogdir.

Bu mashg'ulotda vatanparvarlik haqida so'z yuritishdan oldin, Vatan tushunchasining



«Odami ersang, demagil odami, O'ntikin yo'q xalq g'amidin g'amis».
Alisher Navoiy



«Vatanin sevmog imondandir»
«Hadis»

mazmun -mohiyatini yoritish kerak. «Vatan» soʻzi arabcha soʻz boʻlib, uning maʼnosi «Ona - yurt»ni anglatadi.

Jonajon Oʻzbekistonimiz - oʻzbek xalqining Vatani, muqaddas ona yurti ekanligini bolalar ongiga singdiring, chunki shoir aytganidek,

Dunyo boʻldi chamanim manim,

Oʻzbekiston vatanim manim, deb ularga taʼkidlang.

Vatan ona kabi aziz va muqaddas ekanligini va u insonga baxt-iqbol beradigan muqaddas qoʻrgʻon ekanligini bolalar ongiga singdiring. Ushbu jarayonda quyidagi didaktik materiallardan foydalaning:

* * *

«Hamma uchun eng ulugʻ Vatan - bu uning ona Vatani».

Xolboʻta Toʻraqulov

* * *

«Hamma uchun eng ulugʻ shahar - bu uning ona shahri».

Xolboʻta Toʻraqulov

* * *

«Har bir kishining chindan ham tugʻilib oʻsgan shahri va mamlakati shul kishining vatani deyilur. Har kim tugʻilgan, oʻsgan joyini jonidan ortiq suyar».

Abdulla Avloniy

* * *

«Vatan-sajdagoh kabi muqaddas».

Islom Karimov

* * *

«Mening bitta hayotim bor, bordi-yu mingta hayotga ega boʻlgan taqdirimda ham hammasini Vatan uchun sarflagan boʻlur edim».

Fuzuliy

* * *

«Kimki oʻz yurtini sevmasa, u hiech nimani seva olmaydi».

(«Otalar soʻzi»)

* * *

«Oʻz vataniga dogʻ tushurish uni sotish degan soʻz».

(«Otalar soʻzi»)

* * *

«Kimki oʻz Vataniga daxldor boʻlmasa u insoniyatga ham daxldor emas».

(«Otalar soʻzi»)

* * *

«Yashna ko'hna Turon-Turkiston,
Gulla go'zal, hur O'zbekiston.
Yasha xalqim, elim jonajon,
Xo'p ajoyib zamon keldi-ya».

Komil Sindorov

* * *


«Oilani muqaddas deb bilmagan odamga muqaddas vatanning o'zi yo'q».

Xolbo'ta To'raqulov

Mashg'ulot davomida bolalarni o'zini vatanparvar deya olishga erishsangiz, ularning oilasiga, MTM siga, ota-onasiga, qavmu-qarindoshiga va umuman xalqiga muhabbatini o'yg'otishga asos solgan bo'lasiz.

9. Halollik – inson fazilatining ko'rki.

Halollik – bu insonlar uchun ruhsat qilingan yaxshi, ijobiy ishlar, hatti-harakatlar majmuasidir.



Bu mashg'ulotda Vatanga nisbatan halollik, ota-onaga nisbatan halollik, MTM ga nisbatan halollik va umuman xalqiga nisbatan halollik to'g'risida gap borsa yaxshiroq bo'ladi. Bularning hammasiga halol mehnat bilan va ularga nisbatan muhabbat bilan faoliyat yuritish orqali erishish insoniy fazilat ekanligini bolalar qalbi va ongiga joylang.

Mashg'ulotga oid didaktik materiallar:

* * *

«Halol mehnat bilan topilgan va xayrli ishlarga sarflangan boylikdan ko'ra yaxshiroq boylik yo'q»

(«O'talar so'zi»)

* * *

«Umrini dangasalik bilan o'tkazgan odamga hych qachon muvaffaqiyat yor bo'lmaydi».

(«O'talar so'zi»)

* * *

«Hamma uchun yarashadigan fazilat - bu halollik».

Xolbo'ta To'raqulov

* * *


«Kasbga halollik ham bir ibodatdir».

Tursunoy Sodiqova

Mashg'ulotingizda bolalar oilasiga, jamoasiga, xalqiga, vataniga ongli munosabatda bo'lishni xohlashsa, ularda halollik ramzi, inson fazilati ko'rki degan tushunchalarni paydo qilgan bo'lasiz.

10. Hunarli xalq - xor bo'lmas.

O'zbek xalqi qadimda ham kasb-hunarli xalq bo'lgan. Hattoki payg'ambarlarimiz va aziz - avliyolarimiz ham biror kasb - hunar bilan shug'ullanganlar.



Mashg'ulotingiz davomida bolalar ongiga odam hunar egallash bilan yuqori martabalarga erishish mumkinligi va hunarsiz kishi hamisha jamiyatga foydasiz bo'lishligi hamda uning hyech kimga nafi tegmasligini singdiring.

Mashg'ulotda quyidagi didaktik materiallardan foydalaning:

* * *

«Xunarli er xor bo'lmas,
burda nongga zor bo'lmas.»

(«Xalq maqoli»)

* * *

«Kimki o'z kasbini xor qilsa, unda baraka bo'lmaydi va hyech qachon el e'zozidagi, xalq e'tiboridagi inson ham bo'la olmaydi.»

Xolbo'ta To'raqulov

* * *

«Agar kimki biror kasbni, hunarni, ilmni egallashni istasa, unga faqatgina havas qilish yetarli emas ... »

Xolbo'ta To'raqulov

* * *

«Hunar - hunardan unar».

(«Xalq maqoli»)

* * *

«Yigit kishiga yetti hunar oz».

(«Xalq maqoli»)

* * *


«Pul qo'lining kiri, hunarning esa turgan-bitgani zar».

(«Xalq maqoli»)

Mashg'ulotingizdan «Yigit kishiga qirq hunar ham oz», «Hunarli odam xor bo'lmas» kabi fikrlarning mazmun - mohiyatini bolalar anglasa, demakki, siz buni uddaladingiz.

11. Adolat va vafodorlik.

Bu mashg'ulot davomida diqqat – e'tibor adolatning imkoniyat bilan uyg'unligiga qaratilishi lozim. Yana shuni bilingki, adolat so'zining mazmunidan poklik, to'g'rilik, halollik, haqiqat kabi insoniy belgilar mazmuni ham joy olsin.



Adolat g'oyasini rad etib bo'lmaydi va u bevosita vafodorlik bilan uyg'unlikda qaralsa inson fazilatining ko'rkiga aylanadi.

Mazkur mashg'ulotda quyidagi qimmatli fikrlardan foydalaning:

* * *

Xondamir Alisher Navoiyga quyidagidek baho bergan: «Adolat va insof eshiklarini insoniyat yuziga ochib qo'ydi».

* * *

«Vafo-kishilar qalbidagi quyosh nuri. U shunday kuchga egaki, u tufayli mehr-oqibat, ko'z ilg'amas jasoratlar sodir bo'ladi».

(«Otar so'zi»)

* * *

«Men har kimga va'da bersam, unga vafo qildim, har bir va'daga xilof ish qilmadim. Men doimo va'dalarimni aniq bajarsam, shundagina odil bo'lishimni va hych kimga jabr yetkazmasligimni angladim.»

Amir Temur

* * *

«Turayin, borayin, yurayin, olamni ko'rayin, olamda vafoli odam bo'lsa, men uni qidirayin».

Yusuf Xos Hojib

* * *

«Va'daga vafodorlik iymondandir».

(«Hadis»)

* * *

«Mard odamning va'dasi ham naqd, ham tez bo'ladi».

(«*Otalar so'zi*»)

* * *

«Vafoli odamning do'stlari ham samimiy bo'ladi».

(«*Otalar so'zi*»)

* * *


«Faqat ilm bilan balandmas odam,
Axdu vafu bilan baland-past odam.
So'zi bilan ishi bir bo'lsa agar,
Har narsadan baland, muqaddas odam».

Umar Xayyom.

Bular orqali bolalar ongiga insoniyat yaratilgandan buyon odamlardagi adolat nomli hayotiy-axloqiy mezon qadrlanib kelayotganligini singdirish mumkin va bu quyidagicha xulosa chiqarishga imkoniyat yaratadi: Demak, adolat hukm surgan joy gullab-yashnagan, xalqi erkin va turmushi farovon bo'lgan. Adolat oyoq osti qilinggan joylarda esa norozilik, urush-janjal bo'lib, razolat hukm surgan, jamiyat tubanlikka yuz tutgan.

12. Muloqot-muomala odobi.

Bu mashg'ulotda har bir kishi o'zining boshqalar tomonidan izzat – ikrom va hurmat qilishlarini istasa, u boshqalarning ham hurmatini joyiga qo'yishi lozim-



ligini bolalarga uqtirish kerak, chunki insonning ma'naviy qiyofasi uning muloqot madaniyatini ifodalaydi va o'z navbatida muloqot-muomala odobini belgilaydi. Muomala esa xushxulqilikni, samimiylikni, to'g'ri bilishlikni talab etadi. Muloqot madaniyatida farzandlarning ota-onalari oldidagi vazifalari mavjud. Bola oiladagi ota-onalari, buvi va bobolarining o'zaro munosabatlaridan andoza olishga harakat qiladi.

Mavzuga oid didaktik materiallar:

* * *

«Hamma ishlaringizda to'g'ri bo'ling, odamlarga muomalada xulqingiz chiroyli bo'lsin».

(*Hadis*)

* * *

«Tilga e'tibor, elga etibor».

(«Xalq maqoli»)

* * *

«Bug'doy noning bo'lmasin, burro so'zing bo'lsin».

(«Xalq maqoli»)

* * *

«Achchiq til zaxari ilon, chuchuk tilga jon qurbon».

(«Xalq maqoli»)

* * *


«Muloqot-bola aqlini oziqlantiruvchi eng muhim omil».

«Donolar nasihati»dan

Xulosa qilib aytganda xalqimizda sermazmun, ma'noli va maqtovg'a oid so'z iboralari juda ko'p. Ularni o'rganish odamlar o'rtasidagi suhbatni yanada sermazmun, yanada jozibador qilib, muomala muhitining hissiyotlilikini oshiradi va suhbatdoshlarini yanada yaqinlashtiradi. Bular mashg'ulotingizning diqqat markazida bo'lgan bo'lsa, siz bu mashg'ulotni samarali olib borgan bo'lasiz.

13. Salomlashish – tarbiyaning boshi.

Mashg'ulotingizni salomlashishdan boshlashingiz - bu tabiiy hol. Shu yerda uning ma'nosiga e'tiborni qarating, ya'ni «Assalomu alaykum» – bu arabcha so'z bo'lib, u



«Sizga tinchlik istayman»-degan ma'noni anglatishligini va «Va alaykum as-salom» bu ham arabcha so'z bo'lib, u «Sizga ham tinchlik bo'lsin» ma'nosini anglatishligini ayting. Keyin chala salom («Assalom alayka», «Valayka», «Salom», «Salom alaykum», «Salom berdik», «Alaykum» va shu kabilar) madaniyatsizlik belgisi ekanini aytib, salomlashish qoidalarini mashq qildiring.

Mavzuga oid didaktik materiallar:

* * *

«Insongga sharaf va kamolot bag'ishlovchi insoniy sifat salomdan boshlanadi».

Xolbo'ta To'raqulov.

«Xushmomalalikni salomdan boshlaylik, bu go'zal sifat baxt-saodatga erishuvda tuganmas xazina ekanini unutmaylik».

Xolbo'ta To'raqulov.


«Salomlashish odobini hech qachon tark etmang. Bu sizni hasad va adovatdan saqlaydi».

Xolbo'ta To'raqulov.

Mashg'ulotda bolalarga salomlashish insonning insonga bildirgan hurmati, odamlarning o'zaro muomala va munosabatlarining boshlanishi, bir-biri bilan uchrashuvchi ikki dilning kaliti ekanligini yetkaza olsangiz mashg'ulot maqsadiga erishgan bo'lasiz.

14. Mehmondorchilik odobi.

Mashg'ulotingizning shiori «O'zbek xalqidek, mehmondo'st xalq yo'q» dan iborat bo'lsin. Mehmondorchilik ketma-ketligi:



uyga mehmon kelsa darhol salom berilib uyga taklif qilinadi; o'tirib fotihaga qo'l ochilib, tilak bildirib, dasturxon yozishga kirishiladi; dasturxonga dastlab non qo'yiladi va keyin shu tariqa boshqa narsalar qo'yiladi.

Uyiga kim kelishidan qat'iy nazar uy egasi xizmat qilishi kerak. Bu bo'yicha MTM da trening o'tkazing.

Mehmonga kelgan kishi ham o'zini odobli tutishi, mezbonlarni hijolat bo'ladigan holatga tushurmasligi, nojo'ya ishlar qilmasligi va ketish paytida uy egasining roziligini olib, xayrlashishlari lozim bo'ladi.

Mavzuga oid didaktik materiallar.

«Adlu ehson bilan jahon gulshani obod bo'ladi».

Amir Temur

«Tili shirin odamning do'sti ko'p bo'ladi».

(«Otalar so'zi»)

«Tinch bo'lay desang, nafsining xohishiga qarama-qarshi ish qil».

(«Otalar so'zi»)

* * *

«Mehmonni deydilar atoyi Xudo,
Mezbonlik burchini joyiga qo'ygin.
Dasturxonning fayzli, chehrang dilkusho.
Aylab mehmoningning mehriga to'ygin».

Kalonxonov M., Kalonxonova M.

* * *

«Bir kun tuz yegan joyga qirq kun salom ber».

(«Xalq hikmati»)

* * *

«Uyga kelganni it qopmas».

(«Xalq maqoli»)

* * *

«Mehmon kelar eshikdan, rizqi kelar teshikdan».

(«Xalq maqoli»)

* * *

«Saxovatli bo'lmasang ham mayli, ammo isrofgar bo'lma».

(«Otalar so'zi»)

* * *

«Mehmon - atoyi Xudo».

(«Xalq maqoli»)

Bolalar ongiga uyga mehmon kelish yaxshilik, mehmonga xizmat qilish insoniy fazilat ekanligini singdira olsangiz mashg'ulotingizning tarbiyaviy samarasi bor.


15. Ovqatlanish odobi.

Ovqatlanish odobiga amal qilish o'sha inson uchun ham fazilat, ham poklik, ham tozalik va xullas insonning insoniyatini ko'rsatadigan sifatiy belgi.

Bolalarga yakka tartibda va jamoa bo'lib ovqatlanish qonun-qoidalarini o'rgatish kerak. Jamoa bo'lib ovqatlanish xosiyati yoritilishi kerak.

Ovqatlanishni «Bismillohur rahmonir rohiym», deb boshlash kerakligini bolalarga o'qitish kerak. Ovqatni kim, qachon boshlashini va kim, qachon duo qilishini bolalarga ta'kidlash kerak.

Mavzuga oid didaktik materiallar.



* * *

«Odamlar bilan murasoyu madoraga kirishish ham sadaqa hisoblanadi».

(«Hadis»)

* * *

«Qanoatli kishining hamisha qorni to'q».

(«Otalar so'zi»)

* * *

«Badanning quvvati ovqat, ruhning quvvati ilmdir».

(«Otalar so'zi»)

* * *

«Qorin yemoqdan zavq oladi, aql esa hikmatdan».

(«Otalar so'zi»)

* * *

«Non-hayot demak».

(«Otalar so'zi»)

* * *

«Dasturxonga to'kilgan taom va ushoqlarni terib yeydigan odamning gunohlari to'kiladi».

(«Hadis»)

* * *

«Ulug' odamlar hamisha taomda tiyinganlar».

O. Balzak


Ovqatlanish paytida ota-onalar bilan ovqatlanishga to'g'ri kelsa, oldin kattalar, keyin esa yoshiga qarab kichikroqlar taomga qo'l cho'zganlari ma'qul.

Mashg'ulotingiz samarasini ko'rish uchun bolalarga uylaringda qanday tartibda ovqatlanasizlar, deb savol berib ko'ring.

16. Kiyinishning husnga mosligi va ularning odob bilan uyg'unligi.

Insonning ham shaklan, ham ma'nan, ham ruhan go'zal bo'lishi - haqiqiy go'zallikdir. Bu uchta jihatdan uyg'un

holda foydalangandagi insondagi xalqparvarlik, ma'rifatparvarlik, halollik, rostgo'ylik saxiylik kabi insoniy xislatlarni shakllantirish – **bu ma'rifatdir**, buning aksi bo'lib qolganda esa, ya'ni insondagi xudbinlik,



«Yuzing qora bo'lsa ayb emas, yuraging qora bo'lmasin».

(«Otalar so'zi»)

o'g'rilik, egrilik, baxillik, yalqovlik, jaholat, johillik kabi illatlar paydo bo'lib qolsa - **bu jaholatdir.**

Bu mashg'ulotning asosiy nuqtai nazarida jaholat ustidan ma'rifat g'alabasi tarannum etilmog'i lozim.

Bu mashg'ulotga oid didaktik materiallar quyidagi ko'rinishda bo'lishi mumkin:

* * *

«Ko'r bo'l, shol bo'l. nom qoldir.

Yaxshi nom qoldirish ulkan boylik topishdan afzal».

(«Otalar so'zi»)

* * *

«Aql dil go'zalligi bilan qo'shilsa fazilatga aylanadi. Aks holda-aql fazilat emas».

Arastu

* * *

«Bir donishmanddan so'rabdilar:

- Odam uchun yarashadigan kiyimlar ichida eng go'zali qanday kiyim?

Donishmand javob berdi:

- Odam uchun yarashadigan eng go'zal kiyim bu axloq-odob kiyimidir. Kishi qiyofasini bezaydigan, uning husniga husn qo'shadigan bundan ortiq kiyimni topish qiyin».

(«Donolar bisoti»dan)

* * *

«Kiyimingga, tashqi ko'rinishingga zeb berguncha, odob bilan so'zlashni, yurish-turishni, kishilar bilan javob-muomala qilishni o'rgan».

(«Xalq hikmati»)

* * *

«Odamning qiymati emas simu zar,

Odamning qiymati bilim va hunar».

(«Xalq hikmati»)

* * *

«Kiyiming janda bo'lsa ham ganda bo'lmasin».

(«Xalq hikmati»)

* * *


«Inson nafosati va did-farosatining bir ko'rinishi toza va ixcham holdagi nafis kiyinishidir. Kiyimning zamonaviy, milliy bo'lishi yigitu - qizlarga ham, erkagu-ayolga ham va hattoki bolalarga ham husndir».

(«Otalar so'zi»)

Mashg'ulotingizda odobli, axloqli, aql-zakovatli, kamtarin insonlar hech qachon kiyimga, yaltir-yultirga, modaga, chet el kiyimlariga ruju qo'ymaydi, degan xulosaga kelgan bo'lsangiz, ushbu mashg'ulotingizdan bolalarga foydangiz tegibdi.

17. Halollik va rostgo'ylik - insoniylik belgisi.

Halollik, poklik, rostgo'ylik, adolatlilik, imonlilik va shu kabilar insonning insoniyligini belgilovchi sifatiy belgilardir.



Shuning uchun ham farzandni yoshligidan boshlab halolu, poklikka, rostgo'yligu haqiqatgo'ylikka o'rgatishi kerak. Bu masalani hal etish yo'llari mashg'ulotingizda aks etsa yaxshi bo'lar edi. Bu mashg'ulotda halollik bilan poklikni va rostgo'ylik bilan yolg'onchilikni taqqoslab, ular oqibatlarini bolalarga tushuntirib, ayniqsa salbiy holatlarda kim ko'proq zarar ko'rishini va aziyat chekishini ularga tushuntiring.

Mavzuga quyidagi ma'lumotlardan didaktik material sifatida foydalaning:

* * *

«Insonning chin ma'nodagi insonligi uning imoni, diyonati, mehr-oqibati, pokligu halolligi, kamtarligi rostgo'yligi bilan o'lchanadi».

(«*Otalar so'zi*»)

* * *

«Imonli odam barcha qiyinchilik va mahrumliklarga ongli ravishda bardosh bergan holda halollik va poklik, insof va diyonatlilik, ezgulik va rostgo'ylik kabi fazilatlarini o'zida gavdalantirishga harakat qiladi».

(«*Otalar so'zi*»)

* * *

«Pok va halol bo'lmagan odamdan ezgulik chiqmaydi, unda mehr-shavqat, oriyat, nomus, sharm va hayo bo'lmaydi».

(«*Otalar so'zi*»)

* * *

«Halol va pokiza kishi doimo xotirjam tinchlikdadir, birovga yomonligu xiyonat qiladigan kishi esa halokatga girftor».

Maxmud az-Zamaxshariy

* * *

«Musulmon bo'lishning eng oliy shartlaridan biri bu halollik, halollik va yana halollik».

(«Hadis»)

* * *

«Sabru qanoatni diliga mahkam joylashtirib olganlarning kelajagi yorug', kuni va baxti iqboli bo'ladi».

(«Otalar so'zi»)

Mashg'ulotingizni hulasalashda quyidagilarga etibor bering: mashg'ulotda bolani sofdil, halol va rostgo'y bo'lishga unday oldingizmi; bolalarga rostgo'ylik, halollik bilan egizak sifatlar ekanligini singdira oldingizmi; halollikka odatlangan inson rostgo'y bo'lishini bolalarga uqtira oldingizmi; rostgo'y insonning qalbi pok bo'lishligini va bundan insonlarda qalloblik, g'arazgo'ylik va firibgarlik kabi illatlar bo'lmasligini bolalar qalbiga jo qila oldingizmi? Agar siz bu savollarga javob topa olsangiz, mashg'ulotingiz a'lo darajada o'tibdi.


18. Tozaligu ozodalik, pokizaligu soflik - inson ziynati.

Musulmonchilik qonun – qoidalari va talablariga ko'ra tozaligu ozodalik, pokligu soflik inson uchun eng zarur xislatlardir. Ular bo'lgan joyda dil ravshan, bular bo'lmagan joyda esa inson tabiati xira, kayfiyati xufton bo'ladi. Mashg'ulotning maqsadi bolalarimizni mustaqil hayotga tayyorlash bilan birga, ularda tozalik, ozodalik, poklik, soflikni odatiy holga keltirishdan iborat bo'lishi kerak, chunki har qanday odamni kiyinishidan tortib, yashaydigan uyi va tarbiyalanadigan bog'chasigacha toza bo'lsa, u shaxsiy ozodalikka va poklikka rioya qilsa, o'z vaqtida yuvinib tanasini o'z vaqtida parvarish qilib borsa, bunday odamlarni barkamol inson deb atash mumkin va bunday insonlar ma'naviy jihatdan ham yetuk bo'ladi.

Mavzuga oid didaktik materiallar sifatida quyidagilar taklif etiladi:

«Nopok odamlar birov ko'rmaydigan guvoh bo'lmaydigan holat bo'ldimi, ular davlat, el mulkiga chang soladi, o'g'rilik, poraxo'rlik, fohishalik kabi jirkanch ishlar bilan shug'ullanadilar. U uchun mamlakat ravnaqi, xalq farovonligi ikkinchi darajali hisoblanadi. Bunday nopok kishilar ko'p bo'lgan jamiyat taraqqiy etmaydi».

(«Otalar so'zi»)



* * *

«Vafosizda hayo yo'q, hayosizda vafo yo'q».

(«Xalq maqoli»)

* * *

«Insondagi mavjud husn va latofat hayo ila iffatdir.»

(«Otalar so'zi»)

* * *

«Kishida ilm bilan halollikning birga bo'lishi buyuk fazilat».

(«Otalar so'zi»)

* * *

«Tozalikdan qochgan kishi xastalik domiga tushadi».

(«Otalar so'zi»)

* * *

«Tozalik badanning quvvatini ko'paytiradi va go'zalligiga go'zallik qo'shadi».

(«Otalar so'zi»)

* * *


«Go'zal yuz ko'z nurini oshiradi».

(«Otalar so'zi»)

Mashg'ulotingizda bolalarga tozaligu ozodalikning va pokizaligu soflikning inson ichki ma'naviyatining negizlari ekanini tushuntira olgan bo'lsangiz, demakki, xayrli ishlarni amalga oshirdingiz, chunki ular odamning insoniy ziynatlaridir.

19. Sharm hayo va andisha insoniylik ziynatidir.

«Buyuk faylasuf Ibn Sino insonning eng yaxshi xislati uning odobi, sharm hayosi, nazokatida ekanligini, «Hayvonlar xunuk ish qilsa, ayblanish kerak emas, lekin inson vujudi aql bilan munavvar bo'la turib, tubanlikka yuz tutsa, odamgarchilikni yo'qotib, axloq doirasidan chiqsa, bunga hayratlanish darkor» degan edi» [19. 249-250 b].



«Odob ila sen ulug'lik
olgin, hikmat gavharini
qo'yingga so'lgin».
«Donolar bisotidan»

Mashg'ulot davomida sharm-hayo, iboli va andishali bo'lishni bolalar ongiga singdirish barobarida sharm-hayo bu oriyatli bo'lish, har qanday joyda va har qanday holatda o'zini tuta bilish, andishali bo'lish, o'tirganda, yurganda, so'zlaganda odob doirasidan chetga chiqmaslik kerakligini ularga uqtirish kerak. Sharm-hayo va andisha haqida donolar

fikrlari, hikmatlar, rivoyatu hikoyatlar va maqollar xalqimizda juda ko'p. Quyida ulardan bazilarini keltiramiz:

* * *

«Sharm-hayo va andisha – har qanday fazilatlarining negizi».

T. Dratzer

* * *

«Har qiz-u, har yigitga andisha-yu hayo lozim».

(«Xalq qo'shig'i»dan)

* * *

«Demakim, ko'ngli poku ham ko'zi pok,
Tili poku, so'zi pok, o'zi pok».

Alisher Navoiy

* * *

«Kimki ko'p so'ylaydi besharmu hayo,
Topmas izzatu obro' elaro».

Abdulqosim Firdavsiy

* * *

«Oqil ahli hirsga giriftor bo'lmas».

Pahlavon Mahmud

* * *

«Inson farzandi bir-biridan kiyim bilan emas, balki ayniqsa, aqli,
fazilati, ilmu-hunari, or-nomusi bilan farq qiladi».

Abay

* * *

«Sharm – hayo va andisha insonning go'zal sifatlari ekanligini
unutmaylik bular inson baxt-saodatining tuganmas xazinasidir».

(«Otalar so'zi»)

* * *

«Adabsizlik jo'shqin bir sel oqimidirki, u ulug'vorlik va vazminlik
saroyini xarob etadi».

(«Otalar so'zi»)

* * *

«Go'zal tarbiya insonga shon-sharaf bag'ishlaydi. Tarbiyasiz inson
sharaf va kamolotdan maxrumdir».

(«Otalar so'zi»)

Bu kabi materiallar yordamida siz hayo, andisha, uyalish kabi
fazilatdarni bolalarga singdira olsangiz, kelajakda ularda bo'lishi


mumkin bo'lgan qo'pollik, madaniyatsizlik, vaxshiylik va vafosizlik, hayosizlik kabi illatlarning paydo bo'lishini oldini olgan bo'lasiz.

Dono mutafakkirlarning yuqoridagi kabi fikrlari insonning o'z insoniyligini namoyon qilishda juda ham kerak bo'ladi. Bunday mashg'ulotlardan «Ma'naviyat saboqlari»da muntazam ravishda foydalanib borish farzandlarimizni jamiyat taraqqiyoti darajasiga mos va xos qilib tarbiyalashda mustahkam ma'naviy paydevordir.

20. Kamtarga kamol.

Alisher Navoiy kamtarlikka quyidagicha ta'rif beradi:

El yo'lida gard
o'lubon dard ila,
Kibr ko'zin ko'r
etib ul gard ila.



Bular insonning axloqiy madaniyatining yuksalishida va ayniqsa, insonlarni odamiylik, xushmuomalalik, kamtarlik, mardlik, oliyhimmatlik kabi xislatlarga yo'llashi bilan ahamiyatlidir.

Xalqimizda «Kamtarga kamol» degan gap bor. Ha, bu isbot talab qilinmaydigan haqiqat. Bunga sabab kamtar kishi kibr-havoli bo'lmaydi, manmanlikni o'ziga odat qilib olmaydi, takabburlik qilmaydi, bironing qilgan yaxshiligini oshiradi, o'zinikini esa yashiradi, ya'ni xulosa qilib aytganda o'ziga talabchan va o'z «Men»i bilan yashagan odam – bu kamtar odamdur. Ular o'zini kamtarona va tabiiy holda tutadilar.

Mashg'ulotga oid didaktik materiallar:

* * *

«Kamtarlik inson fazilatining oltin qirralaridan biridir».

(«Otalar so'zi»)

* * *

«Kamtarlik insondagi kibr-havo va manmanlikning dushmanidir».

Xolbo'ta To'raqulov

* * *

«Manmanlikning ko'chasi cho'tir,

Yurma unga xatar tuyasan.

Kamtarlikning to'rida o'tir,

El mehriga shunda to'yasan».

Kalonxonov M. Kalonxonova M.

* * *

«Soyda o'sgan qamish g'o'ddayar,
Oltin boshqoq egib turar bosh.
Lekin qamishdan bo'yra yasalar,
Boshqoqdan non-misoli quyosh.»

Kalonxonov M. Kalonxonova M.

* * *

«Mo'min kishining yaxshi niyati qilgan amalidan ham yaxshidir.»
(«Hadis»)

* * *

«Kamtar bo'lsang obro' ortar,
Manman bo'lsang ensa qotar.»

(«Otalar so'zi»)

* * *

«Kamtarlik jasorat toji.»

(«Otalar so'zi»)

* * *

«Kamtarlik ko'kka ko'tarar,
Manmanlik yerga kiritar.»

(«Xalq maqoli»)

Demak, siz mashg'ulotingizda bolalarga kamtarlik oliyanob xalqimizning eng go'zal fazilati ekanligini yetkaza oldingiz.

O'zingizda esa bu fazilat mardlikning yo'ldoshi, odamlarning qadr-qimmatini yuksakliklarga ko'taruvchi axloqiy sifatlarni barkamol qiluvchi harakatlantiruvchi kuch ekan, degan xulosaviy fikr shakllangan bo'lsa, demakki, bu mashg'ulot samarasiz emas.

21. Nutq madaniyatida muloyimlik.

Odam bolasi tug'ildimi,
unga tarbiya kerak, unga
bola shaxsi sifatida qarab
madaniy – ma'naviy
ozuqa kerak. Oila va
qolaversa davlat yoshlar

kelajagini, baxt - saodatini o'ylasalar va ularning ma'naviy yetuk shaxs bo'lib yetish ishini xohlasalar, ulardan faxrlanish va g'ururlanishni istasalar, ularning bolalik chog'idanoq aql zakovatining o'sishiga, ma'naviyati yuksalishiga e'tiborni kuchaytirishlari kerak. Ushbu jihatlarni yuksaltirishda bolaning nutq madaniyati va uning asosiy negizini tashkil etuvchi insoniy fazilat bo'lmish muloyimlik muhim ahamiyat kasb etadi, chunki muloyim, madaniyatli kishilar odamlarga

«Har kishining bor esa yaxshi
so'zi. O'qitar' obro'sin
albatta o'zi.»

Shayx Sa'diy

nisbatan sezgir va e'tiborli bo'ladi. Shu sababli ham ushbu mavzu materiallaridan boshqa mavzu materiallari bo'yicha mashg'ulotlar olib borishda ham foydalanish mumkin.

Mavzu bo'yicha didaktik materiallar:

* * *

«Dunyoda odam bolasi yomonlik bilan yaxshilikning ostonasida turadiki, arzimas bir ichki yoki tashqi sabab bilan ostonadan chiqib, yo yomonlik tomon, yo yaxshilik tomon ketib qoladi»

(«*Otalar so'zi*»)

* * *

«Yuziga boqma, so'ziga boq».

(«*Donishmandlar hikmati*»)

* * *

«Suxandonlik salomdan, ish intizomdan boshlanadi».

(«*Xalq hikmati*»)

* * *

«Bug'doy noning bo'lmasa ham shirin kaloming bo'lsin».

(«*Xalq hikmati*»)

* * *

«So'z – qudratli kuch».

(«*Xalq hikmati*»)

* * *

«Kimki muloyim bo'lsa saodatlik,
Kimki kamgap bo'lsa salomat bo'ladi».

(«*Otalar so'zi*»)

* * *

«So'zda sehr bor, she'rda hikmat».

(«*Hadis*»)

* * *

«Shirin so'z odamlarning qalbini bog'lovchi zanjirdir».

(«*Otalar so'zi*»)

* * *

«So'z kishining yuragidan darak beradi».

(«*Otalar so'zi*»)

* * *

«Har bir kishining so'zi aqliga yarasha bo'ladi».

(«*Otalar so'zi*»)

* * *

«Har bir soʻzning oʻz oʻrni bor, har bir ishning oʻz mavridi».

(«*Otalar soʻzi*»)

* * *

«Til keskir qilich, soʻz esa qaytarib boʻlmas oʻqdir».

(«*Otalar soʻzi*»)

* * *

«Sovuq soʻz bir urugʻ, undan faqat dushmanlik hosil boʻladi».

(«*Xalq hikmati*»)

* * *

«Nutq qudratli kuch: u ishontiradi, undaydi, majbur etadi».

R.U. Emerson

Mashgʻulotda har bir soʻz, har bir fikrni bolalarga burro-burro qilib, aniq yetkazishga harakat qilganingizga ishonamiz - buning oʻzi sizdagi pedagogik mahoratdir.

Bunday mavzular bolalarni milliy va umuminsoniy ruhda tarbiyalashda maʼnaviy ozuqa boʻla oladi.

22. Xushmuomalalik - kamtarlikning muhim belgisi.

Xushmuomalalik – kamtarlikning muhim belgisi boʻlib, u insonning goʻzal fazilatlaridan biridir. Uni baholashni, kamtarlik va shirin - suxanlikni eʼtiborga olish orqali amalga oshiriladi.

Xushmuomalalik – nazokatlilik belgisi hamdir. Bunday insoniy fazilatga ega boʻlgan odamlarda katta-kichikka oʻziga yarasha muomala qilish sanʼati kuchli boʻladi.

Mashgʻulotda quyidagi didaktik materiallardan foydalanish maqsadga muvofiq:

* * *

«Kamtarlik va xushmuomalalik barkamollikning bosh sharti».

L.N. Tolstoy

* * *

«Bu dunyoda har bir narsa oʻzgaradi, ammo fazilat qonunlari sira ham oʻzgarmaydi».

(«*Donolar hikmati*»)

* * *

«Dili ochiqqa yoʻl ham ochiq».

(«*Turkman maqoli*»)

Unutmang mazkur fazilatning asosida bolalarda o'zaro munosabatlar madaniyatini shakllantirish yotadi va bunda xayrixohlik hamda atrollardagilarga nisbatan xushmuomalalik muhim ahamiyat kasb etadi.

23. Ziyraklik.

«Zirakilik bu insondagi tez fikrlik, o'ylagan narsani darrov topa olish qobiliyatidir.

Inson o'z mulohazasi ziyrakligini, hamisha oshirib borishi kerak, agar u yomonlikka qaratilsa, bu xislatlar razillik, makkorlik, aldanchilikka olib boradi» (*Abu Nasr Forobiy*).

Ziyraklik insonning odamlar bilan muloqotda va undagi so'zni o'z o'mida foydalanishida namoyon bo'ladi. Odamning fahm - farosatligi, odobi, o'zini odobli tutishini ziyraklik tartibga solib turadi va bunday sifatga ega bo'lgan odamlar atrofidagi insonlarga nisbatan munosabat va muloqotda ularning insoniy qadr - qimmatini pasaytirmaydi.

Mashg'ulotga oid didaktik materiallar:

* * *

«Bir so'z kuldiradi,
Bir so'z o'ldiradi».

(«Xalq maqoli»)

* * *

«Bilmagandan bilgan yaxshi,
To'g'ri ishni qilgan yaxshi».

(«Xalq maqoli»)

* * *

«Sabr-bardosh – Oллоhdan,
Shoshqaloqlik shaytondan».

(«Hadis»)

* * *

«Xasisdan: «Arqoningizni berib turing! « - desang,
«Unga un solib qo'rganman» deydi».

Xolbo'ta To'raqulov

* * *

«Yozda dangasaga: «Eshikni och» - desang,
«Tashqari suvuq», deydi».

(«Otalar so'zi»)

Demak, ziyraklik quyidagi odob me'yorlariga amal qilishga asos bo'la oladi:

- qachon gapga qo'shilish va qachon sukut saqlashni biladi;
- nima yaxshi-yu, nima yomonligini biladi;
- nimani qilish mumkin-u, nimani qilish mumkin emasligini biladi;
- odamni xafa qilmaslikka harakat qila oladi;
- keskin vaziyatlarda o'zini qanday tutishni biladi;
- boshqalarni kamsitmaydi, ularning nafsoniyatiga tegmaydi.

Bular MTM dagi bolalarga mos oddiy odob hissini paydo qilish tarzida olib borladi.

Mashg'ulotda bolalarda ziyraklikning dastlabki elementlarini shakllantirilsa ham yetarli bo'ladi.

24. Jonkuyarlik.

Muborak Hadisu


Shariflarda «Xodimlaringdan qanchalik ishni yengillatsang qiyomat kunida o'shanchalik ajr taroziga tushadi» va

«Alloh g'ayratli odamni yaxshi ko'radi», degan naqlar bor. Keltirilgan hadislarining birinchisi bevosita ota-onalar va murabbiylarning bolalar tarbiyasiga bag'ishlangan faoliyatiga tegishli, chunki har qanday ota-ona yoki murabbiy farzandlari va tarbiyalanuvchilariga ta'lim-tarbiya berishga jonkuyar, ularga e'tiborli, pok dilli, fidoiy va jasoratli bo'lishlari lozim. Ana shundagina jamiyat taraqqiyotiga mos va mustaqilligimizning qadriga yetuvchi yoshlarni shakllantirishga erishamiz.

Jonkuyarlikni bolalarda sodda hollardan boshlash kerak. Masalan: siz bozordan to'lib-toshib kelayapsiz, ikki qo'lingiz ham band, shunda farzandlaringiz yugurib borib narsalarni uyga olib kelishga ixtiyoriy ravishda yordamlashsin; yig'layotgan kichkintoy ukasini yupatsin; -ko'-chada ketayotgan kishining qo'lidan tushib ketgan narsani darhol egasiga olib berishga shoshilsin; jamoat joylarida o'zidan katta odamlar kirish yoki chiqishda to'g'ri kelib qolganda ularni eshikni ochib turib o'tkazib yuborish va hokazo.

Demak, boladagi jonkuyarlik biror ishni yoki faoliyat turini olib borishda ularga aytmasdan turib ongli ravishda bajarishidan boshlanar ekan.

Mavzuga oid bo'lgan tahlil uchun materiallar:



* * *

«Mardlik va muruvvatni Alloh ham, xalq ham ulug'laydi».

Amir Temur

* * *

«Yaxshilik yo'lida chekilgan mehnat yerda qolmaydi».

(«O'talar so'zi»)

* * *

«Alloh g'am - tashvishli odamlarga yordam berganlarni do'st tutadi».

(«Hadis»)

* * *

«Zahmat chekkan lazmatni yaxshi biladi».

(«O'talar so'zi»)

* * *

«Zahmat chekmagan xush baxt bo'lmaydi».

(«O'talar so'zi»)

* * *

«Insonni inson qilib yetishtiruvchi narsa - tarbiyadir».

Demokrit

* * *

«Tarbiya – bu odamzotning o'z farzandlarini dunyoga keltirib, uni boqib, ta'lim-tarbiya berib barkamollik sari voyaga yetkazish uchun qilinadigan sa'y – harakatlari va g'amxo'rliklari hamda murabbiylklari majmuidir – bu jonkuyarlik emasmi?»

Xolbo'ta To'raqulov

* * *

«Ona qalbi bitmas-tuganmas mo'jizalar manbaidir».

P. Beranje

* * *

«Baxt mehnatni takomillashtirib borishdadir».

Ya. Raynis

* * *

«Farzandim deb yashaydi inson.
Farzand erur hayot ma'nosi.
Farzand dilga shu'lai afshon,
Farzand - ko'rar ko'zlar ziyosi.»

Kalonxonov M., Kalonxonova M.

* * *

«Ota-onangni o'zingdan rozi qil,
Sen ularning qadrini ko'p yaxshi bil.
Ol duosin ularning, top kamol,
Yor bo'lg'ay baxtli iqbol bezavol».

Abdiy

* * *

«Og'ir tosh yerdan ming azob bilan ko'tarib olinadi. Uni tashlab yuborish esa juda oson. O'sib, martabaga erishish huddi tosh ko'tarishga o'xshaydi. Martabadan tushish esa toshni tashlab yuborishdek bir holdir».

(«Hikmatlar»dan)

* * *

«Murod, maqsad xazinalariga mehnat, jonkuyarlik, fidoiylik, jasoratlilik ko'priklari orqali o'tiladi».

Xolbo'ta To'raqulov

* * *


«Hayot bamisoli ko'zgu – har bir inson unda o'zini ko'radi. Agar ho'mrayib boqsang hayot ham senga zarda bilan qaraydi, unga doim tabassum bilan boq, ana shunda hayot senga do'stona qo'l cho'zadi».

(«Hikmatlar»dan)

Siz ushbu mashg'ulotda jonkuyarlikka fidoiylik va jasoratni uyg'un holda olib borsangiz mashg'ulotingiz ijobiy tarbiyaviy ta'sirlarga yanada boy bo'ladi.

25. Boladagi ma'naviy sifatlar.

Ota-onalarning o'z farzandlarida axloqiy fazilatlarini shakllantirishi, ular tufayli niyat qilgan orzulariga yetishishga asos bo'lib xizmat qiladi. Bu borada oilada ham



«Boladagi ma'naviyat, uning yaxshiligi hush ko'rishi va yomonlikdan yuz o'g'irishida namoyon bo'ladi».

Xolbo'ta To'raqulov

bolalarimiz ongi va qalbiga ma'naviy sifatlarini singdirib borishimiz kerak. Ular: ezgu - niyatlilik; bunyodkorlik; yaxshilik qilishlik; samimiylilik; odoblilik; andishalilik; sharm-hayolilik; pokizayu – tozalik; rostgo'yligu – haqiqatgo'ylik; xushmuomalaligu – muloyimlik; ziyrakligu – donolik; jonkuyarligu – fidoiylik; jasoratlilik – qahramonlik; dilkashligu – xushfe'llik; kamtarligu – o'ziga talabchanlik; sabrliligu – mas'ulyatlilik; intizomlilik – tartiblilik; tashabbuskorligu – yaxshilikka intiluvchanlik; mustaqilligu – erkin fikrlilik;

mehnatsevarligu – tirishqoqlik; mehribonligu – ezgu niyatlilik va shu kabilar.

Ma'naviy sifatlar og'ushida tarbiya topgan boladan kelajakda hyech qachon salbiy illatlarga yo'g'rilgan inson yetishib chiqmaydi.

Mavzuga oid didaktik materiallar:

* * *

«Avvalo onangga yaxshilik qil, yana onangga, yana onangga yaxshilik qil, so'ngra otangga yaxshilik qil! «.

(«*Hadis*»)

* * *

«Mehribonlik faqat insonni emas, hatto hayvonni ham rom qiladi».

(«*Otalar so'zi*»)

* * *

«Do'stlikka sadoqat oliy fazilat,
Sadoqatsiz do'stlik misli puch yong'oq,
Do'stingga sadoqat qilsang bemiinat,
Dil uying yorishib ketadi mutloq».

Kalonxonov M., Kalonxonova M.

* * *

«Har bir yaxshilik sadoqatdir».

(«*Hadis*»)

* * *

«Yaxshilik qilmoq yomon falokatdan asraydi».

(«*Hadis*»)

* * *

«Nonni hurmatlanglar».

(«*Hadis*»)

Mashg'ulotingizda bolalar ongiga yoshligidanoq ma'naviy sifatlarga amal qilish lozimligini singdira olsangiz va unga amal qilishda ularning tartib intizomli bo'lishini hamda ular o'zlarining hatti-harakatlari davrida bu sifatlarni namoyon bo'lishini uqtirsangiz foydadan holi bo'lmaydi.

26. Bola tarbiyasida «Menga nima?»ning ahamiyati.

Odob hamisha kishining zebu – ziynati bo'lib kelgan va u orqali odam go'zal xulq egasi, deb ta'riflangan. Shu sababli ham odobli kishi elning e'zozidan, xalqning e'tiboridan tushmagan. Ammo

«Tarbiya masalasida
menda narsa yo'q».
N.I. Piragov

ming afsuslar bo'lsinkim, ota-onalarimizda, murabbiy va tarbiyachilarimizda va unuman xalqimizda «Menga nima?» – degan illat bor. Yoshlar tarbiyasida hyech kimning «Menga nima?» deyishga haqqi yo'q. Chunki yoshlar tarbiyasiga e'tibor har bir ongli insonning jamiyat oldidagi burchi, ham ma'sulyatidir. Ayniqsa, har bir rahbar, o'qituvchi va muallim, tarbiyachi va murabbiy, ota – ona bola tarbiyasida «Menga nima?» - degan so'z birikmasini ishlatmasligi va uning domiga tushib qolmasligi kerak.

«Menga nima?» nomli so'z birikmasining til nuqtai nazaridan ma'nolariga e'tibor beraylik. Mana ular:

• «**Menga nima?**» – bu loqaydlik belgisi bo'lib, bola tarbiyasidagi nuqsonlarga e'tibor bermaslik alomatidir;

• «**Menga nima?**» – bu hamma holat, narsa va jarayonlarga befarqlik bilan qarashning hosilasi bo'lib, u odamdagi taraqqiyparvarlik yo'qligini ko'rsatuvchi belgi;

• «**Menga nima?**» – bu insonning faqatgina o'z «Men»ini hurmat qilish belgisi bo'lib, bu illat orqali odamlarda faqatgina e'tiborsizlik va ma'sulyatsizlik tomir otadi;

• «**Menga nima?**» – bu jamiyat davlat va hattoki o'z farzandlari (oilasi)ning taqdiri bilan qayg'urmaslik belgisi bo'lib, bunday odamlar umumjamoaning zararkunandalaridir;

• «**Menga nima?**» – bu jamiyat va tabiatni kemiruvchi, «Manqurt» odamlarning shiori bo'lib, bunday odamlardan hyech qanday manfaat yo'q, ular taraqqiyot zararkunandalaridir.

• «**Menga nima?**» – bular atrofida bo'layotgan salbiy ta'sirlar va ma'naviy tahdidlar hamda turli qo'poruvchiliklarga ham befarqlikdir, ular hattoki bunday holatlar o'zlarining boshlariga tushishi mumkinligini o'ylamaydi ham, ya'ni bular bor joyda bemalol fojiya va illatlarning tomir otaverishi mumkin;

• «**Menga nima?**» – bu xudbinlik kasalining borligidan dalolat, o'zidan boshqasini o'ylamaslikdir, hattoki ularni o'z oilasi va farzandlari taqdiri ham bezovta qilmaydi;

• «**Menga nima?**» – bu odamdagi nafs girdobiga tushgan kishining shiori, bunday odamlarni davlat taqdiri, jamoa taqdiri va hattoki oila taqdiri ham qiziqirtmaydi, ular faqat o'zim bo'lsam deydi va hokazo.

Mashg'ulotingizda shu kabi talqinlardan foydalanib, farzandlarni o'z ona yurtiga, vataniga, oilasiga, ota-onasiga, bog'chasiga hurmat ruhida tarbiyalaysiz, degan umiddamiz.

Mavzuga oid qo'shimcha materiallar quyidagilar:

* * *

«Munofiqlikning belgisi uchta: yolgʻon soʻzlash, vaʼdasining ustidan chiqmaslik va omonatga xiyonat qilish».

(«*Hadis*»)

* * *

«Biror narsaga ortiqcha muhabbat qoʻyish koʻzni koʻr, quloqni kar qiladi».

(«*Otalar soʻzi*»)

* * *

«Tarix yaxshini ham yozadi, yomonni ham».

(«*Otalar soʻzi*»)

* * *

«Moʻmin kishida quyidagi ikki xislat boʻlmasligi kerak: baxillik va axloqsizlik».

(«*Hadis*»)

* * *

«Odamlarning eng yomoni oʻz ahli ayoliga baxillik va qizgʻonchiqlik qiladiganidir».

(«*Hadis*»)

* * *

«Xalqing baxting erur, diyoring - taxting,
Ularsiz gʻaribsan, jondan judo sen.
Elu yurtning erur qoʻsha qanoting,
Sharofdir ular – chun boʻlsang fido sen».

Kalonxonov M., Kalonxonova M.

* * *

«Xalqing – baxting, yurtning – taxting».

(«*Xalq maqoli*»)

* * *

«Baxtingdan ayrilsang taxting yoʻq.
Taxtingdan ayrilsang baxting yoʻq».

(«*Xalq maqoli*»)

* * *

«Nafʻing agar xalqqa beshak erur,
Balki bu naf oʻzingga koʻproq erur».

Alisher Navoiy

* * *

«Foydali haqiqatlarni tez-tez gapirib, takrorlab turish lozim».

P. Buast

* * *

«Ruhni davolamay turib, tanani davolab bo'lmaydi».

Suqrot

* * *

«Bola hayotining dastlabki yili eng ma'sulyatlidir. Bu davrda bo'lajak inson sog'ligiga, uning jismoniy va aqliy rivojlanishiga asos solinadi».

M.Ya. Studenikin

* * *

«O'z bolaligini unutgan tarbiyachi yomon tarbiyachidir».

M. Ebner – Eshenbax

* * *

«Mehnat – baxt padaridir».

B. Franklin

* * *

«Bola qalbi ochilmagan tilsim, uni ochadigan kalitni topa bilish esa tarbiyachining mahoratiga bog'liq».

R. Usmonov

* * *

«Yaxshilar yonidan unga joy bo'lsin,
Yomonlarning holi ohu voy bo'lsin».

Abulqosim Firdavsiy

* * *

«Alloh yaxshilik qiluvchilarni yoqtiradi».

(«Hadis»)

* * *

«Tarbiyaning eng muhim qismi fe'l-atvorni shakllantirishdir».

K.D. Ushinskiy

Bu mashg'ulot orqali farzandlarimizni faqat o'zini o'ylamasdan, balki yurt taqdiri va xalqi farovonligini o'ylaydigan shaxs bo'lib yetishishiga ma'naviy ozuqa beraoldi deb o'ylaymiz.

27. Intizomlilik.

Intizomli odam Ko'zlagan maqsadiga erishishga qiynalmaydi.
Bunga sabab intizomli odam o'ziga belgilab olinggan qat'iy tartib va qoidalariga binoan izchil harakatlar

«Topshtirig berildimi, uning
bajarilishi kafolatlanishi lozim. aks
heida tartibsizlik boshlanadi».

Xolbo'ta To'raqulov

asosida faoliyat yuritadi. Shuning bilan birga intizomlilik tartiblilikdan kuch oladi va u orqali har qanday shaxs axloqiy kamolotga ham yeta oladi. Bunday tartiblilik – insonni topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarishini va har bir faoliyatda intizomlilik bilan faoliyat yuritishini ta‘minlaydi. Bularni bolalarimizga yoshligidanoq singdirib borish kerak. Bular orqali bolalarimizda ma‘naviy sifatlarni yanada yuksaltiramiz.

Mavzuga oid didaktik materiallar:

* * *

«Intizomli lashkar engilmas».

(«Xalq maqoli»)

* * *

«Davlatning koni manbai, tartib-intizom».

Abdulla Avloniy

* * *

«Ilmni yozib qo‘yish bilan bog‘lab olinglar».

(«Hadis»)

* * *

«Aqlli kishi o‘z nuqsonlari uchun uzr so‘raydi».

(«O‘talar so‘zi»)

* * *

«Tunda uxlagach, kunduzi yana uxlash ummi isrof qilishdir».

(«O‘talar so‘zi»)

* * *

«Vaqtни bekor o‘tkazish ahmoqlikdir».

(«O‘talar so‘zi»)

* * *

«Farzandlarimizga ishlar byurayotganimizda, ulardan qaysilarini birinchi, qaysilarini undan keyin bajarishiga tavsiya ham bergan ma‘qul».

Xolbo‘ta To‘raqulov

* * *

«Umumiy ish yo‘lida hamkorlikdagi ishlar, sizning doimiy nazoratingizda tashkil etilishi ko‘proq samara berishi hyech ham esingizdan chiqmasin».

Xolbo‘ta To‘raqulov

* * *


«Intizomlilik tartiblilikdan ozuqa oladi va bu adolatli qattiq qo‘llikni amalda qo‘llashda harakatlantiruvchi kuchdir».

Xolbo‘ta To‘raqulov

Mashg'ulotingizda tartib - intizomlilikka e'tibor bergan bo'lsangiz, u bolalar hatti-harakatlarida namoyon bo'ldi. Ammo bu hamma bolada bunday ro'y bermaydi. Mashg'ulot bo'yicha xulosa chiqarishda guruhdagi bolalarni qism guruhlarga bo'lib va bunda ularga bergan tarbiyangizni baholash oson kechadi.

28. Ota-ona hurmati.

Mazkur mavzu bo'yicha xohlagancha shug'ullanish mumkin. Ular ichidan bolalarga mos va ularga bahsboq materiallar topilsa mashg'ulot yanada ta'sirchan va samarali bo'ladi. Bu borada ota-onaning hurmatini bilish farzand uchun ham farz ham qarz va bu uyg'unlikdagi burch va mas'uliyatni amalga oshirish uchun bolalar nimalarga e'tibor berishi kerakligini bilish mavzuning diqqat markazida bo'lishi kerak. Bular asosan quyidagi yo'nalishlarda bo'lsa yaxshi bo'ladi:



«Boshni fido qilg'il ota boshig'a.
Jismni qil sadha ana qoslig'a.
Tun-kuningga ayligil murfosh.
Birisin oy ayta, birisin quyosh».
Altkber Navoiy

- oqil farzand har qanday ishga qo'l urishdan oldin ota-ona bilan maslahat qiladi;
- qobil farzand ota-onani davraning to'riga o'tiradigan xizmatlarni qiladi (Bu qanday amalga oshirilishi bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi);
- tarbiyali farzand ota - onasini ranjitadigan ishlar qilmaydi;
- «ota rozi xudo rozi» degan hikmatning mazmun-mohiyati bolalarga batafsil tushuntirilishi lozim va shu asosda tarbiyalangan bolalar ota roziligini muqaddas deb biladi;
- ota-ona bilan maslahatlashgan holda ish ko'radigan farzand hayotda qoqilmasligini tushuntirish kerak;
- farzandlar ongiga «Ota suygan farzandni el suyadi», degan naqlni singdirish kerak. Bunda bola hayotidan kelib chiqadigan yoqimli holatlarni sanab o'tish kerak. Ular: farzandning hamma ishi o'ngidan keladi; unga doimo omad kulib boqadi va shu kabilar;
- farzandlarga ota-onaga behurmatlik, aka-uka va opa - singillarni mensimaslik, o'z qadr-qimmatini yerga urish - bu farzandning o'z baxtiga zomin bo'lishi ekanligini tushuntirish;
- farzandning burchi eng avvalo, ota-onaga mehribonlik ko'rsatish, qariganda ularga madadkor va suyanchiq bo'lish, ularning shuhratini

ko'tarish va shunga o'xshashlar insoniylik holatlari ekanligini ularga tushuntirish.

Bunday xayrli va istiqbolli fikrlar qatorini davom ettirish mumkin va buning har bir yo'nalishi bo'yicha alohida mashg'ulot uyushtirsa bo'ladi. Buni qanday davom ettirish mashg'ulotingiz yo'nalishiga bog'liq.

Mashg'ulotga oid didaktik materiallar:

* * *

«Jannat onalar oyog'i ostidadir».

(«Hadis»)

* * *

«Ota - onasi o'lgan odamni emas, odob - axloqi bo'lmagan odamni yetim de:»

(«Otalar so'zi»)

* * *

«Onangdan bosh tovlama, oshmasin dardi,
Sharaf toji erur oyog'in gardi».

Abduraxmon Jomiy

* * *

«Otaga itoat qilish - Ollohga itoat qilishdir. Otaga osiy bo'lish - Allohga osiy bo'lishdir».

(«Hadis»)

* * *

«Otang qozi bo'lsa ham, gunoh ish qilma».

(«Otalar so'zi»)

Ushbu hikmatlarni xohlagancha davom ettirish mumkin. Sizing asosiy vazifangiz tarbiyalanuvchilarni odobli qilib tarbiyalash va iloji bo'lsa quyidagi ikki hikmatni yod oldirish, hyech bo'lmaganda ularning mazmun - mohiyatini ular qalbiga joylashdan iborat:

* * *

«El rizosin sen agar qilsang talab,
Boadab bo'l, boadab bo'l, boadab!»

* * *

«Odob ila sen ulug'lik olgin,
Hikmat gavharin qo'yningga solgin».

29. Milliy g'urur – ma'naviy komillik mezoni.

Mashg'ulotingizni salom – alikdan keyin quyidagicha boshlay-versangiz bo'ladi:

Milliy g'urur xalqning qadr – qimmatini,

boy tarixi va an'analari, madaniyati va ma'naviyati, tili va dini, dunyoga mashhur buyuk siymolar, tabiati, uning yer osti va yer usti boyliklari va shu kabilar bilan faxrlanish hissidir. Bu har kimga ham nasib qilavermaydi. E'tibor bering-a mahallangizdan bir buyuk siymo elga tanilgan bo'lsa, uni odamlar o'ziga yaqin olib bizga qarindosh (vaholanki u begona bo'lsa ham) bo'ladi deydi va aksincha mahallangizdan bir kishi yomon otli bo'lsa, u sizga qarindosh bo'lsa ham uni tanimaslikka olasiz.

Vatanimiz ham tarixan, ham zamonaviy jihatdan boy ma'naviy va moddiy merosga ega. Shu sababli bolalarni quyidagidek so'zlar bilan ardoqlab tarbiyalash kerak:

- sen tarixi boy, ulug' millatning farzandisan (bunga bolalarga mos qilib ma'lumotlar keltirib yuborish kerak);
- sen ulug' mutafakkirlar, allomai zamonlarni dunyoga keltirib, tarbiyalagan bobokalonlarimiz avlodisan;
- sen «buyuk ipak yo'li»da joylashgan xalqlar davomchisidan;
- sening yurtning yer osti va yer usti boyliklari bo'yicha ham boy, sen unga munosib bo'lishing kerak va sen bularni yanada boyitishga mas'uldiansan;
- o'zbek xalqi boy ma'naviyatli va vatanparvar xalq va sen unga sodiq bo'ladigan farzandsan;
- o'zbek xalqi vatangga sadoqatli xalq, u har qanday bo'ronlaru – to'fonlardan eson - omon o'tib kelayotgan xalq, sen unga munosib bo'lishing kerak;
- o'zbek xalqi imoni butun, vatangga sadoqatli va mehmondo'st xalq, sen unga xos va mos bag'rikeng bo'lib shakllanishing kerak;
- o'zbek halqi odamiylik dini birla, toza imonli xalq, sen uning davomchisi bo'lishing uchun bag'ring keng, imoning butun. xalq farovonligini va yurt tinchligiga qayg'uruvchi inson bo'lishing kerak;
- sen istiqloq farzandisan, endi uni mustahkamlash sening vatan oldidagi burching;

«Qanq bormay, boshda to'ppim,
Shuhratim, qadrim buyuk.
Olim usra nomi ketgan,
O'zbekiston, o'zbekim»
Erkin Vohidov

• bugungi o'zbek xalqi sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalab, ular orqali jahonga yuz tutishni o'ylagan ezgu niyatli xalq, seni ko'klarga ko'tarishni xohlagan xalq, sen bunga nima deysan? Sen bunga bor imkoniyating va vujuding bilan labbay deb javob berishing kerak. Bu sening **Ona vatan** oldidagi farzandlik burching va bu burch insoniylik nuqtai nazaridan ham, vatanparvarlik nuqtai nazaridan ham **muqaddasdir**.

Mana shular emasmi barkamollikni belgilovchi omillar, ular salmog'i ila ma'naviy kamolotni aniqlash mumkin. Shu sababli ham ularni ma'naviy kamolot mezonini, deb atadik.

Biz o'ylaymizki, mashg'ulotga oid didaktik materiallar xohlagancha topiladi. Bu mashg'ulotda yuqorida bolalarga qarata qilingan chaqiriqlarning o'zi yetarli bo'ladi.


Mashg'ulotingizda bolalarga jannatmakon yurt, o'zbek halqi bag'rikeng va mehnatkash xalq, yigitlari tanti va qizlari dilbar, xullas o'zbek xalqi yer yuzidan boshlab samogacha ma'lum va mashhur (Samoda allomalarimiz nomlari yulduzlarga qo'yilgan) xalq ekanligini singdirgan bo'lsangiz, siz bitta katta xayrli ishni amalga oshirdingiz.

30. Mehr ko'rsatib, muruvvat qil.

Mashg'ulot davomida har bir inson mehr va muruvvatni nafaqat o'z yaqinlarimiz (ota – onamiz, qarindosh-urug'imiz)ga,

balki uni xalqimizga, ya'ni mehrga muhtoj, muruvvatga

zor odamlarga ham qilishligi lozimligini o'qitmoq kerak. Xalqimizdagi mehr - oqibatlilik buyuk insoniy sifat ekanligini va uni avaylab - asrash hamda unga amal qilish mustaqil yurtimiz bolalari uchun ham farz, ham qarz ekanligini bolalarga uqtiraverishimiz kerak. Bunda ota-bobolarimiz o'g'itlari ta'sirchan vosita bo'ladi. Ular quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:



«Rivoyatlarda aytilishicha, bir kuni Iskandar Arastudan so'rabdi:

-»Dunyoning saodati nimadandir?»

Arastu shunday deb javob qilibdi:

-Mehr – muhabbat, mehr - oqibat, mehr - muruvvatdan. Zero, bu lutflarning zamirida bir so'z yotibdiki, u bularning onasi. Bu – mehr.

-Bu so'zning qudrati nimadan? – yana so'rabdi Iskandar.

-U odamlarga bir umr ruhiy kuch ato etadi. Begonalarni yaqinlashtiradi. Bu dunyoda yaxshilik urug'i unib chiqishiga doyalik qiladi». [19. 86-87 b.].

* * *

«Mehrlı inson bo'lsang, hayot senga kuladi.
Yurtingga xizmat qilsang, Omad senga kuladi.
Savob qilmay, mehr etmay muruvvatni izlama.
Ardoqsiz, muhabbatsiz, hayotda sen yashama». [19.85-b.].

* * *

«Yer ostida qolgan boylikdan, yashiringan oltından va bekitilgan ilmdan foyda yo'q».

(«*Otalar so'zi*»)

* * *

«Sog'lom avlodni tarbiyalash – buyuk davlat poydevorini, farovon hayot asosini qurish degani».

Islom Karimov

* * *

«Jajji chumчуqlarga ozor bergan bo'l
Kaslardan Allohı oldı zo'r qasos!
Sen mehr ko'rsatgil umringda, butkul
Dunyo qasos uchun topmasin asos».


Kalonxonov M., Kalonxonova M.

Ushbu mashg'ulotingizda qariyalar uyi, mehribonlik uyi, yetimlar, mayibu – majruhlar va shu kabilar haqida ham ma'lumot bering va ular ham xuddi sizni biz kabi Allohning bandasi ekanligini o'qtiring.

Mashg'ulotingizni quyidagi fikrlar bilan yakunlang: hayotda mehrlı bo'laylik; hayotda yaxshi so'z ham bir sadaqa; hurmat qilsang hurmat ko'rasan; izzat qilsang, izzat ko'rasan va xullas mehr bersangina mehr topasan, muruvvat ko'rsatmay uni izlama.

31. Hunar odamni boqadi.

Yoshlarga bilim va hunarlar haqida yoshligidanoq tushuncha berib borish kerak. Ular bu orqali oilada va bog'chada turli kasb-hunarga oid o'yinlar o'ynaydi va o'zlari havas qilgan hunarlarning mashhur kishilariga taqlid qiladilar. Bog'chada esa bunga o'yinchoqlar yordamida keng imkoniyatlar bor, chunki, bolalarning o'yinlarida ko'pincha chuqur ma'no yotadi. Bu borada donishmandlar va hozirgi



«Hunar oshivo'rga osh,
nonivo'rga non beradi».
(«Xalq maqolli»)

kundagi ulug' insonlar fikrlari va turmush tarzi haqidagi ma'lumotlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Bolalarga kimki o'z kasbu hunarini xor qilsa, unda baraka bo'lmasligini va hiech qachon hurmatli inson bo'la olmasligini qayta va qayta tushuntirish kerak. Mavzu nomini bolalarga har taraflama chuqur tushuntirish kerak va bunda ular hunar egallash bilan yuqori martabalariga erishish mumkinligini tushunsin.

Mashg'ulotga oid didaktik materiallar:

* * *

«Otam-onam o'tin terib, o'tin sotib meni boqqan, ulg'aytirgan. Ota-onamning terib kelgan o'tinidan qozonini qaynatgan, yetim-yesir duo qilgan ularni. Ota-onamning terib kelgan o'tinidan vayronasi, kulbasi isigan...»

Abu Rayhon Beruniy

* * *

«Hunar – bu tuganmas zarga o'xshaydi,
Hunarsiz misoli xorga o'xshaydi.
O'qi, hunar o'rgan desang eshitmas,
Kimsaning qulog'i karga o'xshaydi».

Kalonxonov M., Kalonxonova M.

* * *

«Mehnat orqali bolalaringizda tejamkorlik hissini shakllantiring».

(«Donolar nasihati»)

* * *

«Faqat mehnatgina hayot safosini surish huquqini beradi».

N.A. Dobrolyubov

* * *

«Kasb, kasb tubi nasib».

(«Xalq maqoli»)

* * *

«Ota kasb - oltin kasb,
Ota kasb – davlat kasb,
Ota kasbi qorin to'yg'izar».

(«Xalq maqoli»)

* * *

«Ota kasbi o'g'ilga halol,
Ota hunari bolaga meros».

(«Xalq maqoli»)

Shu mashg'ulot orqali bolalarga tejamkorlikka va mehnatga nisbatan ongli munosabatda bo'lishni, kasb – hunarni hurmat qilishni o'rgata olsangiz, bolalarning ma'naviy dunyoqarashini yuksaltirishga katta hissa qo'shgan bo'lasiz.

32. Milliy qadriyatlar.

Bu mashg'ulotda quyidagi milliy jihatlarga ko'proq e'tibor bering.

Qadr – bu inson uchun ahamiyatli bo'lgan hamda insonning umuminsoniyligini ko'rsata oladigan axloqiy tushuncha. Shu sababli ham inson uchun qadrli bo'lgan barcha narsalar **qadriyat** deb ataladi.

O'zbek xalqimizga tegishli va uning qadr-qimmatini ulug'lovchi milliy urf-odatlar, an'ana, marosim va bayramlar o'zligimizni namoyon qiluvchi asosiy ma'naviy meroslarimizdir.

«**An'ana** – tarixiy taraqqiyot jarayonida tabiiy va ijtimoiy ehtiyojlar asosida vujudga keladigan, avloddan – avlodga meros bo'lib o'tadigan, kishilar ma'naviy hayotiga ta'sir ko'rsatadigan ma'naviy hodisadir» [28. 254 – b.].


Urf – odatlar – bu xalqimizning turmush tarziga aylangan, umumomma tomonidan tan olingan va unga mos faoliyatni amalga oshirishdagi xatti-harakatlar hamda qoidalarning amaldagi foydasidir. Ular: salomlashish, mehmondorchiliklarda, uy va jamoatchilik joylarida tozalikka e'tibor berish, milliy bayramlarga munosabat, qariyalarni hurmatini joyiga qo'yish va ularga mehribonlik ko'rsatish, qiynalغان odamlarga yordam ko'rsatish, hashar, to'ylarni birga o'tkazish kabilarda yaqqol ko'zga tashlanadi.

«**Marosim** – inson hayotidagi muhim sanalarni nishonlashga qaratilgan rasmiy va ruhiy ko'tarinkilik vaziyatida o'tadigan, umum qabul qilgan tartib qoidalarga amal qilinadigan tadbir sanaladi». [28. 255 – b.].

Marosimlar: ism qo'yish; nikohdan o'tish; xotira va qadrlash; dafn etish; ekin ekish; urug' qadash va shu kabilar.

Ma'lumki, o'zbek xalqi hayotida ham hozirda ko'plab ijtimoiy va shaxsiy hamda oilaviy an'ana, marosim va bayramlar yuzaga kelmoqda, shuningdek, «An'anaviy bayramlar» ham ommaviy tus olmoqda.

Mashg'ulotga oid didaktik materiallar:



«Milliy urf-odatlar, an'ana va marosimlar o'zbekning o'zligidir».

(«Xalq hikmati»)

* * *

«An`ana o`ziga xos ijtimoiy hodisa bo`lib, u kishilar ongiga singib ketgan va umumomma va ma`lum guruh tomonidan tan olinggan hamda tartib qoidalar majmuidir».

(«Otalar so`zi»)

* * *

«Har qush o`z ovozidan shodlanadi».

(«Otalar so`zi»)

* * *

«Amaldorga el aytsa raxmat,
Baxt, shodlikka to`lib ketadi.
El qarg`asa bir kuni, albat,
Ming azobda o`lib ketadi».

Kalonxonov M., Kalonxonova M.

* * *

«Sovg`aning bo`lmaydi katta-kichigi,
U inson mehrining nishonasidir.
Sovg`asiga qarab bermagin baho,
Oddiy gul sovg`aning shahonasidir».

Kalonxonov M., Kalonxonova M.

* * *

«Inson zoti borki begona emas,
Bari bir otaning qavmi, bilsangiz.
Mehru oqibatli bo`ling har nafas,
Qadr topadirsiz, qadr qilsangiz».

Kalonxonov M., Kalonxonova M.

* * *

«Dunyoda topayin desang omonlik,
Birovga zarracha qilma yomonlik».

Muhammad Jabalrudiy

Biz bolalarimizni nafaqat oila uchun, balki umumomma (bog`cha, maktab, o`rta maxsus o`quv yurtlari, oliy o`quv yurtlari va undan keyingi hayot uchun ham) uchun ham milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq qilib tarbiyalashimiz kerak. Shu ma`noda, MTM ham muhim tarbiya maskanidir.

Mashg`ulotlarda milliy urf-odatlarimiz, qadryatlarimiz va an`analarimizni hamda ularning mazmun - mohiyatini bolalarimiz ongi va qalbiga singdirib borish insoniylik burchimizdir.

33. Inoqlik xayot lazzati.

Oilada va jamoada inoqlikni qaror toptirish uchun quyidagi qoidalarga e'tibor berish kerak: katta yoshdagi bobo va buvilarning hurmatini joyiga qo'yish, ular maslahatlariga rioya qilish; guruhdagi o'rtoqlari bilan

«Do'st mingga bo'lsa ham o'z.
Dushman bina bo'lsa ham
ko'pdir».

(«O'talar so'zi»)

munosabatida o'zaro hurmat bo'lishiga erishish; ustozlarining (murabbiy va tarbiyachilarining) hurmatini qozonish; sharqona pand-nasihatlariga va hikmatlarga doimo e'tibor berish; milliy urf-odatlar va milliy qadryatlarga e'tibor berish; turli tadbir va bayramlarni birgalikda o'tkazishni tashkil etish; tarbiyada bolalar yoshlari va qiziqishlarini e'tiborga olish; bolalarni mustaqil fikr yuritishga, o'zlarining burch va vazifalarini bajarib borishlarga o'rgatib borish; o'g'il bolalarni o'zlariga mos hunarlarga, qizlarni esa o'zlariga mos chevarliklarga o'rgatib borish va shu kabilar.

Bular mashg'ulotlaringiz diqqat markazida bo'lsa, juda ham yaxshi bo'lar edi.

Mashg'ulotga oid didaktik materiallar:

«G'amning davosi do'stlar diydorini ko'rish».

(«O'talar so'zi»)

«Odamlar orasida chaqimchilik va bo'xton gaplarni tarqatishdan saqlaning».

(«Hadis»)

«Omonatga xiyonat qiluvchida iymon yo'q, ahdida tutmaydiganlarda diyonat yo'q».

(«Hadis»)

«Bolalikka buyuk hurmat ehtirom bilan qarash lozim».

Yuvenal

«Bola qalbining eshigini ochuvchi kalit adolatgo'ylikdir».

R. Usmonov

* * *

«Kishi uchun o'z bolasiga odob bermog'i uning bir sa'i-sadaqa berganidan yaxshidir».

(«Hadis»)

* * *


«Bolalaringizga yaxshilikni singdirib o'stiring, unga baxtni faqatgina shu beradi».

L. Betxoven

Mashg'ulotingizda bolalarga yaxshi, muloyim, maqsadga muvofiq o'zaro munosabatda bo'lishni, ota-onalarning bolalari bilan o'zaro yaqin munosabatda ma'naviy yaqinlik kerakligini tushuntira olgan bo'lsangiz, mashg'ulotingiz samarali kechgan bo'ladi.

34. Illat illatni chaqirar.

Ma'lumki, har qanday kishida muhim bir bezak bor. U insondagi aql va unga mos odob go'zalligidir. Ushbu go'zallik kishiga



hayotda o'z o'rnini topishda muhim ma'naviy asosdir. Ammo, ming afsuslar bo'lsinkim, yoshlar orasida illatlar botqog'iga botib qolib, «Ma'naviy qashshoq»larga aylanib qolayotganlari ham yo'q emas. Mana illatlarning turlari qatoriga e'tibor bering.

1. Yolg'onchilik – yomon illat.
2. Yolg'onchilik - qabih illat.
3. Yolg'onchilik – iymonsizlik.
4. Chaqimchilik – illat.
5. Minnat – g'oyat jirkanch illat.
6. Insonning tanbal bo'lishi – illat.
7. Insonning takabbur bo'lishi – illat.
8. Batfe'llik – illat.
9. Manmanlik – imon kushandasi – illat.
10. Mansabparastlik – illat.
11. Minnat – illat.
12. Ochko'zlik – ofat – illat.
13. Loqaydlik – illat.
14. Manqurtlik – illat.
15. «Ma'naviy qashshoqlik» – eng yomon illat va shu kabilar.

Bunday illatlar qatorini yoʻnalishma-yoʻnalish qilib ham yozib chiqish mumkin. Bu illatlar qatoriga eʼtibor beradigan boʻlsak, ularning bittasiga muhtalo boʻlgan kishi, albatta, ikkinchisi, uchinchisi va keyingisiga ham muhtalo boʻlishi tabiiy. Bugungi yoshlarimizda bunday illatlarning boʻlishini oldini olishimiz kerak va buning uchun esa ularni yoshligidanoq (oilada va bogʻchada) shu kabi illatlarga yoʻliqishdan xushyor boʻlishimiz kerak.

Mavzuga oid didaktik materiallar:

* * *

Xasislik, ziqnalik yomon - illat!

«Xasislik, ziqnalik yomon odatdir,
U bir falokatdir, bir kasofatdir.
Ziqnadan uzoq yur, saxiyga yondosh,
Xotamlilik toledir, xasislik ofat!»

Kalonxonov M., Kalonxonova M.

* * *

Dilozorlik – illat!

«Yaxshi niyat bilan kelsa gar kishi,
Koʻnglini ogʻritma, bermagin ozor.
Niyati pok kishining qutlugʻdir ishi,
Bilgil, dilozordan Xudoyim bezor.»

Kalonxonov M., Kalonxonova M.

* * *

Yolgʻonchilik – qabix illat!

«Oʻzingni chin inson deb bilsang agar,
Faqat rost soʻzlarga koʻnglingni ochgil.
Rost soʻzda hikmat moʻl, u koni samar,
Yolgʻon soʻz doʻzaxga boshlaydi, qochgil!»

Kalonxonov M., Kalonxonova M.

* * *

Tanballik – illat!

«Kambagʻallik tanballik samarasi»

(«Otalar soʻzi»)

* * *

Yolgʻonchilik – yomon illat!

«Yolgʻon vaʼda berish bekorga dushman
orttirishdir».

(«Otalar soʻzi»)

* * *

Dangasalik – illat!

«Ko'p yotish xastalik keltiradi».

(«O'talar so'zi»)

* * *

Egrilik – buzg'unchilik asosi – yomon illat!

«To'g'ri bo'lsang o'sib-o'sib gul bo'lasan,

Egri bo'lsang bora-bora kul bo'lasan».

(«O'talar so'zi»)

* * *

Minnat – jirkanch illat!

«Qilgan yaxshiligini minnat qiluvchi va kishilarga la'nat aytib yuruvchi va og'zi beposhna hamda uyatsiz odamlar mo'min odamlar emaslar».

(«Hadis»)

* * *

Isrofgarchilik – tejamkorlikning ofati bo'lgan illat!


«Yenglar, ichinglar, kiyininglar, sadaqa qilinglar, ammo isrof qilmanglar, mag'rurlanmanglar!»

(«Hadis»)

Mashg'ulotingizda bolalarga illat illatni chaqirishiga yo'l qo'ymaslik, agarda mabodo ularning elementlari uchrab qolsa, (o'rtoqlarida ham uchrab qolsa ham) darhol u haqda ota-onalari yoki ustozlari bilan maslahatlashish lozimligini o'qirish kerak. Ular ongiga «Aybni e'tirof etish aqlli kishining ishi» («O'talar so'zi») ekanligini singdirish kerak.

35. Davlat ramzlariga hurmat.

«Davlat mustaqilligi ramzlari – davlat timsollari, ya'ni uning suvereniteti, milliy o'ziga xosligi, iqtisodiy ko'rsatkichlari, ijtimoiy – siyosiy tizimi, milliy mafkurasini ifoda etuvchi belgilar, eng muhim hujjatlar, g'oyalar va tushunchalar. Davlat ramzlari mustaqil davlat timsollari sifatida davlat bayrog'i, davlat gerbi, davlat madhiyasi, mamlakat Konstitusiyasi, milliy valyutasi, muhim qaror va an'alarida o'z ifodasini topadi. Davlat mustaqilligi ramzlari davlat mustaqilligini shartli ravishda belgilovchi tashqi belgi, ramz yoki timsollardir. Ular mazkur davlatning tizimi iqtisodiy asoslari, xalq tabiati - mentaliteti va



«Sog'lom avlodni tarbiyalash –
buyuk davlat poydevorini,
farovon hayot asosini qurish
degani».

Islom Karimov

boshqa muhim belgilarini anglatadi. Davlat ramzlari ko'p asrlik tarixga ega bo'lib, milliy davlat qurilishi va madaniy rivojlanish tarixi bilan bog'liq» [18. 127-128 b.].

Mashg'ulotni o'tkazish uchun murabbiylar va tarbiyachilar yuqoridagi fikrning mazmun - mohiyatini chuqur anglashi va unga oid ma'lumotlarni to'plashi lozim bo'ladi.

Guruh xonasida Prezidentimiz siymosi tushurilgan, madhiya yozilgan, gerb va bayrog'i hamda ularning tuzilishiga berilgan izohlardan yozilgan ko'rgazmali vositalar tayyorlanadi (Bunday materiallarni hozirda alohida-alohida ham birgalikda tayyorlangani ham topiladi).

Mashg'ulot davomida bolalar ongiga Prezidentimiz, Madhiyamiz, Qomusimiz, Gerbimiz va Bayrog'imiz – O'zbekiston deb atalmish buyuk davlatimizning mangu g'ururi ekanligi qayta-qayta singdiriladi va «Shu sababli ham bizning yurtimizga bo'lgan cheksiz hurmatimiz, mehrimiz, ular tufayli shakllangan g'ururimiz bizni davlatimizning mustaqilligini mustahkamlashning faol ishtirokchisi bo'lishga ilhomlantiradi, undaydi», degan fikrni ular qalbiga joylash kerak bo'ladi.

Davlat ramzlariga alohida-alohida sharh berib, ularga hurmat ham farz, ham qarz ekanligini va bu hurmat milliy g'ururimiz bo'lib, u farzandning eng avvalo, ota-ona oldidagi, mahalla oldidagi va eng asosiysi jonajon Vatanimiz oldidagi farzandlik burchi va mas'uliyati ekanligini ular ongiga singdirish kerak.

Mavzuga oid didaktik materiallar:

«Vatan ostonadan boshlanadi».

(«Otalar so'zi»)

«Davlatimiz ramzlari – bayroq, tamg'a, madhiya O'zbekiston xalqlarining shon-sharafi, g'ururi, tarixiy xotirasi va intilishlarini o'zida mujassamlashtiradi, mana shu ramzlarni e'zozlash o'zining qadr-qimmatiga, o'z mamlakatiga va shaxsan o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlash demakdir».

Islom Karimov

«Istiqlol, eng avvalo, ruhiyatni uyg'otadi. Mudroq vujudimizga shijoat bag'ishlaydi. Mamlakatimizga bo'lgan mehrimizni orttiradi va g'ururimizni yuksaltiradi».

Xolbo'ta To'raqulov

* * *

«Davlat ramzlariga bo'lgan munosabat, yurtga-vatangga bo'lgan munosabatdir».

Xolbo'ta To'raqulov

* * *

«Mustaqillik – bu avlodu ajdodlarimiz tomonidan bizga berilgan boy va muqaddas merosdir. Merosni avaylab - asrashimiz va uni kelajak avlodga bus – butun hamda takomillashtirib, sayqallab yetkazish biz yoshlarning muqaddas burchimizdir. Qolaversa bu davlat ahamiyatiga ega bo'lgan muhim masala hamdir».

Xolbo'ta To'raqulov

Mazkur mashg'ulot davomida bolalar qalbiga milliy qadryatlarga sodiqlik, milliy merosimizni avaylab asrashni, vatanparvarlik, xalqparvarlik, insonparvarlik kabi tuyg'ularni singdira olgan bo'lsangiz, siz yaxshi mashg'ulot olib borgansiz.

2.3. Maktabgacha ta'lim muassasalarida «Ma'naviyat saboqlari» darslarini tashkil etish va uyushtirish

«Ma'lumki, o'zbek xalqi azaldan o'zining bolajonligi, oilaparvarligi bilan ajralib turadi. Albatta, farzandga mehr qo'yish, ularning qornini to'q, ustini but qilish o'z yo'li bilan, lekin bolalarimizni yoshlik chog'idan boshlab **milliy tarbiya, axloq-odob, yuksak ma'naviyat asosida voyaga yetkazish biz uchun doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan.** Bu masalaga e'tibor

«Murabbiy (tarbiyachi), eng avvalo, ma'naviy jihatdan barkamol, dunyoqarashi keng, o'z yurti va xalqining g'oyasi va mafkurasining bayroqdori bo'lmog'i lozim».

Xolbo'ta To'raqulov

bermaslik nafaqat ayrim ota - onalar, balki butun jamiyat uchun ham juda qimmatga tushushini ham ko'pgina hayotiy misollarda ham ko'rish mumkin» [2. 35 – 36].

Ushbu fikr orqali odamzod uchun hamma zamonlarda ham eng buyuk boylik va ulug' meros bo'lib kelgan ma'naviyat insonning faol shaxs bo'lib shakllanishidagi ahamiyati, ma'naviyatli odamning oila, jamoa va jamiyat (davlat) hayotidagi o'rni hamda ma'naviyatsizlikning

jamiyat ma'naviy hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatishigacha bo'lgan holatlar yuzaga kelishi to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'lamiz.

Bu tarbiyachilar va murabbiylar oldiga ma'naviy – mafkuraviy tarbiyani zamon talablari asosida olib borishni talab etadi. Zamonaviy talablar esa hozirda, ya'ni bugungi murakkab globalashuv davrida ma'naviyat sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolardir. Ular: xalqimiz ma'naviyatini asrash va yuksaltirish; yosh avlodning qalbi ongiga turli zararli va yet g'oyalar kirib kelishining oldini olish, ya'ni yoshlarimizni mafkuralar ta'siridan saqlash va himoya qilish; yoshlarimizning hayot so'qmoqlaridan adashmasliklarini ta'minlash, ularni shiddatkor zamonning bo'ronu to'fonlaridan himoya qilish va eng asosiysi, yoshlarimiz tarbiyasida sog'lom nasl masalasi ham ushbu sohaning dolzarb masalalaridan biridir va u oiladan boshlanib, odamzod umrining oxirigacha olib boriladigan jarayondir. Shu sababli ham yoshlar tarbiyasiga beparvolik qilib bo'lmaydi, chunki ma'naviy tarbiyadagi loqaydlik tuzatib bo'lmas oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ham ulug'larimiz bola tarbiyasini ona qornidanoq boshlash kerak, deb bejiz aytishmagan.

Bu borada J.J. Russoning quyidagi fikri ahamiyatlidir: «**Tarbiya inson tug'ilishi hamona boshlanadi: chaqaloq hali gapirmaydi, ammo o'rgana boshlaydi. Bilish tarbiyadan kelib chiqadi**».

Bugungi kunda mamlakatimizda farzandlarimiz baxtu saodatini va istiqbolli kelajagini o'ylab uzluksiz ta'lim tizimi yaratildi va uni og'ishmay amalga oshirish uchun «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilingan, ya'ni bu masala davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.

Demak, jamiyatimiz va davlatimiz oldida ham yoshlarimizni barkamol qilib tarbiyalashdek muhim vazifa bor. Bu borada hayot abadiyligi avlodlar davomiyligini ta'minlaydigan ma'naviy – ma'rifiy tarbiya o'ta muhim bo'lib, uni amalga oshirish nafaqat asosiy vazifamiz, balki insoniylik burchimiz hamda Vatan oldidagi qarzimiz hamdir.

Shu sababli ham ma'naviy hayotimizni: milliy ong, milliy va umuminsoniy qadryatlarimizni; imon – e'tiqodimizni; g'oya va tafakkurimizni, urf – odat, marosimu an'analarimizni ongli his qilish va ularni asrab – avaylash kabilar ma'naviy olamimizni yanada yuksaltirishga mustaxkam poydevor bo'ladi.

Bularning barchasi bog'cha ta'lim - tarbiya tizimida hal bo'ladi. Bu muammo yechimini izlashni uzluksiz ta'lim tizimidan emas, balki oiladanoq boshlamoq kerak bo'ladi [22 – 24].

Bu borada, ya'ni ma'naviyatni shakllantirishda bevosita ta'sir qiladigan yana bir muhim omil – bu MTM dir. Bu omilning muhimligi shundaki, ushbu jarayonda bola tarbiyasiga oila bilan MTM si bab-baravar qayg'uradi, ya'ni bolaga tarbiyaviy ta'sir kuchlari birdaniga ta'sir qiladi. Shu bois uzluksiz ta'lim tizimining dastlabki talim turi bo'lgan maktabgacha ta'limga yuzaki qarashga, rasmiy yondashuvlar bilan chegaralanishga, puxta o'ylanmagan ishlar qilishga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Bu borada MTM ni davlat va jamiyat nazoratida bo'lishini ham Asosiy qonunimizda belgilab qo'yilgan va bu keng jamoatchilik, butun xalqimizning ishtiroki va qo'llab quvvatlashini talab qiladigan umummilliy masala hamdir.

Demak, uzluksiz ta'lim tizimining barcha turlarida yoshlarimizning ma'naviy tarbiyasiga beparvolik bilan qarab bo'lmasligi sababli, MTM da ham bolalar tarbiyasiga yanada kuchliroq e'tibor berishimiz kerak ekan, ya'ni bog'chada ham yoshlar tarbiyasiga beparvolik, loqaydlik bilan qarab bo'lmaydi. Oddiygina bir misol guruhda o'rtoqlaridan o'zining qo'polligi; so'kong'ichligi; urushqoqligi; o'rtoqlarining qo'lidagi o'yinchoqlarini tortib olishligi; qatorda turgan bolani itarib yuborib qochib ketishligi; uch-to'rtta bola bir o'yinni o'ynab turganda uni buzib yuborishga urinish; avtomat o'yinchoqni olib, «hammangni qirib tashlayman», deb avtomatni trillatishi va shu kabilar bilan ajralib turadigan bolaga beparvolik qilish yaxshimi? Unday bolada og'zi beandozalik, nosog'lom muhitni yoqtiruvchi, zo'rvonlik, tartibsizlik, odamlarning kayfiyatini buzuvchi, jangarilik kabi illatlar paydo bo'ladi, xolos. Bu tarbiyachilar tomonidan yo'l qo'yiladigan loqaydlikning oqibati emasmi? Loqaydlik – eng yomon illatlardan biridir.


E'tibor bering «**Bolaligida qush uyasini buzishga odatlangan odam katta bo'lganda bironing oilasini bermalol buza oladi**» (**O'tkir Hoshimov**). Shuning uchun ham bola tarbiyasida mayda narsa bo'lmaydi, degan gap absolyut haqiqatdir.

Aslidayam bolalarimizga MTM da ma'naviy tarbiya berishdan maqsad ham ularni illatlarga nisbatan nafrat ruhida tarbiyalashdir. Bu bizga tarbiyaning hayot mamot masalasi ekanligini anglatadi.

MTM da olib boriladigan «Ma'naviyat saboqlari» turkumidagi dars mashg'ulotlarimizda ham aynan bolalarning ma'naviy dunyo-qarashini yuksaltirishga qaratiladi. Bu turkumdagi ishlar oilada bolaning ma'naviy tarbiyasini yuksaltirishga bag'ishlangan «Oila darsi» mashg'ulotlarida ham o'z isbotini topdi [22 – 24]. Bu mashg'ulotlarni

olib borishda suhbatlar, savol - javob, baxs-munozara, davra suhbatlari, aqliy hujum, ulug' odamlar bilan uchrashuvlar, quvnoqlar va zukkolar musobaqasidan ijodiy foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunday mashg'ulotlarning nechog'lik jonli bo'lishi MTM dagi murabbiy va tarbiyachilarning kasbiy mahoratining nechog'lik darajada tarkib topganligiga bog'liq. Tadqiqotimizning keyingi qismida ular haqida to'xtalamiz.

2.4. Maktabgacha ta'lim muassasasida faoliyat ko'rsatayotgan tarbiyachi va murabbiylarning pedagogik mahoratiga qo'yilgan talablar



«Yosh avlodda mustaqillik va tashabbuskorlik etishmas ekan, bu bizning tarbiyachilik mahoratimiz bo'shligidan dalolat».

R. Usmonov

Ma'lumki, bolalar faoliyatida o'yin, mehnat, san'at (rasm chizish, raqsga tushish, ashula yoki she'r aytish va shu kabilar), bilishga qiziqish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli murabbiylar va tarbiyachilar bolalarning shu turdagi faoliyatini sun'iy deb emas, balki bu tabiiy hol deb ularni

qo'llab - quvvatlash kerak. Mulohazamizga tarbiyashinos olimlarimizning quyidagi fikrlari

ham asos bo'la oladi. Bu borada **Shorasul Zunnunov**: «Bolalikning vazifasi o'yin bo'lib, u vazifani to'la-to'kis ado etish uchun bolalarning yoshlik vaqtlarida o'ynab qolishlariga harakat etish lozim. Shuning uchun bolalar berilib o'ynab turgan vaqtlarida: «... Qani ketinglar!» deb ularni o'yindan maxrum qilish bolalar jamiyatining vazifalar o'tash yo'lidagi tashabbus, azm va amallariga qarshi bo'lib, unga chegara qo'yishdir. Buni ularning ruhiga xiyonat deb ta'bir etish mumkindir», desa, **Ya.A. Komenskiy** quyidagi fikrni bildiradi:

«Bolalar hamisha nima bilandir bajonidil band bo'ladilar. Bu juda foydali, shuning uchun unga xalaqit berish emas, aksincha, ularning doimo biror - bir ish bilan mashg'ul bo'lishlarining chora - tadbirlarini ko'rish kerak».

Demak, murabbiy va tarbiyachilarning bolalar bilan birgalikdagi faoliyatini tashkil qilish va jamoaviy ijodiy ishini o'tkazish, ma'lum muddatda ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni olib borishi uchun ulardan

kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar asosida shakllangan pedagogik mahorat talab qilinadi.

Shu sababli ham MTM dagi tarbiyachilar va murabbiylar bolalar bilan ishlash uchun aniq kasbiy malaka va shaxsiy xislatlarga ega bo'lishi kerak. Shularni hisobga olib bu borada ularga qator talablar qo'yiladi.

Tarbiyachi va murabbiylarning kasbiy faoliyatida pedagogik mahorat muhim ahamiyat kasb etadi va bu MTM da bolalar bilan olib boriladigan tarbiyaviy tadbirlarni uyushtirishda yordam beradi. Ushbu sohadagi olib borgan tadqiqotimiz natijalarining ko'rsatishicha murabbiy va tarbiyachilarimizning kasbiy mahoratiga qo'yilgan talablarni quyidagidek beshta yo'nalish bo'yicha ifodalash maqsadga muvofiq ekan:

1. MTM murabbiy va tarbiyachilarning tashkilotchi sifatidagi faoliyati bo'yicha kasbiy mahoratiga qo'yilgan talablar:

- Bolalar jamoasini boshqarishning optimal variantini tanlay bilishlik;

- Tarbiyachi (murabbiy) o'z faoliyat rejalarini aniq, o'z vaqtida va izchillik bilan bajarishiga erishishni ko'zlab faoliyat yurita olishligi;

- Tarbiyachi (murabbiy) ilg'or va namunali MTM darajasidagidek yuksak ma'naviyatli va yuqori axloqiy talablarga javob beruvchi, ma'naviy hayotimizning faol ishtirokchisi hamda targ'ibotchisi bo'lishi kerak;

- Tarbiyachi (murabbiy) bolalar jamoasidagi ijtimoiy muhitni muntazam ravishda o'rganib borishi, bolalar fikrlariga ko'proq e'tibor berishi va shu asosda ish faoliyati bo'yicha chora – tadbirlar belgilashi kerak;

- Tarbiyachi (murabbiy) o'z guruhidagi bolalardan ularning shaxsiy xususiyatlari, imkoniyatlari, qiziqishlari va jalb qilinadigan mashg'ulotiga moyilligi borlarini hisobga olgan holda rejalashtirilgan mashg'ulotga jalb etish kerak bo'ladi;

- Mo'ljalangan ishlar bo'yicha aniq maqsad va unga mos vazifalar belgilanib, ular bo'yicha bolalarning bajarilishi kerak bo'lgan hatti – harakat faoliyati aniq rejalashtirilishi kerak va shu kabilar.

2. MTM murabbiy va tarbiyachilarning tarbiyachi sifatidagi faoliyati bo'yicha kasbiy mahoratlariga qo'yilgan talablar:

- Mustaqil davlatimiz va adolati jamiyatimizning faol ishtirokchilarini shakllantirishni bolalarning yoshligidanoq boshlash kerakligi davlat zimmasida va u uzluksiz ta'lim tizimida xususan, MTM da ham ekanligini doimo esda saqlash va undagi o'z o'rnini aniqlab olish;

• Tarbiyachi (murabbiy) o'z ishini puxta bilishi, mas'uliyatni va javobgarlikni to'la his qilishi kerak;

• Tarbiyachi (murabbiy) yoshlarda milliy-ma'naviy qadriyatlar asosida tarbiyalashga muntazam ravishda e'tibor berishi kerak;

• Tarbiyachi (murabbiy) ommaviy tadbirlarni: bayramlarni uyushtirishda; sport o'yinlarini o'tkazishda; san'atga oid chiqishlarni uyushtirishda faol yetakchi vazifasini bajarmog'i lozim;

• Tarbiyachi (murabbiy) jamoasidagi bolalarga ko'proq etibor berishi kerak, ular orasida shundaylar borki (xulqi buzuk; qo'pol, yuzsiz, jangari, uyat-andishasi yo'q va shu kabilar), ular xulqi, xushmomalali bolalarga ta'sir qilmay qolmaydi va demak, tarbiyachi (murabbiy) ularni yomon ta'sirlardan asrashi kerak;

• Tarbiyachi (murabbiy) bolalarning savollariga asosli javob bera olishi kerak. uning insoniylik xislatlari bolalarda chuqur hurmat tuyg'usini shakllantirishi lozim;

• Tarbiyachi (murabbiy) ongli va faol bolalarga rahbar ekanligini doimo esda saqlash va u bunda ularga ibrat - namuna bo'lishi kerak. Bular suhbat, bahs – munozara yuritishda va ulardagi bildirilgan fikrlarni isbotlash yoki inkor qilishda yaqqol namoyon bo'ladi;

• Tarbiyachi (murabbiy) o'z bolalarini ommaviy ravishda tabriklashni unutmasligi kerak;

• Tarbiyachi (murabbiy) baqinmasligi kerak, balki o'z tarbiyalanuvchilariga tanbeh berish orqali ta'sir etib, ularni ma'naviyatli qilib tarbiyalab borishga doimo harakatda bo'lish kerak va bu jamoadagi sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirishda o'ta muhimdir va hokazo.

3. MTMsi murabbiy va tarbiyachilarning pedagogik ta'sir uslublari bo'yicha kasbiy mahoratiga qo'yilgan talablar:

• Murabbiy va tarbiyachi bolalar tarbiyasidagi sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirishda musobaqa, talab, rag'batlanirish, jazolash, ishontirish usullaridan oqilona va o'z vaqtida foydalana olishi kerak;

• Murabbiy va tarbiyachilar bolalar bilan ishlashda sinchikovlik, uddaburonlik, ziyraklik bilan faoliyat yuritmog'i lozim va bolalarga topshiriqlar berishda ularning individual xususiyatlariga e'tibor berish kerak hamda ular bilan muloqotdan kelib chiqadigan natijalarga befarq bo'lmasligi kerak;

• Murabbiy va tarbiyachining insoniylik xislatlari bolalarda chuqur hurmat tuyg'usini shakllantirishi lozim va bunda ularning bolalar uchun

ibrat - namuna bo'lishi hamda tashqi va ichki dunyosi ko'rkam bo'lishi talab qilinadi:

- Murabbiy va tarbiyachilarning o'z hayotiy – kasbiy shiori bo'lsin. Bu shior bilan hamkasblarni va iloji bo'lsa bolalarni ham tanishtirishga erinmang. Shioringizni mazkur sohadagi buyuk shaxslar va taniqli ustozlar faoliyati bilan uyg'unlashtiring va hamda bu ishingizdan boshqalar ham o'rnak olishini o'ylab faoliyat yuriting.

- Tarbiyachi va murabbiylar! Jamoadagi psixologik muhitga doimo e'tiborda bo'ling, guruhingizdagi bolalarning o'zaro munosabatlari, ularning sizga munosabatlari, guruhdagi tartib-intizom me'yorlariga bo'ysunishlari har bir bolaning ruhini ko'tarsin;

- Murabbiy va tarbiyachilarning bolalarga munosabati o'zaro hurmat asosida qurilmog'i lozim, aks holda ularning shaxsiy tashabbusi bilan berilgan ba'zi topshiriqlar bajarilmay qolishi ham mumkin;

- Murabbiy va tarbiyachilarning so'zi bilan ishi bir bo'lishi, o'zini tutishida muloyimlik bo'lishi, javobgarlikni his qilishi, eng asosiysi bola shaxsiga hurmat nazari bilan qarashi kerak.

4. MTM si murabbiy va tarbiyachilarning amaliy faoliyati bo'yicha kasbiy mahoratiga qo'yilgan talablar:

- Murabbiy va tarbiyachi eng avvalo, bolalarning bog'chaga kirib kelishi bilanoq iliq kutib oluvchi ustozdir va bunda bolalarni kutib olishga arziydigan MTM ning jihozining mazmun - ma'nosiga e'tibor berish kerakligi ular faoliyatining ajralmas qismi ekanligini unutmaslik kerak;

- Bolalar xonalarida ma'naviyat burchagi bo'lishi va unda hurmatli Prezidentimiz siymosi (iloji bo'lsa bolani ko'tarib turgan paytdagi rasmi) tushirilgan stenti bo'lishi lozim;

- Murabbiy va tarbiyachilar bolalarning guruhlariga mos holdagi ko'rgazmalarni tayyorlashi va uni muntazam ravishda boyitib borishga erishishi lozim;

- Murabbiy va tarbiyachilarning bolalar bilan jamoaviy o'yinlarni tashkil qilishi lozim va bunda bajarilgan o'yinning natijasi oldindan rejalashtirilgan bo'lishi kerak;

- Murabbiy va tarbiyachilar o'z guruhidagi bolalardan kim yakka tartibda, kimlar ommaviy tarzda qo'shiq ijro eta olishini bilish kerak, shuningdek, bolalardagi raqsga tushish ishtiyoqi va qiziqishini ham doimo e'tiborga olish lozim. Bular bolalarning kelajakda tashabbuskor bo'lib yetishishida o'ta muhimdir;

- Murabbiy va tarbiyachilar bolalarni sayr qildirish, ular bilan ekskursiya haqidagi ko'nikma va malakaga ega bo'lishi kerak;

- Murabbiy va tarbiyachilar guruh a'zolari va guruh o'rtasida sport o'yinlarini o'tkazish ko'nikma va malakalariga ega bo'lishi kerak;

- Murabbiy va tarbiyachilar bolalarni bayramlarni kutib olishga tayyorlash malakasiga ega bo'lishi kerak;

- Murabbiy va tarbiyachilar bolalarga sodda narsalarni yasashga o'rgata olish malakasiga ega bo'lishi kerak;

- Murabbiy va tarbiyachilar bolalarga rasm chizishni, guldastalar yasashni o'rgatish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak;

- Murabbiy va tarbiyachilar bolalarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish sohasi bo'yicha ma'lumot bera olishi kerak, shuningdek, uyda va MTM da texnik xavfsizlikdan shu kabilar.

5. MTM da murabbiy va tarbiyachilarning bolalar jamoasiga rahbar sifatidagi faoliyati bo'yicha kasbiy pedagogik mahoratiga qo'yilgan talablar:

- Murabbiy va tarbiyachilarning MTM dagi o'z guruhi bo'yicha bolalar jamoasini tarbiyalashning maqsadini aniqlab olish hamda maqsadga mos aniq vazifalarni belgilab olish;

- Murabbiy va tarbiyachilar o'z tarbiyalanuvchilarini tarbiyalash bo'yicha o'z faoliyat rejalarini aniqlab olish kerak va uni o'z vaqtida hamda izchillik bilan bajarishiga erishishni ko'zlab faoliyat yuritishi kerak;

- Murabbiy va tarbiyachi o'z vazifasining o'ta ma'suliyatli ekanligini sezishi bilan unga mos ilmi, bilimli, madaniyatli, ma'naviyatli, aqlli, tashabbuskor, fidoyi, tadbirkor bo'lishiga doimo harakatda bo'lishi kerak;

- Murabbiy va tarbiyachi doimo kasbiy mahorat (bilim, ko'nikma va malakalarini) darajasini mustaqil ravishda takomillashtirib borishi kerak va buning uchun ular doimo o'z ustida ishlashi kerak;

- Murabbiy va tarbiyachi zamon talablari darajasidagi pedagogik mahoratga ega bo'lib, ular yosh avlodni Vatanparvarlik, fidoyilik, yuksak insoniylik ruhida tarbiyalashga mas'ulligini esdan chiqarmasligi kerak;

- Murabbiy va tarbiyachi bayramlarni unutmasligi kerak. Bunda bolalarni tabriklashi va bu orqali ularning ota-onalarini tabriklashni unutmag. Bu sizning bolaga qanday tarbiya berayotganingizda seziladi. Umuman olganda, bu borada doimo muayyan tadbirlarni o'tkazish

bo'yicha aniq rejalaringiz bo'lsin va uni o'tkazib bo'lganingizdan keyin mashg'ulotingiz natijasini tahlil qilib ko'ring;

- Murabbiy va tarbiyachi aldamasligi kerak. Aks holda ularning obro'yi tezda tushib ketadi;

- Murabbiy va tarbiyachi o'z guruhining faoliyatini doimo monitoringini o'tkazib borishi kerak va shu asosda olib borilayotgan ishlarga tuzatish kiritib borishi kerak (agar ular kerak bo'lib qolsa);

- Murabbiy va tarbiyachilar bola tarbiyasida o'z faoliyatiga tanqidiy, ya'ni o'z-o'zini baholay olishi kerak. Bu o'z faoliyatining istiqbollarini belgilab olishda o'ta muhimdir.

6. MTM da murabbiy va tarbiyachilarga zarur bo'lgan shaxsiy xislatlari bo'yicha pedagogik mahoratiga qo'yilgan talablar.

- murabbiy va tarbiyachilarning bolalarni tushuna olish va bola shaxsiga hurmat bilan qarash bilan bog'liq hislatlari;

- murabbiy va tarbiyachilarning o'z tarbiyalanuvchilariga tarbiyaviy va ruhiy (ertak, hikoya, hikoyat, hikmatlar va donolar fikrlarini aytish orqali) ta'sir o'tkaza olishga doir xislatlari;

- murabbiy va tarbiyachilarning o'z atrof-dagilariga, ayniqsa o'z tarbiyalanuvchilariga ibrat-namuna bo'la olishi, ya'ni «Ibrat-namuna hayot dorilfununi» tizimidagi ma'lumotlar bilan qurollangan holda mashg'ulotlar o'tkaza olishiga oid xislatlari.

MTM dagi murabbiy va tarbiyachilarning shaxsiy xislatlariga ularning bolalar jamoasidagi vazifalari, ularning ish faoliyatidagi fidoyiligi, bolasevarligi, bolaning istiqboliga qiziqishlari bilan aniqlanadi. Umuman olganda, MTM da faoliyat yurituvchi murabbiy va tarbiyachilar quyidagidek psixo-fiziologik xususiyatlarga ham ega bo'lishi kerak: mustahkam sog'liq, sog'lom fikrlilik, jismoniy baquvvatlilik, irodalilik, chidamlilik, ishchanlik, g'ayratlilik, bayroqdor bo'lishga ishtiyoqlilik va hokazo. Shuningdek, ular konstruktiv, analitik va ijodiy fikrlashlarga ham qodir bo'lishlari kerak. Ularga **konstruktiv fikrlash** ishni oqilona rivojlantirish va odilona tashkil qilish uchun kerak bo'lsa, **analitik fikrlash** bolaning mehnat va rasm chizish ko'nikmalarini hosil qilishini nazorat qilish va ular natijalarini tahlil qilish uchun kerak bo'ladi va nihoyat **ijodiy fikrlash** – bu kasbiy faoliyat jarayonidagi har qanday topshiriq yoki vazifani mustaqil hal qilish hamda ularning istiqbollarini ko'ra bilishda juda kerak bo'ladi. Bulardan tashqari ushbu jarayonda murabbiy va tarbiyachilarning **nutq** madaniyati ham alohida ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham ular

o'z nutq madaniyatiga ham talabchan bo'lishlari kerak. Ularga qo'yilgan talabni quyidagicha ifodalasak bo'ladi:

- Murabbiy va tarbiyachining muloyim, jozibador, bolalarni o'ziga tortuvchi ohangda gapira olishi kerak;

- Murabbiy va tarbiyachining o'z ovozi xohlagan paytda va holatda boshqara olishi, rostlay olishi va o'z ovozigina muloyimlik ruhi va ta'sirchanlik ruhi bera olishi kerak;

- Murabbiy va tarbiyachi bolalarga muomala borasida katta hajmdagi so'z boyligiga ega bo'lishi kerak va ular ichidan har bir bolaga mos va xos chiroyli muomala qila olishi kerak;

- Murabbiy va tarbiyachi bolalarga biror narsa yoki voqeya haqida so'zlab berganda ifoda etilayotgan jarayon ichiga kirib keta olishi, uni jonli ifoda etishi, ya'ni nutqda obrazli va hayojonli harakatlarni ifoda etishda aktyorlik xususiyatiga ega bo'lishi kerak;

- Murabbiy va tarbiyachilar bolalar oldiga chiqqanda «qog'ozsiz» (ya'ni faqat o'qish orqali emas) chiqishga odatlanish kerak, aks holda bolalar tezda zerikib qoladi;

- Murabbiy va tarbiyachilar bolalar oldiga chiqqanda imo-ishoralardan oqilona foydalanishi kerak, aks holda bolalar sizga «artist», degan taxallus qo'yib yuboradi.

MTM dagi tarbiyachi va murabbiylar o'zlarining kasbiy mahoratiga qo'yilgan talablarga amal qilsa, quyidagidek **yutuqlarga erisha oladi**:

- bolalar bilan ishlashda ularning tarbiyasi va rivojlanishiga qayg'uradi, hamda ularga ishonish orqali bolalarning faollik va ijodiy qirralarini namoyon qila oladi. Bunda bolalarni tushuna olish qobiliyati ularning pedagogik mahoratiga o'ta muhim sifatii ko'rsatkichidir;

- ular tashkilotchilik faoliyati orqali bolalarda mashg'ulotga qiziqishni, jamoaviy ishlarni tashkil etishda bolalarga ijobii-jamoaviy ta'sir etishni, bolalarda havaskorlik va tashabbuskorlik hamda javobgarlik hislarini shakllantira oladi. Bunday holatda ularning o'zidagi bor energiyani boshqalarga o'tkaza olishi va o'z bilim, ko'nikma, malakalarini to'liq ishga solib bolalarga ta'sir o'tkazishi o'ta muhimdir;

- ularning bolalar jamoasida ishlashiga bo'lgan moyilligi, qiziqishi, layoqati va fidoyiligi tufayligina bolalar jamoasining ma'navii jihatdan bilimliliigi ta'minlanadi, bolalardagi ijodii faoliyat va tashabbuskorlikka ijobii turtki bo'ladi;

- ularning o'z-o'zini baholay olishi va shu asosda o'zini boshqarishi o'z tarbiyalanuvchilaridagi sabr toqatlilik, tanqidii fikrni to'g'ri qabul

qilishlik, o'z-o'ziga talabchanlik, chegaralilik, mehnatdan qo'rqmaslilik kabi insoniy sifatlarni shakllantirishga asos bo'lishi mumkin;

- ularning bolalar bilan ishlashdagi muomalada kirishuvchanligi va bolalarga bo'lgan samimiyligi hamda muloyimligi bolalardagi barcha bilan muloqot qila olishligini, bolalarning tezda o'z o'rtoqlari bilan til topisha olishligini, erkin muloqot qila olishligini, sezgirlikni, mehribonlikni, o'zaro hamkor bo'lishlikni va shu kabilarni shakllantirishga samarali ma'naviy asos bo'la oladi;

- ularning barcha yangilikni tez anglay olishi va bir faoliyat turidan ikkinchisiga, bir ish turidan ikkinchisiga tez o'ta olishi bolalardagi quyidagi insoniy jihatlarni shakllantirishga namunaviy-ma'naviy asos bo'la oladi: bolalarda o'rtoqlarining his hayajonlariga qayg'udosh bo'lish shakllana boradi; o'tkir zehinli va sinchkov bo'ladi; o'z e'tibori va diqqatini tezlik bilan biror narsaga qarata oladi hamda u haqda fikr yurita oladi; imo-ishora, rolga kirishuvchanlik, go'zal harakatlar qilish va zavqlilik kabi hislatlarni o'zida namoyon qila oladi; har qanday holatda va sharoitda ham o'z hissiyotlarini jilovlashni amalga oshira oladi; turg'unlik va chidamlilik, ya'ni bolalar o'zini idora qilib, tezlik bilan o'zini bosa oladi; hissiy munosabatlarni jilovlay oladi, ya'ni xoholab kulmaydi, baqirib gapirmaydi, qo'pol muomala qilmaydi, birovni kamsitmaydi, birovning asabiga tegmaydi va xullas ular o'zaro munosabatlarda ma'naviyatli bo'lib yetishadi.

2.5. «Ma'naviyat saboqlari» darslariga metodik tayyorgarlik

O'zbekistonning mustaqil taraqqiyot strategiyasi. O'zbek xalqining

«Biz bugun barpo etayotgan yangi hayot, yangi jamiyatni, avvalambor, o'zimiz uchun, o'nib - o'sib kelayotgan, bu-gun boshlagan ishlarimizni ertaga devon ettirishga qodir bo'lgan bolalarimiz uchun qurmoqdanim»

Islom Karimov

ozod va obod Vatan, erkin va demokratik jamiyatni barpo etish yo'lidagi ezgu maqsadlarini, shuningdek, mustaqillik mafkurasining asl mazmun mohiyatini bog'chadan tortib to keng xalq ommasigacha batafsil har tomonlama tushuntirish bugungi mustaqillik gullab - yashnayotgan davrning

eng dolzarb muammosidir. Bunday dolzarb muammolarni hal qilish esa mamlakat-imiz barcha ongli aholisining ma'naviy saviyasini yuksaltirmasdan amalga oshirib bo'lmaydi. Bu ham o'ziga yarasha

dolzarb muammo va u bugungi kunda davlat siyosati darajasidagi ustuvor masalalardan biridir. Bu borada qator meyoriy hujjatlar (Prezident farmonlari, qarorlari, Vazirlar mahkamasi qarorlari) qabul qilinmoqda. Shaxsan muhtaram Prezidentimiz Islom Abdugʻaniyevich Karimov mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq «Maʼnaviyat insonning, xalqning, davlatning, jamiyatning kuch-qudratidir. U yoʻq joyda hyech qachon baxt saodat boʻlmaydi. Nafaqat puxta tarix, balki yangi tarix ham buning koʻplab misollarini beradi», degan edilar.

Demak, maʼnaviyat nafaqat inson, balki davlat va jamiyat taraqqiyotining ham asosiy negizi boʻlib hisoblanadi. Shu sababli ham xalqimizda hamda yurtimizda jamiyat taraqqiyoti saviyasiga mos maʼnaviy yangilanish ham bardavon boʻlmogʻi lozim.

Bizning mamlakatimizda maʼnaviy yangilanish mustaqillikka erishganimizdan keyin yangicha tus oldi va oʻz qadr – qimmatini topdi. Bu – avvalo, bunyodkor oʻzbek xalqimizning boy milliy - maʼnaviy merosini xolisona oʻrganish va ular bilan gʻururlanish imkoniyatlarini berdi. Ayni paytda bu orqali yoshlarimizni shu qadriyatlar ruhida tarbiyalashga va oʻzlikni anglashga ham, maʼnaviy yuksalishga ham har tomonlama shart-sharoitlar yaratilmoqda. Maʼlumki, inson eʼtiqodsiz, gʻoyasiz, fikrlarsiz yashay olmaydi. Har tomonlama barkamol shaxs va uning eʼtiqodi masalasi muhim muammolardan boʻlib, uning shakllanishi mohiyatan ijtimoiy omillarga bevosita bogʻliq, deb qaraladi. Bu masalaga eʼtiborning ortib borayotganining boisi shundaki, shaxsdagi mafkuraviy immunitetning shakllanishida undagi ezgu gʻoya va imon-eʼtiqot muhim ahamiyatga egadir. Agar biz yoshlarimizda bolalikdan bunday dunyoqarashni shakllantira olsak, ular maʼnaviyati boy, mustaqil fikrli va oliyjanob shaxs boʻlib voyaga yetadi. Bunga toʻliq imkoniyatlarimiz bor, buni oiladan boshlasa ham boʻladi. Bu borada olib borgan ishlarimiz natijalari ham bunga imkoniyat borligini koʻrsatdi [23 – 24].

MTM da ushbu maqsadda olib boriladigan mashgʻulotlarga metodik tayyorgarlik koʻrishga oid maʼlumotlarni keltiramiz. Ular asosan quyidagi asosiy qismlardan iborat boʻladi:

1. Mashgʻulotga tayyorgarlik:

- Mashgʻulot maqsadi va vazifalarini anglash;
- Mashgʻulotga qatnashuvchi bolalar uchun ragʻbatlantiruvchi omil va unga qoʻyiladigan mezonni aniqlash (Sovrinlar va ular oʻrinlari haqida):

• Mashg'ulot uchun optimal variantni (qulay vaqt va joy bo'yicha) tanlash va ularga mos imkoniyat va sharoitlarni tayyorlash;

• Bolalar ishtiroklarini hisobga olishga varaqlar tayyorlash va unda shkalalarni belgilab qo'yish;

• Kutiladigan natijalarni loyihalashtirish;

• Faoliyat turi va o'quv mashg'ulotining vaqtini belgilab olish;

• O'quv materiallari va vositalarini tayyorlash: vatman qog'oz, ekran, magnitli taxta, flomasterlar, markerlar, maketlar, video ikkilik va mashg'ulot mazmuniga mos qilib tayyorlangan disklar va hokazo.

2. Tarqatma materiallarni tayyorlashga qo'yilgan talablar:

• Tayyorlangan materiallar rejalashtirgan mavzuning mazmun - mohiyatini chuqurroq o'rganishga xizmat qilishi kerak va mashg'ulot agar biror maket yoki buyum yasalishiga mos bo'lsa, ular rejalashtirilgan natijaga ham mos kelishi kerak;

• Tarqatma materiallar bir dars mashg'ulot uchungina tayyorlanmasligi kerak, balki undan o'xshash mavzularni o'tkazish uchun foydalanish mumkin bo'lsin;

• O'quv materiallari va vositalari barcha bolalarga yetarli bo'lsin, asosiysi, ya'ni kattarog'i (hamma uchun ko'rinadigan qilib tayyorlangani) tarbiyachi stoli ustida taxt bo'lsin;

• Bolalar I.F.O. va uning to'g'risida ularning dars mashg'ulotlari paytidagi yutuq va kamchiliklarini belgilovchi joylari ham bo'lsin.

3. Tashkiliy masalalar:

• Joyning yetarliligi va qulayligini yana bir ko'rib chiqish kerak, chunki bu mashg'ulotga qiziqib, boshqa kishilar ham kirishi mumkin;

• Xona ichida bolalar erkin harakat qilishiga hamda o'quv materiallaridan bemaol foydalanishga sharoit yaratilishi kerak;

• Dars mashg'ulotlarida darsga xalaqit bermasligi chora – tadbirlarini oldindan belgilash;

• O'quv vositalarining bemaol ishlashini nazorat qilib qo'yish va hokazo.

4. Foydalaniladigan metodlar:

4.1. Bolalar ongiga ta'sir e'tuvchi metodlar:

• **Ma'naviyat haqidagi suhbatlar.** Bunda ma'naviyat, ma'naviy qiyofa, ma'naviyatli odam, ma'naviy kamolot, ma'naviyat-millat qiyofasi, ogohlik, tinchlik va erkin hayot, giyohvandlik, SPID - davr vabosi, otalar so'zi – aqlning ko'zi, milliy urf – odatlar va an'analar va shu kabilarga e'tibor beriladi;

• **Hikoya.** Bunda yaxshi xulq, ezgulikni madh etuvchi ma'lumotlar beriladi;

• **Tushuntirish.** Bunda muayyan holat yoki hodisa to'g'risida ma'lumot beriladi va bolalar ongiga ularning ham ijobiy, ham salbiy tomoni singdiriladi;

• **Namuna ko'rsatish.** Bunda ustoz va murabbiylarning shaxsiy ibrat-namunasi e'tiborga olinadi hamda «Ibrat – namuna - hayot dorilfununi» ruknidagi faoliyatni doimo yuritib turish e'tiborga olinadi;

• **Kishining ijobiy xislat va fazilatlari, insonning oliyanobligiga ishonirish.** Bunda xalq qahramonlari, donishmand va allomalar, davlat arboblarning turmush tarzidan foydalaniladi;

• **Baxs – munozaralar uyushtirish.** Bunda qutlug' sanalarni nishonlash bo'yicha allomalarning ma'naviy – axloqiy tarbiyaga oid qarashlari bo'yicha, kasb-hunar haqida, giyohvandlik va terrorchilik hamda ularning salbiy oqibatlari to'g'risida, ma'naviy yetuk va manaviy qashshoq odam haqida, mustaqillik va yoshlar haqidagi mavzularni oldindan loyihalashtirib olingan rejalarga e'tibor beriladi;

• **Uchlashuvlar.** Bunda bolalar ma'naviy – axloqiy tarbiyasiga ijobiy ta'sir qiluvchi yig'inlarga e'tibor beriladi;

• **Tanlovlar o'tkazish.** Bunda «Krossvord» yechish, «Rebus» tuzish va yechish, «Boshqotirmalar» tayyorlash, «Aql - zakovat» o'yinini uyushtirish, «Oltin toj» o'yini va shu kabilardan foydalaniladi;

• **Sahnaviy mashg'ulotlar o'tkazish.** Bunda bolalar aqliy salohiyatiga mos sahna ko'rinishlari tayyorlashga e'tibor beriladi;

• **Multimediali tarbiya texnologiyalari.** Bunda «Axloq», «Qadriyatlar», «Immunitet» kabi ko'makchi kompyuterli tizimlardan foydalaniladi.

4.2. Ma'naviy - axloqiy xulq, bu boradagi hayot tajribalarni hosil qilishga ko'maklashuvchi metodlar:

• **Rasmiy kasbiy o'yinlar.** Bunda ma'naviy – axloqiy tarbiyaga oid metodlar to'planadi va ayniqsa buyuk allomalarning faoliyati hamda qarashlari asosida «Aql-zakovat», «Oltin toj», «O'yla, izla, top», «Yangi fikr» va shu kabi o'yinlar uyushtiriladi;

• **Ishchanlik o'yinlari.** Bunda «Aqli odam bo'lish yaxshimi yoki dono», «Yashash yaxshi, yaxshi yashash undan yaxshi» va hokazo. Ko'rinishdagi o'yinlar tashkil qilinadi;

• **«Aqliy hujum».** Bunda bolalar ongida ezgulikni va adolatni shakllantirishga oid trening fasllarini tashkil etish nazarda tutiladi;

• **Fikrlar va g'oyalarni tizimlashtirish.** Bunda fikrlar va g'oyalarni qarashi asosida jaholatga qarshi kurashda ma'rifatga va ma'naviyatga tayanish lozimligi ta'kidlanadi;

• **Baxs - munozara.** Bunda «Oddiy haqiqatlar», «Siz intellektual salohiyatlimisiz», «Barkamol avlod kim», «Ma'naviy yetuk odam kim, ma'naviy qashshoq odam kim?» va shu kabi mavzularga e'tibor beriladi;

• **Musobaqa.** Ulardan ko'zlangan maqsad bolalar ongiga ma'naviy yetuk shaxs modelini singdirish;

• **Devoriy gazeta.** Bunda beriladigan ma'lumotlar bolalarning ma'naviy – axloqiy tarbiyasiga oid materiallardan iborat bo'lishligiga e'tibor beriladi;

• **Ma'naviy – axloqiy mavzularga oid albom va jurnallar tayyorlash.** Bunda ma'naviyatimiz buyuk timsollarning muayyan bir kishisiga yoki bir yo'nalishidagi ulug' insonlar fikri, qarashi, g'oya va ta'limotlariga asoslangan alohida jurnallar va albomlar tayyorlash e'tiborga olinadi;

• **Axloqiy-muammoli vaziyatlar.** Bunda bunyodkor va vayronkor g'oyalarning odamga, oilaga, jamoaga, davlatga turli xil ta'sirlari to'g'risidagi muammoli vaziyatlar bolalar ishtirokida tahlil etiladi va uning natijasida hosil bo'ladigan xulosalarning yoshlarga milliy-ma'naviy jihatidan tarbiya berishdagi ahamiyati ham o'rganiladi.

5. «Ma'naviyat saboqlari» darslarining texnologik xaritasi.

Bu yerda, avvalo, texnologiya va texnologik xarita terminlariga izoh beraylik.

Texnologiya – yunoncha so'z bo'lib, u «**tehne**» (ma'nosi «Mahorat» va «san'at» so'zlariga to'g'ri keladi) va «**logos**» («fan» va «ta'limot») so'zlariga to'g'ri keladi), degan so'zlardan tashkil topgan. Uning yordamidagi manbalarda sifat o'zgarishlarini amalga oshirish mumkin.

Texnologiya zamirida o'rganilayotgan manbadagi jarayonlar kechishini amalga oshirish usullari va vositalari haqidagi bilimlarni yuzaga chiqarish yotadi va uning natijasida obyektga sodir bo'ladigan sifat o'zgarishlari namoyon bo'ladi.

Texnologik xarita - bu o'qitish faoliyatining bajarilishi bo'yicha amalga oshiriladigan amaliy ishlar majmui bo'lib, uni loyihalash pedagogik mahorat cho'qqisi hisoblanadi, chunki mashg'ulot davomida bajariladigan amaliy ish jarayoni texnologik xaritada qoidal tarzda tasvirlanadi. Shuning uchun ko'pgina murabbiy va tarbiyachilarimiz o'z kasbiy faoliyatida texnologik yondoshuvga katta ahamiyat bermoqda.

Bunga sabab – bu mashg'ulotning aniq kutilgan (rejalashtirilgan) natijalariga erishishni ta'minlovchi uzluksiz jarayondir.

Endi «Ma'naviyat saboqlari» darslarining namunaviy texnologik xaritasini keltiramiz.


T/r	Mashg'ulot bosqichlari	TARBIYACHI faoliyati	TARBIYALANUVCHI faoliyati
1	2	3	4
1.	Birinchi - tayyorlov bosqichi	Mashg'ulotning mavzusi, maqsadi, vazifalari aniqlanadi; mashg'ulotning baholash mezonini ishlab chiqiladi; erishiladigan natijalar loihalaniadi; mashg'ulotning natijalari bosqichma-bosqich izchil ravishda aniqlab olinadi; o'quv materiallari va vositalari tayyorlab olinadi.	Tarbiyachi borligida mashg'ulotga tayyorlanadi; ulardagi moyillik va qiziqish o'yg'otiladi; tarbiyachi yordamida mashg'ulotga qatnashishdan maqsad bolalarga uqtiriladi; mashg'ulot mazmunidagiday odam bo'lish oliy insoniylik fazilat ekanligini uqtirib, ularda mashg'ulotni orziqib kutish hislarini tayyorlaydilar.
2.	Ikkinchi bosqich - mashg'ulotning kirish qismi	Jihozlangan xonada bolalar mashg'ulotning mavzusi, maqsadi va vazifalari bilan tanishtiriladi; qisqagina mavzuga moyillikni uyg'otuvchi suhbat o'tkaziladi; maqsad asosida guruh ichida kichik guruhlar tashkillashtiriladi; (agar shu lozim bo'lsa).	Mavzuni, maqsadni bilib oladi; guruhlashadi; eshiti-shadi; harakat qilishadi;
3.	Uchunchi bosqich - asosiy qism	Mashg'ulotning rejalashtirilgan har bir bosqichi hisoblanadi; mashg'ulotdagi ma'lumotlar bayoni izchillik va uzluksizlik bilan olib boriladi; bolalarning mashg'ulotga qiziqishi yoki zerikishi yoki e'tiborsiz bolaning bo'lib qolishiga doimo e'tibor beriladi.	Ko'rsatilgan o'quv vositalariga va rasmlarga munosabat bildiriladi; taqlid qilganligi haqidagi ma'lumotlarini bayon qiladi; jamoasi g'alabasi uchun kurashadi; ishlarni bosqichma-bosqich, izchil bajarishga kirishadi; fikr almashilinadi.

1	2	3	4
4.	To'rtinchi bosqich – asosiy xulosalar shakllantirildi va ular bolalar ishtirokida maqullantirildi.	Mashg'ulot davomida bolalarning erkin fikrlarini bildirishlarini e'tiborga olinadi; asosiy xulosalar shakllantiriladi va ularni bolalarga maqullatib ham olinadi; mashg'ulot natijalari aniqlanadi.	Mashg'ulot davomida tarbiyachi tomonidan ruhsat etilganda fikrlarini to'liq izhor etadi; tarbiyachi xulosa chiqarganda bolalarga shu xulosa ma'qulmi?, deb so'ralganda fikrni bildiriladi.
5.	Beshinchi bosqich - tahlil qilish va baholash bosqichi.	Mashg'ulot natijalari aniqlangandan keyin, tarbiyalanuvchilar bilimlari tahlil qilinadi; natijalar aniqlanadi; ular baholanadi va nihoyat g'oliblar (ilg'orlar) rag'batlantiriladi. Rag'batlantirish hammaning ko'z oldida bo'ladi. Har bir rag'batlangan bolaga alohida olqishlar bo'lishini amalga oshiradi.	Tarbiyachining xulosasini eshitadi va unda kimning ilg'or va yaxshi qatnashganini bilim olishga butun vujudi bilan quloq tutadi. O'rtoqlari rag'batlantirilyotganda olqishga qo'shib qarsak chaladi; bularni tarbiyachi tashkil etishi kerak.

Ushbu ketma-ketlik «Ma'naviyat saboqlari» darsi mashg'ulotlariga juda qo'l keladi. Bunga sabab, ushbu jarayonda ommaviylik bilan oshkoralikka keng yo'l berilgan.

III BOB. MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA «MA'NAVIYAT SABOQLARI» MASHG'ULOTLARINI OLIB BORISH AMALIYOTI

3.1. «Ma'naviyatli odam kim?» mavzusi bo'yicha «Ma'naviyat saboqlari» mashg'ulotlarini olib borish texnologiyasi



*«Mol-dunyoning ko'pligi
boyluk hisoblanmaydi,
balki haqiqiy boyluk
ma'naviy boylkdir.»*
(«Hadis»)

Ma'lumki, maktabgacha ta'lim tashabbuskor, ijtimoiy faol, ma'naviy jihatdan boy shaxsni shakllantirishning birinchi pog'onasidir. Yoshlarimizni yuksak ma'naviyatli bo'lib shakllanishiga davlatimiz rahbari – Prezidentimiz I.A.Karimov ham doimo e'tibor berib kelmoqda. Fikrimiz dalili sifatida quyidagiga e'tiboringizni qaratamiz: «Ko'p yillik ilmiy kuzatish va tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson o'z umri davomida oladigan barcha informasiyaning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrda olar ekan.

Bolaning ongi asosan 5-7 yoshda shakllanishini inobatga oladigan bo'lsak, aynan ana shu davrda uning qalbida oiladagi muhit ta'sirida ma'naviyatning ilk ko'rtaklari namoyon bo'la boshlaydi» [2. 53 - b].

Prezidentimizning ushbu fikri bevosita MTM ga va ularning oila muhiti bilan aloqasiga bog'liqdir, chunki MTM ning o'rta, katta va maktabga tayyorlov guruhlarida 5-7 yoshli bolalar tarbiyalanadilar. Bolalarning intellektual salohiyatlarining va ma'naviy saviyasi shakllanishining dastlabki bosqichi ham xuddi ana shu yoshdan boshlanadi. MTMsi ta'lim – tarbiyasiga qo'yilgan Davlat tablari («Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning 10 va 11 hamda 4 - 9 moddolari, «Barkamol avlod» yili Davlat dasturi, YuNESKO tomonidan 1997 yilgi «Maktabgacha ta'lim» atamasini uzluksiz ta'lim tizimi tarkibiga kiritilishi, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va shu kabilar) va «Maktabgacha ta'lim» konsepsiyasida ham yangi pedagogik texnologiyalarini qo'llashlarga e'tibor qaratilgan.

Ushbu talablarni va ulargan mos zamonaviy texnologiyalarni MTM ga keng joriy etish maqsadida «Ma'naviyat saboqlari» ruknidagi darslar majmuasini ishlab chiqdik. Ular mavzulari va ularni olib borishga

qisqacha tavsiyalar mazkur ishimizning 2.2 - qismida ma'lumot berilgan edi.

Quyida ana shunday rukndagi dars mashg'ulotlaridan «Ma'naviyatli odam kim?», degan mavzu ishlanmasini keltiramiz. Buning uchun dastlab ushbu mavzuga mos darsning oldindan loyihalashtirilgan texnologik xaritasini keltiramiz.

«Ma'naviyatli odam kim?» mavzusini o'rganish bo'yicha oldindan loyihalashtirilgan texnologik xarita

№	Mashg'ulot bosqichlari	Tarbiyachi faoliyati	Tarbiyalanuvchi faoliyati	Izoh
1	2	3	4	5
1.	Tashkiliy qism	Tarbiyachi mashg'ulot boshlanishida bolalarni 5 tadan qilib rasmlar, belgilar yoki bir – birlarini yoqtirishlariga ko'ra kichik guruhlariga bo'ladi. Ushbu darsga guruhlar soni bo'yicha rasmlardan komplekt tayyorlanadi. Tarbiyachi bittadan rasm olib, bolalarning belgilangan joylarga o'tirishlari uchun, tarbiyachi oldindan rasmlarni kattalashtirilgan hajmda ma'lum stollarga qo'yib chiqadi. Kichik guruhlariga a'zo bolalar tartib – intizomi	Tarbiyalanuvchilar o'z guruhlarini bilib oladi. O'ziga tegishli o'quv materiallarini va joyini egallaydi. Qanday tartib intizomga bo'ysinishini anglaydi.	Bolalar bilan muomala qilishda asosan muloyimlik bilan taklif ohangida gaplashish kerak. Ular o'z narsalari va joylariga o'z ixtiyori bilan ega bo'lsin.

		tushuntiriladi.		
2.	Mavzuni e'lon qilish bosqichi	«Ma'naviyatli odam kim?» So'z yozilgan plakatni ko'rinadigan joyga ilib qo'yiladi.	Mavzuni tarbiyachi tomonidan e'lon qilgandan keyin anglab oladi.	Mavzu albatta ovoz chiqarib e'lon qilinadi, chunki ularning hammasi o'qishni bilmaydi.
3.	Maqsad va vazifalarni bayon qilish bosqichi	Aziz bolajonlar biz bugun ma'naviyatli odam kimligini bilib olamiz, deya maqsadni bayon qiladi. Vazifalar: yaxshi va yomon odam; yoqinli muomalali va qo'pol odam; ma'naviyatli va madaniyatli odam; yaxshilik va illatlar odamga qanday ta'sir qiladi; ma'naviyatli odam, ma'naviy qashshoq odam kabilarning mazmun – mohiyatini bolalar ongiga singdiradi.	Ma'naviyatli odam yaxshi odam ekanligini anglaydi. Ijobiy xarakterlar odamni insoniylik nuqtai nazaridan bezashligini va illatlar esa odamgarchilikdan chiqib ketishga asos bo'lishligini biladi.	Mavzuga oid yaxshi xulq-atvorli bolalar va kishilar va illatlar botqog'iga botib qolgan odamlar sur'ati tushurilgan plakatlar vazifalarni bayon qilishda bir – bir ko'rsatilib ketiladi.
4.	O'quv jarayonining mazmuni dars asosiy qism bosqichi	Ma'naviyatli odamda quyidagi insoniy jihatlar bo'lishi tushuntiriladi: yaxshi, yoqimli, muomalali, muloyim, madaniyatli va shu kabilar. Shuningdek, yomon, qo'pol, illatlarga boy odamlar to'g'risida ham fikr	Bolalarda yaxshi, yoqimli, muloyim, madaniyatli va pirovard natijada ma'naviyatli odam bo'lishga havas uyg'onadi. Shuningdek, ularda har xil insoniy fazilatlar xos bo'lmagan sifatlarga nisbatan nafarat uyg'onadi.	Iloji kelsa shu atrof – tevarakdan ma'naviyatli odam va «Ma'naviy qashshoq» odamga dalil keltirilib yuborilsa mashg'ulot samaraliroq bo'lar edi.

		bildirilib «Ma'naviy qash- shoq» odamga ta'rif beriladi va ular ma'naviyatli odam bilan taqqoslanadi.		
4.1.	O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasining metodik ta'mi- not bosqichi.	METOD: Ma'naviyat haqi- da suhbat; hi- koya; tushun- tirish; namuna ko'rsatish; bahs – munozara uyush- tirish; uchrashuv- lar qilish; ish- chanlik o'yinlari; fikrlar va g'oya- larni tizimlash- tirish; devoriy gazeta va shu kabilar.	Metodlar qo'llanil- ayotganda obrazli lavhalarni diqqat bilan ko'rib, ular haqida o'z fikr va mulohazalarni bir nuqtaga yig'ishni amalga oshirish.	Mashg'ulotni kichik guruhlarga ajratib olib borish maqsadga muvofiq.
4.2.		MASHG'ULOT SHAKLI: amaliy mashg'ulot, kichik guruhlarga tizimlashtirish va ularga mos nomlar qo'yiladi.	Bolalar o'z kichik guruhlari nomi va tarkibini bilib oladi.	Kichik guruhlar nomi yozilgan belgilar bolalar soniga yetadigan qilib tavyorlanadi.
4.3.		VOSITALAR: tarqatma materiallar, xarita, slaytlar.	Bolalar tarqatma materiallar, xarita- lar bilan tanishadi- lar.	Slaydlar yordamida multimediali ta'lim texnologiya- laridan foydalanish mumkin.
4.4.		USUL: tarqatma material, rasm va chizmalar bilan ishlash.	Bolalar tarqatma materiallar bilan tanishadilar.	Tarqatma materiallar bolalar yoshiga mos bo'lishi kerak.
4.5.		NAZORAT: guruh ishini	Tarbiyachi nazorat qilishda ular	Tarbiyachi va tarbiya-

		nazorat qilish.	savoliga javob beradi.	lanuvchi o'rtasida o'zaro sog'lom munosabat o'rnatilishi kerak.
4.6.		BAHOLASH: nazorat natijalari asosida bolalar faoliyati baholanadi va baho asosida esa g'oliblar rag'batlantiriladi.	Bolalarni baholashda oshkoralikka e'tibor berilib, ular fikri so'raladi va ular ushbu jaryonda faol qatnashadi.	Baholash va rag'batlantirishda albatta bolalar qatnashishi kerak.
5.	Kutiladigan natijalar xulosalash bosqichi	Mavzuni qisqa vaqt ichida bolalarning o'zlashtirib olishiga erishiladi; tarbiyalanuvchilar faolligini oshirib faoliyat yuritadi; bolalarda darsga qiziqishni (motivasiyani) uyg'otadi; bir paytda barcha bolalar bahlanib, kichik guruhlar faoliyati xulosalanadi.	Ma'naviyatli odam haqida va uni bezab turadigan insoniy xislatlarni bilib oladi. «Ma'naviy qashshoq» odamda qanday illatlar bo'lishini ham anglaydilar.	Xulosa iloji boricha bolalar fikrini ishtirok etgan holda shakllantirilsa, ularda tashabbuskorlik yanada yuksaladi.
6.	Natijalar tahlili va tavsiya yakunlash bosqichi	Tarbiyachi qo'llagan metodik ta'minot orqali mashg'ulot bo'yicha nimaga erishganligi tahlil qilinadi va keyingi darslarda undan foydalanishning innovatsion texnologiyalarini	Bolalar mavzu materiallari bo'yicha o'zining va kichik guruhdagi fikrlarini o'rganadi va ularga munosabat bildirishga o'rganadigan va ayniqsa muammo bo'yicha bir yechimga kelishni	Bolalarga mashg'ulot paytida o'z fikrlarini aytishga to'liq imkoniyat berish kerak va xato fikrlarni ularning shaxsiga tegmaydigan qilib tuzatish

	izlashga tushadi va darsni hayot bilan bog'lashga kirishadi.	o'rganadilar.	kerak.
--	--	---------------	--------

Endi texnologik xaritada ko'rsatilgan jihatlar asosida mashg'ulot bayoniga o'tamiz.

1. Tashkiliy qism: Jizzax shahar, «Orzu» bolalar bog'chisidagi «maktabga tayyorlov» guruhida mashg'ulot o'tkazish rejalashtirilgan edi. Bolalarni jihozlangan xonaga taklif qilindi (Xona dars mavzusiga moslab o'quv materiallari va vositalari bilan jihozlangan hamda xona to'raligicha mashg'ulot o'tkazishga taxt qilib qo'yilgan edi). Ularga tayyorlangan joylar bo'yicha kichik guruhlar tashkil qilindi (Bu yerda har kim o'z do'stlari bilan o'tkazishi taklifi berildi). Tarbiyachi tomonidan mashg'ulot mazmuniga mos rasmlar va boshqa tarqatma materiallar har bir guruh stoliga, o'zlariga mos belgilar bilan qo'yib chiqildi. Guruhga qo'yilgan belgilar va guruh nomlari ularga tushuntirildi. Shuningdek, mashg'ulot paytidagi tartib intizom ham tushuntirildi.

2. Mavzuni e'lon qilish bosqichi: «Ma'naviyatli odam kim?» degan mavzu oldindan katta qog'ozga yozib qo'yilgan edi. Tarbiyachi uni hammaga ko'rinadigan joyga, yaqinroq joyga osib qo'ydi va bolalarga balandroq ovozda o'qib berdi, chunki hamma o'quvchilar ham hali o'qiy olmaydi.

3. Maqsad va vazifalarni bayon qilish bosqichi:

Maqsad: Bolalar ongiga «Ma'naviyatli odam kim?» va «Ma'naviy qashshoq odam kim», ekanligini singdirish.

Vazifalar: Ezgulikka xos odamlar qanday odamlar va yovuzlikka xos, ya'ni turli illatlarga ega bo'lgan odamlar qanday odamlar bo'lishligini bolalar ongiga singdirish.

4. O'quv jarayonining mazmuni: Bu holatda tarbiyachi oldindan tayyorlab olgan rejasi bo'yicha ezgulikni ifoda etadigan ma'lumotlarni bolalarga yetkazadi. Ular tartibi alfavitga asosan olib borilsa yaxshi bo'ladi. Keyin yovuzlikka oid ma'lumotlar, ya'ni illatlarning mazmun – mohiyati bayon qilinib, ular ezgulikka oid mos ma'lumotlar bilan taqqoslanib o'rgatilsa bolalar ongida chuqur saqlanib qoladi. Endi ma'lumotlar bayoniga o'tamiz.

Vatan – kishilarning yashab turgan uyi, ularning ajdod va avlodlari, tug'ilib o'sgan joyi, hududi, mamlakati, shahri, mahallasi.

Vatanparvarlik – bu insonning uyiga, o‘z mahallasiga, o‘z Ona zaminiga, yurtiga bo‘lgan muhabbati, uni sevish, e‘zozlash, Vatan ravnaqiga o‘z hissasini qo‘shishiga erishishi borasidagi faoliyati.

Intizomli kishi – bunday odamlar turmush qoidasiga ongli ravishda munosabatda bo‘ladi. Ular xoh bog‘chada bo‘lsin, xoh maktabda bo‘lsin, xoh boshqa jamoat tashkilotlari yoki muassasalarida bo‘lsin o‘z faoliyatida aniq va intizomli bo‘lib, o‘z burch va vazifalariga, jamoat topshiriqlariga mas‘uliyat bilan qaraydi.

Madaniyat – shaxs xulq – atvori, muammosi va hatti – harakatlarining ma‘lum ketma – ketlik asosidagi shakllangan tizimdir.

Ma‘naviyat – insonning ongi, aqliy qobiliyatini, ruhiy kechinmalarini yaxshiliklarga, ezgu niyatlarga to‘la qalbini ifodalovchi ko‘p qirrali faoliyati natijalari majmuasidir.

Ma‘rifat – odamlarga bilim berish, ko‘nikma va malaka hosil qildirish demakdir.

Odamiylik – odob me‘yorlaridan biri bo‘lib, odamlarga kundalik hayotda insonparvarlik munosabatida bo‘lishlikdir.

Odob – insonda bolalikdan boshlanib, to ma‘naviy kamolotgacha yetaklab boruvchi harakatlantiruvchi kuch.

Oriyat – or – nomusdan tashqari izzat – nafs, qadr tuyg‘usidir.

Yaxshilik – odamdagi chinakam insoniylik bo‘lib, u xalqimizning insonparvarlik qarashlari va quvonchlarini ifodalovchi insoniylik tuyg‘usi.

Endi bayon qilgan tushunchalarning qarama – qarshi ma‘nosiga e‘tibor beraylik.

Vatanga xiyonat – eng xavfli, og‘ir jinoyat hisoblanadi va u hych qachon kechirilmaydi. Unday odamlarni sotqin yoki xiyonatkor, deb ham yuritiladi. «**Sotqinga o‘lim**», degan xitoblar ham xalqimizning umumiy va xulosaviy fikridir.

Vatan ravnaqini ko‘ra olmaslik – vatandoshlarimizning jangarilarga aylanib, Vatanga, Vatandoshlariga qo‘l ko‘tarib, qo‘poruvchilik bilan shug‘ullanib, yurtimiz ravnaqi va xalq farovonligini ko‘ra olmaslik faoliyatidir. O‘ylab ko‘rish kerak! Xalqimiz vatanparvarga qanday qaraydi, xalq dushmaniga qanday qaraydi?

Tartibsiz kishi – bunday odamlar qandaydir yo‘l bilan kunini o‘tkazsa bo‘ldi, ular uchun muhim narsaning o‘zi yo‘q, faqatgina o‘zini o‘ylaydi. Tartibsizlik ham yomon illat. U jamiyat va umummanfaat qoidasiga ziddir. Intizomli kishilar ko‘pligi uchun ham jamiyat taraqqiyoti barqaror.

Madaniyatsizlik – bu kishining har xil illatlarga ruju qo‘ygan kishi faoliyati bo‘lib, ular o‘z oilasiga ham, jamoasiga ham va hattoki davlatiga ham befarq odamlardir. Ishlarni qo‘pollik bilan, ta‘na bilan bitirishni yaxshi ko‘radilar. Ular madaniyatli kishilardan juda uzoq.

Ma‘naviyatsizlik – bu «Ma‘naviy qashshoqlikdir». Bunday odamlar savodsiz bo‘ladi, ularga ixtiyoriy bir savobni «Obi hayot» desangiz ham ishonaveradi. Ular jamiyat uchun xavflidir.

Ma‘rifatsiz – qalbida ezgu niyati yo‘q kishidir. Ular nima qilayotganini, oxiri nima bilan tugashini bila olmaydi, chunki ularning dunyoqarashi juda tor bo‘ladi. Ular ma‘rifatli kishilarning aksidir.

Yovvoyilik – kishidagi insonlarga bo‘lgan hurmatsizligi, ishonchsizligi, nokamtarligi, qo‘polligi, kishilarni o‘ziga yaqinlashingiz kabi illatlarning majmuasi. Yovvoyi odamda odamiylik xislati hiech ham bo‘lmaydi.

Odobsizlik – kishining xulqiy go‘zalligini yo‘qotuvchi faoliyat. U jamoadagi, oiladagi sog‘lom muhitni yo‘qotuvchi vosita yoki asos hamdir. Odobsiz kishidan xalq ham, oilasi ham bezor.

Oriyatsiz – bunday kishilar o‘zlari va oilalarining izzat – nafslarini, qadrlari bilan hisoblashmaydilar, qadr – qimmat haqida o‘ylamaydilar ham, shuningdek, o‘zlarining ham qadrlarini bilmaydilar. Oriyatsiz kishi manqurt hamdir. Ularda or bo‘lmaydi.

Yomonlik – bu odamning boshqa odamlarga nisbatan qiladigan yovuzligi va hattoki o‘ziga ham. Ularning ichi qora bo‘ladi, doimo burovga yomonlik qilishni ko‘zlab ish tutadi. **Yomonlik** illatlar ichida eng yomon illatdir. Yomonlik o‘z egasini tanazzulga uchratadi. Yomonlik ayrim hollarda yaxshilikni ham «yerga kirgizib yuboradi».

Ushbu jarayonni, ya‘ni ma‘lumotlar ketma – ketligini juda ko‘plab davom ettirish mumkin. Ammo vaqt chegarasi bo‘lganligi sababli ularni hozircha vaqtincha to‘xtatib olamiz va mashg‘ulotning davomini kichik guruhlardagi bolalarni jalb qildirib olib boramiz. Kichik guruhlar nomlari bor. Ular: birinchi kichik guruh – «VATANPARVAR», ikkinchi kichik guruh – «MADANIYAT», uchinchi kichik guruh – «MA‘RIFAT», to‘rtinchi kichik guruh – «MA‘NAVIYAT» va beshinchi kichik guruh «ORIYAT».

Hurmatli bolajonlar ma‘naviyat – ma‘rifatga tegishli ba‘zi bilimlarga ega bo‘ldingiz va bu haqda oldindan ham tushunchaga egasizlar, endi sizlar bilan birgalikda ma‘naviyatlilik va ma‘naviyatsizlik haqida savol – javob o‘tkazsak rozimisizlar, deb bolalarga murojaat qilinadi va savol – javob boshlanadi. Bunda

murabbiy yoki tarbiyachi savolni o'qiydi va qo'l ko'tarib savolga javob berishga ruxsat so'ragan guruhga ruxsat beriladi. Agarda javobni to'ldiruvchilar bo'lsa, ularga ham ruxsat beriladi. Javoblar uchun maxsus blanka qilinib, javoblar unga qo'shimchalar belgilanib boriladi. Har bir savolga 4 balgacha qo'yiladi. Jami yig'iladigan ball 100 ga teng bo'ladi.

1-savol: G'oyalar nima, u fikrdan qanday farq qiladi?

Javob: «ORIYAT» guruhi – fikr bir kishining ma'lumoti. G'oya – hayot va odamlar turmush tarzi hamda hayot qonuniyatlarini o'rganish va anglash natijasida kelib chiqadigan fikrlar majmui.

2-savol: Shaxs ichki madaniyatini anglatuvchi vosita nima?

Javob: «ORIYAT» guruhi–odamning xushmuomalaligi, tili shirinligi, muloyimligi va gapirishining aniq va chiroyliligi.

3-savol: Insonning tashqi ko'rinishi, hatti – harakati, xulq – atvori, muloqot madaniyatidan nimani anglash mumkin?

Javob: «MA'NAVIYAT» guruhi – ma'naviy qiyofasidan, chunki ma'naviyatli odamning tashqi va ichki ko'rinishi go'zal bo'ladi, xalq – atvori va hatti – harakatli madaniyatli odamniki bo'ladi, muomalasi muloyim bo'ladi.

4-savol: Ma'naviy yangilanish nima?

Javob: «VATANPARVAR» guruhi – bu xulqimizning boy tarixiy, milliy – ma'naviy merosini o'rganish asosida ma'naviy yuksalishga harakat qilish.

Tarbiyachi: Savolni to'ldiruvchilar bormi?

5-savol: milliy va umuminsoniy qadriyatlarni kim sanab beradi?

Javob: «MADANIYAT» guruhi – Vatanparvarlik, milliy g'urur, insonparvarlik, mehnatsevarlik, imon – e'tiqodlilik, halollik, vijdonlilik, poklik va tozalik, erkinlik va mustaqillik, odillik va soflik.

Tarbiyachi: Qo'shimcha qiluvchilar bormi?

«MA'NAVIYAT» guruhi–baynalminalchilik, yangilikka intiluvchanlik, donishmandlarimiz o'git va maslahatlariga amal qilishlik.

6-savol: Barkamol inson qanday bo'lishi kerak?

Javob: «MA'RIFAT» guruhi – erkin fikrlaydigan bo'lishi kerak, ongli yashaydigan bo'lishi kerak, o'ziga mustaqil va ma'naviyatli odam bo'lishi kerak.

7-savol: Ong nima?

Javob: «MA'RIFAT» guruhi – Ong ham, aql ham odam miyasining mahsuli. Odamning ongi juda ko'p narsa va xodisalami bilish quvvatiga ega.

8-savol: O'zbek xalqining o'ziga xosligi nimada?

Javob: «ORIYAT» guruhi – o'zbek xalqi o'zligini biladi. Ularning niyati toza, iligi to'q. Mehmondo'st, bag'ri keng. O'zbek xalqining palagi toza, ota – bobolari tomonidan qoldirilgan merosni avaylab – asraydi va qadrlaydi, inson qadr – qimmatini biladi. O'zbek xalqi o'zining mustaqil ekanligidan g'ururlanib, faxrlanib yashaydi.

9-savol: «Tolibonlar» kimlar?

Javob: «MA'NAVIYAT» guruhi – bu guruh Afg'onistonda bo'lgan, ular hokimiyatni egallashga harakat qiladi. Ular urushlarni yaxshi ko'radi. Ular xalq umumiy manfaatining dushmanlaridirlar.

10-savol: «Da'vatchilar» kimlar?

Javob: «MA'RIFAT» guruhi – «Da'vatchilar» targ'ibot – tashviqot qiluvchilarga o'xshaydi-yu, ammo ularning asosiy maqsadi chiroyli so'zlar bilan ayrim irodasi bo'sh hamyurtlarimizni yo'ldan urishga va ular tufayli o'z g'arazli maqsadlarini amalga oshirishga harakat qilishdir.

11-savol: Dinlararo bag'rikenglik nima?

Javob: «MA'NAVIYAT» guruhi – bu xilma – xil dinlarning bitta joyda, bitta hududda tinch – totuvlikda yashashidir.

12-savol: Ma'naviyat so'zining lug'aviy ma'nosini bilasizmi?

Javob: «MA'NAVIYAT» guruhi – «Ma'naviyat» so'zi asli arabcha so'z bo'lib, uning mazmuniy ma'nosi «ma'ni», «ma'no»ni anglatadi.

13-savol: Vatanparvarlik deganda nimani tushunasiz?

Javob: «VATANPARVAR» guruhi – «Vatanni sevmoq - iymondandur», «Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir», «Hamma uchun eng ulug' Vatan – bu uning Ona Vatani», «Hamma uchun eng go'zal shahar – bu uning Ona shahri» va hokazo. Demak, Vatanparvarlik ona zaminga muhabbat, uni sevish, e'zozlash, ardoqlashdir.

14-savol: Ma'naviyat nimada o'z ifodasini topadi?

Javob: «MA'RIFAT» guruhi – Ma'naviyat jamiyatning ma'naviy boyliklarida o'z ifodasini topadi. U asta – sekin to'planib, sayqal topib uyg'unlashib boradi.

15-savol: Barkamol insonni shakllantirishda asosan qanday g'oyalardan foydalangan ma'qul?

Javob: «ORIYAT» guruhi – tarbiya jarayonida quyidagilardan asosiy g'oyalari sifatida foydalangan ma'qul:

- Vatanparvarligu insonparvarlikdan;
- erkinligu mustaqillikdan;
- milliy iftixoru g'ururdan;
- mehnatsevarligu halollikdan;

- imon – e'tiqodligu odillikdan;
- axloqiy pokligu hurfikrlilikdan;
- birodarligu baynalminalchilikdan;
- bilimligu onglilikdan;
- taraqqiyparvarligu tashabbuskorlikdan va shu kabilardan foydalaniladi.

16-savol: Adolatli jamiyat o'zining ichki hayotida nimaga suyanadi?

Javob: «MADANIYAT» guruhi – Adolatni jamiyat o'zining ichki hayotida qonunning hukmronligiga suyanadi. Bunga qonunlarning mukammalligi, adolatligi, hamma uchun tengligi, qonunning bajarilishini ta'minlaydigan vositalar va organlarning mukammalligi orqali erishiladi.

17-savol: Ma'rifatli jamiyat qanday qo'riladi?

Javob: «MA'RIFAT» guruhi – Ma'rifatli xalqni yengib bo'lmaydi. Ma'rifatli xalqni yo'ldan ozdirib bo'lmaydi va boshqa yo'lga burib yuborish ham bo'lmaydi. Ma'rifatli xalq o'z hayotini o'z aql – idroki bilan quradi, o'z hayoti yo'lini o'z aql yo'li bilan tanlaydi. Ana shularga asoslanib ma'rifatli jamiyat quriladi.

18-savol: Vatan tuyg'usi nima?

Javob: «VATANPARVAR» guruhi – Vatan tuyg'usi – bu aziz, go'zal Vatanimizga yuksak e'tiqod bilan yashash unga hamisha sadoqatli bo'lishdir. Boshqa yurtga ketganda ham Vatan tuyg'usi bilan yashash har bir kishida kuzatiladi.

19-savol: «Alloh» so'zining ma'nosi nima?

Javob: «MADANIYAT» guruhi – «Alloh» degan so'z arabcha bo'lib, u «Tangri», degan ma'noni anglatadi. Bundan tashqari Alloh taola, Xudoyi taolo, Tangri taolo birlikdagi so'zlar ham ishlatiladi. Bu birikmadagi «Taolo» – ulug', oliy degan ma'nolarni anglatadi.

20-savol: Madaniy meros deb nimaga aytiladi?

Javob: «MADANIYAT» guruhi – Ota – bobolarimizdan bizgacha yetib kelgan moddiy, ma'naviy va madaniy boyliklar majmuiga aytiladi.

21-savol: Milliy qadriyatlar deb nimaga aytiladi?

Javob: «MA'RIFAT» guruhi – moddiy merosning qadri abadul – abad tushmaydigan qismiga milliy qadriyatlar deb ataladi.

22-savol: Tarbiya deganda nimani tushunasiz?

Javob: «MA'RIFAT» guruhi – Odamzodning bolasini boqib, ta'lim berib voyaga yetkazish uchun qilinadigan mehnati va g'amxo'rlikiga tarbiya deyiladi.

23-savol: Urf–odat va rasm–rusumlar deganda nimalarni tushunasiz?

Javob: «MADANIYAT» guruhi - urf – odat hayotimizga singib ketgan, takrorlanib turuvchi xulq – atvor qoidalaridir.

Urf-odat va rasm – rusumlar bir – biriga bog‘liq. Biri ikkinchisining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bugungi kunda ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan rasm – rusum va urf – odatlarni har tomonlama tiklash va rivojlantirish, ularni yosh avlodni tarbiyalashda samarali ravishda qo‘llash masalasi ko‘ndalang turibdi.

24-savol: Vayronkor g‘oya nima?

Javob: «MA‘NAVIYAT» guruhi – bu turli ta’sirchan vositalardan foydalanib, odamlarni soxta va puch g‘oyalarga ergashtiruvchi, ularning kuch – qudratini buzg‘unchilik va jamiyatga yo‘naltirilgan, insoniyat uchun faqat kulfat keltiradigan g‘oyaga aytiladi.

25-savol: Ogohlik nima?

Javob: «VATANPARVARLIK» guruhi –dunyoda, yon – atrofda bo‘layotgan o‘zgarishlardan, odamlar va xalqlarning orzu – intilishlaridan doimiy boxabar bo‘lib yashashdir.

Tarbiyachi savol – javoblardan kelib chiqqan holda «Ma‘naviyatli odam kim?» va «Ma‘naviy qashshoq odam kim?» degan savollarga umumiy javobni shakllantiradi va ularni bolalarga ma‘qullatib oladi.

Eslatma: Bu yerda bolalar javoblariga ozgina sayqal berildi.

Mazkur jarayonda kichik guruhlar yiqqan ballari hisoblanib va ularning egallagan o‘rinlari ham belgilanib qo‘yildi (Bu darsdan oldin hisobchi tayinlanib, unga hisobni olib borish topshiriladi). Ular quyidagi 1-jadvalda aks ettirilgan.

«Ma'naviyatli odam kim?» mavzusidagi mashg'ulotda kichik
guruhlarning
to'plagan ballari haqida
MA'LUMOT

Sav- ol- lar №	KICHIK GURUHLAR NOMLARI				
	VATAN- PARVAR	MADA- NIYAT	MA'RI- FAT	MA'NA- VIYAT	ORIYAT
1.					4
2.					4
3.				4	
4.	4				
5.		3		1	
6.			4		
7.			4		
8.					4
9.				4	
10.			4		
11.				4	
12.				4	
13.	4				
14.			4		
15.					4
16.		4			
17.			4		
18.	4				
19.		4			
20.		4			
21.			4		
22.			4		
23.		4			
24.				4	
25.	4				
Ja- mi ball	16	19	28	21	16
Egal- la- gan o'rin №	IV	III	I	II	IV

4.1. O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasining metodik ta'minot bosqichi.

Ushbu mashg'ulot texnologiyasida ma'naviyat haqida suhbat, tushuntirish, bahs – munozara **metodlaridan** foydalanildi. Mashg'ulotning «4.2 – mashg'ulot **shakli**» qismida kichik guruhlar tizimlashtirish va ularga mos nomlar qo'yish bilan chegaralanadi. Mashg'ulotda 4.3. – qismida ko'rsatilgan tarqatma materiallar (vositalar) dan foydalanildi. Mashg'ulotning 4.4. – qismi bo'yicha tarqatma materiallar bilan ishlash usulidan foydalanildi va 4.5. – qismida esa guruh ishini kuzatish nazorat ishi qo'llanildi. Mashg'ulotning 4.6. – qismida baholashga jadval tayyorlab o'rinlar belgilanib qo'yildi.

5. Kutiladigan natijalar – xulosalash bosqichida har bir kichik guruh bo'yicha maksimal olinishi mumkin bo'lgan ball ularga tushuntirilgan edi. Kichik guruhlar mashg'ulotga befarq emasliklarini namoyon qila oldi. Har bir savolga 4 balldan, jami 25 ta savolga 100 ball to'planishi kerak edi. 100 ball yig'ildi. Ular asosida jadval tuzib har bir kichik guruhning egallagan ballari aniqlanib, ular jadval ko'rinishida ifodalanib qo'yildi.

6. Natijalar tahlili va tavsiya - yakunlash bosqichida kichik guruhlarining to'plagan ballari bo'yicha o'rinlari belgilandi. Ular quyidagicha bo'ldi:

1. «Ma'rifat» guruhi 28 ball to'pladi – 1 o'rin.
2. «Ma'naviyat» guruhi 21 ball to'pladi – 2 o'rin.
3. «Madaniyat» guruhi 19 ball to'pladi – 3 o'rin.
4. «Vatanparvar» guruhi 16 ball to'pladi – 4 o'rin.
5. «Oriyat» guruhi 16 ball to'pladi – 4 o'rin.

«Vatanparvar» va «Oriyat» guruhlarini teng ball to'plagan uchun ular bir xil o'ringa, ya'ni 4 – o'ringa munosib deb topildi.

O'rinlarga mos tavsiyalar berildi. Bu javoblar tahlili bilan bog'liq bo'lib, keyinchalik nimalarga yanada ko'proq e'tibor berish kerakligi tavsiya qilinadi.

Yakunlash bosqichida o'rinlarga mos rag'batlantiruvchi omillar (maqto'v yorliqlar, kitoblar, globus va aqliy faoliyatni rivojlantirishga mos o'yinchoqlar) topshirildi.

Mashg'ulot oxirida tarbiyalanuvchilarga quyidagi tartibda savollar berib, ularga mos javoblar olindi:

- Sizga nima yoqdi? Nima uchun?
- Sizga nima yoqmadi? Nega?
- Siz bu mashg'ulotda nimani bilib oldingiz?

•Siz «Ma'naviyatli odam kim?» - degan savolga javob topa oldingizmi?

•Siz «Ma'naviy qashshoq odam kim?» - degan savolga javob topa oldingizmi?.

Tarbiyachi savol – javoblar tugagach dars oxiriga yetganligini e'lon qilib, «Hammaga rahmat! Xayr sog' bo'linglar!» – deb mashg'ulotni tugatadi.

3. 2. «Vatan qahramonlari, deb kimni aytamiz?» mavzusi bo'yicha «Ma'naviyat saboqlari» mashg'ulotini olib borish texnologiyasi

«Qahramonlik kishilardagi jasorat va fidovilikning uyg'unlashgan ko'rinishi bo'lib, u jamiyat taraqqiyotiga ham muhim turki bo'la oladi».

Xolbo'ta To'raqulov

Bizning mamlakatimizda yoshlar tarbiyasiga e'tibor davlat – siyosatining ustuvor yo'nalishlariga aylantirilgan. Hukumatimiz bolalar tarbiyasi va ularning ham jismonan, ham ma'nan barkamol bo'lishiga katta e'tibor bermoqda. Bu uzluksiz ta'lim tizimini tashkil etilishidan ham sezilib turadi.

Bu ayniqsa, MTM dan yaqqol seziladi. Ular uchun barcha sharoitlar yaratilgan, maktabgacha tarbiyani maktabgacha ta'lim, deb ataladigan bo'ldi.

MTM da tarbiyalanadigan bolalarga ta'lim – tarbiya berishda murabbiy va tarbiyachilar sezgirlik va g'amxo'rlikni talabchanlik bilan, pedagogik mahorat, bilim va tajribalarni o'zlarida mujassamlashtirishi kerak. Bularning hammasi MTM da faoliyat yurituvchilardan kasbiy tayyorgarlik, doimiy ijodkorlik va insonparvarlik, ko'ngil kengligi va saxiylik, ehtiros va mehribonlik, shuningdek, maxsus tayyorgarlikni talab etadi. Bunga sabab, MTM da bolalar jamoasini jipslashtirishga to'g'ri keladi, ular bilan qiziqarli faoliyat yuritishni, bu ishlarda ishtirok etish, tarbiyaning turli shakllari va usullarini bilish, nafaqat bilish, balki undan foydalana olish – bir qaraganda oddiy ko'ringani bilan, aslida juda qiyin, zero bular hammasining diqqat markazida tirik odam bola shaxsi turibdi. Bu tarbiyachi va murabbiylaridan pedagogika va psixologiya bilimlari asoslarini, pedagogik va aktyorlik mahoratini, pedagogik muloqot, boshqaruv, shuningdek, MTM faoliyatining xususiyatlari haqidagi bilimlarni talab etadi. Bunday talablar haqida mazkur tadqiqot ishimizning «2.5- «Ma'naviyat saboqlari» darslariga

metodik tayyorgarlik», deb nomlangan qismida va 3.1 – qismidagi 1 – jadvalda batafsil ma'lumot berilgan.

Endi quyida ular asosida tashkil etilgan bir dars ishlanmasini beramiz.

MAVZU: Vatan qahramonlari, deb kimni aytamiz?

MAQSAD: Bolalar ongiga jasorat va fidoyilik hamda ular asosida namoyon bo'ladigan qahramonliklar haqidagi tuyg'uni singdirish.

VAZIFALAR:

- Bolalarimizga tarixiy qahramonlarimiz haqida ma'lumotlar berish orqali ulardagi vatanparvarlik tuyg'usini yuksaltirish;

- Bolalarimizga «Uyg'onish davrlari»ning Qahramonlarini tanishtirish orqali, ulardagi Vatan qayg'usi haqidagi ma'lumotlarni boyitish;

- Bolalarimizga Mustaqillik davri qahramonlarini tanishtirish orqali, ularga hamma davrlarda ham har qanday holatda ham qahramonlar bo'lishi mumkinligi haqida tushuncha berish.

MASHG'ULOT O'TKAZISH SHAROITI:

- Murabbiy va tarbiyachi bolalarga darsga qo'yilgan talablarni tushuntiradi;

- Bolalarning darsga to'liq tayyor bo'lib o'tirishga vaqt belgilaydi;

- Har bir bola mashg'ulot paytida ustozidan mashg'ulotga tegishli yana ma'lumot so'rashi mumkinligini aytiladi va bunda ustoz aytayotgan fikrlar bir to'xtamga kelganda, ya'ni mashg'ulot vazifalari oralig'ida murojaat qilish ma'qulligi ham uqtiriladi;

- Murabbiy va tarbiyachi har bir mashg'ulot vazifasini bitta bosqich, deb belgilab oladi. Bunga sabab, mashg'ulot paytida bolalarning fikrini bir joyga jamlab olish oson bo'ladi.

KUTILAYOTGAN NATIJA: Mazkur mashg'ulot MTM dagi «Ma'naviyat saboqlari» darsidan qahramonlar va qahramonlik qilib jasorat ko'rsatish haqida bolalarda tasavvur uyg'otish. Yana bolalar ongida jamiyat taraqqiyotining har qanday bosqichida ham xalqimiz ichidan qahramonlarimiz yetishib chiqishini shakllantirish.

Tarixiy qahramonlarimiz ham, zamonaviy qahramonlarimiz ham yurt tinchligi, xalq farovonligini, Vatanimizni dushmanlardan himoya qilish, yurtimiz tinchligini saqlash muqaddas Vatanparvarlik burch ekanligini o'zlariga qonun qilib olganligini bolalarga uqtirish.

MASHG'ULOT BAYONI:

Murabbiy va o'qituvchi dars boshlanishdan oldin mashg'ulot uch bosqichdan iborat bo'lishligini e'lon qiladi. Keyin kutilgan natijaga

erishdikmi yoki yo'qmi? Shuni aniqlash uchun Sizlar bilan qisqacha (bir nechta) savol – javob o'tkazamiz, deb bolalarni ogohlantirib qo'yadi.

BIRINCHI BOSQICH: Murabbiy yoki tarbiyachi bolalarga quyidagidek murojaat qilib, ma'lumotni bayon qilishga o'tadi.

Aziz bolajonlar! Yaxshilab o'tirib oldilaringmi? Mashg'ulotni boshlaymizmi? Men sizlarga qahramonlik to'g'risida qiziqarli fikrlarni aytib beraman. Ular bizlarning erkin va farovon hayotda, Erkin va obod Vatanda tinch – osoyishta yashashlarimiz uchun o'z jonlarini ham ayamay Vatanimiz dushmanlariga qarshi kurashganlar. Ular haqida juda qiziq ma'lumotlar bor. Sizlarga ular haqida aytib beraymi?

Hozir men sizlarga dastlab tarixiy qahramonlarimiz haqida birma – bir so'zlab beraman. Shuni unutmanglarki, bolalar! Qahramonlar har doim kerak. Ular orqali jamiyat taraqqiyoti tezlashadi. Bu haqda ko'plab kinolar ham ishlangan. Uning ba'zilarini sizlar ham ko'rganizlar.

Tarixdan ma'lumki, zardo'shtlik dini dunyoning eng tarixiy dinlaridan biri. Zardo'sht (ba'zi manbalarda Zardo'shtra, Zoroastr), degan nom ushbu din asoschisining nomi bo'lib, u donishmand munajjim bo'lgan. Rivoyatlarga ko'ra, donishmand Zardo'sht 30 yoshlar atrofida mazkur ta'limot bilan chuqur shug'ullanadi va bu ta'limot uning qalbidan mustahkam o'rin oladi. Natijada Zardo'sht tomonidan bayon etilgan, ya'ni shakllangan tushunchalar va ma'lumotlar bir tizimga keltirilib «Avesto» nomli muqaddas kitobning paydo bo'lishiga olib keladi.

Aziz bolajonlar bu ta'limotning yaratuvchisi Zardo'sht shunday qahramonlik ko'rsatdiki, uning ta'limoti bo'yicha Yer yuzidagi barcha yomonlik va yovuzliklarni temimi suvdek eritib, uning yordamida Yer qahriga kiritib yuborish kerak edi. U doimo yovuzlik ustidan ezgulik g'alaba qilishini targ'ib qildi. Odamni ham ruhiy jihatdan, ham jismoniy jihatdan toza tutish va Yer yuzini ham toza tutish uning ta'limotining asosiy g'oyalari edi.

•Endi qahramonlarimizdan **To'maris** momomiz haqida ma'lumot beramiz. Miloddan avvalgi 530 yilda massagetlar yo'l boshchisi malika Tumaris Kir II boshchiligidagi bosqinchilarga qarshi kurashda **qahramonlik** ko'rsatgan.

Tumaris xalqimiz orasida Ozodlik uchun kurashchi va Vatanga sadoqat ramzi sifatida qaraladi. Biz ular to'g'risida yanada ko'plab o'rganishimiz kerak. U kishi ayol boshi bilan dushmanga qarshi kurashda qo'shinga boshchilik qildi va dushmanlarga qaqshatgich zarba berdi.

•**Shiroq.** Bizga tarixdan ma'lumki, Ahmoniylar shohi Doro I miloddan oldingi 519 – 518 yillarda Vatanimiz ustiga bostirib keladi. O'sha paytda yilqiboqarlik qilib yurgan Vatandoshimiz Shiroq ham dushmanga qarshi kurashga bel bog'laydi. U hiyla ishlatib, dushmanlarni chalg'itib ularni Qizil qumning halokatli jazirama dashtiga boshlab boradi. Dushmanlar bu jaziramaga chiday olmay cho'lda qirilib ketadi. Shunday qilib u o'z xalqini yovuzlardan saqlab qoladi va shu bilan o'z jonini ham qurbon qiladi.

Qahramonlarimiz Shiroqni xalqimizda vatanparvar va milliy himoyachi sifatida hurmat bilan tilga oladi.

•**Spitamen.** Miloddan oldingi IV asrda yunonistonlik Iskandar Zulqarnayin (Aleksandr Makedonskiy) Vatanimiz hududiga bostirib kirdi. Xalq qahramoni Vatandoshimiz Spitamen boshchiligida Samarqandda ko'tarilgan qo'zg'olon Iskandar Zulqarnayin qo'shinlariga katta talafot keltirdi. Bu qo'zg'olon butun baqtriyalik va so'g'diyonaliklarni ozodlik uchun kurashga ilhomlantirdi.

•**Muqanna.** VIII asrning boshlarida arab bosqinchilari Movarounnahr hududini bosib oldilar. Istilochilarga 10 yildan ortiq qarshi kurashda boshchilik qilgan Muqanna bo'ladi.

Muqanna yurtimizni oyoq osti qildirmaslikka o'z jonini ham ayamagan xalq qahramonimiz timsoli sifatida hurmat bilan tilga olinadi.

•**Temur Malik.** XIII asrda Chingizxon boshliq mo'g'illar mamlakatimizga yurish boshladi. Xo'jand shahri hokimi va sarkarda Temur Malik dushmanga qarshi mardonavor kurasha oldi. Uning Jaloliddin Manguberdi bilan Vatanni qo'riqlashi tahsinga sazovor. Ular to'g'risida ko'plab asarlar va kinolar ishlangan.

•**Najmiddin Kubro.** Oddiy chumoliga ozor bermaslikni targ'ib qilib yurgan dindor Najmiddin Kubro jasorati ham tahsinga sazovor. U dushmanga qarshi kurashda oldingi saflarda bo'ldi. «Yo hayot, yo mamot!», «Yo Vatan, yo sharafli o'lim!», degan xitoblar bilan u xalqni dushmanga qarshi kurashga chaqirdi.

Urganch shahri ichida donishmand Kubro borligini bilgan Chingizxon unga shahardan bemalol chiqib ketishiga ijozat berdi. Lekin, Kubro Chingizxonning bu muruvvatini qabul qilmadi va jangga kirdi. Qo'lida ozodlik bayrog'ini mahkam tutib jon berdi. U **ozodlik bayrog'ini shu darajada mahkam tutgan ediki, u o'lgandan keyin ham uning qo'lidan bayroqni ololmaydi. Barmoqlarini kesib, keyin bayroqni uning qo'lidan oldi.**

Najmiddin Kubroni xalqimizda nafaqat dini – iymonni, diyonatni targ'ib qiluvchi, xalqni insofga chaqiruvchi donishmand sifatida, balki haqiqiy vatanparvar inson sifatida ham hurmat bilan tilga olinadi

• **Jaloliddin Manguberdi.** Mo'g'ul istilochilariga qarshi kurashda Jaloliddin Manguberdi dushmanga qaqshatgich zarba berdi. U o'z qo'shinlari bilan 11 yil davomida dushmanning g'arb mamlakatlariga va janubga qarab yurishini to'xtatib qo'ydi.

Jaloliddin Manguberdi jasorati to'g'risida Chingizxonning o'zi «**Otadan dunyoda hali bunday o'g'il tug'ilmagan, u sahroda sher kabi jangchi, daryoda nahang kabi botir**», deb hayratga tushganiga tarix guvoh.

IKKINCHI BOSQICH:

• **Amir Temur.** Mo'g'il istilochilaridan xalqimizni ozod qilish, xalq turmushini o'nglash yo'lida olib borilgan ko'p yillik kurashlarda Sohbiqiron Amir Temur boshchilik qildi. Uning rahbarligida quyidagilar amalga oshirildi:

- mamlakat dushmanlardan ozod qilindi;
- mamlakat hududlari mustahkamlandi;
- barcha o'lka hokimlari o'rtasida ahillik o'rnatildi;
- Mo'g'uliston sari 7 bor yurish qildi va ularning hammasida g'alabaga erishildi;
- Movarounnahrning sharqiy va shimoliy hududlarining dahlsizligi ta'minlandi;
- Movarounnahr markazlashgan qudratli davlatga aylandi.

Amir Temur siyosiy maydonga qadam qo'yganda 24 yoshga kirgan edi. 1370 yilda Amir Temur Balhda bo'lib o'tgan quriltoyda Movarounnahr ulug' amiri deb e'lon qilindi.

Amir Temur saltanati O'rta Osiyoda 35 yil (1370 - 1405) hukm surdi. U Markaziy Osiyo Hududlarini yagona markazlashgan davlatga birlashtirdi. Hind va Gangadan to Sirdaryo va Zarafshongacha, Tyanshandan to Bosforgacha ulkan imperiya barpo etdi.

Amir Temur 1000 (mingta) jang o'tkazib, birontasida ham yengilmagan **mashhuri zamon sarkarda** nomini oldi. Uning davlat tuzilishi haqidagi nazariya darsliklarga kirdi, uning o'zi esa ilm – fan, ma'rifat, madaniyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan siyosiy davlat arbob sifatida tarixdan mustahkam o'rin oldi. Natijada uni quyidagicha ifodalaydigan bo'ldi: «**Mashhur davlat arbobi, o'rta asrlar islohotchisi, buyuk sarkarda, adolat uchun tolmas kurashchi, ilm – fan va madaniyat rahnamosi, tartib – intizomlilik, ozodlikka va**

taraqqiyotga bo'lgan intilishlarini o'zida mujassam qilgan xaloskor va dohiy».

•**Mirzo Ulug'bek.** Mirzo Ulug'bek buyuk Movarounnahr davlatining shuhratini va qudratini butun dunyoga yoyishda qahramonlik ko'rsatdi. U Markaziy Osiyoda birinchi dorilfununi ochdi. Unda talabalarning ommaviy o'qishi tashkil etildi va unda o'zi ham dars berdi. Mirzo Ulug'bekning observatoriyasidagi ilmiy tadqiqot ishlari ham o'ziga xos akademiya edi. U ham birinchilardan bo'lib tashkil etildi. Ulug'bek nomiga Samoda yulduzlar qo'yildi va uning qilgan ishlari bo'yicha, u munajimlar xudosi Uroniya yonidan joy oldi. Bularning hammasiga yetish uchun undan nafaqat fidoyilik va jasorat talab qilindi, balki qahramonlik qilish ham talab qilingan edi. Chunki, o'sha paytdagi taraqqiyot dushmanlari, «Din peshvolari» niqobidagi dushmanlar Mirzo Ulug'bekka tish tirnog'i bilan qarshi edi. Mirzo Ulug'bekni xalqimiz qahramoni demay, kimni deymiz.

•**Mirzo Bobur.** Mirzo Bobur Temuriyzodalardan. Uning ismidagi Bobur – Sheryurak, degan ma'noni anglatadi. Uning qahramonligi haqida quyidagi fikrni keltirish yetarli deb o'ylaymiz.

«... Amir Temur bilan Mirzo Bobur faoliyatidagi o'xshashliklardan quyidagilarni ko'rsatishimiz mumkin: **Birinchidan**, ikki sarkarda ham jamiyatning yuqori tabaqasi vakili; **ikkinchidan**, Temur ham Bobur ham yoshligidan toju – taxt uchun kurashni boshlagan; **uchinchidan**, ularning asosiy maqsadi imperiya tuzish edi va bu niyat amalga oshirildi; **to'rtinchidan**, ikkala davlat arbobining ham faoliyati xalq tinchligi, yurt obodligi uchun kurashga qaratilgan edi; **beshinchidan**, Temur ham, Bobur ham keng ma'lumotli, tarix, fiqh, falsafa va adabiyotni yaxshi biladigan kishilar bo'lgan. Ularning bizga qoldirgan asarlari («Temur tuzuklari», «Boburnoma», ...) keng qamrovli ma'lumotlarga boyligi bilan ajralib turadi; **oltinchidan**, ilm ahliga, hunar sohiblariga alohida e'tibor, yaratuvchilik faoliyatlari ham o'zaro hamohang. Qolaversa, ularning axloq me'yorlari ham ko'p hollarda uyg'un ekanligini ta'kidlash lozim.

Amir Temur va Mirzo Boburning oddiy inson, dovyurak sarkarda, qudratli hukmdor sifatidagi o'xshashliklari ham, o'ziga xosliklari ham ko'p. Ammo, ular bitta yurt, bir xalq, qolaversa, bir sulola vakili va mana shu yurt taqdirini o'z taqdiri deb bilgan, baholi qudrat uning yuksalishiga hissa qo'shgan insonlardir [..... *Temur va Bobur // «Fidokor» gaz. – T.: 2006 (14.02.2006). – B. 3].*

Amir Temur Bibixonimga atab Bibixonim masjidini qurdirdi. Shohjahon (1399 - 1404) suyukli rafiqasi Mumtoz mahalga atab «Toj mahal» maqbarasini qurdirdi. Ular dunyo mo'jizalaridan biri deb hisoblanadi.

Ularning bunyodkorlik ishlari ham dunyoga mashhur. Ularning turmush tarzining har bir jihati xalqimizning buyuk qalb egalari ekanligidan dalolat berib turadi.

Vatan tuyg'usini ko'proq Amir Temurda ko'rsak, Vatan sog'inchini ko'proq Mirzo Boburda ko'ramiz va hokazo bunday jihatlarni juda ko'plab topsa bo'ladi.

• **Alisher Navoiy.** Alisher Navoiyning qahramonligi shundan iboratki, u o'zbek tilini to'liq iste'molga kiritdi va unga asos soldi. Adolatli jamiyat qurish nazariyasini yaratdi. She'riyat mulkinging sultoni bo'ldi. O'zbek tilida ham chiroyli va mukammal «Hamsa» asar yaratish mumkinligini isbotladi.

Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimovning Alisher Navoiyni quyidagicha ta'riflagani ham bejiz emas: «Agar bu ulug' zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutaffakkir desak, mutaffakkirlarning mutaffakiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir» [2. 47 - b].

Xullas, Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixidagi «Oltin davr»ni tashkil etilishiga munosib hissa qo'shgan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyondasi, millatimizning faxri va g'ururini, shonu – shuhratini dunyoga ma'lum va mashhur qilgan komil insondir. Uning bilan xalqimiz haqli ravishda g'ururlanadi va faxrlanadi. Bu qahramonimiz suvrat va siyratiga ayrim chizgilar xolos.

UCHINCHI BOSQICH: Bu bosqichda mustaqillik qahramonlari haqidagi ma'lumotlarni keltiramiz.

• **Karimov Islom Abdug'aniyevich.** Muhtaram Yurtboshimiz 1990-yil 24-mart kuni O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti etib saylandi va O'zbekiston Respublikasi, degan «BUYUK OILAGA» bosh bo'ldi.

I.A.Karimovning dovyurakligi va tashabbuskorligi tufayli 1991-yil 31-avgust kuni O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi e'lon qilindi va 1-sentyabr «O'zbekiston Respublikasining Davlat Mustaqilligi kuni» bayrami, deb e'lon qilindi.

1991-yil 29-dekabrda muqobilik asosida o'tkazilgan umumxalq saylovida I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi.

I.A.Karimov namunali oila boshlig'i, uning ikki nafar farzandi va 3 nafar nevarasi bor, hamda iqtisodchi ilmiy xodim turmush o'rtog'i T.A.Karimova bilan hayot kechirib, nafaqat o'z oilasi, balki O'zbekistondak buyuk oila, buyuk qo'rg'onning himoyachisi va yo'l boshchisidir.

Yurtboshimiz mamlakatimizda amalga oshirilgan ulkan ishlar, tarixiy o'zgarishlarning tashabbuskori va rahnomasidir.

Umuman olganda, **Islom Abdug'aniyevich Karimov** O'zbekiston davlati va davlatchiligini barpo qilish, demokratik fuqarolik jamiyati qurish asoslarini yaratdi, yangi asrda mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqdi, yurtimizning yorug' istiqboli yo'lida ko'pmillatli xalqimizni bosh milliy g'oya sari birlashtirib, uni ulug' maqsadlar sari boshlab bormoqda.

Muhtaram Prezidentimizda fidoyilik va jasorat uyg'un holda kamol topganligi uchun ham u qahramonlik ko'rsata oldi. Fikrimizning dalillaridan biri sifatida quyidagi ma'lumotni keltiramiz: «1991- yilning 9 - dekabrda Namangan shahrida bir guruh qo'poruvchi kuchlar viloyat ijroiya qo'mitasi binosini egallab olib, O'zbekistonni islom davlatiga aylantirishni da'vo qilib chiqishdi va respublika rahbari bilan uchrashishni talab qilishdi. Islom Karimov ertasi kuni tongda Namanganga yetib keldi va aqidaparastlik g'oyalari bilan ongi zaharlangan, jazavaga tushib qora kuchga aylangan johil olomon orasiga soqchi va hamrohlarsiz, bir o'zi hych ikkilanmasdan, shijoat va shiddat bilan kirib bordi. Bu o'ta keskin, dramatik holat video tasmasida tasodifan muhrlanib qolgan.

Shuni aytish kerakki, Islom Karimovning ana shunday qat'iyati va jasorati binoni boshiga ko'tarib baqir – chaqir qilib yotgan minglab eng ashaddiy ekstremistlarni ham dovdiratib, sarosimaga solib qo'ydi. Mamlakatimiz rahbari hayajonga berilmasdan, vazminlik bilan ular talab qilayotgan yo'l qonunga zid ekanligini va hych qachon yaxshilikka olib kelmasligini uqtirdi, o'zining salobati va irodasi bilan guvullab yotgan olomonning shashtini so'ndirishga, behuda qon to'kilishining oldini olishga muvaffaq bo'ldi.

1992-yil 16-yanvarda Toshkent shahridagi Talabalar shaharchasida alamzada, ekstremistik kuchlar tomonidan yana janjal chiqarildi. Hali ongi tafakkuri shakllanib ulgurmagan, hayotiy tajribaga ega bo'lmagan talaba yoshlardan foydalanib, bir guruh manfaatparast, amalparast kimsalar yurtimizdagi vaziyatni izdan chiqarishga va shu tariqa dunyo hamjamiyatidan o'z o'mini topishga intilayotgan yosh O'zbekistonning

obro'siga putur yetkazishga, uni o'z tanlagan yo'lidan qaytarishga urinishdi.

Ana shu va shu kabi boshqa qaltis vaziyatlarda Prezidentimizning xalqimiz irodasiga, qonunlarimizga tayangan holda olib borgan vazmin siyosati, o'z vaqtida qat'iyat bilan ko'rgan chora – tadbirlari tufayli bunday xavf – xatarlar bartaraf etilgani, ozodligimiz, hurriyatimiz saqlab qolingani, haqiqatan ham, istiqlol yo'lining biz uchun naqadar murakkab, og'ir va mashaqqatli bo'lganidan dalolat beradi» [4. 28 – 29 b]. Bu fikrni bolalarga so'zma – so'z o'qib, so'ng ma'nosini tushuntirish kerak. Bundan tashqari Narzulla Jo'rayevning «Agar ogoh sen...» nomli kitobiga ham e'tibor beradigan bo'lsak Muhtaram Prezidentimiz jasorati va fidoyiligiga oid ko'pgina qimmatli fikrlar bildirilgan. U kishi o'z asarida Birinchi va Ikkinchi Renessansning mazmun – mohiyatini yaxshigina izohlab bergan.

Ushbu kitobda Uchinchi Renessans haqida quyidagi fikrlar bildiriladi: «Milliy uyg'onish, Milliy o'zligini anglash mustaqillik bergan buyuk ne'matdir. Ayni ana shu tufayli millat qadrini rostlamoqda. Qadimiy, asrlar mobaynida to'plagan nufuzini qaytadan tiklamoqda. Darhaqiqat, hamisha uyg'oq xalq yaratuvchilikka, bunyodkorlikka qodir bo'ladi. U o'z imkoniyatlarini tobora boyitib boradi.

Ana shu nuqtayi nazardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, Mustaqillik, Istiqlol tushunchalari va bevosita uning tashabbuskori Islom Karimov nomi bilan bog'liq bo'lgan **uchinchi Renessans** davri boshlandi. Albatta, bunday milliy taraqqiyot bir necha o'n yilliklar va hatto asrlarni qamrab oladi. Biroq, shuni ishonch bilan aytish mumkinki, XXI asr O'zbekiston va o'zbeklar hayotida yangi sivilizatsiya davri bo'lib qoladi» [10. 212 – 213 b.].

•Madaliyeva Manzura.

«O'zbekiston Qahramoni» Manzura Madaliyeva Ho'qandi latifning faxri va g'ururi. U matematika fanini sahnaga chiqarib targ'ib qila olgan qalbi ummon novator o'qituvchi.

Uning «O'zbekiston Qahramoni» unvoni bilan taqdirlangan paytda xayolidan o'tgan fikrlar quyidagilar bo'lgan:

- Otajonim! Onajonim! Qahramonlik qulluq bo'lsin! Sizlarning halollik bilan tarbiyalagan qizlaringiz Qahramon bo'ldi.

- Qiyin ishda lazzat bor deguvchi Soraxon opa. Siz emasmi, bizlarni qiyin ishlarga egiltirgan! Qahramonlik Sizga muborak bo'lsin!

- Bir men emas, barcha fidoyi o'qituvchilar – Qahramon! Kasbini boshiga ko'targan qanoatli ustozlarning hammasi – qahramon! Bu – Sizlarga ham berildi, azizlarim.

Qahramonimiz Bahromjon aka bilan oila qurib, ular bu oilani «Muqaddas qo'rg'on», deb bilganlar. Ayniqsa bu oilani Manzura-xonning onalari juda ham qo'llab – quvvatlagan. Buni onaning qiziga nisbatan aytgan quyidagi fikri ham tasdiqlaydi: «Bolalaringdan boxabar bo'lib turamiz. Sen maktabingni, kitoblaringni yaxshi ko'rasan. Senga qolsa, har kuni to'garak o'tkazasan».

«- Halollik! Mehnat! Muhabbat! Bu uch buyuk hikmat meni ana shunday cho'qqiga yetkazdi, - pichirlaydi u. Quvonchdan, baxtdan yana ko'zlari namlanadi. Yana ko'ngil bulog'i toshadi» – bu fikr «O'zbekiston Qahramonlari» nomli kitobning «Matematikaning shoirasi yoki ho'qandi latifning opoyisi» mavzudagi ocherkidan olindi [25. 177- b].

• Quvoqov Masharip.

Har qanday odam ham hayotning turli so'qmoqlaridan chidam bilan o'tib, turmushning achchiq – chuchugiga chidab, qiyinchiliklar bilan kurashib va ularni yengib, yorug' kunlarga intilib, sog'lom turmush tarzini o'ziga shior qilib olib yashasa, o'z niyatiga va istiqbolli maqsadlariga erisha oladi. Oiladagi va ish faoliyatdagi omadlar bardavonligi esa oq ko'ngil, fidoyi, jasoratli, dono, ulug' maqsadli insonlarga kulib boqadi.

Masharip Qovoqov ana shunday insonlardan biri va uning ibrat – namunasi bir butun hayot maktabidir.

Quyida «O'zbekiston Qahramonlari» nomli kitobdan bu insonga tegishli quyidagi ma'lumotlarni keltirishni lozim topdik:

«Men ularni **«Bir ibratli insonning hayot maktabi»** deb atadim: sizning e'tiboringizga undagi ayrim fikrlarni havola etmoqchiman (Jabbor Razzoqov. «Bir inson ibrati» nomli ocherk muallifi).

* * *

«Otam oddiy dehqon bo'lganlar. Kunduzgi kolxoz ishini bajargan bo'lsalar, kechalari tomorqamizda ishlaganlar.

Keyinchalik brigada boshlig'i bo'lganlar. Bu davr urush yillariga to'g'ri kelgan. Front orqasida oziq – ovqat mahsulotlari yetishtirib, g'alabani ta'minlashga o'z hissalarini qo'shganlar. Ammo urush tugagan yili qattiq betob bo'lib, terlama kasali bilan og'riganlar va eng navqiron yigit paytida – 35 yoshlarida olamdan o'tganlar. Men o'shanda 7 yoshda edim.

Bizni onam Guljahon Matyoqubova, xudoga shukur, hozir 100 yoshni qarshiladilar, 2 o'g'il va bitta qizni bir o'zlari katta qilib, avaylab – asrab voyaga yetkazdilar.

Men juda kichikligimdan ota – onamdan o'rnak olib, faqat mehnat evazigagina inson o'z orzu – umidiga, niyatiga yetishini ko'nglinga solganman. Oddiy kolxozchilikdan ish boshlab mehnatning achchiq – chuchugini, lazzatini totganman. Bugun nimaga erishgan bo'lsam, faqat shular evaziga».

«Hozirgi bolalarni ko'rib, ko'zim quvnaydi. Hamma narsa yetarli. Bizga, urushdan keyingi yillardagi bolalarga juda qiyin bo'lgan. Shuning uchun yoshlarga keksalar bilan ko'proq uchrashuvlar tashkil etib, bu kunlarning qadriga yetishni, Vatanni sevishni, haqiqiy vatanparvar bo'lishni, qiyinchiliklardan cho'chinastlikni o'rgatishimiz kerak».

* * *

«1997-yil 26-avgust. Bu kun hayotimizdagi eng baxtli, unutilmas kun. Shu kuni O'zbekiston Mustaqilligining 6 yilligi arafasida Prezidentimiz Islom Karimovning Farmoni bilan menga «O'zbekiston qahramoni», degan yuksak unvon berildi. Bu jamoa a'zolarimiz bilan erishgan muvaffaqiyatlarga, mehnatimizga, butun faoliyatimizga berilgan yuksak baho edi. Ana shu beqiyos katta ishonchni oqlash uchun **butun umrimni bag'ishlashga tayyorman».**

* * *

«1998-yilning ayni pishiqchiligi mahali. Xo'jaligimizda «Kitob bayrami» bo'ldi. Toshkentdan man – man degan shoirlar, yozuvchilar, olimlar, jurnalistu noshirlar kelishdi. Chunonam kitoblar sovg'a qilishdiki, asti qo'yaverasiz. Bu chinakam **ma'naviy boylik**. Keyingi o'n yil ichida xo'jaligimizga bunchalik ko'p kitob kelmagan edi. Men ularni «**yorug'lik belgisi**», deb bildim».

* * *

«Yer haqiqatdan ham hayot va tirikchilik manbai. U insonga Alloh tomonidan berilgan buyuk in'om. Lekin undan oqilona foydalangandagina insonga o'zining bitmas – tuganmas xazinasi eshigini ochib beradi. Biz yerga ana shu nuqtayi nazardan yondoshib kelayapmiz».

* * *

«Biz o'z kuchimiz bilan barcha imkoniyatlarni yaratyapmiz. Bizga hech kim chetdan imkoniyatni ham yaratib bermaydi, mablag'ni ham ikki qo'llab topshirmaydi» [25. 217 – 227 b./].

Bu oddiy dehqon oilasida tarbiya topgan bir insonning hayot yo'lidagi shakllangan fikrlaridan lavhalar xolos. Biz o'ylaymizki bu insonning sog'lom turmush tarzi yuzlab, minglab yoshlarga ibrat bo'ladi. Bu esa ayniqsa, mustaqilligimizni mustahkamlashda faollik bilan faoliyat yuritayotgan, Ozod va Obod Vatanimizning, oddiy Qahramonlaridan birining hayot yo'li. Bunday ibrat – namunaga xos va mos insonlar yurtimizda ko'plab topiladi.

•Oripov Abdulla

Abdulla Aripov bugungi o'zbek adabiyoti osmoniga yorqin yulduzdir. U jahonning qasridan qarasak ham yaqqol ko'rinib turadigan shoirlar shoiridir, uning ijodi esa odamlarning bayramona kayfiyatini yuzaga chiqaruvchi ilhomlantiruvchi kuchdir. Mashhur shoir Qaysin Quliyev Abdulla Oripovning xalq oldida chiqishlariga shunday baho bergan edi: «**Abdulla Oripovning har bir chiqishi xalq bayramiga darajasigacha ko'tarildi**».

Abdulla Oripov o'zining kelib chiqishini soddagina qilib quyidagicha ifodalaydi: «Ota tarafdin katta bobolarim Norboy bobo, Boymurod bobo, Ubaydulla Bobolar bo'lishgan. Undan keyin mening otam Orif bobo».

Abdulla Oripov to'g'risida Yo'ldosh Sulaymon shunday yozadi: «Abdulla Oripov shunday salobatli, shunday salohiyatli ulkan daraxtki, uning keng ko'lamlil soyasidan biz, Yozuvchilar uyushmasi xodimlari ham bahramandmiz. U bir jamoada ishlaydigan kishilarning bir – biriga bo'lgan hurmat – oqibati eng avval intizomga rioya qilishdan boshlanishini ba'zan – ba'zan eslatib turadi. Zarurat tug'ilganda har bir ijodkor, har bir xodim uchun o'z vaqtini, o'z imkoniyatini ayamaydi» [*O'zbekiston qahramonlari. (B. 25. 258 – 259 b.)*].

Mustaqillik qahramonlari obrazlarini yaratish, mustaqillik farzandlarini ana shu fidoyi insonlar ibrat – namunasi asosida tarbiyalash adabiyotimiz oldida turgan dolzarb masalalardandir. Shu sababli ham hozirgi davrdagi yozuvchilarimiz va shoirlarimizning asarlaridagi bosh g'oya - Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik kabi bunyodkor g'oyalarni tarannum etishdan ibrat bo'lmog'i kerak. Ana shunday talabalarga labbay, deb javob beradigan shoirlarimizdan biri – qahramonimiz Abdulla Oripovdir.

Muhtaram prezidentimiz I.A.Karimov qahramonimiz to'g'risida quyidagicha fikrni aytgan edi: «Ma'naviy kelajagimiz. Farovon va buyuk istiqbolimizni Abdulla Oripov ijodisiz ham ko'z oldimizga keltira

olmaymiz. Hozirgi davrda ham uning she'rlari xalqimizni adolat tantanasi, yorug' kelajakka ishonch ruhida tarbiyalaydigan yuksak ma'naviy omil bo'lib xizmat qilmoqda» [25. 271 b.j].

Abdulla Oripovning «O'zbekiston qahramoni» bo'lgan kungi ichki tuyg'usiga bir e'tibor beraylik. Uni ikki yo'nalishda ifodalab, keyin u kishi to'g'risida xulosaviy fikr bildirilsa yaxshi bo'ladi. O'sha kuni u ishdan erta qaytib, uyga shoshildi. Uning ichki tuyg'usini quyidagicha ifodalasa bo'ladi: «Shohruh Mirzo shu yerdalar. Bu – butunlay boshqacha bo'ladi. Men yetishmagan balandlikka u chiqadi, - deya nevaralarini bir kun ko'rmasa sog'inishini, ular bilan yayrashini ko'nglidan o'tkazdi. – Bibi xonim bilan Zebuniso – chi? Boshqalarchi? Qani, hammasi kelgan bo'lsa edi! Shoira bilan Zarifani to'rt kundan beri ko'rganim yo'q, mayli, tez – tez kelishmasa ham tinch yashashsa bo'ldi.... Mavluda, Ruxsora, ey, jonimga malham qizlarim, Sizlarning baxtli beka bo'lishlaringni tilayman. Yo Xudo, ularga baxt ato et. Yo, xudo o'zingga shukur». Buni uning dastlabki ichki tuyg'usi desak, ikkinchi ichki tuyg'usi yanada ta'sirli edi.

U Abdulla Qodiriyini, Cho'lponni, Fitratni, Behbudiyini, Usmon Nosirni o'yladi, ularga bo'lgan mehrini, istiqloq baxtidan shodumonligini izhor etdi: «Ozodlikni ko'rish, mustaqillik bag'rida ijod qilish bizga nasib etdi». «Ha, Sizga, sizlarga nasib etdi, - Qodiriyning ovozi kelganday, unga boshqalari ham qo'shilganday bo'ldi. – Siz baxtlisiz, Siz omadlisiz, Abdullajon, istiqloq bag'rida yashayapsiz. Uni asranglar. U – **jonni tikib asrashga arziydigan** buyuk ne'mat».

- Asrayapmiz, uni jonimizni o'rta qo'yib turib asrayapmiz, - Abdulla Oripov xuddi ro'parasida kimlardir turganday ikkala qo'lini beixtiyor musht qilib ko'tarib, silkitdi, - butun O'zbekiston ko'ksida mustaqillik tuyg'usi yonyapti.....

Bobosini olisidan ko'rib qolib, birin – ketin qoqilib – surinib chopib kelayotgan nevaralariga ko'zi tushib ularga talpinib:

- Ana – ana kelajak, meni kutgani kelayapti, - dedi u o'ziga o'zi. Abdulla Oripov ularga quchoq ochib borar ekan, vujud – vujudini ajoyib bir orom shirin – shirin titratdi.

Abdulla Oripov to'g'risida ushbu ma'lumotlar Yo'ldosh Sulaymonning «O'zbekiston Qahramonlari» nomli kitobidagi «Malik ush - shuaro» mavzusidagi ocherkidan foydalangan holda tayyorlandi. [25].

•Vohidov Erkin.

Tadqiqotimiz ushbu qismidagi Erkin Vohidov to'g'risidagi ma'lumotlar Ibrohim G'ofurning «Fazlu fashohat va zakovat sohibi» mavzusidagi ocherkidan foydalanib tayyorlandi.

Erkin Vohidov – el – yurtini chin dildan sevgan, ardoqlagan, nomi dunyoga tanilgan o'zbek shoiri, shuning bilan birga u sevimli adib va jamoat arbobi hamdir. Uning ijod mahsulining barchasida tiniq samimiyat, qahramonona insoniylik, mehr – oqibatlilik, odamiylikning buyukligi tarannum etiladi. Bu fikrlarimiz shunisi bilan diqqatga sazovorki, yuqorida qayd etilgan xislat va fazilatlar nafaqat uning asarlarida (ijodi namunalarida), balki uning o'zi hayotida ham, hayotining har qanday holatlarida ham shunga rioya etish va ularni og'ishmay amalga oshirish ustuvor maqsad – muddao bo'lgan. Uning ijodi mazmun – mohiyatini Vatanga xuddi otaga suyanganday suyanish, xalqqa xuddi onaga talpinganday talpinish, yurtning, elning kamolini o'ylash, orzu qilish, uning uchun tinimsiz qayg'urish va yurt ma'naviyati, tarixi va an'analaridan doim zavqlarga to'lib yurish, qadim mumtoz shoir, donishmand adib ajdodlar kabi komillikka sajda qilish, komillikni ko'rgan, unga duch kelganda darhol ilhomga to'lish, hayajonlanish kabilar tashkil etilgan bo'lsa, uning o'zini esa haqiqiy inson, barkamol shaxs, katta san'atkor shoir sifatida o'z davri, o'z avlodining juda yorqin va peshqadam hamda faol vakili sifatida qarashga asos bo'ldi.

Dunyoning ko'pgina mamlakatlarida Erkin Vohidovni O'zbekistonning hayotiy manfaatlarini ko'tarib chiquvchi bosiq, qat'iyatli, salohiyatli parlamentari sifatida yaxshi taniydilar. Uning ulkan ijodiyoti, ijtimoiy faoliyati xalq tomonidan yurtimizda va ko'pgina xorijiy davlatlarda ham tan olindi. Haqiqatdan ham Erkin Vohidov – yuksak mas'uliyatli inson, sermahsul ijodkor, insoniylik bilan yo'g'rilgan hayot sohibi, jamoat arbobi. U Vatani, xalq ravnaqi, baxt – saodati yo'lida fidokorlik bilan hormay – tolmay faoliyat yuritmoqda. Uning Vatanimizga va xalqimizga bo'lgan sadoqatiga Davlatimiz tomonidan doimo e'tibor berilib kelindi. U «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni sovrindori va 1999 – yil 25 – avgustdan buyon «O'zbekiston Qahramoni»dir.

•Ismatova Mavjuda.

Mavjuda Ismatovani hamma taniydi. U Toshkentdagi 273 – maktab direktori, xalq o'qituvchisi, O'zbekiston Qahramoni, Davralarda so'z berilsa, «Qani, qahramon qanday gap aytarkan?» deya o'zgacha

taraddud bilan eshitguvchilar ko'p bo'ladi. Shunda anglaysan, qahramonlik unvoni faqat rag'batning o'zigina emas, balki u katta mas'uliyat, el – yurt oldida balandroq so'zlash zaruriyati hamdir.

Mavjuda Ismatova oilasini va ishxonasini muqaddas deb bilgan baxtli ayoldir. Qiynalgan vaqtlarda va tushkun damlarda u dastlab turmush o'rtog'i Hamidulla aka bilan maslahatlashdi, shuningdek, ko'ngilda yetilgan orzu – o'ylar ham avvalo xonadonda muhokama etiladi.

Demakki, Mavjuda Ismatova har doim ham oilasiga suyanib ish tutdi. Mana uning o'z oilasi haqidagi shakllangan fikri:

«- Men uyinning ostonasidan kirsam bas, oddiy bir ayolga aylanaman.

- Umr yo'ldoshim uchun laziz taom tayyorlash, oilaning jamiki yumushlariga bosh bo'lish, qo'ni – qo'shni, qarindosh – urug', mahalla – ko'y yo'qlovlariga vaqt topish, kelinim Nargizaxon, nabiralarim – Burxonilla va Bilolxonlar yonida bo'lish hayotimning eng quvonchli lahzalaridandir».

Mavjuda opaning hayotdagi shiori quyidagi to'rtlik asosiga qurilgan:

*Illat izlaganga illatdir dunyo,
G'urbat izlaganga g'urbatdir dunyo.
Kim neni izlasa topgay begumon,
Hikmat izlaganga hikmatdir dunyo!*

Bunday deyishimizga sabab Mavjuda opadan hayotdagi shioringiz nima? deganda opa ana shu to'rtlikni aytib berib, quyidagi o'z fikrini ifoda qildi: «Mening nazirimda hikmat izlab yashagan kishi hayotning yorug' tomonlarini ko'ra oladi. Yashashga ishtiyoqi susaymaydi, izlanishlardan charchamaydi.....».

Demak, bu orqali bugungi yoshlarimizga inson hayotda o'ziga katta va qat'iy talab qo'yib yashash kerak ekan degimiz keladi. Bunda o'ziga ishonish, o'ziga suyanish – bu katta ma'naviy tayanch. Shu sababli ham bunday odamlar nimaiki istasa, u o'zidan topadi.

•**Said Ahmad.**

Said Ahmad hayot qiyinchiliklariga va turmush chigalliklariga chidashda mustahkam va metin irodaga ega insonlardan biri. Tadqiqotimizning ushbu qismida uning dil izhorlaridan ayrimlarini keltirish bilan kifoyalanmoqchimiz.

«Prezidentimiz Islom Karimov kechani kecha, kunduzni kunduz demay, yurt tashvishi bilan yashayapti. Mustaqilligimizga baholi qudrat hissa qo'shayotganlarni ardoqlab, xizmatiga yarasha taqdirlayapti. Men ham mana shunday himmatdan bahramand bo'lgan baxtli ijodkorlardan biriman.

Prezidentimiz kamtarin xizmatlarimni qadrlab, qancha samimiy, dildan chiqqan so'zlar bilan «**Buyuk xizmatlari uchun**» ordenini topshirdi. Bu unutilmas daqiqalar hayajoni meni hyech qachon tark etmaydi.

Ko'ksimga eng baland darajali nishon – «**O'zbekiston Qahramoni**» Oltin Yulduzini taqayotganda o'zimni bosolmadim. Bir kiprik qoqquncha o'tgan onda butun umrim ko'z oldimdan saf tortib o'tdi. Boshimdan o'tgan eng og'ir, dahshatli, eng haqoratli onlar ko'zim oldida turib qoldi. O'zimni tutolmadim. Islom Abdug'aniyevich bu holatimni sezib, bilagimdan tutdiyu o'zi o'tiradigan kresloga o'tqazib qo'ydi. Hayajonimni tarqatish uchun hazil aralash: «Qani, Prezidentlik kreslosida bir nafas o'tiring, qanaqa bo'larkin», deb kulib qo'ydi.

Bu umrimning eng baxtli daqiqalari edi.

Bu hurmat, bu ehtiromlar meni yanada g'ayrat bilan, yanada ilhom bilan ijod qilishga, tug'ilgan yurtim fuqarolariga manzur bo'ladigan asarlarim yozishimga da'vat qiladi.

Aziz O'zbekistonim, jondan aziz yurtimning mehnatkash fuqarolari, endi qolgan umrim sizniki! Butun umrimni, vujud – vujudim bilan sizga bag'ishladim.

Buyuk shoira onamiz Nodirabeginning:

Maqsad na edi jahonga kelding,

Kayfiyatingni bayon etib ket.

degan talabiga endi javob bermoqchiman.

Shundoq aziz, shundoq o'z erki o'z qo'lida bo'lgan Vatanda yashamoq, ijod qilmoq baxti buyuk ne'matdir. onajon!» [25].

Said Ahmaddagi Vatandan qarzдорlik hissi, o'z xalqini sevimlik va ardoqlash ishtiyoqi va eng asosiysi, uning o'z xalqiga jon fidoyiligi tahsinga sazovordir. Biz undan va uning faoliyatidan yoshlarimiz tarbiyasidan ibrat – namuna sifatida foydalansak, **nur ustiga a'lo nur bo'lar edi.**

•**Abdullaxo'jayeva Malika Samatovna. Zamona allomasi – O'zbekiston Qahramoni:** U O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi akademigi. Xalqaro patologiya akademiyasining Markaziy Osiyo bo'limi Prezidenti, AQShning Fresno shahri faxriy fuqarosi,

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, tibbiyot fanlari doktori, professor.

U «**XXI asr ayoli**» degan nomga sazovor bo'ldi. Amerikadagi xalqaro Biografiya instituti dunyo miqiyosida «**XX asrning eng buyuk 500 allomasi**» safiga kiritilgan.

Kembrij ilmiy markazi mutaxassislari tomonidan «**1998 yilning eng salohiyatli ayoli**» deb topilgan. 1999 - yil bo'yicha Xalqaro Biografiya instituti chop etgan xalqaro intellektlarning «**Kim aslida kim?**» kitobida uning nomi qayd etilgan. Uning miya o'smalarining paydo bo'lishi haqidagi kashfiyoti dunyo tibbiyoti tajribasida qo'llanilmoqda.

Demak, farzandlarimizga hozirda ham Tumaris, Muqanna, Shiroq, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Mirzo Bobur, Alisher Navoiy kabi ulug' insonlarimiz bor ekanligini ta'kidlay olar ekanmiz.

Mustaqillik davridagi qahramonlarni keltirish esa yanada jonli bo'ladi.

Bular to'g'risidagi ma'lumotlarni oilada va MTM da bolalar intellektual salohiyatiga moslab, ular tilida tushuntirilsa ibrat – namuna tarbiyasi samarali bo'ladi.

YAKUNIY BOSQICH: Tarbiyachi yoki murabbiy mashg'ulotga yakun yasaydi. Buning uchun bolalar bilan ular savol – javob yoki suhbat o'tkazadilar.

Bolalarga taxminan quyidagicha savollar berib mashg'ulot samarasini aniqlab olish mumkin:

- Qahramon bo'lish yaxshimi?
- Qahramonlik har kimning ham qo'lidan kelaveradimi?
- Qahramonlarimizning rasmlarini ko'rsatib, ularning nomlarini kim aytib bera oladi?
- Sizlar ham kelajakda Vatanimiz qahramonlari bo'lishni xohlaysizlarmi?
- Qahramonlar to'g'risida kinolar ko'rganmisizlar? Kimlar haqida? va h.k.

Bolalardan olgan ma'lumotlaringiz asosida mashg'ulot samaradorligini baholang! Unda quyidagi mezonlarga e'tibor bering:

- guruhdagi bolalarning bir – birini tushunishi qanday? Bu ularning bir – birini qo'llab ketishida yaqqol seziladi?
- qanday savollar va muammolar hal etildi;
- bolalarda qanday xislatlar va tuyg'ular yanada jonlandi?
- har kim o'zi uchun qanday xulosa qildi?

• biz, ya'ni jamoamiz qanday ekan?

Ular asosida mashg'ulotingizga o'zingiz umumiy baho bering.

3.3. «Vatanimiz ramzlari» mavzusidagi «Ma'naviyat saboqlari» mashg'ulotini olib borish texnologiyasi

«Davlatimiz ramzlari – bayroq, tang'a, madhiya O'zbekiston xalqlarining shon-sharafi, g'ururi, tarixiy xotirasi va intilishlarini o'zida mujassamlashtiradi, mana shu ramzlarni e'zozlash o'zining qadr-qimmatiga, o'z mamlakatiga va shaxsan o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlash demakdir».

Islom Karimov

MAQSAD: bolalarni davlat ramzlariga hurmat ruhida tarbiyalash.

VAZIFALAR:

• Davlat va Davlat ramzlari haqida bolalarga tushuncha berish;

• bolalarga Davlat bayrog'i haqida tushuncha berish;

• bolalarga Davlat gerbining tuzilishi va ularning mazmun – mohiyati haqida tushuncha berish;

• bolalar ongiga Davlat madhiyasining ma'nosini singdirish.

KUTILAYOTGAN NATIJA:

• Davlat ramzlarining bolalar ongida yaqqol tasvir sifatida namoyon bo'lishiga erishish;

• Davlat bayrog'ining ranglari va boshqa tuzulishlarining ma'nosini bolalarga anglatish;

• Davlat gerbi tuzilishining bolalar qalbida chuqur joy olishiga erishish;

• Davlat madhiyasini bolalarga yod oldirish va uni xor bo'lib ijro etish.

MASHG'ULOT O'TKAZISHNING SHAROITI: Dars boshlanishdan oldin murabbiy yoki tarbiyachi Davlat ramzlarini kattalashtirib ishlangan holatini hammaga ko'rinadigan joyga joylashtiradi. Aslida dars mashg'ulotlari olib boriladigan xonada «Ma'naviyat burchagi» nomli stend bo'lib, unda Respublikamiz Prezidenti suvrati, Davlat bayrog'ining rasmi, Davlat gerbi suvrati va Davlat madhiyasi joylashtirilgan bo'ladi.

Murabbiy yoki tarbiyachi bolalarni dars mashg'uloti o'tkaziladigan xonaga kiritadi va quyidagiday topshiriqlarni beradi:

•hurmatli bolajonlar hozir sizlar bilan Davlat bayrog'i va uning nimalarni anglatishi haqida suhbatlashamiz! Shunga Sizlar jim o'tirib quloq solasizlar! Mashg'ulot haqida Davlat bayrog'ining har bir belgisi haqida Sizlardan ham so'raymiz;

•Davlat gerbini o'rganish to'g'risida xuddi yuqoridagidek talablar qo'yiladi va u bo'yicha ham beriladigan savollarga ham tayyor bo'lib turing! Buning uchun esa Sizlar biz beradigan ma'lumotni diqqat bilan tinglashingiz kerak;

•Davlat madhiyasini hammamiz birga yod olamiz! Uni kim yozganligini va unga kim kuy bastalaganini ham bugun bilib olishimiz kerak.

Qani aziz bolajonlar mashg'ulotimizni boshlaymizmi?

KIRISH:

Davlat – bu jamiyatning harakatlanishida muhim rol o'ynovchi alohida o'z qonun – qoidalariga ega bo'lgan rasmiy tashkilotdir. Uning faoliyati jamiyatning, ayniqsa jamiyat taraqqiyotining hamma sohasiga ta'sir qiladi. U xalq vakolati tufayli mavjud bo'ladi, shakllanadi va o'ziga tegishli vakolatni o'zining maxsus tuzilmalari – davlat organlari orqali amalga oshiradi.

Agar davlat xalq manfaatini ko'zlasa, unga ijtimoiy hayotda, davlat ishlarida, xo'jalik yuritishda erkinlik bersa, tinchlik siyosatini yurgizsa, bunday davlat demokratik davlat deyiladi va bunday davlatning taraqqiyoti bardavom bo'lib boraveradi.

Agar davlat xalqning erkinligini cheklasa, taraqqiyotga to'sqinlik qilsa, zo'ravonlik bilan ish olib borsa, bunday davlat reaksiyon davlat deyiladi.

Umuman olganda, «**Davlat**» so'zi ko'pincha «mamlakat» ham deb yuritiladi.

Davlat o'ziga xos va mos qonunlarni ishlab chiqadi va ular iste'molga kiritilgandan keyin, o'sha davlat ishlab chiqilgan qonunlarga so'zsiz amal qilinadilar.

Davlat ramzlari – Asosiy qomusimiz bo'lmish. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 5 – moddasida belgilangan va ular Davlat bayrog'i, Davlat gerbi, Davlat madhiyalaridan iboratdir. Bular mamlakatimizning mustaqilligini belgilovchi ramziy belgilar bo'lib, ularning tuzilishi, shakli, maqsadi, ishlatilishi mamlakatimizning maxsus qonunlari bilan tasdiqlangan.

BIRINCHI BOSQICH: Davlat bayrog'i.



Davlat bayrog'i har bir mamlakatniki bo'lgani kabi, Mustaqil O'zbekiston Respublikamizning ham bayrog'i bor. Unda mamlakatimizning tabiati, xalqning milliy va madaniy sohalarining muhim belgilari aks ettirilgan. Davlat bayrog'imiz mamlakatimizning maxsus qonuni bilan tasdiqlangan va bu qonunlarda bayrog'imizni qayerlarga o'rnatish mumkinligi ham ko'rsatib o'tilgan. Davlat bayrog'ining ko'rinishi, rangi va undagi belgilarning har biri o'z mazmun – mohiyatiga ega. Ular quyidagilar:

- O'zbekiston bayrog'idagi moviy rang Sharqda azal – azaldan qo'llanilib, niyat qilinib kelingan moviy osmon va musaffo suv ramzidir. Bunday jihatga xalqimiz Zardo'shtiylar davridan biri orzu – havas bilan qaraydi;

- Oq rang esa tinchlik va poklik ramzini ifodalaydi;

- Bayroqdagi qizil yo'llar hayot ramzi bo'lib, u tomirlarda oqayotgan qonga, ya'ni tiriklikka timsollanadi;

- Bayrog'imizdagi yashil rang Mamlakatimizning jo'shqin va go'zal tabiatidir;

- Yarim oy va yulduzlar esa musaffo osmon va tinchlikni bildiradi.

Davlat bayrog'i to'g'risidagi maxsus qonun 1991 – yil 18 – noyabrda qabul qilingan.

Aziz bolajonlar Davlat bayrog'i ham davlat ahamiyatiga ega bo'lgan yurtimiz ramzi ekan. Shuning uchun ham Muhtaram yurtboshimiz biror chet davlatga borganda albatta o'sha davlat boshlig'i bilan bir joyda tik turib, u yerda davlat bayroqlari ko'tarilib, madhiya ijro etiladi. Yoki dunyo bo'yicha xalqaro olimpiada, spartakiada, festivallarda va shu kabilarda Davlatimiz bayrog'i baland ko'tariladi.

Demak, Davlat bayrog'imiz bizning ham faxrimiz, ham g'ururimizdir.

Aziz bolajonlar e'tibor bering!

Bizning bayrog'imiz mamlakatimizning o'tmishi, bugungi kuni va kelajagining yorqin ifodasidir.

Aziz bolajonlar unutmang! Bizning bayrog'imiz yurtimizda oldin mavjud bo'lgan g'oyat qudratli saltanatlar bayrog'iga xos bo'lgan eng yaxshi an'analarni davom ettirgan holda respublika tabiati xususiyatlarini, xalqining milliy va madaniy qadriyatlaridagi o'zligini aks ettiradi.

Bayrog'imiz to'g'risida kimda qanday fikr bo'lsa, o'ylab turinglar, mashg'ulotning yakuniy qismida bu haqda suhbatlashamiz.

Endi Davlat bayrog'imiz to'g'risida quyidagi to'rtliklarni eshiting!

**Mustaqil davlatimning kelajagi bo'laman,
O'zbekiston desalar quvonchlarga to'laman.
Bayrog'ini ko'taraman boshim ko'kka yetguncha,
Egilaman davlatimga boshim yerga tekkuncha**
(Shirin)

**Boshing ko'tar, qaddingni tut,
Sen yiqilmas minorsan.
Mir Alisher ekib ketgan,
O'zbek degan Chinorsan!**

(Marhabo Karimova)

She'rlar Sizlarga yoqdimi, Sizlar ham bu haqda fikr yuritishga harakat qilib ko'ring. Bu Sizlarning qo'lingizdan keladi. Biz bunga ishonamiz. Endi qaysi Davlat ramzini o'rganishga o'tamiz. Ha balli, endi Davlat gerbini o'rganishga o'tamiz.

IKKINCHI BOSQICH: Davlat gerbi, davlat ramzi hisoblanadi. U



O'zbekiston davlatining rasmiy tamg'asi bo'lib, uning rasmi turli davlat hujjatlari va pul birligida ham aks ettiriladi. Uning ko'rinishi maxsus qonun bilan tasdiqlangan. O'zbekiston gerbi ko'rinishida quyidagilar aks ettirilgan:

- Humo qushi – baxt – saodat va erksevarlik ramzi;
- Sakkiz qirrali yulduz – mamlakatimizning sobitqadamligi va barqarorligi ramzi;
- Quyosh – yo'limizning hamisha nurafshon bo'lishiga qiyosdir;
- Boshhoq – rizqu – ro'zimiz to'liqligi timsoli;
- Paxta – O'zbekistonning milliy boyligi ramzi;
- Bug'doy va paxta chanog'idagi tasma – xalqimiz do'stligi ramzidir.

«O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi to'g'risida»gi Qonun 1992 – yil 2 – iyulda qabul qilingan.

Aziz bolajonlar! Davlat gerbimizda shunchalik mazmun – ma’no borligini oldin bilarmidingiz. Bundan yurtimizning vodiylardan va ikki daryo orasida joylashgan xududdan iborat ekanligini ham anglash mumkin.

Davlat gerbi to’g’risida ham yuqoridagi kabi she’rlarni ko’plab topsa bo’ladi. Ulardan ba’zilarini keltiramiz.

Har joyda oy, yulduz bor,
O’sha tuproq, o’sha qir.
Nimasidir baribir,
O’z yurtingda boshqacha.

Marhabo Karimova

Aziz bolajonlar! Davlat gerbi ham bizning xalqimizning g’ururi va faxri ekan, ular tufayli davlat hujjatlarimizda ham o’zligimizni namoyon qilib boramiz.

UCHINCHI BOSQICH: Davlat madhiyasi.

**O‘zbekiston Respublikasi
Davlat madhiyasi**

*(Abdulla Oripov she’ri,
Mutal Burhonov musiqasi)*

Serquyosh hur o’lkam elga baxt najot,
Sen o’zing do’stlarga yo’ldosh mehribon.
Yashnagay to abad ilmu fan ijod,
Shuhrating porlasin toki bor jahon.

* * *

Oltin bu vodiylar joy O‘zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor.
Ulug’ xalq qudrati jo’sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor.

* * *

Bag’ri keng o‘zbekning o‘chmas iymoni,
Erkin yosh avlodlar senga zo‘r qanot.
Istiqlol mash’ali tinchlik posponi,
Haqsevar ona yurt, mangu bo‘l obod.

* * *

Oltin bu vodiylar joy O‘zbekiston.
Ajdodlar mardona ruhi senga yor.

Ulug' xalq qudrati mangu bo'l obod,
Olamni mahliyo aylagay diyor.

Ana shu madhiya O'zbekiston Respublikasi suverenitetining ramzidir. Uni Vatanimizdagi barcha tashkilotlarda ishlaydigan odamlar, ta'lim muassasalaridagi barcha tahsil oluvchilar va ishlaydigan xodimlar va hamma – hamma yod olib, uning mazmun – mohiyatini qalbining to'riga chuqur singdirib olish ham farz, ham qarzdir. Bunga sabab yuqorida eshitganimizdek, madhiyamiz mazmun – mohiyatida o'zbek xalqining kamligini to'la namoyon qilingan. Shuning uchun ham Davlat madhiyasiga zo'r ehtirom va hurmat bilan qarash mamlakat ham bir fuqarosining Vatanparvarlik burchidir.

Davlat madhiyasi musiqa va she'r uyg'unligida aytiladi, ijro etiladi. Uning she'rini O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov yozgan, musiqasini esa Mutavakkim Burxonov bastalagan.

Davlat madhiyasi davlat organlari, tashkilotlari tomonidan o'tkaziladigan tantanali marosimlar va boshqa tadbirlar vaqtida dastlab ijro etiladi.

Davlat madhiyasi O'zbekiston Respublikasining maxsus qonuni bilan tasdiqlangan va bu qonun 1992 – yil 10 – dekabrda qabul qilingan.

YAKUNIY BOSQICH:

Ushbu bosqichda tarbiyachi yoki murabbiy yakun yasaydi. U bolalar bilan quyidagi qirralarni yechish uchun suhbatlashadi:

•Aziz bolajonlar! Davlat ramzlarini bilib oldingizmi? Bular bizga nima uchun kerak?

•Davlat ramzlarining nima uchun xalqimizning g'ururi va faxri deb aytamiz?

•Davlat bayrog'i qachon va qayerda baland ko'tariladi?

•Davlat gimnini qachon va qayerda xor bo'lib ijro etiladi?

•Sizlar Davlat ramzlarini bilib oldingiz! Bular Sizda qanday quvonch hissini paydo qildi?

•Vatanim bayrog'ini dunyo bo'yicha baland ko'taraman deganda siz nimani anglaysiz?

•Biz qanday davlatda yashayotgan ekanmiz?

Davlat ramzlari darslarini boshqacharoq qilib, ya'ni ularning tuzilishiga qarab ma'lumotlar to'plash yordamida o'tkazish mumkin. Hammasidan ham asosiy maqsadimiz mashg'ulotni qiziqarli qilib o'tkazib, bolalarni vatanparvar qilib tarbiyalashdir.

Mashg'ulotning baholash qismi rag'batlantirish bilan tugaydi.

Yuqoridagi 7 ta savol bo'yicha ilg'orlar aniqlanib, ularga rag'batlantiruvchi (moddiy yoki ma'naviy) omillar topshiriladi.

Aziz bolajonlar mashg'ulotimiz yoqimli bo'ldimi, zerikmadilaringmi? Unday bo'lsa hammangizga rahmat, sog' bo'linglar. Shuning bilan bugungi mashg'ulotimiz oxiriga yetdi.

3.4. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ma'naviy ishlar bo'yicha amalga oshiriladigan tadbirlar rejasini tuzish metodikasi

№	Rejalashtirilgan tadbirlar nomi	Boshqarish vaqti	Mutasaddilar
1	2	3	4
1.	MTM dagi barcha guruhlarda mustaqillik bayrami to'g'risida va mustaqillik orqali erishilgan yutuqlar to'g'risida davra suhbatlarini o'tkazish.	Muayyan yilning Sentyabr oyida 2 marta.	MTM rahbariyatidan bir kishi va guruh tarbiyachilari
2.	MTM dagi barcha guruhlarda davlat ramzlarini o'rganish mashg'ulotini o'tkazish.	Sentyabr oyida uch hafta davomida	MTM rahbarlaridan biri va guruh tarbiyachisi
3.	«Mening yurtim dunyoda eng bolajon» davra suhbatini o'tkazish.	Oktyabr oyining birinchi haftasida	Guruh tarbiyachisi
4.	«O'zbekiston – vatanim mening» mavzusida albom tayyorlab, uning yordamida bolalar bilan suhbat o'tkazish.	Oktyabr oyining ikkinchi haftasida	Guruh tarbiyachisi
5.	«Hech kimga bermayman seni O'zbekiston» mavzusida davra suhbatini o'tkazish	Oktyabr oyining uchinchi haftasi	Guruh tarbiyachisi
6.	«Qariyalarni qadrlash o'zbek mentalitetiga xos xususiyat» mavzusida sayl – bayrami	Oktyabr oyining uchinchi haftasi	MTM rahbariyati va shu hududda joylashgan namunali yoshi ulug' odamlar
7.	MTMning «Ma'naviyat» xonasini jihozlash va unda «MTM hayoti» standini jihozlashni	Avgust oyi oxiri	MTM ma'muriyati

	ommaviy tashkil etish.		
8.	MTM ning «Ma'naviyat» xonasida «Mustaqil O'zbekiston Respublikasi Prezidenti», «Davlatimiz yuksalishiga oid lavhalar», «Buyuk siymolar», «Konstitutsiyamiz - qonusimiz» kabi burchak va stentlarni tashkil qilish.	Avgust oyidan 8 – dekabr-gacha	MTM ma'muriyati, tarbiyachilar, murabbiylar.
9.	Guruhlarda «O'zbek milliy o'yinlari», «Milliy urf – odatlar», «San'atimiz yulduzlari» kabi ko'rik tanlovlar o'tkazish	Har oyda bir marta turdan.	MTM ma'muriyati va guruh tarbiyachilari, murabbiylar.
10.	MTM miqyosida «Odobli bola olamga ta'tir», «Quyoshli yurt bolalari» kabi tanlovlarni o'tkazish.	Har chorakda bir marta	MTM rahbariyati, guruh tarbiyachilari va murabbiylar.
11.	MTM da «Sog'lom hayot qurish - baxtimiz», «Sog'lom turmush tarzi», «Illatlar sog'lom hayot dushmani» kabi mavzularda ko'rgazmaviy chiqishlar uyushtirish va unda narkotik moddalar qabul qilish, chekish, giyohvandlik ichish va shu kabilarga qarshi kurash bo'yicha mavzu mazmuniga mos rasmlar va stendlar tashkil qilish.	Har chorakda bir marta	MTM rahbariyati. Mavzularga mos markazlardan chaqirtirilgan mutaxassislar. Murabbiylar, tarbiyachilar.
12.	MTM da «Diniy aqidaparastlik terrorizm asosidir» mavzusidagi kinolarning bolalarga ommaviy namoyishini tashkil etish.	Har yarim yilda bir marta	MTM ma'muriyati.
13.	«Bog'cha bizning o'z uyimiz. Uni biz ko'z qorachig'imizdek asraymiz» mavzusida suhbat – hikoya tashkil qilish va uning amaliy qismida bog'chani honalari hamda hududlarida	Oyiga bir marta	MTM rahbariyati, tarbiyachilar, murabbiylar.

	tozalash va tartibga keltirish ishlarini olib borish.		
14.	MTM hududida guruhlararo hudud taqsimlab berish va ularning tozaligi, tartibligi bo'yicha o'z - o'ziga xizmat qilishni tashkil etadi.	Muntazam ravishda.	MTM ma'muriyati, tarbiyachilar, murabbiylar.
15.	«O'z uyingni o'zing saqla» mavzusida suhbat o'tkazish. Unda oila, mahalla, bog'cha hududining dahlsizligini ta'minlash nima ekanligini, begona kishilarning paydo bo'lishi nimalarga olib kelishi mumkinligini tushuntirish.	Muntazam ravishda	MTM dagi tarbiyachilar va murabbiylar.
16.	MTM da teatr va sirk tomoshalarini tashkil etish.	Har chorakda bir marta	MTM ma'muriyati
17.	Bolalarni MTM hududiga yaqin joylarga sayohatga olib chiqishni tashkil etish.	Har chorakda bir marta	MTM ma'muriyati, tarbiyachilar, murabbiylar.
18.	Sport turlari bo'yicha musobaqa tashkil etish.	Muntazam ravishda	MTM ning sportga oid mutasaddilari.
19.	Har guruhda bolalar hayoti va texnika xavfsizligiga oid suhbatlar o'tkazib chiqish.	Sentyabr oyi boshida	Tarbiyachilar, murabbiylar.
20.	MTMdagi bolalar o'yingohlarining (kompyuter zali, trenajyorlar zali va shu kabilar ham) muntazam ravishda ishlab turishini ta'minlash.	Doimo	MTM ma'muriyati, tarbiyachilar, murabbiylar
21.	MTMda terrorizm, urushlar bo'lib yotgan davlatlardagi bolalarning ahvoli haqida video filmlar tashkil etish va shu asosda bolalarda tinchlikning qadriga yetish hissini yuksaltirish.	Har chorakda bir marta	MTM ma'muriyati, tarbiyachilar, murabbiylar

22.	«Dunyo bolalariga quyosh birday sochar nur» mavzusida rasmi, namoyishli suhbat uyushtirish.	Bir yilda ikki marta	MTM ma'muriyati, tarbiyachilar, murabbiylar
23.	«Do'stlik ertaklari», «Do'stlik o'yinlari», «Do'stlik kechalari» tadbirlarini uyushtirish.	Oyiga bir marta	Tarbiyachi, murabbiylar.
24.	MTMdagi hududdan guruhlarga berilgan joylarning doimo toza saqlanishiga e'tibor berish, o'z – o'ziga xizmatni yanada jonlantirish.	Doimo	Guruh tarbiyachilari, murabbiylar
25.	MTM da har bir guruhda «Tozalik – sog'lik garovidir» ruknida suhbatlar o'tkazib turish va unda quyidagi mavzularga ko'proq e'tibor qaratish: «Ozodalik – sog'lik garovi», «O'tkir ichak kasalliklarining oldini olish», «Kariesdan saqlanish» va hokaza.	Reja asosida	Guruh tarbiyachilari, murabbiylar.
26.	Ekologiya madaniyati kunlarini o'tkazish.	Reja asosida	Tarbiyachilar, murabbiylar
27.	Ota – onalar bilan suhbatlar o'tkazish.	Doimo	Tarbiyachilar, murabbiylar
28.	«Biz illatlarga qarshimiz» davra suhbatini uyushtirish va unda yolg'onchilik, qo'pollik, chekishlik, ichishlik, g'iybat qilishlik, chaqimchiliklarning salbiy oqibatlarini bolalar ongiga singdirishga harakat qilish.	Reja asosida	Tarbiyachilar, murabbiylar
29.	«Ma'naviyatli odam kim?» mavzusidagi davra suhbatini o'tkazish va bunda bolalar ongiga ularning ham ma'naviyatli bo'lishi mumkinligini singdirish.	Oyiga bir marta.	Tarbiyachilar, murabbiylar

30.	Yurtimizdagi barcha bayramlarni kutib olish madaniyatini bolalar ongiga singdirish (yangi yil bayrami, Vatan himoyachilari kuni bayrami, 8 – mart xotin qizlar kuni bayrami, 21 – mart Navro'z bayrami, 9 – may – Xotira va qadrlash kuni bayrami, 1 – iyun butun jahon bolalarini himoya qilish kuni bayrami, 1 – sentyabr – Mustaqillik kuni bayrami va h.k.)	Reja asosida	MTM ma'muriyati. Tarbiyachilar, murabbiylar
-----	---	--------------	---

3.5. Maktabgacha ta'lim muassasalarida «Ma'naviyat saboqlari» mashg'ulotlarini olib borishga oid didaktik materiallar

«Bilimning osmonga etgan bo'lsa ham, boshqalar ilmiga quloq sol har dam».

(Shukur Balxiy)

Ma'lumki, har qanday mashg'ulot, ayniqsa, dars mashg'uloti didaktik ma'lumotlar, materiallar va vositalarsiz bo'lmaydi. Ularning majmuasi esa didaktik materiallar deyiladi. Didaktik vositalarga quyidagilar kiradi: turli jihozlar, kompyuterli vositalar, modellar, maketlar, ko'rgazmali va texnik vositalar, shuningdek, asbob –

uskunalar, mahsulotlar va shu kabilar.

Tarqatma materiallarga esa quyidagilar kiradi: kartochkalar, savolnomalar, yo'riqnomalar, qiziqarli savol va topshiriqlar, amaliy ishni tashkil etish bo'yicha texnologik xaritalar va hokazolar.

Didaktik materiallar murabbiylar yoki tarbiyachilar tomonidan har bir o'tkaziladigan mashg'ulotga mos keladigan qilib oldindan tayyorlanib qo'yiladi. Ular mashg'ulot mazmunini boyitishga, ya'ni dars mazmunini to'liq qilib ifodalashga xizmat qiladi va bu orqali bolalar dars mazmunini yaxshi tushunib yetishga erishadilar. Bular turli ko'rgazmali qurollar, turli muammoli vaziyatlarni yaratuvchi masalalar va moslamalar, o'yinlar va hokazolardan tashkil topadi.

Ushbu jarayonda murabbiy va tarbiyachilarning didaktik qobiliyatlari o'ta muhimdir. Ularga quyidagilar kiradi: murabbiy va tarbiyachilar tomonidan o'quv materialini ko'rgazmali qurollar va vositalarni tayyorlab qo'yish; o'quv materialini aniq, ifodali va izchil bayon qilish mexanizmini taxt qilish; o'quv materiallarini o'rganishga

bo'lgan qiziqish, ma'naviy va hissiy istaklarni rag'batlantirish; o'quv bilimini oshirish; bilishni faollashtirish va shu kabilar.

3.5.1. Tarbiyaviy masalalar tuzish va uning yechimi tahliliga oid didaktik materiallar

*«Mashg'ulorsiz bola
zerikadi, zerikish esa
uni yomon yo'lga
soladi».*

R.Usmonov

Bola tarbiyasida pedagogik (tarbiyaviy) masala tuzish va uning yechimini bevosita ular ishtirokida hal qilish bolalarning kelajakda ma'naviyatli va madaniyatli odam bo'lib shakllanishida muhim fundamental asos bo'la oladi. Ushbu jarayonda esa pedagog munosabat yetakchi kuch bo'ladi. Shu ma'noda tarbiyachi yoki murab-

biylarning bolalar bilan tarbiya maqsadida aloqa o'rnatish o'quv – tarbiya jarayonini uyg'unlashgan holda olib borishda asosiy tamoyil hisoblanadi. Ushbu tamoyil pedagogik (tarbiyaviy) vaziyatlar (muammolar, masalalar) yechishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunga sabab pedagogik muammoli masalalarni yechish – bu o'quv – tarbiya jarayonini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlardan biri bo'lib, undan ko'zlangan maqsad bolalarning ijodiy tafakkurini kengaytirish, ta'lim – tarbiyaviy ishlarni faollashtirish, mustaqil va erkin fikrlashni rivojlantirish kabilardan iboratdir.

Tadqiqot ishimizning ushbu qismida pedagogik (tarbiyaviy) masalalar tuzish va ular yechimlari tahliliga to'xtalib o'tamiz. Tuzilgan masalalar ko'proq oilaviy vaziyatlardan olingan. Bunga sabab MTM dagi bola to'g'ridan – to'g'ri oila muhitidan kelib chiqadi.

BIRINCHI MASALA: O'yinchoq mashina.

Anvar akaning xonadonida 2 nafar o'g'il va 1 nafar qizlari bor edi. Anvar aka maosh olgan kuni bitta o'yinchoq mashina olib keldi va farzandlariga dedi: «O'g'illarim hozircha shu mashina bilan birgalikda o'ynab turinglar, kelguvsi maoshihimdan sizlarga yana boshqa o'yinchoqlar olib kelib beraman».

Bir ozdan keyin Anvar akaning farzandlari mashinani talashib qolishdi. Ularning janjalini kuzatib turgan Anvar aka va uning turmush o'rtog'i Hilola opa bu majoroni qanday hal qilish kerak?

Anvar aka bunday vaziyatda qanday ish tutish kerak?

a) Hoy jim bo'linglar, talashmay o'ynanglar, bo'lmasa yana mashina olib kelmayman!

b) Mashinani o'g'il bolalar o'ynasin, qizim senga boshqa o'yinchoq olib kelib beraman.

v) Mashinani bu yoqqa olib kelib ber, yashirib qo'yaman, hammangga bittadan o'yinchoq to'g'ri keladigan bo'lganda o'ynaysan. Ayasi qaramaysanmi, bolalaring janjallashayapti.

Hilola opa bunday vaziyatda qanday ish tutishi kerak?

a) Bolajonlarim dadajoningiz hozircha maoshidan bitta mashina olib kelibdi, yana maosh olganda albatta hammangga yetadigan qilib o'yinchoqlar olib keladi.

b) Astagina borib mashinani olib qo'yibdi va debdi: «Agar o'yinchoqqa talashadigan bo'lsanglar, bu o'yinchoqni ham olib qo'yaman».

v) Men Sizlardan xafa bo'ldim. Endi dadangizga aytaman, hyech qachon sizlarga o'yinchoq olib kelib bermaydi.

Tahlil: Birinchi holat. Anvar aka o'yinchoq mashina olishdan oldin bir o'ylab ko'rish kerak edi. Bunga sabab oilada 3 nafar farzand, ular ichida qiz bola ham bor. Anvar aka oiladagi farzandlarining ko'proq qismi o'g'il farzandlar ekanligini e'tiborga olib bu ishni qilgandir, ammo farzandlar orasida **qo'pol munosabatlar** (mashinani talashib qolish va natijada ular og'zidan so'kinish yoki yoqalashib ketish holatlari) ning paydo bo'lishi ham yaxshi holat emas. **Chunki farzandlar orasidagi so'kinish yomon illat yoki ular bir – biriga mashinani otib yuborib tan jarohati olish holatlari ham uchrab qolishi mumkin. Eng achinarlisi bunday farzandlar tarbiyasida salbiy holatlar yuz beradi va ular ma'naviy jihatdan yetuk bo'la olmaydilar.**

Ikkinchi holat. Anvar akaning o'yinchoq mashina olib kelganini ko'rgan Hilola opa darrov hushyor tortish kerak edi va «bu mashinaga farzandlari talashib qolsa, ular o'rtasidagi iliqlik yo'qoladi-ku», - deb o'ylash kerak edi va Anvar akaga: «bu o'yinchoq'ingizni yanagi maoshingizgacha bolalaringizga bermay turaylik, keyingi maoshingizdan qolgan farzandlarimizga ham yetadigan o'yinchoq olib kelganingizdan keyin, hammasini birdan hursand qilamiz», deyish kerak edi. Yoki oiladagi farzandlarini to'plab quyidagi fikrni ham aytsa ham bo'lar edi: «Bolalarim dadajoningiz bugun maosh olibdi va hozircha bittagina o'yinchoq mashina olibdi, keyingi maoshidan yana sizlarga o'yinchoqlar olib kelar ekan. Agar urushmasdan, talashmasdan o'ynaymiz deb va'da bersalaring o'yinchoqni beramiz, agarda bunday va'dani bera olmasalaring, o'yinchoqni dadajoningizning yanagi

maoshigacha, ya'ni o'yinchoqlarni hammaga yetadigan qilib olib kelmaguncha yashirib qo'yamiz».

Ushbu mazmundagi masalani guruhni ikkiga bo'lib olib, kichik guruhlar hosil qilib, ularning navbatma – navbat fikrini eshitish ham yaxshi natija beradi.

Mashg'ulot oxiridagi xulosangizda bolalar o'rtasidagi intiboqlik narsani o'rtada baham ko'rish ijobiy xislat ekanligini va qo'pollik esa yomon illat ekanligi o'qtilsin.

IKKINCHI MASALA: Farzandlarni topshiriq berish orqali imtihon qilish.

Anvar aka va Hilola opalar xonadonining uch nafar qizi bo'lib, ularga quyidagicha topshiriq berildi: «Qizlarim men bugun maosh oldim. Bugun sizlarning har biringizga besh ming so'mdan pul bermoqchiman. Sizlar bunga o'zlaring aql bilan ish yuritib kerakli narsalar olib kelinglar». Topshiriqni olgan qizlar alohida – alohida bozorga borib xarid qilishibdilar.

Oiladagi **katta qiz** besh ming so'mga o'ziga pardoz uchun narsalar xarid qilibdi, ya'ni lak, buyoq va hokazolarni olibdi.

Oiladagi **o'rtancha qiz** besh ming so'mga ikki xil sovun, supurgi va paqir olib kelibdi.

Oiladagi **eng kichik qiz** besh ming so'mga dadasiga sigareta va sigaret tutatgich (dadasini oilada chekuvchi) va o'ziga saqich olib keldi.

Bunday holatga oila boshlig'i bo'lmish Anvar akaning hayolidan o'tgan fikrlar:

a) Hammang ham bergan pulimga biron narsa olibsizlar. Endigi safar nima xarid qilishni yanayam yaxshiroq o'ylab ko'ringlar.

b) Katta qiziga qarab: «Senga mushtday boshingdan pardoz – andoz qilishni kim qo'yibdi, endigi safar kallani ishlatib xarid qil!».

v) O'ylanib qoldim, nima qilsam ekan, katta qizim bunday holatda ketaversa ishyoqmas, tannoz bo'lib qoladiki. Ertaga hayotda bizlarning yuzimizni yerga qaratadi-ku? Qolaversa bunday qizlar jamiyat uchun ham zarurli holatlarni keltirib chiqarish mumkin.

O'rtancha qizimdan bir narsa umid qilsam bo'lar ekan. Bunday qizlar tejamkor bo'lishadi.

Kichkina qizimning menga bergan «Sovg'asi» yuzimga bir shapaloq urgandek bo'ldi. Men farzand tarbiyasida katta xatoga yo'l qo'yayotgan ekanman. Endi zinhor sigareta chekmayman.

Oilaviy tahlil.

Katta qiz: Senga berilgan besh ming so'm pulga nima uchun aynan pardozi – andozi uchun ishlatiladigan narsalar xarid qilding? – deb berilgan savolga uning javobi: «Men chiroyli bo'lishni xohlayman, mening yuzlarim, ko'zlarim atrofi va timoqlarim doimo yaltirab turishini yaxshi ko'raman. Shuning uchun bu narsalarni xarid qildim».

O'rtanchi qiz: Senga berilgan besh ming so'm pulga nima uchun aynan ikki xil sovun, supurgi va paqir olding? – deb berilgan savolga uning javobi: «Ikki xil sovun olishimga sabab, ularning birga odam bet – qo'lini va ikkinchisiga esa kir yuvishi mumkin. Supurgi olishimga sabab, supurgi bilan uylarni va hovlini supurib tozalash mumkin. Paqir olishimdan sabab esa, u bilan yig'ilib qolgan chiqindilarni olib tashlab, keyin paqirni yuvib hovliga suv sepish mumkin, keyin esa paqir bilan uyga suv olib kelish mumkin».

Eng kichkina qiz: Senga berilgan besh ming so'm pulga nima uchun aynan sigareta va sigaret tutatgich hamda saqich olding? – deb berilgan savolga uning javobi: «Men dadajonimni yaxshi ko'raman. Shuning uchun ham sigareta va chiroyli sigaret tutatgich oldim hamda o'zimni ham esdan chiqarmadim – da, o'zinga saqich oldim».

Hilola opa: Bolajonlarim sizlarga berilgan bir xil miqdordagi pul orqali biz sizlarni sinamoqchi edik. Sizlarning ichingizdan **pardozi – andozga ruju qo'yan, tannoz farzand chiqishini hyech ham xohlamaymiz.** Chunki, unday qizlar dangasa, ishyoqmas bo'lishadi-da, hayotda juda ko'p qiynaladi. Shuning uchun qizlarim har narsaning ham o'z vaqti va me'yori bor. Bu haqda sizlar bilan yanada ko'proq gaplashamiz.

Endi ikki xil sovun, supurgi va paqirga kelsak, bu tejamkorlik va tozalik belgisi. oilani o'ylashlik hamdir. **Bu orqali oila mustahkam bo'ladi** va oiladagi odamlar bir – biriga yordam qo'lini cho'zishga harakat qiladilar.

Qizlarim xohlaymizmi, xohlamaymizmi chekish bu yomon illat. Bunga sabab **birinchidan,** sigareta tutuni, ya'ni zahari boshqa oila a'zolarini zaxarlaydi, **ikkinchidan,** oiladagi puldan bir qismi sigaretaga ketadi, ya'ni unga ishlatilgan pullar sigareta bilan qo'shib tutun bo'lib ketadi, **uchinchidan,** sigareta dadajoningizning sog'lig'iga ham zarar. Shuning uchun dadajonisi sigareta chekishni ham bir o'ylab ko'rsangiz bo'lar edi.

Anvar aka: Ha bolajonlarim, Sizlarning tarbiyangizda anchagina kamchiliklarimiz bor ekan. Hatto o'zimda ham katta kamchilik bor ekan.

Bu topshiriqni uchalang uch xil bajarishlaring menga «katta maktab» bo'ldi.

Ayjonisi qizlaringning xaridlariga qarab ularni tarbiyalash yo'nalishlarini ham belgilab olishimiz kerak va mening o'zim ham sigareta chekishni tashlashim kerak ekan.

Qizlarim sizlardan xafa emasmiz, chunki bizning sizlar bilan qanday shug'ullanishimiz kerakligini aniqlab olishga imkon berdilaringiz. Bizning sizlardan umidimiz katta.

UCHINCHI MASALA: Mehmonga hurmat.

Anvar aka va Hilola opalar xonadoni tinch osoyishta hayot kechiradigan oila bo'lib, bu oilaning 3 nafar qizlari bor edi. Ular oilada axloqiy, tejamkorlik va mehnatsevarlik kabi jihatlar bilan tarbiyalanganligini doimo namoyon qila olar ekan. Ularning bu sifatlari uyiga mehmon kelib qolganda yana bir bor o'z isbotini topibdi, ya'ni bir kuni ular uyiga mehmon kelib qolibdi. Aksiga olib o'sha kuni oilada ozgina yetishmovchilik bo'lib turgan ekan. Mehmon kelishi bilan Anvar aka Hilola opaga nimang bor degandek, ma'noli qarab qo'yibdi.

Bu holatni sezgan qizlar oshxona tomonga o'tib o'zaro maslahat qilishibdi.

Katta qizi: «Ko'rdilaring kutilmaganda mehmon kelib qoldi. Sizlar bor narsalarni tayyorlab turinglar. Menda dadam bergan pullaridan tejab saqlab qo'rganlarim bor edi. Bu pulga tezda dasturxoniga qo'yadigan narsalar olib kelaman».

O'rtanchi qizi: «Opajon to'g'ri o'yabsiz. Menda ham xuddi siz kabi tejagan pullarim bor. Uni qo'shib birga bozor qilib keling. Shu bilan dadam bilan ayamni noqulay holatdan qutqiltiramiz».

Kichkina qizi: «Unday bo'lsa opajon to'xtab turing. Menda ham ko'p bo'lmasa ham ozroq tejagan pulim bor. Uni qo'shib tezda bozor qilib kelaqoling! Biz dasturxonni tayyorlab turamiz».

Natijada dasturxon noz – ne'matlarga to'lib qoldi. Va ularning ota – onalarining chehrasi yorishib, mehmonlar bilan suhbatni qizitib yubordi.

Oilaviy tahlil: Mehmon ketishi bilan Anvar aka va Hilola opalar oshxonaga o'tib, qizlariga «Shuncha narsani bir pastda qayerdan va nima hisobiga olib keldilaring», - deb murojaat qildi. Shunda qizlar bo'lgan voqeyani so'zlab berdi.

Shundan keyin ota – onalar o'zida yo'q xursand bo'lib, qizlariga o'z minnatdorchiligini bildirdi va Anvar aka dedi: «Qizlarim baraka topinglar, bizni juda katta noqulay vaziyatdan qutqardilaring. Baraka topinglar, sizlardan xursandman».

Hilola opa ham o'zida yo'q xursand bo'lib, «Dadajonisi sizga rahmat, qizlarimizni aqlli, tadbirkor va tejamkor qilib tarbiyalashimizda Sizning ibrat – namuna bo'lishingiz mana bugun o'z isbotini topdi. Bundan butun oila a'zolarimiz bilan hursandmiz.

Qizlarim sizlardan xursandmiz. Ishonchimiz komilki, Sizlar kelajakda har biringiz aqlu – dono va baxtli insonlar bo'lasizlar».

TO'RTINCHI MASALA: Oilada imtihon.

Anvar aka o'g'lini sinab ko'rish maqsadida unga murojaat qildi: **O'g'lim ikki qo'limda ham pul bor. O'ng qo'limda 1000 (ming) so'm qog'oz pul va chap qo'limda esa 1000 (ming) so'm tanga pul. Senga qaysi qo'limdagi pulni bersam, deb o'ylab turibman. Seningcha qaysi qo'limdagi pulimni berganim ma'qul.**

Javoblar: a) Dadajon menga hyech qanaqa pulni berishingiz shart emas. Hamma kerakli narsalarimni o'zingiz olib kelib berayapsiz – ku!

b) Dadajon men Sizni juda yaxshi ko'raman, bilaman Siz judayam saxiysiz. Qog'oz pullaringiz ichiga tanga pullarni o'rab bera qoling!

v) Dada qog'oz pullaringizni bera qoling. Ishlatishga qulay.

Tahlil: a) Anvar aka: Oллоhga shukur, bolamni tarbiyalashim yaxshi ekan.

b) Anvar aka: Farzandimni ochko'z qilib tarbiyalab qo'yibman – ku. Endi nima qilishim kerak ...

v) Anvar aka: Farzandimni yengil holatlarni tanlaydigan qilib qo'yibman – ku. Bundan uning dangasalikka muhtalo bo'lib kelayotganligi sezilmoqda. Tezda buning oldini olmasam farzandim loqayd bo'lib qoladi.

Hurmatli murabbiylar bu masalalar tahlili albatta bola tarbiyasida ijobiy samara beradi. Tahlil paytida hyech ham bitta yoki ikkita bola fikrini eshitish bilan chegaralanib qolmang! Va ayniqsa, bolalarning fikrini eshitib bo'lib, uning fikrining to'g'ri yoki noto'g'riligini ikkinchi bir boladan, uchinchi boladan so'rang hamda to'g'ri fikrni ularga ma'qullatib oling.

Tarbiyaviy masalalar tuzib kelishni ularga vazifa ham qilib bering, uni keyingi mashg'ulotingizda muallifni e'lon qilib, masala tahlilini o'tkazing.

3.5.2. «Ma'naviyat saboqlari» bo'yicha bahslar o'tkazishga oid didaktik materiallar

«Sog'lom bahs bolalarni noziklantirishga emas, balki ularni aqliy chiniqtirishga, mashq qildirishga, ularning faolligini oshirishga xizmat qilishi kerak».

Xolbo'ta To'raqulov

MTMda bolalarning o'zaro munosabatlarini yanada yaxshilash, bir – birlariga tezlik bilan ko'nikishlari uchun ba'zida bolalar o'rtasida sog'lom munozarali bahslarni tashkil etib turilsa bola tarbiyasi yanada samarali kechadi. Bunga sabab bahslar

bolalarni o'z fikrlarini charxlab olishiga, hayotga va turli vaziyatlarga bo'lgan munosabatlarini aniqlab olishga katta yordam beradi. Bahs mavzularini murabbiy yoki tarbiyachi va ayrim hollarda bolalarning o'zlari ham taklif etishi mumkin. Tanlangan mavzular bolalarni bahsga chorlovchi, muammoli, qiziqarli bo'lishi kerak, aks holda bahs davomida bolalar o'z fikrlarini bayon eta olmaydilar yoki bahsga qo'shilib o'z fikrlarini isbotlashga urinmaydilar.

Sog'lom bahsning ahamiyati shundaki, bolani bahs jarayonida ba'zi noto'g'ri fikrlarga qarshi kurashishga o'rgatadi va noaniq fikrlarga aniqlik kiritishni bola aynan bahs jarayonida amalga oshiradi. Shuningdek, bola atrofdagi bo'layotgan voqevalarga ongli ravishda qarab ularni to'g'ri sharhlashga, bahs jarayonida o'z fikrida qat'iy tura olishga, har bir fikrni to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlab olishga hamda o'rtoqlari bilan suhbat qilish, bahslashish, o'z fikrini boshqalarga o'tkaza olish, ta'sir eta olish madaniyatiga o'rgatadi.

MTM da bahslar o'tkazishga alohida tayyorgarlik ko'rish lozim bo'ladi. Tayyorgarlik ko'rishda quyidagi ishlarga ko'proq e'tibor qaratish lozim:

- bahs mavzusini tanlash;
- bahsdagi maqsad va vazifalarni belgilab olish;
- bahsning qismlarini va unga mos keladigan savollar ketma – ketligini aniqlab olish;
- bolalarga bahs davomida muhokama qiladigan savollarni to'laroq yoritishga yordam bera oladigan qo'shimcha materiallar (hikoyat, rivoyat, hikmat, multfilm, videofilm va shu kabilar)ni tayyorlab qo'yish;
- bahsni tashkillashtiruvchi (uyushtiruvchi) murabbiy va tarbiyachilarni (ayrim hollarda bolalarning o'zlaridan) tayyorlash;
- bahs o'tkazadigan joyni mavzuga mos holda jihozlash.

Ushbu jarayonda bahsni olib boruvchilar (murabbiylar, tarbiyachilar, bolalar) oldida qator vazifalar turadi. Ularni taxminan quyidagilardan iborat, deb atash mumkin:

1. Boshqaruvchi xayolan mashg'ulot jarayonini o'zida oldindan loyihalashtirib olish kerak.

2. Boshqaruvchi bahslashishdan oldin qanday fikrlarni aytishni, ya'ni mashg'ulotning kirish qismini bayon qilishni rejalashtirib olish kerak.

3. Boshqaruvchining fikrini aniq, tushunishga oson va fikrlari bir – birini to'ldirib borishi kerak hamda beriladigan savollar mantiqan uzviy ketma – ketlikda bo'lishi kerak.

4. Boshqaruvchida o'zining fikrlarining to'g'riligiga, haqqoniyligiga, hayotiyiligiga va bolalar yoshiga mosligiga aniq xulosaviy fikr bo'lishi kerak.

5. Boshqaruvchi faqat hayajonga soladigan fikrlar bilan chegaralanmasligi kerak va mashg'ulot jarayonida faqat aniq fikrlar bilan mashg'ulot o'tkazish kerak.

6. Boshqaruvchi hech qachon o'zi bilmagan, o'zi ishonmagan fikrlar bilan bahsga kirishmasligi kerak, aks holda boshqaruvchi bolalar oldida o'z obro'yini yo'qotadi.

7. Boshqaruvchining o'zi xato fikr bildirgan bolaning ustidan hech qachon kulmasligi, bolalarga ham o'sha bolani masxaralashga yo'l qo'ymasligi lozim.

8. Boshqaruvchi bahs davomida fikrlarning takrorlanaverishiga yo'l qo'ymasligi kerak.

9. Boshqaruvchi yangi fikr bildirgan bolani o'sha paytdayoq olqishlab (barakalla, yasha, juda yaxshi degan so'zlar bilan) qo'yish kerak.

10. Boshqaruvchi bahs jarayonida nutq madaniyatiga, ayniqsa muloyim muomalaga qattiq e'tibor berish kerak.

11. Boshqaruvchi bahslashuvchilar shaxsiga hurmat bilan qarash kerak.

12. Boshqaruvchi dastlab bolalarga bahslashuv madaniyatini: navbat bilan gapirish, ruxsat so'rab gapirish, biri ikkinchisining gapini bo'lmasligi, har xil yoqimsiz qiliqlar qilish va kabilarni tushuntirishi kerak.

O'tkaziladigan bahs mavzularini tuzishda asosan «Ma'naviyat saboqlari» ruknidan chiqib ketmaslik kerak. Ular turli xildagi bolalar va

yoshlar hayoti hamda jamiyatimizning ba'zi bir jihatlari haqidagi asarlar, gazeta va jumallardagi maqolalar bo'lishi mumkin.

Quyida ulardan ba'zilarining nomlarini keltiramiz:

1. Madaniyatli inson deb kimni aytsa bo'ladi?
2. Ma'naviyatli inson deb kimni aytsa bo'ladi?
3. Ma'rifatli inson deb kimni aytsa bo'ladi?
4. Barkamol shaxs kim?
5. Sen qanday yashaysan?
6. Sog'lom turmush tarzi nima?
7. Haqiqiy do'st qanday bo'lishi kerak?
8. Illatlar inson kayfiyatiga qanday ta'sir qiladi?
9. Illat nima?
10. Ma'naviy qashshoq odam kim?

Endi quyida bahslarga oid didaktik materiallardan namunalar keltiramiz.

Tush ta'biri haqida hikoyat.

Kaykovusning «Qobusnoma» asarida shunday hikoyat bor. Bir kuni shoh tush ko'ribdi. Tushida 32 tishining 31 tasi tushib ketganmish. Og'zida bittagina tishi qolgan emish. Shoh bu tishining ta'birini saroydagi donishmandlardan, ulomalardan so'rabdi. Bir donishmand tushini quyidagicha ta'birlabdi:

- Ey, shohim, bu tushingiz ta'biri quyidagicha: Sizning qarindosh – urug'laringiz, farzandlaringiz, xotiningiz o'lib ketar ekan. Bitta o'zingiz qolar ekansiz.

Bu ta'biri eshitgan shoh darg'azab bo'lib, hamma qarindosh – urug'larim, farzandlarim, xotinim olamdan o'tib ketsa, men yashab nima qilaman, deb jahli chiqib, jallodni chaqiribdi va haligi donishmandning boshidan judo qilishni buyuribdi. Farmon bajarilibdi. Shohning tushining ta'biridan ko'ngli to'lmabdi. Boshqa donishmandlarni ham jalb qilib, tush ta'biri bilan yana qiziqibdi. Ammo yuqoridagi donishmandning boshi tanidan judo bo'lganini ko'rib, donishmandlardan birortasining ham tushning ta'birini aytishga yuragi dov bermabdi. Saroydagi ulomalar, donishmandlar bu vaziyatdan chiqish uchun rosa o'ylashibdi. Oxiri shunday qarorga kelishibdi. Shaharning chekkasida bir donishmand yashaydi. Bir o'zi yashaydi. Shunga xabar beraylik. O'sha bizni qutqarishi mumkin. O'sha donishmandni topib, unga bo'lgan voqyeani tushuntirishibdi. Donishmand ularning suhbatini tinglab, takliflariga rozi bo'libdi. Donishmandni saroyga olib kelishibdi. U shoh huzuriga kamtarona, salom bilan kirib:

- Shohim, ko'rgan tushlaringiz muborak bo'lsin, - debdi. - Bundan yaxshi tush bo'lishi mumkin emas. Buni qarangi, hamma qarindosh - urug'laringiz, oila a'zolaringiz hamma - hammasi uzoq umr ko'rishar ekan. Ammo ularning hammasidan ham uzoq umr ko'radigan o'zingiz ekansiz, shohim.

Bunday shirin so'z, kamtarlik bilan, nazokatli, nafis bayon qilingan ta'birdan shohning ko'ngli ko'tarilib, xursand bo'libdi. Ulamolariga zar to'n va bir lagan oltin olib kelishlarini buyuribdi. Shunday qilib, shirin zabon, topqir donishmand sovg'a - salomlar bilan kulbasiga qaytibdi [8. 79 - 80 b.].

Ushbu rivoyatni o'rganib chiqish orqali bolalarda har bir fikrni asoslash, sharoitga qarab gapirish, har bir fikrning turli xil ma'nolari borligi va ular ichidan atrofidagi odamlarga to'g'ri keladiganini tanlab gapirish kerak ekanligi haqidagi tasavvurlarni mustahkamlash mumkin bo'ladi.

Mashg'ulot oxirida «**Bilgan topib gapiradi, bilmagan qopib gapiradi**» degan xalq maqolini keltirib o'tsangiz, mashg'ulotni xulosalashingiz samarali kechadi.

Mehmon - atoyi Xudo.

O'zbek xalqi qadimdan mehmondo'stlikni ulug'lagan «Mehmon - otangdan aziz», «Mehmon kerak eshikdan, rizqi kelar teshikdan», «Yaxshi mehmon osh ustiga keladi» kabi maqollar yaratgan. Xalqimizning bu olijanoblighi chindan ham tahsinga loyiq. Azizlarim, sizlar bu xayratomuz fazilatlarini ulug'lang.

Mehmonni samimiyatu beg'ubor tabassum bilan kutib olgan kishini boshqalarning ham o'ziga shunday munosabatda bo'lishlariga erishadi.

Xonadonga mehmon kelishi oldindan tayin bo'lsa, yaxshi. Har holda kishi tayyorgarlik ko'rib qo'yadi. Biroq ba'zida mehmon kutilmagan paytda kelib qolishi mumkin. Shunday paytlarda ham mezbon biroz shoshib qolganligini bildirmasligi, ro'zg'orda borini bordek qilib dasturxon tuzashi lozim bo'ladi. Bu ish, tabiiyki, mehmonga hurmat hisoblanadi.

Rivoyat. Bir xonadonga kutilmaganda aziz mehmon kelib qolibdi. Xonadon sohibi oshdan keyin dasturxonga qovun so'yib qo'ymoqchi bo'lib, qiziga debdi:

- Qizim, omborxonadagi qovunlardan yaxshisini tanlab, olib chiqing!

Qizi qarasa, omborxonada bor - yo'g'i bittagina qovun qolgan ekan. Olib chiqib otasiga uzatibdi. Shunda ota:

- Yo'q qizim, bu qovun menga yoqmayroq turibdi. Boshqasini olib chiqing, - debdi.

Garchi omborda boshqa qovun yo'q bo'lsa ham qiz otasining ra'yini qaytarmabdi.

- Xo'p bo'ladi, otajon, - debdi - yu, qaytib omborga tushib, yana shu qovunni olib chiqibdi va bu gal uning boshqa tomonini o'g'irgan holatda otasiga uzatibdi. Ammo, ming afsuski, qovun bu gal ham otaga xush kelmabdi. U:

- Qizim, menga bunisi ham yoqmadi. Bundan ham yaxshirog'ini tanlab, olib chiqing, - debdi. Qiz tag'in omborga qaytib tushib, o'sha qovunning yana boshqa tomonidan otasiga ko'rsatib uzatibdi. Bu gal ota:

- Mana bunisi tuzukroqqa o'xshaydi, - deb qovunni so'yib dasturxoniga qo'yibdi.

Ko'rdingizmi, ota azbaroyi mehmonni hurmat qilgani uchun ham qovunning eng sarasini olib chiqishni buyuribdi qiziga. Aql - xushli qizi esa garchi bittagina qovun qolgan bo'lsa ham uni qayta - qayta olib, chiqib, turli tomonini aylantirib otasiga ko'rsataveribdi. Shunday qilib, qiz ham mehmonning hurmatini joyiga qo'yibdi, ham otasining mehmon oldida mulzam bo'lishiga yo'l qo'ymabdi.

Mehmon - atoyi Xudo deydilar. Uni doim ochiq chehra hursandchilik bilan kutib olish darkor [14. 172 - 174 b.].

Bu mavzu bo'yicha bahs o'tkazish orqali bolalarda mehmondo'stlik, muruvvatlilik, muomalada xushyorlik, bag'rikenglik kabi insoniy xislatlar rivojlanadi.

Bunday hollarda sizda boshqacha ham bo'lishi mumkin! Buni siz qanday bajargan bo'lar edingiz, deb bolalarga murojaat qilib qo'yilsa, foydadan holi bo'lmaydi.

Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar.

Kosib va hunarmand bir kishining bir necha o'g'illari bo'lib, ular har kuni o'zaro nizo qilib urishardilar. Bir kuni keksa kosib bir dasta cho'plarni yig'ib, mahkam qilib bog'labdi va o'g'illariga qarab: «Qani, shu cho'plarni singdiringlar - chi!» dedi. O'g'illar qanchalik urinishmasin, baribir sindira olmabdi. Shunda ota bog'langan cho'plarni yechdi va bir donadan o'g'illariga berib: «Endi sindirib ko'ringlar», dedi. O'g'illar cho'plarni sindirishdi. Shunda ota o'g'illariga qarab: «Hozir nimaiki ko'rgan bo'lsangiz, u sizlarning ahvolingizga misoldir. Agar ittifoq bo'lsangiz, hyech kim sizlarni sindira olmaydi. Mabodo

murosa qilmay, bir – biringizdan ajralib yashasangiz, qiyinchiliklar oldida boshingiz xam bo'ladi!» dedi [15. 51 b.].

Ushbu bahs mavzusi orqali bolalarda o'zaro do'stlik, hamkorlik, bir – birini qo'llab – quvvatlashlik kabi insoniy xislatlar yuksaladi.

Ushbu bahs oxirida hasharlar to'g'risida (hovli ko'tarish, hosil ekish va yig'ish, ...) ham ma'lumotlar berilsa bolalardagi o'zaro birodarlik xususiyatlari yuksaladi.

3.5.3. «Ma'naviyat saboqlari» mashg'ulotlarida bolalarda illatlarga nafrat uyg'otishga oid didaktik materiallar

*«To'g'rilikdan kelinish
hamma yaxshi ot, egri-
likdan foyda ko'rmadi
bir zot».*

(«Otalari so'zi»)

Ma'lumki, illatlar jamiyat taraqqiyotiga sezilarli salbiy ta'sir qiluvchi yomonliklardir. Buning asosiy sababi o'sha illat bilan o'rallashib qolgan odamlarning hatti – harakatlaridir. Bu hatti – harakatlarning jamiyat taraqqiyotiga nisbatan ijobiy yoki salbiy ta'siri o'sha hatti – harakatlarning egasining dunyoqarashiga

bog'liq.

Bu qanday paydo bo'ladi?

Umuman olganda inson dunyoga kelgan paytdanoq unda dunyoqarash paydo bo'la boshlaydi. Ya'ni, bola tug'ilishi bilan oqonasiga ko'zi tushadi. Shunday qilib bolalar dastlab o'z ota – onasini taniydi va ular muloqot chog'larida tarbiyalana boshlaydilar. Bunda bola hayoti davomida to'g'ri yoki noto'g'ri harakatlar va ishlar qila boshlaydilar. Odatda **ularning aksariyatida** to'g'ri ish va hatti – harakatlar qilishga moyillik bo'ladi hamda bu boradagi faoliyatini rag'batlantirishlar orqali ularning ijobiy xislat va fazilatlar rivojlanib boraveradi. **Ularning ikkinchi qismi** esa noto'g'ri qilgan ishlari va hatti – harakatlaridan to'g'ri xulosa chiqarib o'zini to'g'ri yo'lga sola oladi, ya'ni qilgan xato – kamchiliklarini tuzata oladi. **Ularning uchinchi qismi** ham mavjud. Bular to'g'ri ishdan ham, noto'g'ri ishdan ham to'g'ri xulosa chiqara olmaydi. Bunday bolalar bir qilgan xatosini yana ham takrorlashi mumkin. Bular loqayd odamlar bo'lib, hayot to'g'risida to'g'ri xulosa chiqara olmaydi. Bularning hayotiy shiori «**Menga nima**» bo'lib, ularning jamiyat taraqqiyotiga ham foydasi tegmaydi. Bunday bolalarda har xil illatlarga ruju qo'yish ham kuchli bo'ladi. Chunki, illatlar bir ko'rinishda bolalar ko'ziga yengillikday bo'lib ko'rinadi. Ana

shuning uchun ham bolalarimizni illatlarga nafrat ruhida tarbiyalashimiz lozim. Ular ro'yxatini taxminan quyidagiday ketma – ketlikda keltirish mumkin:

- yolg'unchilik – yomon va qabih illat bo'lib, u imonsizlikdir;
- minnat – g'oyat jirkanch illat;
- insonning zohid bo'lishi – yomon illat;
- insonning tanbal bo'lishi – ayanchli illat;
- insonning takabbur bo'lishi – madaniyatsizlikdir (illat);
- badfellik – qo'pollik (illat);
- minnat – takabburlik (illat);
- ziqnalik – yomon illat;
- kibru havo – jaholat (illat);
- qasoskorlik – illat;
- manmanlik – imon kushandasi (illat);
- sotqinlik – xiyonat negizi (illat);
- hasad qilish – illat;

Endi bolalar ongida illatlarga nafrat uyg'otishga asos bo'ladigan didaktik materiallarni keltiramiz.

Birovga choh qazigan, o'zi tushadi.

Baxtli – saodatli, obro' – e'tiborli, mol – mulkli kishilarga doim havas bilan boq. Ammo zinhor – bazinhor hasad nazarini tashlama. Chunki hasad shunday dardki, u kishini ich – ichidan yemirib, ado qiladi. Xayolida hasad o'lovi alanga olgan odam o'zgalarga yomonlik qilishdan ham o'zini tiya olmay qoladi. Lekin ko'pincha bu yomonligi aylanib kelib o'ziga qaytadi. Axir, bobolarimiz «birovga choh qazisang, o'zing tushasan», deb bejiz aytmaganlarda.

Rivoyat qilishlaricha, qadim zamonda bir boy bo'lib, uning xonadonida tinchlik yo'q ekan. Oila a'zolari bir – biri bilan kelishmas, tez – tez sen – menga borishar, oqibatda turli mojarolar kelib chiqaverar ekan. Ammo qo'shnisi garchi kambag'al bo'lsa ham tinch va osoyishta yashar ekan. Ularga hamma havas qilar, janjaldan boshi chiqmaydigan boy ularga hasad qilar ekan. Boyning bu hasadi bora – bora dushmanlikka aylanibdi. U qo'shnisining tinchligini buzishga ahd qilibdi. Nobakor bir kuni qo'shnisining uzoqroq qishloqqa borishini eshitib qolib, bir kosa holvaytarga zahar qo'shibdi. Keyin uni qo'shnisiga berib debdi:

- Safarga ketayotganingizni eshitdim va qo'shnihilik hurmati uchun holvaytar pishirtirdim. Ochiqqan chog'ingizda tanovul qilarsiz.

Oqko'ngil kambag'al qo'shnisining bu qilmishini muruvvat deb tushunibdi. Yarim yo'lga yetganda suv bo'yida dam olib o'tirgan ikki yigitga ko'zi tushibdi. Yaqinroq borib qarasa ular holvaytar bergan boyning o'g'illari ekan. Yigitlar qo'shnilarini ko'rib:

- Otaxon, rosa ochiqqanmiz, ovqatingiz yo'qmi? – deb so'rab qolishibdi.

Shunda kambag'al ularga:

- Mana buni otangiz beruvdilar, sizlarga nasib qilgan ekan, - deb holvaytarni ularga beribdi. Yigitlar uni yeyishibdiyu bir zumda jon taslim qilishibdi. Qo'rqib ketgan kambag'al darhol holvaytarning qolgan qismini olib to'g'ri shahar qozisiga uchrab, bor gapni aytibdi. Qozi murdalarni oldirib kelib, boyni ham chaqirtiribdi – da unga pishirig'i va murdalarni ko'rsatibdi. Boy bolalari ustiga o'zini tashlab jon taslim qilibdi.

Alqissa, aziz farzandim, sen hyech qachon birovga hasad qilguvchi bo'lma [14. 189 – 190 b.].

Ushbu rivoyat bo'yicha bahs uyushtirish orqali bolalar ongiga birovga qasd qilish yomon illat ekanligi va uning albatta o'ziga qaytishi mumkinligi singdiriladi. Eng asosiysi ularda bu illatga nisbatan nafrat uyg'onadi.

Bolalarga vazifa bering shunga o'xshash rivoyat va hikoyatlarni to'plasin.

Minnat – illat.

Minnat g'oyat jirkanch illatdir. Agar biror kishiga yaxshilik qilib, hojatini chiqarsang, bu xayrli ishingni zinhor minnat qilma. Minnat barcha ezguliklaringni yo'qqa chiqaradi, savobini behuda yelga uchirib ketadi. Shu bois ham sen kinga yaxshilik qilsang beg'araz qil. Beg'araz yaxshilikning xosiyati ko'p, savobi bisyordir. Shugina emas, yaxshilik qilgan yordaming senga umrbod do'sti sodiq bo'lib qoladi. Inson uchun olamda bundan ko'ra savobli ish bo'lmasa kerak.

Ammo bilib qo'y, qilgan ezgu ish, yaxshilik minnat qilinsa, foydasidan zarari ko'p bo'ladi.

Hikoyat. Bir kishi ko'chada ketayotsa, to'satdan havoning avzoyi buzilib, kuchli jala quyib yuboribdi. Shunda u yonidagi do'konchi do'sti huzuriga kirib debdi:

- Ey og'ayni! Menga soyaboningni omonatga berib tur, uyimga yetib olay.

- Mayli, - debdi og'aynisi. Ola qol.

Do'sti soyabonni olib, uyiga yetib olibdi. Ertasiga esa omonatini egasiga qaytarib, unga minnatdorchilik bildiribdi.

Oradan ancha vaqt o'tgach, ular tasodifan uchrashib qolishibdi. Shunda soyabonni omonatga bergan do'sti:

- Ey do'stim, o'sha kuni agar soyabonimni berib turmasam, holing ne kechardi? - debdi.

Soyabonni omonatga olgan odam:

- Yomg'irda qolib, rosa bo'kardim, - deb javob beribdi.

Ammo shu arzimas yaxshilikni qilgan odam g'oyat badfel ekan. Oradan yana bir necha kun o'tgach, o'sha do'sti tag'in:

- Agar o'shanda soyabonimni berib turmaganimda, kuchli jalada holing ne kechardi? - debdi.

Bu minnatdan so'ng undan soyabon olgan kishi do'stidan soyabon olganiga ham pushaymon qilibdi. Ammo soyabon bergan do'sti shundan keyin ham tinchimabdi. Bir kuni ular bog'dagi hovuz bo'yida uchrashib qolibdi. Soyabon bergan kishi yana:

- Do'stim, o'shanda men senga soyabonimni berib turmaganimda holing ne kechardi?, - debdi.

Uchinchi bor minnat eshitgan odamning toqati toq bo'libdi. Do'stidan soyabon olganiga ming pushaymon bo'libdi. Azbaroyi uning minnatlari joniga tekkidan ust - boshini yechmay turib o'zini hovuzga otibdi. Keyin shalabbo bo'lgan kiyimidan suvini oqizib turib do'stiga debdi:

- Agar o'sha kuni sen soyaboningni berib turmasang mana shunday shalabbo bo'lardim. Lekin o'lib qolmasdim.

Shu kundan boshlab bu ikki o'rtoq oralaridagi do'stlik rishtalari uzilibdi [14. 151 - 152 b.].

Ushbu rivoyat orqali bolalar ongiga qilgan yaxshiligini minnat qilmaslik insoniy fazilat ekanligi singdiriladi. Bu haqda **Hadisi Sharifda** ham «Savob ish qilganingdan xursand bo'lsang, gunoh ish qilganingda esa xafa bo'lsang, demak sen haqiqiy mo'minsan», deyilgan. Buning mazmun - mohiyatini bolalar ongiga singdiring.

Ochko'zlik - ofat

Inson doimo do'stiga sadoqatli bo'lishi, xiyonat qilmasligi lozim. Ayniqsa o'rtalarida katta boylik turgan paytlarda nafs yo'liga kirib, do'stining ishonchini suiste'mol qilmasligi shart. Bilaks uni Alloh kechirmay, og'ir jazolarga muhtalo etadi. Bu holat bir kattakon xum to'la oltin topib olgan ikki do'stning qilmishlari haqidagi rivoyatda juda aniq bayon qilingan.

Rivoyat qilishlaricha, qadim zamonda bir qishloqda ikki do'st yashagan ekan. Ular shunchalik qadrdon, bir – birlariga mehribon ekanlarki, hatto bir mayiz topsalar ham eng ikkiga bo'lib yeyisharkan.

Ular bir kuni toqqa kaklik ovlagani borishibdi. Qoyama – qoya, cho'qqima – cho'qqi yurib kattakon g'oya yonidan chiqib qolishibdi. Bir kaklik esa uchib borib g'orga kirib ketibdi. Ikki do'st ham uning ketidan kirishibdi. Qarashsa kaklik bir chetda turgan toshlar ostiga yo'rg'alab ketibdi. Yigitlar asta – sekin toshlarni olib tashlab kakliklarni qidira boshlabdi. Ular o'n – o'n beshta yirik toshni olishgan ekan, bir katakon xum ko'rinibdi. Xumni olib qarashsa, ichi to'la oltin ekan!

Ikki do'st quvonganidan do'ppilarini osmonga otishibdi. Endi yaqin oradagi qishloqlarga bizdan boy, baxtli odam yo'q, deb shodlanganlaridan bir – birlarini quchoqlashibdi. Ammo xum shu qadar og'ir ekanki, uni ikkovlon zo'rg'a o'rmidan siljitishibdi. Sababi ov ishqida cho'qqima – cho'qqi, qoyama – qoya yuraverib charchashgan, boz ustiga qorinlari ham juda och ekan. Shunda do'stlardan biri:

- Og'ayni bu holatda xumni ko'tarib qishloqqacha olib ketishimiz amri mahol. Yaxshisi biror yemak topib, qorinni to'yg'azaylik. Keyin baquvvat bo'lib xumni ko'taramiz, - debdi.

Ikkinchi do'stga ham bu taklif ma'qul kelibdi. Ular maslahatlashib birlari g'orda qolib, oltinga soqchilik qiladigan, ikkinchilari qishloqqa borib biror yegulik olib keladigan bo'lishibdi.

Do'stlardan biri qishloqqa yegulik olgani ketarkan, bir xum «Sariq shayton»ning vasvasasiga uchibdi. Do'stlikka sadoqat, insoniylikdan nafs balosi kuchlilik qilibdi. «Agar, - deb o'ylabdi u. – do'stim bo'lmaganida bir xum oltinning hammasi bir o'zinniki bo'lardi. Yaxshisi olib keladigan ovqatga zahar solib kelaman. Do'stim yeydi – yu, til tortmay o'ladi. Oltin esa meniki bo'ladi!».

G'orda oltinni qo'riqlab o'tirgan anovi sherikning ham feli buzilibdi. «Sariq shayton» uni ham yo'ldan uribdi. «Do'stim ovqatni olib g'or og'ziga kelganida, - deb rejalashtiribdi u, - men yuqoridan kattakon toshni boshiga tashlayman. O'lsa, oltinning hammasi o'zimga qoladi!».

Oltin poyloqchisi o'z qabih rejasini amalga oshirish niyatida g'or tepasiga chiqib, bekiniib turibdi. Do'sti g'or og'ziga kelganida kattakon xarsangni uning tepasiga dumalatibdi. Tosh ostida qolgan do'sti shu zahotiyiq jon taslim qilibdi. «Ana, - debdi u xursand bo'lib, - hamma oltin bir o'zimga qoldi. Avval to'yib olay, keyin oltinni ko'tarib uyimga jo'nayman!».

Zahar solingan ovqatni yegan hamtovoq ham o'libdi. Bir xum oltin esa yana kimsasiz g'orda qolib ketibdi.

Ko'rdingizmi bolalarim! Omonatga xiyonat, ochko'zlik ikki qadrdon do'stni nobud qilibdi. Oltin esa har ikkoviga ham buyurmay, sabil qolibdi. Alqissa odam har qanday vaziyatda ham insoniylikni unutmasligi, hyech qachon do'stlikka xiyonat qilmasligi lozin. Haligi ikki hamtovoq bir xum oltin vasvasasiga uchib, do'stlik rishtasini uzmagalarida jonlari omon qolar, boy – badavlat, farovon hayot kechirishardi [14. 159 – 160 b.].

Bu orqali bolalar ongiga do'stga sadoqat singdiriladi. Shu yerda

DO'ST BILAN

*«Do'st bilan obod uying,
Gar bo'lsa ul vayrona ham.
Do'st qadam qo'ymas ekan,
Vayronadur koshona ham».*

deb boshlanadigan qo'shiqni bolalarga qo'yib bering. O'zingiz tushuntirib bering.

Keyingi bahsga shu qo'shiq haqida bahs yuritamiz, shunga tayyorlanib kelinglar deb uyiga vazifa bering.

MEHR

Ko'chada o'ynab yurgan bolakay mo'jazzina hovlida ish bilan band onasining oldiga qo'lida bir dona tuxum bilan chopib keladi.

Onasi: Qayerdan olding?

Bola: Ana u pichanning ustiga qo'shnimizning tovug'i tuxum qilibdi. Qarasam, hyech kim yo'q. Oldim.

Onasi: O'rtoqlaring ko'rmadimi?

Bola: Yo'q.

Onasi: Qo'ni – qo'shnilarchi? Hyech kim yo'q edimi?

Bola: Hyech kim yo'q edi.

Onasi: Yaxshi, hozir pishirib beraman.

Keyin bu odatiy holga aylanib qolibdi. Oxiri, tovuq tuxumdan qolgandan keyin, bola tovuqning o'zini tutib, onasiga keltiribdi.

Onasi: Hyech kim ko'rmadimi?

Bola: Hyech kim ko'rmadi.

Onasi: Yaxshi, hyech kim ko'rmagan bo'lsa, hozir sho'rva qilib beraman.

Shunday qilib, bola boshqa qing'ir ishlarga ham qo'l uradigan bo'libdi. Bora – bora qiynalmasdan, burovning haqqidan qo'rqmasdan, or qilmasdan yashashga o'rganibdi. Kunlardan bir kuni shoh saroyiga o'g'rilikka kiribdi. Bu gal omadi yurishmagan yigit qo'lga tushibdi. Shoh qo'lga tushgan o'g'rini shahar maydonida ko'pchilik oldida osishni buyuribdi. Farmon bajarilishidan oldin shoh yigitga oxirgi so'zga ruxsat bergan ekan.

Yigit: O'limim oldidan onamni bir ko'rsam.

Onasini olib kelibdilar. Onaizor yelib – yugurib, sochlari to'zg'igan, oyoqyalang holda hansirab farzandi oldiga ko'tarilibdi.

- Voy, ko'zimning oqu qorasi, umrimning mazmuni, hayotim quvonchi, nima savdolar tushdi boshimga, - debdi. – Sen o'lguncha, men o'lay, bolam!

O'g'lining oldiga yaqinlashganda, o'g'li:

- Onajon, o'limimdan oldin tilingizdan bir o'pay, - deb iltimos qilibdi.

Voy, men o'lay. Bu nima deganing? Mayli bolam, - deb, tilini chiqarib o'g'liga yaqinlashgan ekan, o'g'li onasining tilini tishlab, uzib olibdi – da, onasiga qarab:

- Onajon, meni bu dor tagiga olib kelgan mana shu tilingiz bo'ladi, - debdi. – Agar siz mening o'g'irliklarimga boshida, qo'y, bolam, bu birovning mulki, peshona teri, halol mehnati evaziga kelgan, birovning mulkiga xiyonat qilgan odamning kuniga maymun yig'laydi, deb tushuntirganingizda, o'zing mehnat qilgin, mehnat qilsang xor bo'lmaysan, sabr – qanoatli bo'l, xalq orasida obro' qozonasan, deb noto'g'ri yo'ldan qaytarib, tarbiyalaganingizda, bu yo'lga kirib hozir o'lim oldida turmagan bo'lar edi. Yig'ilgan xaloyiq gaplarimni eshitsin, ikkalamizning ham yo'l qo'ygan xatolarimizni ko'rsin, ulardan xulosa chiqarishsin, bizning boshimizga tushgan kulfat boshqalarning boshiga tushmasin.

Bu rivoyatdan ko'rinib turibdiki, agar onaning o'zi tarbiya ko'chasidan ozgina toyib ketsa, hosilasi afsus nadomatdan boshqa narsa bo'lmaydi [8. 68 – 70 b.].

Bu rivoyat ayniqsa ota – onalarga bola tarbiyasida mayda – chuyda narsa bo'lmasligi kerakligini uqtiradi.

Tarbiyaning inson kamolotidagi kuch – qudrati cheksiz shu sababli bola tarbiyasini ona qomidayoq boshlash kerak. Chunki tarbiya tufayligina shaxs kamoloti uzluksizligini muvaffaqiyatli ta'minlash mumkin.

Ushbu yo'nalish bo'yicha nafaqat rivoyatlar, balki turli xil didaktik materiallardan ham foydalanish mumkin. Quyida ularning ba'zilari to'g'risida to'xtalamiz.

TO'RTLIKLAR

Sotqinga o'lim.

Vatanni sev, o'g'lim, ming jondan ziyod,
El – yurtga sadoqat go'zaldir, so'lim!
Xiyonat bu g'amdir, kulfatdir, faryod,
Sotqinning jazosi hamisha o'lim.

Kalonxonova M., Kalonxonova M.

* * *

Qarg'ishu so'kinishdan asran!

Qarg'ish aylaganni qarg'ar bu dunyo,
So'kkan odamlarni so'kadi, bilgil.
Og'zingdan tushmasin shirin so'z, duo,
Hamisha har kinga xush niyat qilgin.

Kalonxonova M., Kalonxonova M)

* * *

Qasd qilgan past bo'lur.

Qasd qilmoq – gunoh, bil,
Avf etmoq – savob.
Kechirgan kas fozil,
Qasd qilgan xarob.

Kalonxonova M., Kalonxonova M.

* * *

Yolg'onchilik – illat.

Har kishi obro'ni eldan zo'rg'a misqollab yig'ar,
Ketmasin obro'si kasning ketsa ham joni agar.

* * *

Bitta tuhmat birla hurmat ko'kka uchdi misli par,
Berahm, jallodu qotil – behayo yolg'onchilar.

Marhabo Karimova

HIKMATLI SO'ZLAR:

«Yolg'on kishining obro'sini to'kadi, hazil – mazax ham kishini shunga o'xshash bezzat qiladi».

Yusuf Xos Hojib

* * *

«Qilgan yaxshiligini minnat qiluvchi va kishilarga la'nat aytib yuruvchi va og'zi beposhna hamda uyatsiz odamlar **mo'min emasdur**».
(«*Hadis*»dan)

* * *

«Har bir ozor beruvchi **otashi do'zaxda** bo'ladi».
(«*Hadis*»dan)

* * *

«Burovga hadya berib keyin qaytarib olgan odam to'yguncha yeb, keyin qusib, qusganini qaytadan yalagan itga o'xshaydi».
(«*Hadis*»dan)

* * *

«Yolg'on so'zlash, ezmalik, takabburlik, chaqimchilik kishining obro'sini yo'qotadi. Vafodorlik, shoshma – shosharlikdan parhyez etish va tavoze' obro'ni ko'taradi».

Shayx Junayd

* * *

«Johillikdan balo paydo bo'lg'usidir».
(«*Qomusnoma*»dan)

* * *

«Ayanchli taqdir osmondan tushmaydi, u har bir kimsaning axmoqligidan kelib chiqadi».

Aziz Isroilov

* * *

«Ko'pdan ko'p baxtsizliklarning ildizi shundaki, yoshlikdanoq bola o'z xohishlarini tizginlashga, bu ishni qilish mumkin, bunisini albatta qilish kerak, buni qilish esa mumkin emas, degan tushunchalarga to'g'ri yondashishga o'rgatilmaydi».

V.A.Suxomlinskiy

* * *

«Nodonlikdan yomonlik keladi faqat,
Nodonga yondoshma bosmasin g'aflat».

Abulqosim Firdavsiy

* * *

«Tarbiyada haddan tashqari ezgulik, nasihatgo'ylikka moyillikdan saqlaning».

(«*Donolar nasihati*»)

«Bolalar tarbiyasida mayda – chuyda, ikkinchi darajali narsa bo'lmashligini yodda tuting».

(«Donolar nasihati»)

3.5.4. «Ma'naviyat saboqlari» mashg'ulotlarida insoniylik fazilatlarini shakillantirishga oid didaktik ma'lumotlar

«Bolalarni tarbiyalashda donishmandlar hikmatlaridan foydalaning! Zero, bolalarni buyuk allomalar fikriga ergashira olish o'ta savobli ishdir».

Xolbo'ta To'raqlov

MTM da bolalar tarbiyasida donolar o'g'itlaridan foydalanish ijobiy samaralarni qo'lga kiritishga didaktik asos bo'la oladi. Ushbu didaktik asoslar tarbiyachi yoki murabbiylarning donolar o'g'itlari bo'yicha qanday ma'lumotliliklariga egaligiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Ularning mazkur yo'nalishdagi ma'lumotliliigi esa MTM pedagogik xodimlarining

intellektual salohiyatidagi sifat ko'rsatkichi bo'lib, o'zida shaxsning rivojlanish darajasi, uning tajribasi, ko'nikma va malakalarini mujassam qiladi hamda mavjud hikmatlardan foydalanish, ular yordamida yangi bilimlarni egallab, rivojlantirib borish qobiliyatlarini e'tiborga olish mahsulidir. Bu sifat ko'rsatkich tarbiyachi va murabbiylarning bola tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotimizning ushbu qismida «Ma'naviyat saboqlari» mashg'ulotlarida donolar o'g'itlaridan foydalanishga oid bo'lgan didaktik ma'lumotlarni keltiramiz. Bu sohaga tegishli ma'lumotlar juda ko'pligini e'tiborga olib insoniy fazilatlardan ayrimlarini oldik.

BAXTLILIK

«Bolalar hayotda o'sib ulg'ayar ekanlar, ularning tole'lari ikki narsadan ayri bo'lmaydi yo baxt – saodatli bo'ladi yoki gumrohlik yo'lga kirib, baxtsiz bo'lib qoladi.

Bolalar qanday qilib baxtli bo'lishlari mumkin?

Agar bola ota-onasining gapiga quloq solsa, ularning aytgan yo'lidan chiqmasa, bergan maslahatlarini jon deb qabul qilsa, ularga shunchaki quloq solib qo'ya qolmay, butun kuchi bilan amal qilishga urinsa va doimo yodida tutsa, bunday bola katta bo'lganda **albatta baxtli bo'ladi.**

Bola qanday qilib baxtsiz bo'lib qoladi?

Agar bola o'z ota – onasining beg'araz chin ko'ngildan mehribonlik qilib aytgan so'zlariga quloq solmasa, bergan maslahatlariga e'tiborsiz bo'lsa, boshqalarning pandu nasihatlarini tinglamasa, bora – bora yo'ldan adashadi, oqibat natijasida **baxtsiz bo'lib qoladi**. Baxtsiz bolalar katta bo'lganidan keyin o'z baxtsizliklariga o'zlarini aybdor, deb hisoblamay, ota - onalariga tuhmat toshlarini otishadi, baxtsizliklarini sababchisi qilib ularni ko'rsatishadi.

Bolalar! Siz xayotda ko'rib turganingizdek, ilmi va ma'rifatli kishilar hamisha izzat va ikromda, bil' aks, puli ko'p, manman degan badavlat kishilar esa obro' jihatidan ularning oldida pastdir. Bundan ko'rinib turibdiki, ilm kishini el oldida azizu mukarram qilar ekan».

(Mustafo Homiyposhsho)

* * *

«Bolaga ota - onaning foydali maslahat berishi yaxshi. Lekin ularning o'z hayotiy tajribalaridan namunalar ko'rsatishi undan ham yaxshi»

R. Usmonov

* * *

«Go'dakligidan boshlab farzandingizda o'zi uchun xizmat qilish ko'nikmalarini shakllantiring».

(«Donolar nasihati»dan)

* * *

«Baxtli oila – bu el e'zozida, xalq e'tiborida yashaydigan hamda insonlar orasida, jamoada, jamiyat a'zolari orasida ibrat – namuna bo'la oladigan osoyishta va xotirjam oiladir».

Xolbo'ta To'raqulov

* * *

«Jamiyat degan imkoniyatlar maydoni bor. Jamiyatda esa oila degan muqaddas qo'rg'on bor.

Oilada esa farzand degan buyuk ne'mat bor.

Ana shular asosida davlatimiz siyosatida barkamol avlod tarbiyasi bor.

Barkamol avlodni tarbiyalashda faol ishtirok etish – bu ham **buyuk baxtdir**».

Xolbo'ta To'raqulov

* * *

«Dunyodagi barcha ne`matlardan faqat yaxshi nom qoladi, hatto, shuni ham qoldira olmagan odam **baxtsizdir**».

Sa'diy

* * *

«Vaqting ketdi, baxting ketdi».

(Xalq maqoli)

AQLLILIK

«**Hikmat**: Buzrug mehrdan so`radilar: «odam uchun eng bebaho narsa nima?»»

Aytdi: «Aql!»

Yana so`radilar: «U bo`lmasachi?»

Aytdi: «Odob va axloq».

So`radilar: «U ham bo`lmasa-chi?».

Aytdi: «Ko`rkam xulq».

So`radilar: «U ham bo`lmasa-chi?».

Aytdi: «Boylik, chunki boylik bilan yaxshilik qilib, har turli toifalar ichida tinch yashash mumkin».

Yana so`radilar: «U ham bo`lmasa-chi?».

Aytdi: «Jimlikni odat etish, chunki jim turish bilan odamning ayblari ochilmaydi va o`z galar ta`nasini va malomatini eshitmaydi».

So`radilar: «U ham bo`lmasa-chi?»

Aytdi: «Chaqmoq va yashin yaxshi, chunki yuqoridagi shuncha xislatlardan birortasi bo`lmagan odamning chaqmoq va yashin o`ti ostida o`lgani ma`qul!».

Abdulbarokat Qodiriy

* * *

«Aqlning dalili - fikrdir».

Xolbo'ta To'raqulov

* * *

«Aql – hammaga kerak. Ammo u hammaga ham nasib etavermaydi. Shu sababli ham kishilar turli aqliy kamolot bosqichlari asosida tavsiflanadi. Ular ongli odam, aqlli odam, dono odam va shu kabilar bo`lib, u ichidan dono bo`lish maroqlidir».

Xolbo'ta To'raqulov

* * *

«Aql –inson kamolotini harakatlantiruvchi kuchi bo`lib, u yordamida odam xayotida o`z o`rni va nufuziga ega bo`ladi».

Xolbo'ta To'raqulov

* * *

«Aqlli bo'lish yaxshi, dono bo'lish undan ham yaxshi».

Xolbo'ta To'raqulov

* * *

«Aqlning eng muhim sifatlari, fikrning teranligi, uyg'unligi, kengligi, tezligi, erkinligi, mustaqilligi va shu kabilar».

Xolbo'ta To'raqulov

* * *

«Hammaga kerak insoniy jixat – bu aql»

Xolbo'ta To'raqulov

* * *

«Kimdagi aqldan biror satr bor, umrin bir lahzasin o'tkazmas bekor».

Umar Xayyom

* * *

«Kimning ishi bo'lsa aqlga payvand, Taqdir yulduzidan nolimas harchand».

Abulqosim Firdavsiy

* * *

«Aqlli deb shunday kishiga aytamizki, unda o'tkir zehn –idrok bo'lishi bilan birga, fazilati ham bo'lsin. Bunday kishi o'zining butun qobiliyati va idrokiga yaxshi ishlarni amalga oshirishga, yomon ishlardan o'zini saqlashga va tortishga qaratgan bo'lmog'i lozim. Shunday odamnigina aqlli va to'g'ri fikr yurituvchi deb atash mumkin».

Abu Nasr Forobiy

* * *

«Aql –Hasandir, odob –Husandir»

(«Xalq maqoli»)

* * *

«Aql –yoshdan, odob boshdan»

(«Xalq maqoli»)

* * *

«Aql – aqldan quvvat oladi»

Jaloliddin Rumi

MULOYIMLIK

Hikoyat: «Sulaymon Barroq shunday hikoya qilibdi.»

Kunlardan bir kun xalifa Ma'mun oldida o'tirgan edim. U zargarni chaqirtirdi va unga kattagina yoqutni berib undan uzuk tayyorlashni

buyurdi. Ertasiga xuddi shu paytda uning oldida o'tirgan vaqtimda uzuk esiga tushib zargarni yo'qlatdi. Eshikdan kirib kelgan zargar terak yaprog'i kabi titrab edi. Ma'mun undan nima voqeya bo'lganini so'radi. Zargar qaltirab dedi:

•Uzukni tayyorlab, endi unga ko'zni o'rnatayotgan edim, qo'limdan tushib sandonga tegdi va to'rtga bo'linib ketdi!

Kattaligi va noyobligi jihatdan kamdan kam hukumdorda bo'ladigan shunday yoqutning singani Ma'munni qayg'uga solmadi va zargarga qarab:

•Mayli, xafa bo'lma, borib undan to'rtta uzuk yasa!-dedi.

Ma'mundan sodir bo'lgan bunday muomala chidam va **muloyimlikning** yuksak darajasi edi. **Bayt:**

Yumshoqlikdir kamolotning moyasi
Izzat bilan ulug'likning soyasi
Hijolatli ko'zlargadir to'tiyo
Singan yurak oynasiga mo'miyo!

Abdulbarakat Qodiriy

* * *

Hikoyat: «Anushervon Buzrukmehirdan: **Muloyimlik** nima? «- deb so'radi.

U dedi: «Muloyimlik axloq dasturxonining tuzi. Xilm, ya'ni muloyimlik so'zini teskari o'qisang tuz bo'ladi. Xar bir ovqat tuzsiz ta'mga ega bo'lmaydi. Hyech bir hulq ham, ya'ni muloyimliksiz kamol topolmaydi!».

Anushervon yana undan: «Muloyimlikning belgilari qanday bo'ladi?»- deb so'radi. «Uning uch alomati bo'ladi-deb javob berdi Buzrukmehir, - **birinchi** –birov senga qovog'ini solsa yoki achiq so'zlarni aytsa ham, unga nisbatan shirin so'z aytasan, agar u o'z fe'li bilan xafa qilsa, uni xursand qilishga urinasan. **Ikkinchi** - g'azab o't olib, osmonga o'ralgan paytda ham, sukut qilib, homush bo'lib turasan. **Uchinchi** – biror kimsa kirdikori bilan g'azabga loyiq bo'lsa ham g'azabni ichga yutib o'zingni bosasan! **Bayt:**

Yomonlikga yaxshilik qilmoq,
Oqillarning nazdida xushroq.
Bu ma'niga har kimki yetdi,
Yomonlikga yaxshilik yetdi».

Abdulbarokat Qodiriy

* * *

«Insoniyligi bo'lmaganing muloyimligi ham bo'lmaydi».

(«*Otalar so'zi*»)

* * *

«Yaxshi gapdan ilon inidan chiqar,
Yomon gap albatta, yurakni siqar.
Aytдим qo'ydim-da deb bad so'zni dema,
Yomon so'z shohni ham taxtidan yiqar!»

Kalonxonov M, Kalonxonova M.

* * *

«Suhbat uchun topsang dono kishini,
Yomonlarni yaqin yo'latma zinhor,
Dilga yoqqan faqr dono suhbatini,
Nodon boydan ko'ra yaxshiroq ming bor!»

Majiddin Xavofiy

* * *

«Dilga orom berar yaxshi suhbatdosh,
Purma'no so'zlari bag'ishlar huzur.
Oqilu dono kas bo'lsa gar yo'ldosh,
Qalbinga so'zidan yog'iladi nur».

Kalonxonov M, Kalonxonova M.

* * *

«Ha, muloyim muomalada gap ko'p. Muloyim muomala ya'ni, muloyimlik ish bitirishda asosiy omillardan biri. Qo'pollik yoki bировga ishi tushganda to'g'ridan – to'g'ri, ya'ni, dab –durustdan murojaat qilish ba'zan ish bitishiga halaqit beradi.

Demak, har gapni bilib gapirgan yaxshi, chunki o'ylab qilingan ish samaraliroq bo'lib yakunlanadi».

Xolbo'ta To'raqulov

SABR-QANOATLILIK

Hikmat: «Sabr – bu barcha mehnat va og'irlikni yengish va chidamdir. Bechora va nochor bo'lsa-da, o'zini badavlat kishidek tutish, ko'ringan kimsaga ahvoli haqida shikoyat qilavermaslik, g'amli ayyomda ham o'zini handon va ochiq yuzli qilib ko'rsatishdir».

Muhammad Jabalrudiy

* * *

Hikmat: «Dono kishilar: «Qanoat so'nmas boylikdir, qanoatli kishi hyech qachon kambag'al bo'lmaydi, chunki uning hyech kimga ishi tushmaydi.

Qanoatsiz kishi esa, gadoyga o'xshaydi, uning hamma narsasi bo'lsa ham ko'zi to'yamaydi, ko'proq topishga intiladi, narsa uchun odamlar oldida bosh egadi», -deydilar».

Maxzam al-Ulum

* * *

«Har bir bola daho bo'lib tug'ilmaydi va hyech bola axmoq bo'lib ham tug'ilmaydi. Hammasi bola hayotining hal qiluvchi yo'llarida bosh miyaning rivojlanish darajasi va stimulyatsiga bog'liq bo'ladi. Bu tug'ilgandan uch yoshgacha bo'lgan yillarga to'g'ri keladi. **Bolalar bog'chasida** tarbiyalashni boshlash esa ancha kech bo'ladi».

Masaru Ibuka

* * *

«Haqiqiy tarbiya qoidalarida emas, mashqlardadir.»

J.J. Russo

* * *

«Sabr qilgan moy oshar,
Olqish olgan ko'p yashar.»

(«Xalq maqoli»)

* * *

«Sabr qilsang boy bo'larsan»

(«Xalq maqoli»)

* * *

«Sabr achchiq, mevasi - chuchuk. «

(«Xalq maqoli»)

* * *

«Oziga shukur qilsang, ko'pi kelur»

(«Xalq maqoli»)

* * *

«Oz narsaga qanoat qilgan odam davlatmanddir, negaki bunday qanoat uning ma'naviy boyligidan dalolat beradi.»

Suqrot

* * *

«Jahilning otiga minmas yaxshi kas,
Gar minsa u jarga uloqtiradi.

Faqat kaltabinlar, nodonlar, abas,
Jahlning so'ziga bilmay kiradi.»

Kalonxonov M., Kalonxonva M.

* * *

Hayotiy saboqlar shuni ko'rsatadiki, har qanday inson Alloh tomonidan berilganiga qanoat qilib, ko'rsatganiga shukur qilib yashashni bilgani yaxshi. Chunki shunday naql bor:

Yetishmasa bozorga bor,

Toshib ketsa mozorga bor.

Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, yetishmasa bozorga bor deyishdan maqsad: Inson qanoat hosil qilish. Chunki, har qanday odam bozorga kirishi bilan gadoy yoki tilanchilarni ko'rishi mumkin. Shunda u mendan ham nochor odamlar bor ekan-ku, degan «Qanoat» bilan uyiga qaytadi.

Toshib ketsa mozorga bor deyishidan maqsad: insonga shukronalikni singdirishdir. Chunki inson mozorga borgandan keyin, shohning ham, gadoning ham boradigan joyi shu ekanligini angelaydi ya'ni, hamma uchun bab— baravar joy bu qabristondir. Natijada qabristonga borgan kishi o'zini bosib, insonning qadriga yetish lozimligi haqidagi tasavvurga ega bo'lsa ajab emas. Inson dunyo abadiyligi va hayot o'tkinchiligini anglagan holda turmush kechirsa boriga qanoat qilib, berganiga shukronalik bilan yashasa hayotda adashmaydi. Yashagan hayotida afsus va nadomatlar bo'lmaydi. Odamlarga yaxshilik qilishni yaxshi ko'radi. Hyech bo'lmaganda birovga yomonlik qilmasdlik haqidagi tushunchaga ega bo'ladi. Shukronalik hissi bilan bezangan insonning hayot mazmuni ham ibratli bo'ladi».

Xolbo'ta To'raqulov

E Z G U L I K

Hikoyat: «Bir kishi ulug' kishi huzuriga kelib, undan: «Ey fozil kishi, odam dunyoda qanday yashashi, qanday yo'l tutishi kerak?» - deb so'radi. U kishi shunday deb javob qildi: Shod yasha, hamisha xursandchilik payida bo'l. har narsaga g'am chekaverma, **yaxshilik urug'ini ekib, omonlik, hosilini olishga urun.** Dunyo shundayki, unda hayratli yo'llar ko'pdir. ba'zan bu yo'llar ustiga bargu hashak tashlab qo'yilgan cho'hga o'xshaydi. Shuning uchun bu yo'ldan yurgan paytda avval yaxshilab o'ylash, toyib ketmaslik chorasini ko'rish kerak. **Dunyo shunday ekinzorki, ekilgan narsalarni lutfu karam suvi bilan sug'or.** Undan topgan obro' e'tibor holislik hirs va tama hujimidan asra!». [15. 373 b.]

* * *

«Avesto-ezgulik kitobi, hayot yo'riqnomasi»

(«Otalar so'zi»)

* * *

«Ezgulik – butun insoniyatga taalluqli bo'lgan olamshumul fazilatlardan biri hisoblanadi.»

Shoobidov Sh.A.

* * *

«Bolalikni seving uning o'yin va ermaklariga, murg'akkina tabiiy tuyg'ularida e'tibor bering! Labidan kulgu arimaydigan, qalb shu olamdan to'xtovsiz huzurlanadigan o'sha daqiqalarni qay biringiz, axir, achinish bilan eslamaysiz?».

J. J. Russo

* * *

«Ezgulik - bu ulug'lik. U turmushda, mehnatda va odamlarning o'zaro shaxs – jamiyat - davlat o'rtasidagi ko'p qirrali munosabatida yaqqol namoyon bo'ladi.»

Shoobidov Sh.A.

* * *

«Ezgulik insonlarni gunohlardan, xatolardan asrab, insonlar o'rtasidagi o'zaro odamiylik munosabatlarini tarkib toptirishiga yordam beradi.»

Xolbo'ta To'raqulov

* * *

«Ezgulik barkamol shaxsning shakllanishiga, davlat va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi.»

Shobidov Sh.A.

* * *

«Ezgulik insonlarni qat'iyatlikka, poklikka, halollikka undaydi, oq ko'ngillikka, lafzihalollikka chorlaydi hamda u til va dil birligi va pokligiga xizmat qiladi.»

Xolbo'ta To'raqulov

* * *

«Ezgulik – bu ota – onalarning o'z farzandlarini nafaqat o'z farzandi bo'lishi uchun, balki xalq farzandi bo'lib yetishishi uchun tarbiyalashidir.»

Xolbo'ta To'raqulov

* * *

«Ezgulik nisbatan har bir davrning, har bir zamonning o'z talabi bo'lgan.

Ezgulik – bu odamiylik gavhari, u kishini inson sifatida ulug'laydi. Shuning uchun ham ezgulik tuyg'usini singdirmay turib, to'laqonli barkamol insonni voyaga yetkazish mumkin emas».

Shoobidov Sh.A.

«Ezgulik gavhari bilan ziynatlangan insonlar o'z davrining eng ilg'or, eng adolatli va eng haqiqatgo'y insonlari bo'lganlar».

Xolbo'ta To'raqulov

* * *

«Ezgulikka ixlos qo'ygan insonlar marhamatli bo'ladi, farovon turmush qurishga ishtiyoqmand bo'ladi, ular haqiqat va ozodlik hamda mustaqillikni tanlaydilar – da, ular uchun fidoiylik ko'rsatadilar va eng asosiyi ular bunyodkor bo'ladilar. Bunday turmush tarzi har qanday inson uchun umrboqiylikdir.»

Xolbo'ta To'raqulov

* * *

«Ezgulik-yorug'likdir.»

(«Otalar so'z»)

* * *

«Pahlavonlar - ezgulik timsollaridir.»

Xolbo'ta To'raqulov

* * *

«Hamma uchun kerakli bezak - insoniylik bezagi – bu ezgulikdir.»

Xolbo'ta To'raqulov

* * *

«Orzu – havas insonni ezgulikka yetaklovchi ichki tuyg'u. U hyech qachon armonga aylanmasin. Chunki agar orzu - havas amalga oshmasa armonga aylanadi, ammo orzu – havas ishonchga aylansa, u albatta amalga oshadi».

Xolbo'ta To'raqulov

* * *

Ezgu-niyatli insonlar

Inson degan oliy mavjudod bor, uning ikki yelkasi orasida bosh (kalla) degan a'zo joylashgan. Ana shu kallaning va undagi bosh miyaning ishlashi insonning insoniyligini belgilaydi.

Umuman olganda, ishlamaydigan kalla bo'lmaydi, ammo uning qanday ishlashi o'sha insonning oilasi, jamoasi oldida o'z o'rmini

topishga asosiy poydevor bo'ladi. Afsuski, ba'zi kallalar buzg'unchilikka va shaxsiy manfaatlarini yuqori qo'yishga kuchliroq ishlaydi. Ulardan jamiyat zarar ko'radi, chunki bular orqali kelgusi avlodga faqat layoqatli manqurtlik va «robot» bo'lishlik meros bo'lib qoladi.

Bir arab olimlaridan biri «**Qalb ko'r bo'lgandan keyin uning ko'zi ko'rishning nima foydasi bor**», degan fikrning amaldagi tasdig'idan iboratdir. Bu bilan olamda hech narsa qilib bo'lmaydi, degan hulosa chiqmaydi. Bunga sabab bu olamda yaxshi odamlar va ular ichida aqlli hamda dono insonlar ham ko'p.

Ularning kallasi (u hamma insonlarga berilgan) yaxshi tomonga ya'ni bunyodkorlik faoliyatiga yaxshiroq ishlaydi. Ular unuminsoniyat, unumjamoa manfaatlarini o'z shaxsiy manfaatlaridan ustun qo'ya oladi. Bular boy o'tmishimizdan bizga meros bo'lib qolgan «Avesto» nomli muqaddas kitobning mazmun mohiyatini ifodalovchi «Ezgu uy Ezgu niyat Ezgu amal» yoki «Ezgu uy Ezgu so'z Ezgu amal» tamoyili asosida fikr yurituvchi insonlardir. Bunday odamlar, avvalo o'z oilasida ibrat - namuna bo'la oladi va qolaversa, jamiyat manfaatini ham yuqori qo'ya oladi. Ana shunday odamlar borligi uchun ham **kelajagi buyuk davlatni qurishni Ozod va obod Vatan qurishni ezgu niyat qilib olganmiz!**

Xolbo'ta To'raqulov

* * *

«Faqat bir ezgulik bor- bu bilim: va faqat bir yomonlik bor – jaholat».

Suqrot

* * *

G O ' Z A L L I K

«Inson onadan tug'ilibdiki, unga hayot kechirishdyek buyuk ne'mat ato etilgan bo'ladi. Aslida chaqaloqqa ona qornidayoq hayot va rizq – ro'z ato etiladi. U aksariyat hollarda ona bag'rida 9-oy mobaynida chaqaloq bo'lib shakllanadi va yetiladi. Shu sababli ham tuproq va vatan ona tuproq Ona Vatan deb qiyoslanadi. Bunga sabab odamlar ana shu tuproq yoki Vatan bag'rida o'sadi.»

Odamlar esa Odam Ato va Momo Havodan tarqalganligi sabab Odamzot (Odam Atoning farzandlari) deyiladi.

Hayotning go'zalligi ham dastlab shu qayd etilganlarga bog'liq bo'ladi. Shundan keyin esa hayot go'zalligi insonning biror dovonni oshib o'tganda yaqqol seziladi. Bunga sabab o'sha erishilgan natijaga,

kishiga ko'zlangan maqsadga yetishdagi yengil yoki og'ir, kerakli yoki keraksiz, bevosita yoki bilvosita holatlar ko'z oldidan birma bir o'tkazilishiga asos bo'ladi, ya'ni ma'lum bir davrning sarhisobi bo'ladi. Ana shunday sarhisoblarni o'tkazishda ijobiy holatlar yuz berib boraversa, o'sha inson hayotini go'zal deb atash mumkin.

Inson hayotining go'zalligi uni yanada katta (kuchli) g'ayrat bilan faoliyat yuritishga asos bo'ladi. Ana shunday go'zal hayot egalarning borligi tufayli ham mamlakatimizda muntazam ravishda taraqqiyot bo'lib tiribdi». [To'raqulov X.A. *Inson kamolotining ma'naviyat asoslari* - T: 2011 - 352 b. (B 43 - 44)].

«Alloh taoloning o'zi go'zaldir u go'zallikni sevadi.»

(«Hadis»)

«Go'zallik - bu kishining qalbi go'zalligi.»

Xolbo'ta To'raqulov

«Go'zallik - bu kishining istarasi issiqligi «

Xolbo'ta To'raqulov

«Go'zallik - bu kishining go'zal xulq egasi bo'lishi»

Xolbo'ta To'raqulov

«Go'zallik - bu bamisoli daraxt yaprog'i - axloq ildizi - ichki dunyo, mevasi - yaxshi fazilat.

Xullas, odam bolasidagi go'zallik- tabiat ato qilgan husn - jamolidan tashqari, yana eng yaxshi hulq - atvorni, insondagi eng yaxshi fazilatlarni o'z ichiga olgan odamiylikdan ibrat.»

Mirzakalon Ismoiliy

«Ey farzand, pandim eshit, quloq os,
Insonga ko'rk erur bejirim libos.
Beg'ubor qalbingni pok-u go'zal et,
Didinga ust boshing doim mos».

Kalonxonov M., Kalonxonva M.

«Hamma uchun eng go'zal ayol - bu uning onasi.

Hamma uchun eng go'zal shahar - bu uning ona shahri»

Xolbo'ta To'raqulov

* * *

«Ota - ona o'z bolasiga go'zal odobdan afzal narsa bera olmaydi.»

(«Hadis»)

* * *

«Odobli bo'lanman degan kishi har narsaga izzat ko'zi ila boqib, izzat olur. Qaysi ish ko'ziga yaxshi ko'rinsa, ul ishni qilmoqqa harakat qilur»

Munavvar Qori Abdurashidxonov

* * *

«Bolalar go'zallik, o'yin, ertak, musiqa, hayol, ijodiyot olamida yashamoqlari kerak».

V.A.Suhomlinskiy

* * *

«Sarishta xonadon farishtalidir,
Ey o'g'lim, uy - joying bo'lsin sarishta.
Sarishta xonadon bo'lmaydi kir - chir,
Tong emas, o'z yoring bo'lsa farishta».

Kalonxonov M., Kalonxonova M.

MA'NAVIY BOLIK

«Boylik nima?»

Boylik - ko'p jihatli tushuncha bo'lib ular moddiy va ma'naviy boyliklar majmuasidan iboratdir.

Inson uchun eng qimmatlisi (hamma jihatlarni o'z ichiga olgan) boylik bo'lsa kerak.

Umuman olganda, har qanday insonga hayoti davomida Alloh taollo boylikni 3 marta beradi,- deyishadi. Ana shu tangrimiz bergan boylikning qanday sarflanishiga qarab insonlar hayotda o'z (jamiyatda, jamoasiga, og'ayni qarindoshlari orasida, oila a'zolari orasida ham) o'mini topadi. Ayrim kishilarimiz Alloh Taolo bergan imkoniyatlardan vaqtida yetarlicha foydalana olmay, kibrga berilib, «bosar - tusarini» bilmay berilgan boyliklarni samarasiz ishlarga sarflab, o'zini ham, oilasini ham «charchatib» qo'yadi va natijada oilalar buzulib ketishga ham yetib boradi. Bunday holat insoning xayotida o'ziga xos fojia hamdir.

Alloh Taolo insonlarning to'g'ri yo'lga boshlovchidir. Insonlar uning berganini oilasining va jamoasining (ishxonasining) istiqbolli kelajagiga nasib qilishini istab xayot kechirsinlar.

Bu borada xayotda o'z o'rinini topgan va insonlarga foydasi tegib yashaydigan odamlarga xavas qilib yashash judayam yaxshi va u orqali ular elning e'zozidan hamda xalqning hurmatidan tushmasdan yashaydi. Bu xayotda katta baxt va boylikdir» [21. 117-119 b.]

* * *

«Tinchlikdan ko'ra ulkan ne'mat yo'q. Salomatlikdan ko'ra yaxshiroq boylik yo'q»

(«*Otalar so'zi*»)

* * *

«Farzandlaringizga turli kasb egalarining odamlar uchun qilayotgan foydali mehnatlari haqida so'zlab bering»

(«*Donolar nasihati*»)

* * *

«Donolar deyishadi: «Mol-u dunyosi ko'p odam badavlat emas, balki nafi to'q odam badavlat hisoblanadi»

(«*Donolar nasihati*»)

* * *

«Mol-mulkni behuda isrof qilish **aqlsizlik**, boylikni o'ylamasdan sarflash **tanazullik** alomatidir»

(«*Otalar so'zi*»)

* * *

«Oz narsaga qanoatga qilgan odam davlatmanddir, negaki bunday qanoat uning ma'naviy boyligidan dalolat beradi»

Suqrot

* * *

«Ma'naviy qashshoq odamning xohlagan tarafga boshqarsa bo'ladi, chunki unga istalgan sarobni ko'rsatib uni obi hayot deb ishontirsa bo'ladi»

Xolbo'ta To'raqulov

* * *

«Boylik to'g'risida juda qadimdan kishilar u yoki bu ma'nodagi fikrlarini bildirib kelganlar.

Men uchun eng katta bitmas-tuganmas boylik **bu sog'liqdir**. Har kuni o'z oilamni sog'-salomat ko'rish menga dunyoning barcha boyligidan, duru-gavharlaridan, ko'zni qamashtiruvchi olmoslaridan ming bora ortiq tuyuladi. Bu esa mening yutug'im, ma'naviy boyligim bo'lsa kerak, deb o'ylanib qolaman. Umuman olganda boylik deganda turli qarashlar mavjud. Ular:

• **boylik** – bu kishining mablag'i ko'pligi;

- **boylik** – bu kishining hashamatli va bahaybat binoli uyi borligi;
- **boylik** – bu kishining turli rusumdagi texnikalari (mashinalari va hokazo) ko'pligi;
- **boylik** – bu kishining turli nufuzli joylarda ishlaydigan jo'ralarining ko'pligi;
- **boylik** – bu kishining sog'u-salomatligi;
- **boylik** – bu kishining oilasidagi osoyishtalik va ishxonasidagi xotirjamlik;
- **boylik** – bu kishining ma'naviy dunyoqarashi kengligi;
- **boylik** – bu kishining intellektual salohiyatining kengligi;
- **boylik** – bu kishining o'ziga jonli haykal o'rnatishi kabilardan iboratdir.

Ammo ma'naviy qashshoqlik yomon illatdir. Bunday xususiyatga ega bo'lgan odamlardan oila ham, jamoa ham, jamiyat ham, davlat ham hech qanday manfaat topmaydi.

«Taniqli xalqaro siyosat arbobi, OYeSD o'quv yurtlarini tahlil qilish va indekatorlar departamenti boshlig'i Anderyans Shlayxor Xelsinki Universitetidagi uchrashuv tantanasini ochar ekan: «**Pul o'z holicha ko'p narsani anglatadi, biroq hamma narsani hal qiladi degani emas**» – deb ta'kidlaydi.

Bu haqda Ali ibn Abu Tolibning ham «**Ilm moldan yaxshidur, u seni muhofaza qiladi, molni esa sen qo'riqlaysan. Ilm hokim, mol mahkumdir. Mol nafaqa qilish bilan kamaysa, ilm ziyoda bo'ladi**», degan qimmatli fikr mavjud.

Luqmoni Hakim aytadi: «**Ilm va boylik har qanday aybni yashiradi. Johillik bilan faqirlik esa oshkor etadi.**»

Pulning ko'p bo'lishi, afsuski, ko'pchilik nazarida eng katta boylik hisoblanadi. Ammo shuni unutmaslik kerakki, pul bilan hamma narsani ham har doim ham hal qilib bo'lmaydi. Ya'ni pul bilan hal bo'lmaydigan narsalar ham ko'p. Bunda ko'pincha bilim va hunar kerak bo'lishi mumkin. Umuman olganda, kishining ma'naviy jihatdan boy bo'lib, intellektual salohiyatli bo'lgani ma'qul. Chunki bunday kishilar iqtisodiy jihatdan boyish nima ekanligini ham biladi. Shu sababli ma'naviy dunyosining boyitib borayotgan odamlar doimo yutadi. Chunki bunday odamlarning yo'qotadigan narsasi bo'lmaydi.

Qissadan hissa shundan iboratki, ilmni va hunarni ma'naviy boylik deganlar yutqazmaydilar.

Bu haqda «Qobusnoma»da shunday deyiladi: «**Agar molsizlikdan qashshoq bo'lsang, aqldan boy bo'lmoqqa say' ko'rgazg'ilki, mol**

bilan boy bo'lg'andan aql bilan boy bo'lgan yaxshiroqdir, nedinkim aql bilan mol jam etsa bulo'r, ammo mol bilan aql o'rganib bo'lmas. Bilg'in aql bir moldurki, uni o'g'ri lolmas u o'tda yonmas, suvda oqmas».

Bu borada Respublikamizda yoshlarning bilim olish borasida katta imkoniyatlar mavjud. Bugungi kunda ular rivojlangan mamlakatlarda bilim olish imkoniyatlariga ega. Shuningdek, xalqaro olimpiada va spartakiadalarda hamda ko'rik tanlovlarida ularning qatnashishlariga keng imkoniyatlar yaratildi. Afsus va nadomatlar bo'lsinkim, hozirda yoshlar orasida **ma'naviy qashshoq** yoshlarimiz ham uchramoqda. Eng yomoni ular bu bilan o'zlarini aybdor sezishmaydi. Yoningizda pulingiz yo'q bo'lsa qanchalik uyalasiz, ular esa ma'naviy dunyosi qashshoqlashib borayotganligidan hych ham uyalmaydi.

Xullas, ham ma'nan, ham jismonan boy bo'lishga nima yetsin» [21. 114-117 b.].

Yuqoridagi keltirilgan manba va ma'lumotlarga asoslanib hamda barkamol avlod tarbiyasi oldiga qo'yayotgan davlatimiz talablarini e'tiborga olib, MTM dagi bolalar tarbiyasini yuksaltirishga bo'ladigan tavsiyalarni quyidagicha ifodalashni lozim topdik:

- ma'naviy qadriyatlarimizni ilm-fan taraqqiyoti yutuqlari bilan boyitib, ularning bolalar yoshlariga moslab, ular ongiga singdirib borish;
- o'zligimizni chuqur anglash, milliy mafkura tamoyillarini yoshlarimiz qalbi va ongiga singdirish;

Xullas, bolalarimizni turli xil taxdid va salbiy ta'sirlar domiga tushib qolmasligini ta'minlash va ularning ma'naviy ahloqiy tarbiyasiga e'tiborni yanada kuchliroq qaratish lozim. Shu ma'noda keltirilib o'tilgan didaktik materiallar bola tarbiyasida ta'sirchan vositalardir. Ularning har bir bo'yicha bitta tarbiyaviy mashg'ulot o'tkazsa bo'ladi. Bu bilan bolalarimizni ezgulik va bunyodkorlikka bezangan insonlar qilib tarbiyalashimiz mumkin.

XULOSA

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga ma'naviy – axloqiy tarbiya berish, xususan, ma'naviy – immunologik tarbiya berish yordamida yoshlarni ma'naviy yetuk va intellektual salohiyatli bo'lib shakllanishiga asosiy poydevor bo'la oladi. Bu orqali bolalardagi mafkuraviy immunitetni shakllantirishga erishiladi va uzluksiz ta'lim tizimining keyingi turlarida ham amalga oshiriladi. Ushbu jarayonda bolalar ma'naviy sifatlarni shakllantirish, ulardagi har xil illatlarga nafrat uyg'otishda mustaham asos bo'la oladi.

MTM pedagogik jamoa faoliyati ham bog'chadagi bolalarni ma'naviy yetuk qilib tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, MTMdagi «Ma'naviyat saboqlari» mashg'ulotlarini samarali tashkil etishda ularning kasbiy mahorati muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu «Ma'naviyatli odam kim», «Vatan qahramonlari, deb kimni aytamiz» va «Vatanimiz ramzlari» mavzulari bo'yicha olib borilgan mashg'ulotlarda yaqqol sezildi. Shularni e'tiborga olganda «Ma'naviyat saboqlari» mashg'ulotlarning namunaviy mavzulari va MTMda ma'naviy ishlar bo'yicha amalga oshiriladigan tadbirlar rejasi mazkur tadqiqot ishining ahamiyatini yanada oshiradi.

MTMda ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etish, uyushtirish va ularga tegishli tayyorlangan materiallar hamda ularga mos tarbiyachi va murabbiylarning metodik tayyorgarligi bog'chada ma'naviy tarbiya berishning pedagogik shart – sharoitlarining optimal variantini tanlab olishga imkon berdi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, agarda tarbiyachi va murabbiylar ushbu tadqiqotda erishgan yutuqlar bo'yicha faoliyat yuritishsa, bolalardagi shakllangan ahloqiy tasavvur (qarash, fikr yuritish, mulohaza, odoblilik, ezgulik, ahloqiy adolatlar, ahloqiy munobatlar) ahloqiy e'tiqodni yuksaltirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli MTMda ma'naviy – axloqiy tarbiya yaxlit pedagogik jarayondir. Unda bolalarning ijtimoiy ahloqiy va ijtimoiy huquqiy me'yorlariga ongli munosabati shakllantiriladi.

Demak, MTMda bolalarni yaqin atrofini o'rganishga, tengdoshlari bilan barqaror aloqalarni o'rnatishga, o'z – o'zini anglashga o'rgatish, ularning barkamol shaxs bo'lib yetishishida muhimdir. Bunda ahloqiy tarbiyani to'g'ri amalga oshirish Hazrati Ali ta'kidlaganidek tarbiyaning qo'yidagi tamoyiliga javob bera oladigan shaxsning tayyorlashga ma'naviy asos yaratgan bo'lami: «Kishidagi uchdan bir iymon – bu hayotdir; yana bir uchdan bir iymon aql, qolgan uchdan bir iymon esa – saxovat va oliyjanoblik bo'ladi».

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: «Sharq», 1997. – 64 b.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: «Ma’naviyat», 2008. – 176 b.
3. Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. – T.: «O‘zbekiston», 1996. – 366.
4. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: «O‘zbekiston», 2011 – 440 b.
5. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni // Oliy ta’lim. Me’yoriy – huquqiy va uslubiy hujjatlar to‘plami. – T.: «Istiqlol», 2004. – B. 3 - 8.
6. O‘zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» // Oliy ta’lim. Me’yoriy – huquqiy va uslubiy hujjatlar to‘plami. – T.: «Istiqlol», 2004. – B. 9 - 23.
7. Abdullayev M. va boshqa. Ma’naviyat. – Farg‘ona, 1999. – 220 b.
8. Alqarov I.Sh., Mamatqulova R., Norqulov H.D. Oila tarbiyasi asoslari. – T.: «G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi», 2009. – 142 b.
9. Jalolov A. Mustaqillik mas’uliyati. – T.: «O‘zbekiston», 1996. – 29 b.
10. Jo‘rayev N. Agar ogoh senPortretga chizgilar. Siyosiy esse / Mas’ul muharrir: K.Nermatov. – 2 – nashri, qayta ishlangan, to‘ldirilgan /. – T.: «Yozuvchi», 1998. - 272 b.
11. Ziyomammedov B., Ziyamuhamedova S., Qodirova S. Ma’naviyat asoslari. – T.: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. – 192 b.
12. Ibrohimov A va boshq. Vatan tuyg‘usi.–T.: «O‘zbekiston», 1996.–354 b.
13. Imomnazarov M. Milliy ma’naviyatimiz nazariyasiga chizgilar. – T.: «Sharq», 1998. – 66 – 70 b.
14. Kalonxonova M., Kalonxonova M. Qadriyatnoma. Risola. – T.: «Nihol», 2006. – 304 b.
15. Mashriqzamin – hikmat bo‘stoni: Hikmatlar xazinasi. Tarj., to‘plovchi hamda izoh mualliflari: H.Hamidiy va Mahmud Hasaniy. – T.: «Sharq», 2008. – 464 b.
16. Ma’naviyat va ma’rifat asoslari. Tuzuvchilar: S.O.Otamurodov va boshq. – T.: 1998. – 82 b.

17. Ma'naviyat lug'ati: «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushunchalar va tamoyillar» fani bo'yicha yordamchi uslubiy qo'llanma / tuzuvchi mualliflar: S.G'oziyev va boshq. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2007. – 128 b.

18. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati / Tahrir hayati: X.Sultonov va boshq., Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q.Nazarov. – T.: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiyot uyi, 2009. – 760 b.

19. Milliy g'urur – ma'naviy komillik mezon: (to'ldirilgan nashr) [Uslubiy qo'llanma] / Yu.G'.Mahmudov va boshq.; mas'ul muharrir Yu.G'.Mahmudov. – T.: DIZAYIN – PRESS, 2011. – 276 b.

20. Sodiqova T. Mehr qolur. – T.: «Mehnat», 1997 – 28 b.

21. To'raqulov X.A. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. – T.: 2011. – 352 b.

22. To'raqulova I.X. Talabalarning ma'naviy – immunologik tarbiyasini takomillashtirish texnologiyalari. Ped.fan.nom..... dissertasiya. – T.: 2011. – 214 b.

23. To'raqulova I.X. Oilada bolalarning ma'naviy sifatlarini tarbiyalash // «Ta'lim tizimida ijtimoiy – gumanitar fanlar». – T.: 2012. – № 2. – B. 15 – 17.

24. To'raqulova I.X. Sog'lom oila ma'naviyatining buzg'unchi g'oyalarga kurashishdagi o'rni // «Ta'lim muammolari». IMJ. – T.: 2012. – №3. B. 30 – 31.

25. O'zbekiston qahramonlari (to'plam). – T.: «O'zbekiston», 2001. – 480 b.

26. Hasanboyev J., To'raqulov X., Haydarov M., Hasanboyeva O. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – T.: «Fan va texnologiya», 2008. – 480 b.

27. Hasanboyev J. va boshq. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – T.: «Fan va texnologiya», 2009. – 672 b.

28. Hasanboyeva O.U. va boshq. Oilada barkamol avlod tarbiyasi. – T.: «Fan va texnologiya», 2010. – 316 b.

29. Erkayev A. Ma'naviyat – ustun yo'nalish // «Istiqlol va hisobot», 1996. - №2. – B. 20 – 22.

MUNDARIJA

KIRISH		3
I BOB	MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA BOLALARGA MA'NAVY TARBIYA BERISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI	6
1.1.	Maktabgacha ta'lim muassasalari va ularda bola tarbiyasining maqsad va vazifalari	6
1.2.	Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi pedagogik kasb xodimlarning shaxsiy xislatlari	8
1.3.	Maktabgacha ta'lim muassasalari bilan ota – onalar hamkorligi	11
1.4.	Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etishi	17
1.5.	Maktabgacha ta'lim muassasalarida qo'llaniladigan pedagogik ta'sir usullari	21
1.6.	Maktabgacha ta'lim muassasalarining pedagogik jamoasidagi uslubiyot ishlari	24
1.7.	Maktabgacha ta'lim muassasalari bolalarida ma'naviy sifatlarni tarbiyalashi	26
II BOB	MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA "MA'NAVIYAT SABOQLARI" MASHG'ULOTLARINI OLIB BORISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI	29
2.1.	Maktabgacha ta'lim muassasalarida "Ma'naviyat saboqlari" mashg'ulotlari	29
2.2.	Maktabgacha ta'lim muassasalarida olib boriladigan "Ma'naviyat saboqlari" mashg'ulotlarining namunaviy mavzulari	33
2.3.	Maktabgacha ta'lim muassasalarida "Ma'naviyat saboqlari" darslarini tashkil etish va uyushtirish	81
2.4.	Maktabgacha ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan tarbiyachi va murabbiylarning pedagogik mahoratiga qo'yilgan talablar	84
2.5.	2.5. "Ma'naviyat saboqlari" darslariga metodik tayyorgarlik	91
III BOB	MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA "MA'NAVIYAT SABOQLARI" MASHG'ULOTLARINI OLIB BORISH AMALIYOTI	98
3.1.	"Ma'naviyatli odam kiu?" mavzusi bo'yicha "Ma'naviyat saboqlari" mashg'ulotini olib borish texnologiyasi	98
3.2.	"Vatan qalramonlari, deb kinni aytamiz?" mavzusi bo'yicha "Ma'naviyat saboqlari" mashg'ulotlarini olib borish texnologiyasi	112
3.3.	"Vatanimiz ramzlari" mavzusidagi "Ma'naviyat saboqlari" mashg'ulotini olib borish texnologiyasi	129
3.4.	Maktabgacha ta'lim muassasasida ma'naviy ishlar bo'yicha amalga oshiriladigan tadbirlar rejasini tuzish metodikasi	135
3.5.	Maktabgacha ta'lim muassasalarida "Ma'naviyat saboqlari" mashg'ulotlarini olib borishga oid didaktik materiallar	139
3.5.1.	Tarbiyaviy masalalar tuzish va uning yechimi tahliliga oid didaktik materiallar	140
3.5.2.	"Ma'naviyat saboqlari" bo'yicha baxslar o'tkazishga oid didaktik materiallar	146
3.5.3.	"Ma'naviyat saboqlari" mashg'ulotlarida bolalarda illatlarga nafat uyg'otishga oid didaktik materiallar	151
3.5.4.	"Ma'naviyat saboqlari" mashg'ulotlarida insoniylik fazilatlarini shakllantirishga oid didaktik ma'lumotlar	160
XULOSA		176
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI		177

I.X.TO'RAQULOVA

**MAKTABGACHA TA'LIM
MUASSASALARIDA
MA'NAVIY - MA'RIFIY ISHLAR**


Toshkent – «Fan va texnologiya» – 2013

Muharrir:	M.Hayitova
Tex. muharrir:	M.Holmuhamedov
Musavvir:	H.G'ulomov
Musahhih:	F.Ismoilova
Kompyuterda sahifalovchi:	N.Hasanova

Nasr.lits. ALN^o149, 14.08.09. Bosishga ruxsat etildi 27.02.2013.
Bichimi 60x84 ¹/₁₆. «Timez UZ» garniturası. Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 11,75. Nashriyot bosma tabog'i 11,25.
Tiraji 500. Buyurtma № 22.

«Fan va texnologiyalar Markazining
bosmaxonasi» da chop etildi.
100066, Toshkent sh., Olmazor ko'chasi, 171-yu.

ISBN 978-9943-10-856-1



9 789943 108561